

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA  
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

A.R. Xodjaboyev, I.A. Xusanov, U.N. Nishonaliyev

**KASBIY TA‘LIM METODOLOGIYASI**

O‘QUV QO‘LLANMA

TOSHKENT – 2006

Mualliflar: professor A.R. Xodjaboev, dotsent I.A. Xusanov, professor U.N. Nishonaliev,

Mazkur o‘quv qo‘llanma Oliy o‘quv yurtlarining magistratura 5A 140901 – kasb ta‘limi (sohalar bo‘yicha) 5A 14200 – Kasb ta‘limi (sohalar bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha tahsil olayotgan “Kasb ta‘limi” fakulteti talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, qo‘llanmada talabalarning “Kasb ta‘limining metodologik asoslaridan egallashi lozim bo‘lgan bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarning minimumini egallashi uchun zaruriy bilimlar majmuasi berilgan.

Ushbu qo‘llanma ta‘lim sohasidagi islohotlar, kasb-ta‘limi va uni amalga oshirayotgan pedagog kadrlarga qo‘yiladigan zamonaviy talablarni hisobga olgan holda amalga oshirilgan qo‘llanmadan o‘rta maxsus, kasb hunar tizimida faoliyat ko‘rsatuvchi pedagog kadrlar, uslubchilar, aspirantlar va taqiqotchilar foydalanishlari mumkin.

Taqrizchilar:

p.f.d., prof. E.T. CHoriev

p.f.n., dots. N.A. Muslimov

p.f.n., dots. SH.S. SHaripov

Qo‘llanma Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi Oliy o‘quv yurtlaridagi ilmiy-pedagogik birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengashning “ta‘limi” ilmiy birlashmasining 2006 yil «\_\_\_» «\_\_\_\_\_» dagi sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

©O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi tizimi kadrlari malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash instituti qoshidagi bosmaxona

## KIRISH

Ma'luki, tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1-chaqiriq IX-sessiyasida I.A. Karimov hayotimizni hal qiluvchi muhim masalalar qatorida ta'lim-tarbiya tizimini tubdan o'zgartirish, uni zamon darajasiga ko'tarish, barkamol avlodimiz kelajagiga dahldor qonunlar loyihasi ustida batafsil to'xtalib o'tdi. Mustaqil respublikamiz rivoji, taraqqiy etishi eng ilg'or davlatlar safida bo'lishi uchun ya'ni bugungi jamiyatimiz oldiga qo'ygan buyuk maqsadlarga ezgu niyatlarga erishish, jamiyatimizni yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqbolli amalga oshirilayotgan islohotlar taqdiri ko'p jihatdan zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog'liq.

Shuning uchun "Ta'lim to'g'risida" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari hamda Vazirlar Mahkamasining 4 oktyabr 2001 yildagi "O'rta maxsus, kasb-hunar talimi muassasalari uchun pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 400-sonli qarorlarini bajarilishini ta'minlash ko'p jihatdan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv muassasalari uchun pedagog, muhandis-pedagoglarni tayyorlash, malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimida ta'lim mazmunini yangilash, chuqurlashtirish, o'quv-tarbiyaviy jarayonini zamonaviy pedagogik-axborot texnologiyalari asosida tashkil etish, unda faol ta'lim usullarini qo'llash, o'quv-uslubiy majmualar bilan ta'minlash, masofaviy ta'limni tashkil etish va boshqalarga bog'liqdir.

Hozirgi davrda Respublikamiz Oliy o'quv muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan ko'pchilik kasb ta'limi fakultetlarida o'quv uslubiy faoliyatni amalga oshirish bo'yicha ma'lum ishlar amalga oshirilmoqda, ya'ni o'quv dasturlari, uslubiy ko'llanmalar, darsliklar, ma'ruza matnlari ishlab chiqilmoqda. Bu amalga oshirilayotgan ishlar mutaxassislarni tayyorlash sifatini boshqarishga majmuaviy yondoshishga asos bo'ladi. Biroq, bu amalga oshirilgan ishlar "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" tomonidan bo'lajak kasb-hunar ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashga qo'yilgan talablarni qondiraolmaydi. Chunki, o'quv-uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish va yangilashda ular mazmunini davlat ta'lim standartlari talablarini bajarishga qaratish, ular tarkibiga fan, texnika, madaniyat, ilg'or ishlab chiqarish, pedagogik tajribalar yutuqlarini kiritish bilan birgalikda umumiy o'rta ta'lim maktab, kasb-hunar ta'limi o'quv muassasalari, ish beruvchilar, bozor iqtisodiyot talablariga javob berishlarini ta'minlashdek murakkab vazifalar turibdi.

"Kasb ta'limining metodologik asoslari" kursining maqsadi, bo'lajak mutaxassislarni "Ta'lim to'g'risida" gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" da belgilangan vazifalar hamda Davlat ta'lim standartlarida qo'yilgan talablar darajasida kasbiy ta'limning nazariy va uslubiy asoslari bilan izchil qurollantirishdan iborat.

"Kasb ta'limining metodologik asoslari" fani bo'yicha magistr talabalar:

- O'zbekistonda kasb-hunar ta'limi tarixi va rivojlanish istiqbollari; kasb-hunar ta'limining asosiy tushunchalari va ta'riflari; ishlab chiqarish va nazariy ta'limning metodologik asoslari; o'qitish usullari; o'qitishni tashkil qilish shakllari,

tipologiyasi; Davlat ta'lim standartlari (DTS); o'quv rejalari va dasturlarini ishlab chiqishga qo'yiladigan talablar; o'quv jarayonida fanlararo aloqadorligini qo'llash; ishlab chiqarish rejalari tuzish; ishlab chiqarish amaliyotini tashkil qilish va o'tkazish; o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash usullari; muhandis – pedagoglarning ta'lim-tarbiyadagi o'rni; ochiq darslarni rejalashtirish va tashkil qilish; kasblarga bo'lgan qiziqishlarni shakllantirishda ilg'or ishlab chiqarish tajribalarining o'rni; o'quv muassasalarining o'quv ishlab chiqarish bazalarini tashkil qilish asoslari haqidagi bilimlarga ega bo'lish;

- Kasb – hunar ta'limidagi asosiy tushunchalar va ta'riflarni; kasbiy ta'limning tashkiliy shakllari; o'qitish usullari; DTS larini ishlab chiqish asosiy qoidalarini; o'quv rejalari mazmunini; o'quv reja va dasturlarni ishlab chiqishga qo'yiladigan talablarni; ishlab chiqarish ta'limi usullarini; kasblar bo'yicha ishlab chiqarish ishlari ruyxatini tuzishni; ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish va o'tkazish metodikasini; bilim, ko'nikma va malakalarni baholash usullarini; ishlab chiqarish ta'limi ustasining o'rni va ahamiyati; uslubiy ishlar mazmunini; ilg'or pedagogik tajribalarni tahlil etish va umumlashtirish usullarini; o'qitish vositalari klassifikatsiyasini; o'quv kabinetlari, laboratoriyalar, o'quv ustaxonalarini o'qitish vositalari bilan jihozlash uslublarini bilishlari va qo'llay olishlari;

- O'qitish usullarini tanlash; DTS lari, rejalari va dasturlar mazmunini tahlil etish; o'quv predmetlari mazmunida fanlararo aloqalarni o'rnatish; nazariy va ishlab chiqarish ta'limi rejalari tuzish; istiqbolli – tematik rejalarni ishlab chiqish; ishlab chiqarish amaliyoti reja va dasturlarni ishlab chiqish; o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash; nazariy va ishlab chiqarish ta'limi asoslarini tahlil etish; uslubiy ishlar rejasini tuzish; ochiq darslarni tahlil va muhokama qilish; o'quv kabinetlari, laboratoriyalar va ishlab chiqarish ustaxonalarini jihozlash rejasini tuzish bo'yicha tajribaga ega bo'lishlari zarur.

“Kasb ta'limining metodologik asoslari” kursi pedagogika, psixologiya, falsafa, pedagogik mahorat, kasbiy ta'lim pedagogikasi, kasb ta'limi metodikasi, kasb ta'limida yangi pedagogik texnologiyalar, maxsus fanlarni o'qitish metodikasi, mehnat va muhandislik psixologiyasi, axborotlar texnologiyasi va boshqa fanlar bilan uzviy bog'liqdir.

Ta'lim jarayonida talabalarga berilayotgan bilim ko'nikma va malakalar chuqurroq, puxtaroq o'zlashtirilishi uchun yangi pedagogik texnologiyalar, ta'limning texnik vositalari: multimediyalar, kompyuterlar, kino-diaproektlar, kino-video uskunalardan foydalanish maqsadga muvofiq.

## **I – BOB. KASB TA'LIMINI AMALGA OSHIRISH ASOSLARI**

### **§ 1.1. O'zbekistonda ta'lim islohotlari, kasb-hunar ta'limini rivojlantirish istiqbollari**

#### **Kadrlar tayyorlash milliy dasturining maqsadi va vazifalari**

«Kadrlar tayyorlash milli dasturi» «Ta'lim to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalariga muvofiq holda milliy tajribaning tahlili va ta'lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlari asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faolikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgandir.

Mazkur dasturning maqsadi – ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va ahloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdir.

**Ushbu maqsadni ro'yobga chiqarish qo'yidagi vazifalar hal etilishini nazarda tutadi:**

- «Ta'lim to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq ta'lim tizimini isloh qilish, davlat va nodavlat ta'lim muassasalari hamda ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida raqobat muhitini shakllantirish negizida ta'lim tizimini yagona o'quv-ilmiy-ishlab chiqarish majmui sifatida izchil rivojlantirishni ta'minlash;
- ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanish, rivojlangan demokratik huquqiy davlat qurilishi jarayoniga moslash;
- kadrlar tayyorlash tizimi muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, pedagogik faoliyatning nufuzi va ijtimoiy maqomini ko'tarish;
- kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollariidan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish;
- ta'lim oluvchilarni mam'naviy-ahloqiy tarbiyalashning va ma'rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqish va joriy etish;
- ta'lim va kadrlar tayyorlash, ta'lim muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish va akkreditatsiya qilish sifatiga baho berishning xolis tizimini joriy qilish;
- yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda ta'limning talab qilinadigan darajasi va sifatini, kadrlar tayyorlash tizimining amalda faoliyat ko'rsatishi va barqaror rivojlanishining kafolatlarini, ustuvorligini ta'minlovchi normativ, moddiy-texnika va axborot bazasini yaratish;
- ta'lim, fan va ishlab chiqarish samarali integratsiyalashuvini ta'minlash, tayyorlanayotgan kadrlarning miqdori va sifatiga nisbatan davlatning

talablarini, shuningdek nodavlat tuzilmalari, korxonalar va tashkilotlarning buyurtmalarini shakllantirishning mexanizmlarini ishlab chiqish;

- uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimiga byudjetdan tashqari mamblag'lar, shu jumladan chet-el investitsiyalari jalb etishning real mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;
- kadrlar tayyorlash sohasida o'zaro mamfaatli xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

Milliy dasturning maqsad va vazifalari bosqichma-bosqich ro'yobga chiqariladi.

**Birinchi bosqich (1997-2001 yillar)** – mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ijobiy qilish va rivojlantirish uchun xuquqiy, kadrlar jihatidan, ilmiy-uslubiy, moliyaviy-moddiy shart-sharoitlar yaratish.

Birinchi bosqich bajarilishining monitoringi asosida Milliy dasturni ro'yobga chiqarish yo'nalishlariga aniqliklar kiritiladi.

**Ikkinchi bosqich (2001-2005 yillar)** – Milliy dasturni to'liq ro'yobga chiqarish, mehnat bozorining rivojlanishi va real ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda unga aniqliklar kiritiladi hamda;

- Majburiy umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limiga, shuningdek o'quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga qarab, tabaqalashtirilgan ta'limga o'tish to'liq amalga oshiriladi;
- Ta'lim muassasalarini maxsus tayyorlangan malakali pedagog kadrlar bilan to'ldirish ta'minlanadi, ularning faoliyatida raqobatga asoslangan muhit vujudga keltiriladi;
- Ta'lim muassasalarining moddiy-texnika va axborot bazasini mustahkamlash davom ettiriladi, o'quv-tajriba jarayoni yuqori sifatli o'quv adabiyotlari va ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlanadi, ularning faoliyatida raqobatga asoslangan muhit vujudga keltiriladi;
- Ta'lim muassasalarining moddiy-texnika va axborot bazasini mustahkamlash davom ettiriladi, o'quv-tarbiya jarayoni yuqori sifatli o'quv adabiyotlari va ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlanadi. Uzluksiz ta'lim tizimini axborotlashtirish amalga oshiriladi;
- Ta'lim xizmati ko'rsatish bozorini shakllantirish mexanizmlari to'liq ishga solinadi.

**Uchinchi bosqich (2005 va undan keyingi yillar)**-to'plangan tajribani tahlil etish va umumlashtirish asosida, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollari muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish.

Bu bosqichda ta'lim muassasalarining resurs, kadrlar va axborot bazalari yanada mustahkamlanadi, o'quv-tarbiya jarayoni yangi o'quv-uslubiy majmualar, ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan to'liq ta'minlanadi. Milliy (elita) oliy ta'lim muassasalarini qaror toptirish va rivojlantirish amalga oshiriladi. Kasb-hunar ta'limi muassasalarining mustaqil faoliyat yuritishi va o'zini o'zi boshqarishi shakllari mustahkamlanadi. Ta'lim jarayonini axborotlashtirish, uzluksiz ta'lim

tizimi jahon axborot tarmog'iga ulanadigan kompyuter axborot tarmog'i bilan to'liq qamrab olinadi.

### **Kadrlar tayyorlash milliy dasturi mohiyati**

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini mohiyatini anglash uchun bu – dasturni qabul qilishga qanday sabab va oqibatlar turtki bo'lganligini qarab chiqmog'imiz, 1997-yilgacha mavjud bo'lgan eski ta'lim-tarbiya tizimining kamchiliklari va muammolarini tahlil qilib ko'rmog'imiz kerak. Eski kadrlar tayyorlash tizimining kamchilik va muammolari quyidagilardan iborat edi:

- kadrlar tayyorlash tizimining demokratik o'zgarishlar va bozor islohotlarini talablariga muvofiq emasligi;
- o'quv jarayonining moddiy-texnika va axborot bazasi etarli emasligi, yuqori malakali pedagog kadrlarning etishmasligi;
- sifatli o'quv-uslubiy va ilmiy adabiyot hamda didaktik materiallarning kamligi;
- ta'lim tizimi, fan va ishlab chiqarish o'rtasida puxta o'zaro hamkorlik va o'zaro foydali integratsiyaning yo'qligi.
- ta'lim tarbiya va o'quv jarayonlarining tarkibi, bosqichlarini bir-biri bilan uzviy bog'lash, ya'ni uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimini tashkil qilish muammolari hal qilingan emas.
- amaldagi ta'lim tizimi zamonaviy, taraqqiyot topgan demokratik davlatlar talablariga javob bera olmayotganligi;
- mutaxassislar tayyorlash, ta'lim-tarbiya tizimi jamiyatda bo'layotgan islohot, yangilanish jarayonlari talablari bilan bog'lanmaganligi;

Yuqoridagi kamchilik va muammolarni hal qilishni ko'zda tutgan quyidagi omillar mavjud kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilishga turtki bo'ldi:

- Respublikaning demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurish yo'lidan izchil ilgarilab borayotganligi;
- mamlakat iqtisodiyotida tub o'zgartirishlarning amalga oshirilishi, respublika iqtisodiyoti asosan xom ashyo yo'nalishidan raqobatbardosh pirovard mahsulot ishlab chiqarish yo'liga izchil o'tayotganligi, mamlakat eksport salohiyatining kengayotganligi;
- davlat ijtimoiy siyosatida shaxs manfaati va ta'lim ustuvorligi qaror topganligi;
- milliy o'zlikni anglashning o'sib borishi, vatanparvarlik, o'z vatani uchun iftixor tuyg'usining shakllanayotganligi, boy milliy madaniy-tarixiy an'analarga va xalqimizning intellektual merosiga hurmat;
- O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyasi, respublikaning jahondagi mavqei va obro'-e'tiborining mustahkamlanib borayotganligi.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» haqida hukumat darajasidagi bu fikrni O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov Vazirlar Mahkamasining «O'zbekistonning 1996-yildagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti yakunlari hamda 1997-yildagi iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlari» ga bag'ishlangan maajlisidagi nutqida bayon etdi:

«1997-yilda biz yaxshi, zamonaviy talablarga javob beradigan kadrlar tayyorlash masalasiga alohida e'tibor berishimiz kerak.

Ta'lim tizimi tubdan qayta ko'rib chiqish vaqti etdi, professional bilimlarni egallash imkoniyatlarini kengaytirish, mama'mur-menejerlarni tayyorlashni yo'lga qo'yish, yangi sharoitlarda, yangi zamonaviy texnologiyalarda ishlashga qobil ishchi va mutaxassislarni tayyorlashni yo'lga qo'yish lozim.

Biz bugun shunga tayyormizmi? Buning uchun zarur kuch va resurslarimiz bormi?

Mana shu minbardan turib, qat'iy aytamanki, ha O'zbekiston ana shunday kuch-quvvat va resurslarga ega» («Ma'rifat» gazetasi, 1997 yil 1 mart).

### **Kadrlar tayyorlash miliy modelining tarkibiy qismlari**

Ular quyidagilardan iborat: shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan va ishlab chiqarish.

**Shaxs**-kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi;

**Davlat va jamiyat** – ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularni qabul olishning kafillari;

**Uzluksiz ta'lim** – malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limining barcha turlarini, davlat ta'lim standartlarining kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi;

**Fan** – yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiquvchi;

**Ishlab chiqarish** - kadrlarga bo'lgan ehtiyojini, shuningdek ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moddiy-texnika jihatidan ta'minlash jarayonining qatnashchisi.




Davlat va jamiyat uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimi barcha uchun ochiq bo'lishini va hayot o'garishlariga moslanuvchiligini ta'minlaydi.

### **Uzluksiz ta'limning mohiyati**

Uzluksiz ta'lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi, O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor sohadir.

Uzluksiz ta'lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar ildam tayyorlashnishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi.

Uzluksiz ta'lim tiziminin faoliyat olib borishi davlat ta'lim standartlari asosida, turli daraalardagi ta'lim dasturlarining izchilligi asosida ta'minlanadi va quyidagi ta'lim turlarini o'z ichiga oladi:

-  maktabgacha ta'lim;
-  umumiy o'rta ta'lim;
-  o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi;



- ✚ oliy ta'lim;
- ✚ oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim;
- ✚ kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;
- ✚ maktabdan tashqari ta'lim.

### **Maktabgacha ta'lim**

Maktabgacha ta'lim bola sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlaydi, unda o'qishga intilish hissini uyg'otadi, uni muntazam ta'lim olishga tayyorlaydi.

### **Umumiy o'rta ta'lim**

To'qqiz yillik (I-IX sinflar) o'qishdan iborat umumiy o'rta ta'lim majburiydir. Ta'limning bir turi boshlang'ich ta'limni (I-IV sinflar) qamrab oladi hamda o'quvchilarning fanlar asoslari bo'yicha muntazam bilim olishlarini, ularda bilim o'zlashtirish ehtiyojini, asosiy o'quv-ilmiiy va umummadaniy bilimlarni, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-ahloqiy fazilatlarni, mehnat ko'nikmalarini, ijodiy fikrlash va atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lishni va kasb tanlashni shakllantiradi. Umumiy o'rta ta'lim tugallanganidan keyin ta'lim fanlari va ular bo'yicha olingan baholar ko'rsatilgan holda davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi attestat beriladi.

### **O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi**

Umumiy o'rta ta'lim negizida muddati uch yil bo'lgan majburiy o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi uzluksiz ta'lim tizimidagi mustaqil turdir. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishi – akademik litsey yoki kasb-hunar kolleji o'quvchilar tomonidan ixtiyoriy tanlanadi.

**Akademiy litsey** – davlat ta'lim standartiga muvofiq o'rta maxsus ta'lim beradi. O'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual kasbga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi.

**Kasb-hunar kolleji** - tegishli davlat ta'lim standartlari doirasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi beradi; o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantirish, tanlab olingan kasb-hunar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisosni egallash imkonini beradi.

### **Oliy ta'lim**

Oliy ta'lim o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi negeziga asoslanadi hamda ikki (bakalavriat va magistratura) bosqichga ega.

Oliy ta'lim muassasalariga talablar qabul qilish davlat grantlari negezida va pullik-shartnomaviy asosda amalga oshiriladi.

**Bakalavriat** - mutaxassisliklar yo'nalishi bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta'lim muddati kamida to'rt yil davom etadigan tayanch oliy ta'limdir.

**Magistratura** – aniq mutaxassislik bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriat negizida ta'lim muddati kamida ikki yil davom etadigan oliy ta'limdir.

### **Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim**

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim jamiyatning oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga, shaxsning ijobiy ta'lim-kasb-hunar manfaatlarini qanoatlantirishga qaratilgan.

### **Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash**

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash mutaxassislarning kasb bilimlari va ko'nikmalarini yangilash hamda chuqurlashtirishga qaratilgan. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta'lim muassasalaridagi o'qish natijalariga ko'ra davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi guvohnoma yoki sertifikat topshiriladi.

### **Maktabdan tashqari ta'lim**

Bolalar va o'smirlarning ta'limga bo'lgan, yakka tartibdagi, ortib boruvchi talab ehtiyojlarini qondirish, ularning bo'sh vaqtini va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, jamoat tashkilotlari, shuningdek boshqa yuridik va jismoniy shaxslar madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo'nalishlarda maktabdan tashqari davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini tashkil etadilar.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining o'ziga xos xususiyati mustaqil ravishdagi to'qqiz yillik umumiy o'rta hamda uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini joriy etishdan iboratdir. Bu esa, umumiy ta'lim dasturlaridan o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi dasturlariga izchil o'tilishining ta'minlaydi.

Umumiy ta'lim dasturlari: maktabgacha ta'lim boshlang'ich ta'lim (I-IV sinflar), umumiy o'rta ta'lim (I-IX sinflar), o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini qamrab oladi.

Kasb-hunar ta'limi dasturlari o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy (bakalavriat, magistratura) ta'lim va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlashni qamrab oladi.

### **O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi mazmuni**

Umumiy o'rta ta'lim negizida o'qish muddati uch yil bo'lgan majburiy o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi uzluksiz ta'lim tizimidagi mustaqil turdir. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishi – akademik litsey va kasb-hunar kolleji o'quvchilar tomonidan ixtiyoriy tanlanadi.

**Akademik litsey** davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'rta maxsus ta'lim beradi. O'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishi chuqur, sohashtirilgan, tabaqalashtirilgan, kasbga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi.

**Kasb-hunar kolleji** tegishli davlat ta'lim standartlari doirasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi beradi; o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va

ko'nikmalarini chuqur rivojlantirish, tanlab olingan kasb-hunar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisosni egallash imkonini beradi.

Kasb-hunar kollejlari jihozlanganlik darajasi, pedagogik tarkibini tanlanganligi, o'quv jaaryoniining tashkil etilish jihatidan yangi tipdagi ta'lim muassasalari hisoblanadi. Ular bir yoki bir necha zamonaviy kasb-hunarni egallash hamda tegishli o'quv fanlaridan chuqur nazariy bilimi olish imkonini beradi.

Akademik litselar va kasb-hunar kollejlarida ta'lim olish o'quvchilarga o'z bilimlarini chuqurlashtirish va tanlagan ixtisosliklarga ega bo'lishini ta'minlaydi.

### **Kasb-hunar kollejlari va ularning tayyorlov sohalari**

Ma'lumki, iqtisodiyotning barcha sohalarini rivojlanib borishini e'tiborga olgan holda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini tayyorlov yo'nalishlari va ixtisosliklar, tasniflariga binoan kasb-hunar ta'limi tizimida ta'lim; **gumanitar fanlar va san'at; ijtimoiy fanlar, biznes va xuquq; fan; muhandislik, ishlov berish va qurilish tarmoqlari; qishloq xo'jaligi; sog'liqni saqlash va jtimoiy ta'minot va xizmatlar kabi 8 ta bilim sohasi bo'yicha 300 dan ortiq tayyorlov yo'nalishlari uchun kichik mutaxassislar tayyorlash amalga oshirilmadi.**

### **Kasb-hunar kollejlarini tashkil etish va rivojlantirish shart-sharoitlari**

Kasb-hunar kollejlarini tashkil etish va rivojlantirish shart-sharoitlari quyidagilardan iborat:

- Kasb-hunar kollejlari faoliyat ko'rsatishining me'yoriy asoslarini takomillashtirish va joriy etish;
- Kasb-hunar kollejlari uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash va qayta tayyorlash;
- Davlat standartlarini ishlab chiqish va joriy etish;
- Kasb-hunar kollejlari uchun umuta'lim va kasb-hunar dasturlari, o'quv-uslubiy majmualar ishlab chiqish;
- Geografik-demokratik sharoitlar va mutaxassislarga bo'lgan mahalliy ehtiyojlari hisobga olib kasb-hunar kollejlarini tashkil etish va ularni oqilona joylashtirish, ularga o'quvchilarni imkon qadar oilasidan ajratmay qamrab olish;
- Kasb-hunar kollejlarining moddiy-texnika va axborot bazasini mustahkamlash va boshqalar.

### **Kadrlar tayyorlash milily dasturida II bosqichida kasb-hunar ta'limi rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari**

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlariga:

- Kasb-hunar ta'limining uzluksizligini ta'minlash;
- Kasb-hunar ta'limi uchun pedagogik va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- Kasb-hunar ta'lim jarayonini mazmunan isloh qilish va takomillashtirish;
- Kasb-hunar ta'limida samarali ma'naviy-axloqiy tarbiya va ma'rifiy ishlashni amalga oshirish;

- Kasb-hunar ta'limida iqtidorli bolalar va iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash;
- Kasb-hunar ta'limi tizimini oqilona boshqarish;
- Kasb-hunar ta'limi sifatini nazorat qilish tizimini shakllantirish;
- Kasb-hunar ta'limi tizimini yetarlicha moliyalash;
- Kasb-hunar ta'limining moddiy-texnika ta'minotini yaratish;
- Kasb-hunar ta'limi tizimining yaxlit axborot makonini vujudga keltirish;
- Kasb-hunar ta'limi xizmati ko'rstaish bozorini rivojlantirish;
- Kasb-hunar ta'limining ijtimoiy kafolatlarini ta'minlash hamda bu sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash;
- Fan bilan kasb-hunar ta'limi jarayoni aloqadorligini rivojlantirish;
- Ishlab chiqarish va kasb-hunar ta'limi integratsiyasini rivojlantirish;
- Kasb-hunar ta'limi va kadrlar tayyorlash sohasidagi xalqaro hamkorlik kabi muammolar kiradi.

### **Adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni. T.: 1997. y.
2. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". T.: 1997 y.
3. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. 29-avgust 1997 y.
4. Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 13 – may "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini tashkil etish chora-tadbirlari" 204 sonli qarori.
5. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tayyorlov yo'nalishlari kasb va ixtisosliklar umumdavlattasniiflagichi. -T.: 2004.

## §1.2. Uzluksiz ta'limni standartlashtirish asoslari

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilingandan keyin uni amalga oshirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining birinchilar qatorida qabul qilgan qarori 1998-yil 5-yanvardagi «Uzluksiz ta'lim tizimi uchun davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to'g'risida» gi 5 sonli qaroridir.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunning 7-moddasiga, Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq respublikada idoraviy bo'ysunishi va mulkchilik shakllaridan qat'i nazar ta'lim muassasalarining barcha turlari uchun majburiy bo'lgan davlat ta'lim standartlari (DTS) belgilanadi.

DTS kadrlar tayyorlash sifatiga, ta'lim mazmuniga nisbatan qo'yiladigan talablarni; ta'lim oluvchilar tayyorgarligining zarur va etarlicha darajasini hamda ta'lim muassasalarini bitiruvchilarga nisbatan qo'yiladigan malaka talablarini; o'quv yuklamasining zarur hajmini; ta'lim muassasalari faoliyatini va kadrlar tayyorlash sifatini baholash tartibi va mexanizmini belgilaydi.

DTS ta'lim jarayonini va ta'lim muassasalari faoliyatini baholashni tartibga soluvchi boshqa me'yoriy hujjatlarni yaratish uchun asos hisoblanadi.

**Davlat ta'lim standartlarining maqsad va vazifalari.** Davlat ta'lim standartlari joriy etilishi quyidagi maqsadlar amalga oshirilishini nazarda tutadi:

- ta'limning yuksak sifatini hamda mamlakatda amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar, rivojlangan demokratik davlat barpo etish talablariga javob beruvchi kadrlar tayyorlanishini ta'minlash;
- mamlakatning ijtimoiy va ijtimoiy taraqqiyoti istiqbollardan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqib kadrlar tayyorlash mazmunini tartibga solish;
- ta'limning demokratiyalashuvi, insonparvarlashuvi va ijtimoiylashuvi, ta'lim oluvchilarning huquqiy iqtisodiy bilimlari darajasini, shuningdek ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish;
- sifatli ta'lim xizmatlarini ko'rsatish, ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida shaxsning, jamiyat va davlatning manfaatlarini himoya qilish;
- kadrlar tayyorlash sifatini va ta'lim faoliyatini baholash mezonlarini va tartibini belgilash;
- ta'lim jarayoni va kadrlar tayyorlashning izchilligi va uzluksizligini ta'minlash, ta'limning barcha turlari va bosqichlarida o'quv-tarbiya jarayonini maqbullashtirish;
- mehnat va ta'lim xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni ta'minlash;

### **Davlat ta'lim standartlarining vazifalari:**

- ta'lim sifatiga va kadrlar tayyorlashga, ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari nomenklaturasiga nisbatan qo'yiladigan maqbul talablarni belgilash;
- ta'limga va uning pirovard natijalariga, ta'lim oluvchilarning bilimi va kasbiy malakasi darajasini vaqti-vaqti bilan baholash tartibi va tartibotiga, shuningdek ta'lim faoliyati sifati ustidan nazorat qilishga nisbatan qo'yiladigan tegishli talablarni belgilovchi me'yoriy bazani yaratish;

- xalqning boy ma'naviy merosi va umuminsoniy qadriyatlar asosida ta'lim oluvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;
- ta'limning barcha turlarida ular mazmunini hamda olib boriladigan ta'lim va tarbiyani kelishib olish ularning o'zaro bog'liqligini, uzluksiz ta'lim tizimida va kadrlar tayyorlashda izchillikni ta'minlash;
- o'quv-tarbiya va ta'lim jarayoniga, uzluksiz ta'lim tizimining pedagogik texnologiyalariga va axborot bilan ta'minlanishiga, ta'lim darajasini nazorat qilishga, ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilar va ularni bitiruvchilarning malakasiga nisbatan me'yorlar va talablarni belgilash;
- ta'lim va kadrlar tayyorlash sifatiga baho berishning holis tizimini, ta'lim muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish va akkreditatsiya qilishni joriy etish;
- kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlash;
- milliy standartlar talabining ta'lim sifati va kadrlar tayyorlashga nisbatan xalqaro talablarga muvofiqligini ta'minlash;

**Ta'limning standartlashtiriladigan turlari.** DTS-ta'limning quyidagi turlari uchun belgilanadi:

- *Umumiy o'rta ta'lim, shu jumladan boshlang'ich ta'lim;*
- *O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi (akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari);*
- *oliy ta'lim (bakalavriat, magistratura).*

Maktabgacha, maktabdan tashqari, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash uchun davlat boshqaruvining vakolatli organlari tomonidan davlat talablari belgilanadi.

**Ta'limning standartlashtirish ob'ektlari.** Quyidagilar ta'limning standartlashtirish ob'ektlari hisoblanadi:

- *Ta'lim fanlarining tuzilmasi, mazmuni, o'quv yuklamasi hajmi, ta'lim oluvchilar va bitiruvchilarning malaka darajasi va tayyorlash sifati;*
- *Talablar, me'yorlar va qoidalar, pedagogik va axborot texnologiyalari, ta'lim usullari va vositalari, shuningdek ta'lim tizimida foydalaniladigan atamalar, tushunchalar va kategoriyalar;*
- *Ta'lim oluvchilar bilim darajasiga va kasbiy malakasiga tashxis qo'yish tartibi, bitiruvchilar sifatini, ta'lim faoliyati, pedagog va ilmiy-pedagog xodimlar sifatini baholash.*

**Davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqishga qo'yiladigan talablar** Quyidagilar DTS ishlab chiqishga qo'yiladigan asosiy talablar hisoblanadi:

- *Kadrlar tayyorlash milliy dasturlari maqsadlari, vazifalari va qoidalari so'zsiz amalga oshirilishiga qaratilganlik;*
- *Ta'lim va kasb-hunar dasturlarida milliy mustaqillik, demokratiya, boy milliy madaniy an'analar, xalqning intellektual imkoniyatlari va umuminsoniy qadriyatlar tamoyillarini hisobga olish;*

- *Ta'lim oluvchilarda chuqur bilim, mustaqil fikrlash, yuksak kasbiy malaka shakllanishini ta'minlash;*
- *Xalqaro tajriba, texnika, texnologiyalar, fan rivojlanishi darajasi, kadrlar tayyorlashga nisbatan amaliyot tomonidan qo'yiladigan talablar hisobga olingan holda ta'lim standartlarining ilmiy asoslanishi;*
- *Ta'lim turlari va bosqichlari bo'yicha standartlarning kelishilganligi va izchilligi, shaxsning har tomonlama rivojlanishini hisobga olgan holda ularning mujassamligini ta'minlash;*
- *O'quv yuklamasi maqbulligiga qaratilganlik, ta'lim oluvchilarning qobiliyatlari va ehtiyojlariga bog'liq ravishda ta'limning tabaqalashtirish imkoniyatlarini hisobga olish;*
- *Ta'lim oluvchilar va bitiruvchilarni tayyorlash, ta'lim faoliyatining sifatini baholash mezonlari va tartibotini belgilash;*
- *Standartning texnologikligi-uning bajarilishini nazorat qilish va uning me'yorlari va talablari buzilishining oldini olish imkoniyati;*
- *Standartlarga tajribada tekshiruvdan o'tgan ta'lim faoliyatining ilg'or me'yorlarini kiritish;*
- *Davlat ta'lim standartlari O'zbekiston Respublikasi davlat standartlash tizimi qoidalari talablarini qoniqtirishi kerak.*

### **O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi standartlari davlat tizimi**

Ta'limni standartlashtirish – bu butun dunyo kasb-hunar ta'limini islohotlashtirishdagi eng yirik tendensiyalardan biridir. Uni krizisni engib o'tishning asosiy vositasi sifatida hisoblaydilar.


Jamiyatda sodir bo'layotgan bugungi yangiliklar hamda iqtisodiy o'zgarishlar ta'lim tizimiga xususan o'rta maxsus kasb-hunar ta'limiga boshqacha yondashishni talab qiladi. SHunday ekan o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi standartlarini ishlab chiqmasdan turib, jahon bozoriga chiqqan, kasbiy mohirlik darajasi yuqori bo'lgan raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlab bo'lmaydi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining asosiy amalga oshirish vazifalaridan biri ta'lim oluvchilarning tayyorgarlik sifati va ixtisosiga zaruriy talablarni, ularning madaniy va ma'naviy – ruhiy darajalarini aniqlab beruvchi davlat ta'lim standartlarini yaratish va tatbiq etishdir.

Xalqaro talablarga javob beruvchi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi davlat standartlarini (DTS) ishlab chiqish birinchidan, O'zbekiston Respublikasi va rivojlangan mamlakatlarda kasb-hunar ta'limi ekvivalentligini hamda o'z navbatida mamlakatimizning xalqaro mehnat bozorida to'siqlarsiz ishtirok etishini ta'minlaydi, ikkinchidan ta'lim xizmatlari sifatiga aniq (kat'iy) talablarni belgilab qo'yish natijasida kadrlar tayyorlash sifatini oshiradi hamda ta'lim muassasalari ishining samaradorligini nazorat qilish tizimini tartibga soladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahakamasining 2000 yil 16 oktyabrdagi 400 –sonli «O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi davlat standartlarini tasdiqlash»

to'g'risida»gi qaroriga asosan O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi davlat standartlari tasdiqlandi. Tarmoq standartlari Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan bosqichma-bosqich yangidan tashkil etilayotgan akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda ularni aprotatsiya qilish tugagandan so'ng tasdiqlanadi. 1-rasmda O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi davlat standartlari tizimi keltirilgan.



1-rasm. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi davlat standartlari tizimi



O'MKHT ni standartlashtirishning mamqsad va vazifalari tamoyillari va nazorat turlari yuqoridagi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlangan O'MKHT DTS «Asosiy qoidalar», standartida belgilab berilgan.

O'MKHT standartlarining joriy etilishi quyidagi maqsadlar amalga oshirilishini nazarda tutadi:

- O'MKHT ning yuksak sifatini hamda mamlakatda amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni, rivojlangan demokratik davlat barpo etish talablariga javob beruvchi raqobatbardosh kadrlar tayyorlanishini ta'minlash;
- mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollardan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqib kadrlar tayyorlash mazmunini tartibga solish;
- O'MKHT ning demokratlashuvi, insonparvarlashuvi va ijtimoiylashuvi, ta'lim oluvchilarning huquqiy va iqtisodiy bilimlari darajasini, shuningdek ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish;
- sifatli ta'lim xizmatlari ko'rsatish, ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida shaxsning, jamiyat va davlatning manfaatlarini himoya qilish;
- kadrlar tayyorlash sifatini va ta'lim faoliyatini baholash mezonlarini va tartibini belgilash;
- O'MKHT jarayonini va kadrlar tayyorlashning izchilligi va uzluksizligini ta'minlash;
- mehnat va ta'lim xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni ta'minlash.

**O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi davlat ta'lim standartlarining vazifalari:**

- O'MKHT sifatiga va kadrlar tayyorlashga, ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari turlariga nisbatan qo'yiladigan maqbul talablarni belgilash;
- O'MKHT ga va uning pirovard natijalariga, ta'lim oluvchilarning bilimi va kasb malakasi darajasini vaqti-vaqti bilan baholash tartibiga, shuningdek ta'lim faoliyati sifati ustidan nazorat qilishga nisbatan qo'yiladigan tegishli talablarni belgilovchi me'yoriy negizni yaratish;
- xalqning boy aql-zakovat merosi va umuminsoniy qadriyatlar asosida ta'lim oluvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;
- O'MKHT o'quv-tarbiya va ta'lim jarayoniga, pedagogik va axborot texnologiyalari bilan ta'minlashga, ta'lim darajasini nazorat qilishga, ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilar va ularni bitiruvchilarning malakasiga nisbatan me'yorlar va talablarni belgilash;
- kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlash.

**O'MKHT ni standartlashtirish tamoyillari:**

- ta'limning uzluksizligi va uzviyligi;

- mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishi fan-texnika va texnologiyalarning istiqbolli rivojlanishi, jamiyat talablari va ularning zamonaviy holatini hisobga olish;
- ta'lim, fan va ishlab chiqarishning mujassamligi;
- matnlar bayonining aniqligini va yagona qiymatliligini
- fan va texnika hamda texnologiyaning zamonaviy yutuqlariga respublikadagi va chet ellardagi ilg'or tajribalarga mos kelishi;
- O'MKHT maqsad va vazifalarining amalga oshirilishi.

### **O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi sifatini nazorat qilish**

O'MKHT sifatini nazorat qilish quyidagi usullarda olib boriladi:

- **Ichki nazorat** - O'MKHT muassasasi tomonidan amalga oshiriladi; o'qitish sifatining ichki nazorati ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi tasdiqlagan «Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari o'quvchilarining bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi to'g'risida» gi Nizom asosida reyting-nazorat shaklida o'tkaziladi.

Nazoratning reyting tizimi quyidagi nazorat tadbirlari o'tkazilishini ko'zda tutadi:

- **joriy nazorat** – og'zaki so'rov, kollokviumlar, seminarlar, yozma ishlar, laboratoriya ishlari, texnikaviy diktant, kurs loyihalari, uy vazifasi va hokazo, ya'ni o'qituvchi o'z amaliyotida qo'llaydigan barcha so'rov turlarini o'z ichiga oladi.
- **oraliq nazorat** – fanning ma'lum bir qismi, bo'limi yakunlangandan so'ng o'tkaziladi. Oraliq nazoratning o'tkazilish tartibi, shakli ta'lim muassasasining ilmiy-pedagogik kengashi tomonidan belgilanadi.
- **yakuniy nazorat** – semestr tamom bo'lganda va o'quv dasturining tegishli bo'limi tugallangandan keyin amalga oshiriladi. Yakuniy nazoratning o'tkazilish tartibi, shakli ta'lim muassasasining ilmiy-pedagogik kengashi tomonidan belgilanadi.
- **tashqi nazorat** - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Davlat Test Markazi tarkibidagi Kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish, pedagog kadrlar va ta'lim muassasalari attestatsiyasi boshqarmasi tomonidan tayyorlangan «Ta'lim muassasalari va pedagogik kadrlarning davlat attestatsiyasi va akkreditatsiyasi haqidagi Nizom» va amaldagi me'yoriy hujjatlar asosida amalga oshiriladi;
- **Davlat-jamoat nazorati** – ta'limni boshqaruvchi vakolatli davlat organi va u bilan kelishilgan holda jamoat tashkilotlari va kadrlarga talabgorlar tomonidan amalga oshiriladi;
- **Yakuniy davlat attestatsiyasi** – davlat imtihonlari va malakaviy bitiruv diplom ishi (loyiha)ni himoya qilish bilan yakunlanadi.

### **O'MKHT tayyorlov yo'nalishlari kasblar va ixtisosliklar tarmoq standartlarini ishlab chiqish**

Kasb-hunar ta'limi standartlari tuzilishi va mazmuni uning xususiyatidan ya'ni, jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va shaxs talablarining chambarchas

bog'liqligidan kelib chiqadi. Kasb-hunar ta'limi standarti ta'limiy, ijtimoiy, iqtisodiy siyosatning integratsiyasi va mehnat bozori siyosatiga borib taqaladi. Standartlarni ishlab chiqishda hunar madaniyati sohasida yuz yillar mobaynida yig'ilib kelayotgan eng yaxshi milliy an'analar saqlanib qoladi va ular shogirdlik shaklida o'tib kelayotganligi hamda turli turdagi tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklar bo'yicha kasb-hunar kollejlari tashkil etilishi muhim ahamiyatga ega. Ko'plab mamlakatlarda kasb-hunar ta'limini standartlashtirish jamiyatning rivojlanishini ta'minlaydigan asosiy omillardan biri ekanligi tan olingan. SHunday ekan, milliy standartlar dunyoviy tajribalarga tayangan holda, milliy an'analarni hisobga olib, ishlab chiqilmog'i lozim.

«**Standartlashtirish**» tushunchasi universal bo'lib, quyidagicha ta'riflanadi:

**Standartlashtirish** – mavjud yoki bo'lajak masalalarga nisbatan umumiy va ko'p marta foydalaniladigan qoidalarni belgilash orqali ma'lum sohada eng maqbul darajada tartiblashtirishga yo'naltirilgan faoliyat.

Shuni ta'kidlash joizki, standartlashtirish bu faoliyatning yangi turi emas, balki dunyo singari qadimiydir. Bu tushunchani to'g'ri ma'noda tushunish lozim, modomiki tabiatning o'zi misli ko'rilmagan standartlashtirish namunalarini ato etadi. Masalan, standartlashtirish nuqtai-nazaridan qaraganda, kislorodning atomi yoki suv molekulasidan ko'ra mukammalroq narsa yo'qdir.

Tartibga solishning maqbul darajasi deganda murosaga keltiruvchi echimni topishga yo'naltirilgan me'yorlar, qoidalar, talablarni barcha qiziqqan tomonlar bilan kelishilgan holda maqsadga muvofiqligini va uni qabul qilishning imkoniyati borligi tushuniladi.

**STANDART** – konsensus asosida ishlab chiqilgan va faoliyatning har xil turlariga yoki ularning natijalariga tegishli bo'lgan umumiy va takror foydalaniladigan qoidalar, umumiy prinsiplar yoki tavsiflari belgilangan va ma'lum sohada eng maqbul darajali tartiblashtirishga yo'naltirilgan, tan olingan idora tomonidan tasdiqlangan hujjat.

**Kasb-hunar ta'limi standarti** – me'yoriy hujjat bo'lib, tegishli malakadagi mutaxassislar tayyorlash sifatini, kasbiy va umumta'lim tayyorgarlik darajalarini ketma-ketlikda amalga oshirishning talablari, qoidalari va tamoyillarini o'rnatadi.

Kasb-hunar ta'limi standarti o'zining aniq yakuniy maqsadiga ega: kishilarning ma'lum bir kasbiy faoliyat sohasida o'z bilim, ko'nikma, malaka va qobiliyatlarini qo'llashga tayyorliklarini shakllantirish. Kasb-hunar ta'limi standartini ishlab chiqishning metodologiyasi zaminida ma'lum bir kasbdagi mutaxassislarni tayyorlashning yakuniy masalalar majmuasini shakllantirish faoliyatiga tizimli yondashuv qo'yilgan. Shu munosabat bilan kasb-hunar ta'limi muayyan kasb mutaxassisining majmuaviy yakuniy maqsadi - uning faoliyatini yaxlit tizim sifatida tasavvur qilib, standart darajasida o'rnatiladigan talablarni o'zlashtirish zarurligidan kelib chiqishi lozim.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimini murakkab tashkil etilgan ta'lim tizimining yaxlit bir «tizimcha» si deb qaralib, u malaka oshirish va kadrlarni qayta tayyorlash tizimchalari bilan bog'langan bo'lishi zarur.

Xalqaro talablarga javob beruvchi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi davlat standartlarini (DTS) ishlab chiqish:

**Birinchidan,** O‘zbekiston Respublikasi va rivojlangan mamlakatlarda kasb-hunar ta’limi ekvivalentligini hamda o‘z navbatida mamlakatimizni xalqaro mehnat bozorida to‘siqlarsiz ishtirok etishini ta’minlaydi;

**Ikkinchidan** ta’lim xizmatlari sifatiga aniq (qat’iy) talablarni belgilab qo‘yish natijasida kadrlar tayyorlash sifatini oshiradi hamda o‘quv muassasalari ishining samaradorligini nazorat qilish tizimini tartibga soladi.

### **Tarmoq ta’lim standartlarini ishlab chiqish bosqichlari**

Standartlarni ishlab chiqishda, ular qaysi modelga mo‘ljallangan bo‘lishidan qat’iy nazar, hal qiluvchi omillar, standartlarning sifati, tan olishi va hayotga tadbiq etilishiga ko‘rsatadi. Standartlarni ishlab chiqishda quyidagilar zarur:

1. *Turli xil kasblarda joriy va kelgusi ehtiyojlarni aniqlash.*
2. *Umumiy xususiyatlarga tayangan holda hududiy o‘ziga xosliklarni hisobga olish.*
3. *Kasb-hunar ta’lim standartlarini ishlab chiqish va ma’sullarni hisobga olish, hamda ekspertlar guruhini jamlash, standartlarni ishlab chiqish.*

Kasb-hunar ta’limi standartlarini ishlab chiqishda quyidagi ekspertlar ishtirok etishi zarur:

- O‘MKHTR instituti ilmiy xodimlari;
- O‘MKHT o‘quv muassasalari o‘qituvchilari;
- Ish beruvchilar vakillari, ishlab chiqarish (ijtimoiy hamkorlar);
- Kasbiy fanlar bilan bog‘liq izlanishlar bilan shug‘ullanuvchi ekspertlar (olimlar);
- Tarmoq vazirliklari, ishlab chiqaruvchilar palatasi vakillari va hakoza.

Ta’lim standartlarini ishlab chiqishda rivojlangan Evropa va MDH davlatlari tajribalarini o‘rganib chiqib hamda shaxsiy tajribalarga tayangan holda O‘MKHT standartlarini ishlab chiqish uchun quyidagi bajarilayotgan ish tartibini tavsiya etamiz (2-rasm):

#### **1-bosqich. O‘MKHT standartini ishlab chiqishga buyurtma berish.**

Buyurtma mehnat bozori ehtiyojlarini tahlil qilish asosida ma’lum tayyorlov yo‘nalishlari, kasb va ixtisosliklar bo‘yicha beriladi. Buyurtmalar tarmoq vazirliklari va mahalliy hokimiyat bilan kelishilgan holda beriladi.

#### **2-bosqich. Buyurtmani ko‘rib chiqish va qabul qilish.**

Buyurtmani ko‘rib chiqish va qaror qabul qilish.

Standartni ishlab chiqish yoki yangilash to‘g‘risida buyurtmani ko‘rib chiqish va qaror qabul qilish O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan qabul qilinadi. Buyurtmani ko‘rib chiqish mazmun nuqtai-nazaridan va mehnat bozori talablariga ko‘ra, davlatning ta’lim siyosati aspektlarini hisobga olgan holda (ya’ni «Ta’lim to‘g‘risidagi» va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qonunlari asosida) amalga oshiriladi.

#### **3-bosqich. Ishchi (ijodiy) guruhini tashkil etish.**

Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi qaroriga binoan standartlarni ishlab chiqish ijodiy ishchi guruhi tashkil etiladi. Ushbu ishchi guruhiga quyidagilar kiradi:

- tayyorlov yoʻnalishlari, kasblar va ixtisosliklar boʻyicha ish beruvchilari vakillari;
- fan vakillari (tarmoq vazirliklari va ularning ilmiy tekshirish institutlari shu soha boʻyicha ekspertlari);
- taʼlim muassasalari vakillari;
- OʻMKHTRI vakillari.

#### **4-bosqich. Standart loyihasini tayyorlash.**

Standart loyihasini tayyorlashdan oldin, mutaxassisliklarning kasbiy tavsifnomasini aniqlash uchun mehnat bozorini tahlil qilish zarur. Keyinchalik standartning har bir komponenti qaytadan koʻrib chiqiladi.

OʻMKHT tarmoq standarti quyidagi komponentlardan tashkil topadi:

- 1) **Qoʻllanish sohasi.**
- 2) **Meʼyoriy ilovalar.**
- 3) **Taʼriflar.**
- 4) **Standartning maqsad va vazifalari.**
- 5) **Kasbiy tavsifnoma.**
- 6) **Kasbiy tayyorgarlik mazmunining majburiy minimumi.**
- 7) **Namunali oʻquv rejasi.**
- 8) **Standart talablarining bajarilishini nazorat qilish.**

**Birinchi komponentda** ushbu tayyorlov yoʻnalishi boʻyicha oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi tarmoq standartining qoʻllanish sohasi koʻrsatiladi.

**Ikkinchi komponentda** tarmoq standarti loyihasini ishlab chiqishda foydalanilgan hamda asos boʻladigan meʼyoriy hujjatlar roʻyxati koʻrsatiladi.

**Uchinchi komponentda** standartning maqsadi va vazifalari hamda bilimlarni oʻzlashtirish va malaka darajalari keltiriladi. Standartdan foydalanuvchilar davlat, ish beruvchilar, taʼlim tizimi va shaxs hisoblanib, maqsad va vazifalar ularning talablaridan kelib chiqqin holda aniqlanadi.

Standartning **toʻrtinchi komponentida** standartda foydalanilgan asosiy atamalarining taʼrifi va ularga izoh berilgan.

**Beshinchi komponentda** ish beruvchilarning talablaridan kelib chiqqan holda mutaxassisning kasbiy xususiyatlari koʻrsatilgan boʻladi.

Ish beruvchilarning talablaridan kelib chiqqan holda mutaxassisning kasbiy tavsifnomasi ishlab chiqish zarur.

Tarmoq taʼlim standartining eng asosiy komponenti «**Kasbiy tavsifnoma**» boʻlib, bu komponentda ish beruvchining talablari aks ettiriladi. Koʻpchilik rivojlangan Yevropa mamlakatlarida ish beruvchilar har bir kasb boʻyicha kasbiy standartlarni oʻzlari ishlab chiqishadi. Ish beruvchilar ishlab chiqib kasbiy standartlar asosida taʼlim beruvchilar kasb – hunar taʼlimi standartlarini ishlab chiqishadi.

Kasbiy tavsifnomani ishlab chiqish uchun avvalo shu mutaxassis, ishchi o'zni tahlil qilinishi, mutaxassisning amalga oshirayotgan kasb faoliyat turlarining ketma-ketligi, ish jarayonining texnologiyasi, kasbga qo'yilgan maxsus talablar va shu kasb mutaxassisi egallashi lozim bo'lgan ko'nikma va bilimlar haqida ma'lumotlar bo'lishi lozim. Tarmoq ta'lim standartining eng asosiy komponenti «**Kasbiy tavsifnoma**» bo'lib, bu komponentda ish beruvchining talablari aks ettiriladi. Ko'pchilik rivojlangan Evropa mamlakatlarida ish beruvchilar har bir kasb bo'yicha kasbiy standartlarni o'zlari ishlab chiqishadi. Ish beruvchilar ishlab chiqib kasbiy standartlar asosida ta'lim beruvchilar kasb – hunar ta'limi standartlarini ishlab chiqishadi.

Kasbiy tavsifnomani ishlab chiqish uchun avvalo shu mutaxassis, ishchi o'zni tahlil qilinishi, mutaxassisning amalga oshirayotgan kasb faoliyat turlarining ketma-ketligi, ish jarayonining texnologiyasi, kasbga qo'yilgan maxsus talablar va shu kasb mutaxassisi egallashi lozim bo'lgan ko'nikma va bilimlar haqida ma'lumotlar bo'lishi lozim.

Kasbiy tayyorgarlik mazmunining majburiy minimumi quyidagi ko'rinishga ega («Oshpaz» ixtisosligi misolida):

<b>Umumiy talablar (ishlab chiqarish-ning texnologik sxemasiga asosan faoliyat turlari)</b>	<b>Maxsus talablar</b>	<b>Malakalar</b>	<b>Bilimlar</b>
1	2	3	4
Oshpaz			
Oziq-ovqatlarni tayyorlash uchun uskunalarni hozirlash	Uskunaning tipi. Uskunani ishga hozirlash, texnika xavfsizligi va mehnatni muhofazasiga rioya qilish. Sanitariya va gigiena. Uskunani o'rnatish bo'yicha talablar	Taom tayyorlay-digan mexanik va issiqlik (Elektr, gaz, olovli va elektron) uskunalarni shuningdek nazorat o'lchov as-boblarini hozirlash. Uskunalarining nosozliklarini joylarini aniqlash. Ish binosida nis-biy namlikni olib turish, ish joy-larini tashkil etish, texnika xavfsizligi, sani-tariya va gigiena qoidalariga rioya qilish.	Mexanik va issiqlik uskunalarni tayyorlash, yoqish va o'chirish. Issiqlik uskunalarni ishini me'yorlash, elektr hitlarini tavsifnomasi (joylashgan joyi, binolarning yonmayonligi va hakoza). Avariya yoritishi asboblarining. Ish joyini tashkil etish qoidalari. Texnika xavfsizligi qoidalari. Mehnat muhofazasi, sanitariya va gigiena talablari.

### **O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tayyorlov yo'nalishlari bo'yicha o'quv reja va dasturlarni ishlab chiqish asoslari**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 16- oktyabrdagi «O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash

to'g'risida» gi 400-sonli qarori bilan tasdiqlangan O'MKHT DTS «Asosiy qoidalar» standartida O'MKHT tayanch o'quv rejasini ishlab chiqish bo'yicha quyidagilar keltirilgan:

1. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi standartining tayanch o'quv rejalari ta'lim mazmunidan kelib chiqib akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari tayyorlov yo'nalishlari bo'yicha alohida tuziladi.

Tayanch o'quv rejalari o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining ishchi o'quv rejasini ishlab chiqish uchun asos hisoblanadi.

**2. Tayanch o'quv rejasida o'quv yili 40 hafta va 2 semestr dan iborat. Har bir semestr 20 haftani o'z ichiga oladi.**

DTS tasdiqlangandan so'ng 40 hafta semestrlarga 20 haftadan taqsimlanganligi amalda ma'lum bir noqulayliklarga olib kelganligi sababli bugungi kunda 1-semestr 17 hafta va 2-semestr 23 hafta qilib qabul qilingan. Bu asosan 1-semestr dekabr oxirida o'quvchilarning yangi yil arafasida 1-semestri tugatib ikki haftalik ta'tilga chiqishlarini ko'zda tutilib qilindi.

**3. Tayanch o'quv rejalari umumiy 4560 soatdan 80-220 soat ta'lim muassasasi ilmiy-pedagogik kengashi qarori bilan kiritiladigan fanlar uchun ajratiladi.**

**4. Ta'lim muassasalari o'quvchilarining haftalik yuklamasi 54 soatni tashkil etadi. Bundan 16 soati mustaqil ishlashga ajratiladi.**

**5. Ta'lim muassasalari ilmiy-pedagogik kengashlariga ishchi o'quv rejasini tuzishda tayanch o'quv rejasini ta'lim standartlari talablari doirasida 15-20 % gacha o'zgartirish huquqi beriladi.**

**6. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun tayanch o'quv rejalari qo'yidagi jadvallarda keltirilgan.**

1-jadval

### AKADEMIK LITSEYLAR O'QUV REJASI MODELII

	Fanlar	Soatlar soni	Umumiy yuklamaga nisbatan foyiz hisobida
I.	Umumta'lim fanlari	1940	42,5%
II.	CHuqurlashtirilib <b>O'qitiladigan fanlar</b>	1400	30,7%
III.	Qo'shimcha chuqurlashtirilib o'qitiladigan fanlar	650	14,2 %
IV.	Maxsus fanlar	230	5%
	Davlat attestatsiyasi	70	1,6 %
	Fakultativ kurslar	270	6%
V.	Jami:	4560	100%

**Izoh:** Akademik litseylarning o'quv rejalari tayyorlov yo'nalishlarining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda alohida tuzilib, chuqurlashtirilib va qo'shimcha chuqurlashtirilib o'qitiladigan fanlar uchun ajratilgan soatlar miqdori umumiy ajratilgan soatlar hajmiga nisbatan 5% gacha o'zgarishi mumkin.

## KASB-HUNAR KOLLEJLARI O'QUV REJASI MODELII

	Fanlar	Soatlar soni	Umumiy yuklamaga nisbatan foiz hisobida
I.	Umumta'lim fanlari	1960	42,5%
II.	Kasbiy ta'lim fanlari (umumkasbiy va maxsus fanlar)	1180	25,9 %
III.	O'quv amaliyoti	600	13 %
IV.	Ishlab chiqarish amaliyoti	648	14,3 %
V.	Diplom ishi	76	1,7 %
VI.	Kollej ilmiy-uslubiy kengashi qarori bilan kiritiladigan fanlar	116	2,6 %
	<b>Jami:</b>	<b>4560</b>	<b>100%</b>

**Izoh:** Kasb-hunar kollejlarning o'quv rejalari tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda alohida tuzilib, kasbiy ta'lim fanlari (umumkasbiy va maxsus fanlar) ga, o'quv va ishlab chiqarish amaliyotiga ajratilgan soatlar miqdori umumiy ajratilgan soatlar hajmiga nisbatan 10% gacha o'zgarishi mumkin.



## AKADEMIK LITSEYLARNING O'QUV REJASI

## O'quv jarayoni grafigi

H a f t a l a r

O'qish muddati 3 yil

Kurslar	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20	21	22	23	24	25	26	27	28	29	30	31	32	33	34	35	36	37	38	39	40				
I																	T	T																										
II																		T	T																									
III																		T	T																								D	D

SHartli belgilar

 Nazariy va o'quv amaliyoti

 T Ta'til

 D Davlat attestatsiyasi

O'quv jarayoni rejasi

T/r	O'QUV FANLARI	Jami Soat	Soatlarning kurslar bo'yicha taqsimoti		
			1 kurs	2 kurs	3 kurs
<b>Umumta'lim fanlari</b>					
1.	Nutq madaniyati va Davlat tilida ish yuritish	80			80
2.	Ona tili va adabiyot	120	120		
3.	Xorijiy til	160	80	80	
4.	Rus(o'zbek) tili	120	80	40	
5.	Tarix	160	80	80	
6.	Shaxs va jamiyat	40			40
7.	Matematika	200	120	80	
8.	Informatika	120	80	40	
9.	Fizika	160	100	60	
10.	Astronomiya	40			40
11.	Kimyo	80	80		
12.	Biologiya	80	80		
13.	Iqtisodiy geografiya	40	40		
14.	Yoshlarni chaqiriqqa tayyorlash (YO CH T)	140		60	80
15.	Jismoniy tarbiya	160	80	40	40
16.*	Axborot texnologiyalari	40			40
17.	Davlat va xuquq asoslari	80		80	
18.	Ma'naviyat asoslari	40	40		
19.	Oila psixologiyasi	40			40
20.	Estetika	40	40		
	<b>Jami:</b>	<b>1940</b>	<b>1160</b>	<b>420</b>	<b>360</b>
<b>Chuqurlashtirib o'qitiladigan fanlar</b>					
	<b>Jami:</b>	<b>1452</b>	<b>160</b>	<b>760</b>	<b>532</b>
<b>Qo'shimcha chuqurlashtirilib o'qitiladigan fanlar</b>					
	<b>Jami:</b>	<b>664</b>	<b>80</b>	<b>180</b>	<b>404</b>
1.	Maxsus fanlar	196	40	80	76
2.	Davlat attestatsiyasi	72			72
3.	Fakultativ kurslar	236	80	80	76
<b>Haftalik yuklama</b>		38	38	38	38
<b>J a m i:</b>		<b>504</b>	<b>120</b>	<b>160</b>	<b>224</b>
<b>HAMMASI:</b>		<b>4560</b>	<b>1520</b>	<b>1520</b>	<b>1520</b>

**Izoh** informatika fanida boshlang'ich kompyuter saboqlari va zamonaviy kompyuter dasturlari, axborot texnologiyalari fanida esa yangi axborot texnologiyalari, internet va lokal kompyuter tarmoqlari bo'yicha bilim va ko'nikmalar o'rganiladi.

KASB-HUNAR KOLLEJLARINING O'QUV REJASI

4-jadval

O'quv jarayoni grafigi

Kurslar	Haftalar																	O'qish muddati 3 yil																																					
	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20	21	22	23	24	25	26	27	28	29	30	31	32	33	34	35	36	37	38	39	40															
I																	T	T																																					
II																	T	T																							A	A	A	A	A	A	A	A	A	A					
III																	T	T																												A	A	A	A	A	A	A	A	D	D

Shartli belgilar

Nazariy va o'quv amaliyoti

T Ta'til

A Ishlab chiqarish amaliyoti

D Diplom ishi

O'quv jarayoni rejasi

T/r	O'QUV FANLARI	Jami Soat	Soatlarning kurslar bo'yicha taqsimoti		
			1 kurs	2 kurs	3 kurs
Umumta'lim fanlari					
1.	Nutq madaniyati va Davlat tilida ish yuritish	80		40	40
2.	Ona tili va adabiyot	120	80	40	
3.	Rus (o'zbek) tili	120	80	40	
4.	Xorijiy til	160	80	40	40
5.	Tarix	160	80	60	20
6.	Shaxs va jamiyat	40			40
7.	Matematika	200	80	60	60
8.	Informatika	120	80	40	
9.	Fizika	160	80	80	
10.	Astronomiya	40			40
11.	Kimyo	80	80		
12.	Biologiya va ekologiya	80	80		
13.	Iqtisodiy geografiya	40	40		
14.	Yoshlarni chaqiriqqa tayyorlash (YOCHT)	140		70	70
15.	Jismoniy tarbiya	160	80	40	40
16.	Davlat va huquq asoslari	80			80
17.	Ma'naviyat asoslari	40	40		
18.	Axborot texnologiyalari	40		20	20
19.	Estetika	40	40		
20.	Oila psixologiyasi	40	40	20	20
21.	O'zbekiston konstitutsiyasi	40	40	20	20
22.	Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar	40	40	20	20
23.	Iqtisodiy bilim asoslari	40	40	20	20
	<b>JAMI:</b>	<b>1994</b>	<b>920</b>	<b>530</b>	<b>490</b>
Kasbiy ta'lim fanlari (umumkasbiy va maxsus fanlar)					
	<b>JAMI:</b>	<b>1300</b>	<b>480</b>	<b>370</b>	<b>450</b>
	O'quv amaliyoti:	480	120	180	180
	Ishlab chiqarish amaliyoti	648		360	288
	<b>JAMI:</b>	<b>1128</b>	<b>120</b>	<b>540</b>	<b>468</b>
	Diplom ishi	76			76
	<b>J A M I:</b>	<b>4444</b>	<b>1520</b>	<b>1440</b>	<b>1484</b>
	Haftalik yuklama		38	36-38	36-38
	Kollej ilmiy-uslubiy kengashi qarori bilan kiritiladigan fanlar	116		80	36
	<b>HAMMASI:</b>	<b>4560</b>	<b>1520</b>	<b>1520</b>	<b>1520</b>

**Izoh:** Kasb-hunar kollejlarning o'quv rejalari tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda alohida tuzilib, kasbiy ta'lim fanlari (umumkasbiy va maxsus fanlar)ga, o'quv va ishlab chiqarish amaliyotiga ajratilgan soatlar miqdori umumiy ajratilgan soatlar hajmiga nisbatan 10% gacha o'zgarishi mumkin.

DTS lari tasdiqlangan paytda umumta'lim blokida 20 ta fan mavjud edi. Shuning uchun ham «Umumta'lim fanlari» DTS da 20 ta fan keltirilgan va bunga umumiy 1940 soat ajratilgan. Keyinchalik «Umumta'lim fanlar» blokiga yana 3 ta fan ya'niy «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar», «O'zbekiston konstitutsiyasi» hamda «Iqtisodiy bilim asoslari» fanlari kiritildi va umumiy soat 1994 ga etkazildi.

### **O'quv dasturlarni ishlab chiqish**

O'quv dasturlari alohida o'quv predmetlari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalar mazmuni va hajmini, ularni o'rganish ketma-ketligini belgilaydi.

O'quv dasturlari qo'yidagi talablarini qanoatlantirishi kerak:

1. Tarixiylik: Fan tarixi, rivojlanishining xususiyatlarini aks ettirish. Fanga ulkan hissa qo'shgan olimlar va tarixiy shaxslar hayoti va faoliyati bilan tanishtirish.

2. Zamonaviylik: Fanning hozirgi darajasiga muvofiq bilim berish.

3. Gumanitarlik: Insonparvarlik, elparvarlik va ezgulik g'oyalariga amal qilish.

4. Xalqaro standart: Ta'lim tizimi turlicha bo'lgan kamida ikkita rivojlangan xorijiy davlatda amalda bo'lgan mutanosib o'quv dasturlari bilan muqoyasa qilinganlik.

5. Raqobatbardoshlik: Rivojlanayotgan davlatlarda amalda bo'lgan yoki ishlab chiqilayotgan mutanosib o'quv dasturlariga nisbatan ilg'orlik.

6. Milliylik: Markaziy Osiyoda yashagan yoki faoliyat ko'rsatgan, o'zbek tilida ijod qilgan olimlar va tarixiy shaxslarning fan rivojlanishiga qo'shgan hissasini chuqur va ilmiy asoslangan tarzda bayon qilish.


7. Izchilik: Fan haqida sistematik, mantiqiy muqobil hamda umumiy o'rta ta'lim va oliy ta'limga taalluqli mutanosib fan dasturlari bilan muvofiqlashtirilganlik.

8. Jozibadorlik: o'quvchilarni fanga qiziqtirish va qiziqishini o'stirish, osondan murakkab tomon bayon uslubini qo'llash.

9. Amaliylik: Fanni hayot bilan, nazariyani amaliyot bilan uzviy bog'laydigan uslubiyotigap rioya qilish.

10. Novatorlik: O'zbekistonning o'z taraqqiyot yo'lidan rivojlanish strategiyasi va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» talablaridjan kelib chiqib, novatorlik, yangi pedagogik texnologiyalar, ta'lim sohasi innovatsiyalariga ochiqlik.

## O'quv dasturlarining tuzilish



### §1.3. O'MKHT midagi tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklar umumdavlat tasniflagichi

Tasniflagich loyihasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi Markazining Davlat ta'lim standartlari bo'limi va O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini rivojlantirish instituti tomonidan ishlab chiqildi. Mazkur tasniflagich loyihasi:

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot, moliya, qishloq va suv xo'jaligi, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish, xalq ta'limi, madaniyat ishlari bo'yicha, ichki ishlar, favqulotda holatlar va adliya vazirliklarida;

O'zbekiston Respublikasi tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash va davlat mulkini boshqarish, statistika, raqobatchilikni rivojlantirish va monopoliyadan chiqarish, soliq, davlat chegaralarini qo'riqlash qo'mitasi, tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, mineral manbalar va geologiya, qurilish va arxitektura, jismoniy va sport, davlat kadastri va kartografiya, geodeziya, er resurslari davlat qo'mitalarida;

O'zbekiston Respublikasi tashqi aloqalari bo'yicha, iqtisodiy aloqalar, O'zbekiston Respublikasi axborotlashtirish va aloqalar, axborotlar va matbuot standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish, O'zkommunxizmat, avtomobil va daryo transport vositalari «O'zarxiv» agentliklari va O'zbekiston Respublikasi mualliflik huquqlari agentliklarida;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Hidrometeorologiya xizmati markazida;

O'zbekiston Respublikasi: uchish xavfsizligini nazorat qilish, elektroenergiyani nazorat qilish, tog' va sanoat xavfsizlik ishlarini olib borishini nazorat qilish, yuklarni temir yo'l orqali tashish xavfsizligini nazorat qilish bo'yicha Davlat inspeksiyalari Vazirlar Mahkamasi huzuridagi katta va muhim suv xo'jalik obektlarini va nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Davlat inspeksiyasi, gaz va neft mahsulotlaridan foydalanishni nazorat qilish, Davlat non inspeksiyalarida ko'rib chiqildi va ma'qullandi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidagi tayrov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklar umumdavlat Tasniflagichi O'zbekiston Respublikasida texnikaviy-iqtisodiy va ijtimoiy axborotlarni tasniflash va kodlashtirish bo'yicha yagona tuzilma tarkibiga kiradi va Vazirlar Mahkamasining «Uzluksiz ta'lim tizimi uchun

davlat ta'lim standartlarining ishlab chiqish va joriy etish to'g'risida»gi 1998 yil 5 yanvardagi 5-sonli qarori asosida tayyorlangan.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidagi tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklar umumdavlat Tasniflagichi O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuniga, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ga hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligining me'yoriy hujjatlariga asoslanib tuzilgan.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari, tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklari Tasniflagichning tasniflash obektlari hisoblanadi.

Mazkur Tasniflagichda tayyorlash yo'nalishlari nomi, kodi va shu tayyorlov yo'nalishlari turkumiga kiruvchi kasblar nomi va kodi hamda ixtisosliklar ro'yxati keltirilgan.

### **Qo'llanish sohasi**

Mazkur Tasniflagich o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi mutaxassislarini ish bilan ta'minlovchilar, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida davlat ta'lim standartlari, o'quv rejalari, dasturlari va boshqa me'yoriy hujjatlarni ishlab chiquvchilar, ta'lim muassasalari rahbarlari, Respublika va mahalliy boshqaruv tashkilotlari mutaxassislari, vazirliklar, muassasalar va boshqa respublikamiz xo'jaliklarini rivojlantirishda faoliyat ko'rsatayotgan subektlar uchun mo'ljallangan.

Mazkur Tasniflagichni ishlab chiqishda quyidagi me'yoriy hujjatlarga asoslangan:

O'z DST 1.02-92 O'zbekiston Respublikasi standartlashtirish davlat tizimi. Asosiy qoidalar.

GOST 1.5-93. Davlatlararo standartlashtirish bo'yicha ish yuritish qoidalari. Standartlarning tuzilishi, bayon qilinishi, rasmiylashtirilishi va mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar.

O'z DST 1.8-94. O'zbekiston Respublikasi standartlashtirish davlat tizimi. Rahbariy hujjatlarni ishlab chiqish, muvofiqlashtirish, tasdiqlash, davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi va tavsiyalar.

O'z DST 6.01-95. O'zbekiston Respublikasining texnik-iqtisodiy va ijtimoiy axborotlarini kodlashtirish va tasniflashning yagona tizimi. Asosiy qoidalar.

O'z DST 1.9-95. O'zbekiston Respublikasi standartlashtirish davlat tizimi. Soha standartlarini ishlab chiqish, muvofiqlashtirish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi.

O'z DST 6.01.2-95. O'zbekiston Respublikasi texnik-iqtisodiy va ijtimoiy axborotlarni kodlashtirish va tasniflashning yagona tizimi. Tasniflagichlarni ishlab chiqish va yuritish tartibi.

Ta'limning xalqaro standart klassifikatsiyasi (TXSK) YUNESKO, 1997.

O'z DT 008: 2000 s 01.08.2000 O'zbekiston Respublikasi mashg'ulotlar milliy standart tasniflagichi.

Mazkur Tasniflagichda quyidagi ta'riflar qo'llanilgan:

Tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklarning umumdavlat tasniflagichi (TYKIUT) - o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv muassasalarida kichik mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va mutaxassisliklarning tizimlashtirilgan ro'yxati.

Malaka-mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi darajasi, undagi ma'lum ishni bajarish uchun zarur bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalarning mavjudligi.

Mutaxassisning malakasini belgilovchi ko'rsatkich bo'lib, toifa yoki diplomning mavjudligi hisoblanadi.

Kichik mutaxassis - bu ta'lim dasturini muvaffaqiyatli o'zlashtirgan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari bitiruvchilariga beriladigan malaka darajasidir.

**Kichik mutaxassis:**

Nazariy va amaliy bilimlar majmuasiga, kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarga ega;

Mazkur jamiyatda o'zining muvoffaqiyatli hayot darajasini ta'minlaydigan umumiy va kasbiy madaniyatga, ijtimoiy ahamiyatli hususiyatlarga va shaxsiy sifatlarga ega;

*Kichik mutaxassislar quyidagi vazifalarni bajaradi:*

- kompyuter va boshqa texnikalardan, texnikaviy va fizikaviy fanlar sohasiga foydalanish usullarini qo'llash bilan bog'liq texnik topshiriqlarni bajaradi; texnik-jihoz va transportlarni ishlatadi; mashinalar, mexanizmlar, qurilmalar, moslamalar hamda muhandis-texnik jihozlar va asboblarga texnik xizmat ko'rsatish hamda ta'mirlash, metal-konstruksiyalarni o'rnatish, dastgohlarni o'rnatish va boshqa ishlarni amalga oshiradi;
- xom-ashyo qazib olish va qayta ishlash, metallurgiya, qurilish, binolar va inshootlarni ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rstish sohasida o'z kasbiy bilimlarini tadbiiq etadi; bosish (qoliplash) ishlarini bajaradi; oziq-ovqat mahsulotlari, to'qimachilik mahsulotlari, yog'och va metal buyumlar, shu jumladan badiiy hunarmandlik buyumlarini ishlab chiqaradi va qayta ishlaydi;
- bolalar bog'chasi va boshlang'ich maktablarda ta'lim va tarbiya ishlarini amalga oshiradi.
- sog'liqni saqlash, gigiena, insonlarga g'amxo'rlik qilish, qishloq xo'jaligida o'simliklarni, hayvonlarni parvarish qilish, etishtirish bo'yicha zarur ishlarni amalga oshiradilar;
- kadrlarni joy-joyiga qo'yish va ularning ijtimoiy ta'minoti, soliqqa tortish va turizmga aloqador davlat xizmatlari, buxgalteriya hisobi, huquqiy, statistik, ish yuritish korxonalarini boshqarish, tijorat, moliya va savdo-sotiq sohasidagi bilimlarni texnik qo'llash bilan bog'liq ma'muriy va ishlab chiqarish vazifalarini bajaradilar.

Odamlar va yuklarni milliy chegaralardan o'tkazilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Ijtimoiy masalalar bo'yicha yordam ko'rsatadilar va maslahat beradilar.

Sport va boshqa qiziqarli tadbirlarni tashkil etadilar va o'tkazadilar, madaniyat va san'at sohasida ijodiy faoliyat ko'rsatadilar;

Diniy marosimlarni o'tkazishda aholiga yordam ko'rsatadilar.

Kasbiy faoliyat sohasi (KFS)-kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarning qo'llanish doirasidir, uning nomlanishi iqtisodiy sohalari nomlari bilan moslashtiriladi.

O'MKHT ta'lim muassasalaridagi tayyorlov yo'nalishlari-aniq kasbiy faoliyat sohasida mutaxassislarga kasbiy ta'lim berish doirasidir. Mutaxassislarning kasbiy faoliyatining aniq sohasi bo'yicha tayyorlov yo'nalishlarining nomi mehnat faoliyatining mazmuni va xususiyati orqali aniqlanadi.

Kasb-maxsus tayyorgarlik va ish tajribasi natijasida ma'lum bir sohada kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun nazariy bilimlar majmuasini, amaliy ko'nikma va malakalarni egallagan, unga jismoniy imkoniyat, aqliy qobiliyat va yuridik huquqlarni ta'minlovchi insoniy mehnat faoliyatining (mashg'ulotining) turidir.

Ixtisoslik - birorta kasb doirasida ma'lum bir faoliyat turi uchun maxsus tayyorarlik va ish tajribalari bilan erishilgan zaruriy bilimlar, ko'nikma va malakalar majmuasi.

O'MKHT tayyorlov yo'nalishlari va kasblar kodi – kasbiy faoliyat sohaslariga muvofiq kasblar va ixtisosliklar bo'yicha tayyorlov yo'nalishlari ixtisoslashtirilgan ro'yhatining raqamli belgisidir.

**Tasniflagichda quyidagi to'qqizta bilim sohasi nazarda tutilgan:**

*100000 – ta'lim;*

*200000 – gumanitar fanlar va san'at;*

*300000 – ijtimoiy fanlar;*

*400000 – fan;*

*500000 – muhandislik, ishlov berish va qurilish tarmoqlari;*

*600000 – qishloq ho'jaligi;*


*700000 – sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot;*

*800000 - Xizmatlar;*

Tasniflagichda ta'lim bosqichlari va ta'lim sohalari, tayyorlov yo'nalishlari va kasblar ettita raqamli kod bilan belgilanadi.

Ta'limning xalqaro klassifikatsiyasiga binoan ta'lim bosqichi-o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi 3-raqami bilan belgilanadi. Masalan: 3144610, 3210210, 3380110 va boshqalar.

## O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi kodlari:



**Birinchi raqam** - ta'lim dasturi bosqichi kodi;

**Ikkinchi raqam** - bilim sohasi kodi;

**Uchinchi raqam** - ta'lim sohasi kodi;

**To'rtinchi va beshinchi raqamlar** - tayyorlov yo'nalishi kodi;

**Oltinchi va ettinchi raqamlar** - kasblar kodi.

Uzluksiz ta'lim tizimidagi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va oliy ta'lim (bakalavriat)da uzviylikni ta'minlash maqsadida O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidagi tayyorlov yo'nalishlari kodlari oliy ta'limining bakalavriat ta'lim yo'nalishlari kodlariga moslashtirilgan.

### **Tasniflagichdan quyidagi vazifalarni hal etishda foydalaniladi**

- Hududiy bandlik dasturlarini ishlab chiqish.
- Milliy va hududiy mehnat bozorlarida ijtimoiy mehnat sohasidagi jarayonlarni taxminlash va tartibga solish.
- Ish kuchining samaradorligini va ish kuchiga ketadigan sarflarni aniqlash.
- Mehnatga haq to'lashni tartibga solish va me'yorlashtirishni takomillashtirish.
- Xalq xo'jaligining kadrlarga bo'lgan ehtiyojini ta'minlash va asoslangan uzluksiz ta'lim dasturini ishlab chiqish.
- Mehnat statistikasi sohasida axborotning xalqaro miqyosda taqqoslanishini ta'minlash.

### **«Kichik mutaxassis» malakasi toifasiga kirmaydigan shaxslarni mutaxassisliklarining belgilanishi**

- Tasniflagichning 4-ustunida intellektual layoqati(aqliy rivojlanish xususiyatlari) buzilgan shaxslarni o'qitish mumkin bo'lgan birdan-bir ixtisosliklar bitta yulduzcha (\*) bilan ko'rsatilgan. Ushbu mutaxassisliklar O'zbekiston Respublikasi mehnat va ijtimoiy ta'minot vazirligi



tomonidan tasdiqlangan aqliy va jismoniy jihatdan kamchilikka ega shaxslarni o'qitish mumkin bo'lgan kasblar va mutaxassisliklar asosida belgilangan. O'qish muddati kasallik darajasiga qarab 1 yildan 2 yilgacha.

- Tasniflagichning 4-ustunida ikkita yulduzcha (\*\*\*) bilan jismoniy rivojlanish o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan va imkoniyatlari cheklangan shaxslarni o'qitadigan birdan-bir ixtisosliklar ko'rsatilgan. Mazkur mutaxassislar O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan, jismoniy rivojlanishida kamchiligi bor va bolalikdan nogiron shaxslar uchun mo'ljallangan maxsus maktablarning bitiruvchilari uchun tuzilgan hamda kasblar va mutaxassisliklar ko'rsatilgan ro'yxat asosida belgilangan. O'qish muddati 2 yil.
- Tasniflagichning 4-ustunida uchta yulduzcha (\*\*\*) bilan akademik litseylarning bitiruvchilari egallaydigan kasbga yo'naltiruvchi ixtisosliklar belgilangan. O'qish muddati 3 yil (chuqurlashtirilgan umumta'lim tayyorgarligi bilan qo'shib olib borilgan holda).
- Tasniflagichning 4-ustunida to'rtta yulduzcha (\*\*\*\*) bilan 11 yillik umumta'lim maktab-larining bitiruvchilari oliy o'quv yurtiga kirolmagan hollarda, yangi bozor munosabatlariga o'tish davrida ularni ijtimoiy himoya qilish maqsadida mo'ljallangan ixtisosliklar ko'rsatilgan. Tasniflagich bunday shaxslar toifasiga nisbatan to'qqiz yillik ta'limga to'liq o'tgunga qadar amal qiladi. O'qish muddati 1 yil.

O'qishni tugatadigan bitiruvchilarga O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan belgilangan namunada tasdiqlangan diplomlar va sertifikatlar beriladi.

### **O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidagi tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklar Tasniflagichiga o'zgartirishlar kiritish tartibi**

Mazkur tasniflagich tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklarning asos bo'luvchi ro'yhati bo'lib, u qo'shimchalar va o'zgartirishlar kiritish uchun ochiqdir.

Tasniflagichga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritishga oid takliflar O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markaziga taqdim etiladi.

Tasniflagichga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi tomonidan amalga oshiriladi

### **Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati**

1. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". T.: 1997 y.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 5-yanvardagi "Uzluksiz ta'li tizimi uchun davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to'g'risida" gi 5 sonli qarori.
3. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tayyorlov yo'nalishlari kasb va ixtisosliklar umumdavlatniflagichi. -T.: 2002, 2004.

## II-BOB. KASB TA'LIMIDA ISHLAB CHIQRISH TA'LIMI ASOSLARI

### §2.1. Ishlab chiqarish ta'limining umumiy masalalari

#### **Kasbiy ta'limdagi asosiy tushunchalar va ularning ta'riflari.**

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi (O'MKXT- Umumiy ta'lim tizimidagi mustaqil ta'lim turi bo'lib, umumiy o'rta ta'lim negizida amalga oshiriladi. O'MKXT oliy o'quv yurtlarida (muassasalarida) o'qishni davom ettirish yoki kasbiy faoliyat bilan mashg'ul bo'lish xuquqini ta'minlaydi.

Kasb-hunar ta'limi-aniq kasb va ixtisoslik bo'yicha ma'lum darajada bilimlar, ko'nikmalarni egallash jarayoni va natijasi.

Kasb- maxsus tayyorgarlik va ish tajribasi natijasida ma'lum bir sohada kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun nazariy bilimlar majmuasini amaliy ko'nikma va malakalarni egallash, unga jismoniy imkoniyat, aqliy qobiliyat va yuridik xuquqlarni ta'minlovchi insoniy mehnat faoliyatining turi.

Ixtisoslik-biror kasbdoirasida ma'lum bir faoliyat turi uchun maxsus tayyorgarlik va ish tajribalari orqali erishilgan zaruriy bilimlar, ko'nikma va malakalar majmuasi.

Kasbiy faoliyat sohasi-kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarning qo'llanish doirasi. Uning nomlanishi iqtisodiy-ijtimoiy sohalarini nomlari bilan moslashtiriladi.

Kasbiy tayyorgarlik-aniq kasbiy faoliyat doirasida ish bajarishga imkon beruvchi bilimlar, ko'nikma va malakalarni shakllantiruvchi jarayon.

Malaka-muayyan mehnat faoliyatini bajarish uchun lozim bo'lgan nazariy va umumta'lim va kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalar majmuasining majmuasi.

#### **Ishlab chiqarish ta'limi va uning mazmuni**

Ma'lumki, pedagogika fani asosida shakllanib (didaktika) tashkil topgan yangi soxa kasbiy pedagogika (kasbiy texnika) bo'lib, u asosan ishlab chiqarish ta'limi nazariyasi va amaliyoti bilan shug'ullanadi.

Hozirgi paytda kasb-hunar o'quv muassasalarida malakali mutaxassislarni tayyorlash ikkita mustaqil qismdan iborat, ya'ni **nazariy va ishlab chiqarish ta'limi**.

Yqqin kunga qadar «Ishlab chiqarish ta'limi» deganda faqatgina birorta kasbga tayyorlashda amaliy o'qitishni tushunilib kelgan bo'lsa, 1958-60 yillarda maktablarga ishlab chiqarish ta'limi kiritilishi munosabati bilan nazariy va amaliy o'qitish amalga oshirila boshlandi.

#### **Nazariy ta'lim**

Kasb-hunar bilim yurtlarining o'quv rejalarida nazariy va ishlab chiqarish ta'limi ko'zda tutilgan. **Nazariy bilimning vazifasi**, mazmuni, usullari, tashkiliy shakllari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bitta maqsadga ya'ni yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashga qaratiladi. SHuning uchun nazariy va ishlab chiqarish ta'limi o'quv muassasalaridagi o'quv jarayonining mustaqil, ammo o'zaro aloqador qismlari hisoblanadi.

Ta'limda nazariy dars soatlari bilan amaliy mashg'ulotlarning soatlari ma'lum nisbatda bo'lishi lozim. Bunda o'quvchilar o'rganilayotgan fan bilan tanish emasligini, o'zlashtiriladigan bilimlar ular uchun yangiligini nazarda tutish zarur.

SHunday qilib, **Nazariy ta'lim** o'quvchilarning umumiy bilim, ijtimoiy, umumkasbiy va maxsus fanlarni o'rganishlarini o'z ichiga olib, ularda o'rganilayotgan kasbni ongli tarzda mustahkam va chuqurroq egallashlari uchun zarur hajmdagi bilimlar sistemasini shakllantirish hamda ishlab chiqarish malakasini yanada oshirishni maqsad qilib qo'yadi.

**Bilim** deganda bir maqsadga qaratilgan pedagogik jarayon, mustaqil o'qish, hayotiy va ishlab chiqarish tajribasi natijasida shakllanadigan va xotirada mustahkamlanib qoladigan o'quvchilarning fanlar va real voqelik hodisalari haqidagi, tabiat va jamiyat qonunlari haqidagi tasavvurlari, tushunchalari va mulohazalari tushuniladi.

**Umumkasbiy fanlar** o'z mazmuni va o'quv jarayonidagi o'rni jihatidan umumiy ta'lim va maxsus turkumdagi fanlar o'rtasidagi o'ziga xos bog'lovchi bo'g'in hisoblanadi.

**Maxsus fanlarni o'rganishning vazifasi**-o'quvchilarning muayyan kasbga muvofiq mashinalar, mezanizmlar, apparatlar, asboblari va shu kabilarning sistemasini haqida, ishlab chiqarish texnologiyasi va uni tashkil etish, materiallar to'g'risida bilim olishlaridan iboratdir.

### **Ishlab chiqarish ta'limi**

**Ishlab chiqarish ta'limining asosiy vazifasi** -kelgusida malakali mutaxassis bo'lib etishadigan o'quvchilarni muayyan kasb sohasida bevosita faoliyat ko'rsatishga tayyorlashdan, ya'ni bilimlarni amaliyotga tadbiiq etishga o'rgatishdan, zarur kasb ko'nikmasi va malakasini shakllantirishdan iborat.

**Malaka** - o'quvchilarning mehnat jarayonidagi harakatni (yoki harakatlar majmuasi) muayyan sharoitda maqsadga muvofiq bo'lgan harakat usullaridan foydalanib va shu tufayli mehnatda ijobiiy natijalarga erishib, ongli va to'g'ri bajarishga tayyor (qobiliyatli) bo'lishlaridir.

**Ko'nikma**-malakaning tarkibiiy qismi bo'lib, haraktning ayrim qismlarini nihoyatda aniiq, tez va maqsadga muvofiq tarzda o'z-o'zidan bajarish qobiliyatini ifodalaydi va bu narsa o'quvchilarda ko'p martatakrorlash- mashqlar natijasida yuzaga keladi.

Ishlab chiqarish ta'limi-malakali tayyorlash jarayonining g'oyat muhim tarkibiiy qismi bo'lib unga umumiiy o'quv vaqtining katta qismi ajratiladi.

### **Ishlab chiqarish ta'limining asosiiy muammolari:**

1997 yilda qabul qilingan Kadrlar tayyorlash milliiy dasturida kasb-hunar ta'limiga asosiiy e'tibor qaratilgan bo'lib, uni har tomonlama rivojlantirishni ko'zda tutadi va bu muammo shu kunning asosiiy ekanligini takidlanadigan uning nazariy va amaliy tomonlarini takomillashtirishni taqazo etadi.

Kasb-hunar ta'limida ishlab chiqarish ta'limini ishlab chiqarish va o'qitish muammolar bilan chambarchas bog'langan.

Ishlab-chiqarish ta'limining asosiy muammolaridan biri bo'lib:-uning mazmunini ishlab chiqish hisoblanadi.

- ❖ Ishlab chiqarish ta'limida nazariy va amaliy bilim berish mazmunini qayta ko'rish;
- ❖ Ishlab chiqarish ta'limi tizimi bo'lib, u mazmun, o'qitish usullari va o'qitish jarayonini birgalikda xal etishni taqazo etadi.

## **Kasbiy ta'lim muammolari**

Kasbiy ta'lim umumiy ta'limdan o'zining ta'lim maqsadi, o'rgatish maqsadi, o'zlarining dasturlari va dastur mazmunining tanlanishi, o'qitishda amaliy faoliyat bilan bog'lanish (ustaxonalarda kengash, korxonalarda ishlash va o'qitish usullari) va boshqalar bilan oshiriladi.

Kasbiy ta'limda kasbiy fanlar dasturini ishlab chiqishda kasbiy tavsifnoma talablaridan kelib chiqadi. Umumta'lim va kasbiy ta'lim jarayonlari asosida bir-biriga o'xshash bo'lsada, chunki ko'p xollarda bir xil didaktik prinsiplar, metodik usullar qo'llaniladi, kasbiy ta'limda nazariy va amaliy o'qitish jixatlari bilan tubdan ajraladi. Chunki, bu erda ta'lim jarayoni ko'pincha ishlab chiqarish bilan birgalikda olib boriladi, u erda ular o'rganiladi, ishlab chiqariladi, faoliyat ko'rsatiladi.

## **Ishlab chiqarish ta'limi bosqichlari**

O'quvchilarning ko'pchilik kasblar bo'yicha ishlab chiqarish ta'limi uchta asosiy bosqichga: a) o'quv ustaxonalarida, o'quv maydonlarida, o'quv laboratoriyalarida, bilim yurtining o'quv xo'jaliklaridagi ishlab chiqarish ta'limi; b) ishlab chiqarish sharoitlari (korxonalarda, qurilishlarda, xo'jaliklarda) ishlab chiqarish ta'limi; va nihoyat v) ishlab chiqarish tajribasiga bo'linadi. Har bir bosqich o'ziga xos maqsadga va o'quv jarayonida o'z o'rniga ega bo'lib, kasb xususiyatiga qarab ular turli muddatli bo'ladi va u ishlab chiqarish ta'limi dasturi bilan belgilanadi. O'quvchilarning ishlab chiqarish ta'limi ustoz rahbarligida amalga oshiriladi. Bu ustoz o'ziga biriktirilgan gruppaga bilim yurtidagi ta'limning boshidan oxirigacha rahbarlik qiladi.

Pedagogikada ta'lim jarayoni (o'quv jarayoni) deganda o'qituvchining hamda uning rahbarligidagi o'quvchilarning bilimlar, ko'nikmalar va malakalar sistemasini ongli va mustahkam o'zlashtirishga, ularni hayotga tadbqiq etish masalasini shakllantirishga mustaqil fikr yuritishga, bilish qobiliyatlarinin rivojlantirishga aqliy va jismoniy mehnat madaniyatini egallashga qaratilgan izchil va o'zaro bog'liq harakatlarning majmui tushuniladi.

O'quv jarayonining bir qismi hisoblangan ishlab chiqarish ta'limi uchun uning barcha umumiy qonuniyatlari ham xosdir. Ishlab chiqarish ta'limining o'ziga xos jixati avvalo shundan iboratki, bunda o'quv jarayoni o'quvchilarning unumli

mehnati davmida amalga oshiriladi. Bu esa o'quv jarayonining o'ziga xosligini (uning mazmuni, o'quvchilarning o'quv faoliyati, ustozning ta'lim berish faoliyati, ta'lim vositalarini, ya'ni uning barcha asosiy takbiy qismlarini) keltirib chiqaradi.

Ishlab chiqarish ta'limining mazmuni tegishli kasbdagi ishchining mehnat faoliyatini hamda malaka darajasini (razryad, sinf, kategoriya va hakoazolarni) tahlil qilish asosida belgilanadi. Bunday taxlil shuni ko'rsatadiki, ishchining mehnat faoliyati kasbidan qat'iy nazr quyidagi vazifalarni rejalashtirish; tayyorgarlik; amalga oshirish; nazorat va; ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko'rsatish vazifalarini o'z ichiga oladi.

Ishlab chiqarish jarayonini rejalashtirish topshiriq bilan tanishishni, materiallarni, texnologiya jarayonlari, asboblarni, moslamalarni tanlashni, zarur hisoblash ishlarini, ishni ijro etish rejasini tuzishni o'z ichiga oladi.

Ishlab chiqarish jarayoniga tayyorgarlik-materiallar, asboblarni, uskunalarni ishga taxt qilishdir.

Ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirish-qo'lda bajariladigan operatsiyalarni amalga oshirish, ishlayotgan uskunalarni boshqarish, apparatlar va qurilmalarda ro'y berayotgan texnologiya jarayonlarini sozlab turishdir.

Ishlab chiqarish jarayonini nazorat qilish texnologiya jarayonining borishini, ishchining o'z faoliyati, uskunalarni ishi, mahsulot sifatini tekshirishni va baho berishni o'z ichiga oladi.

Ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko'rsatish uskunalariga qarov, nosozliklarni bartaraf etish, ish o'rnini tashkil qilishdan iboratdir.

Demak, o'quv muassasasida o'quvchilarga ishlab chiqarish ta'limi berishning asosiy vazifasi –ularga o'z kasblari uchun xos bo'lgan ishlab chiqarish jarayonini rejalashtirish, tayyorlash, amalga oshirish, nazorat qilish va xizmat ko'rsatishga o'rgatishdan iborat.

Mutaxassis bajaradigan ana shu vazifalarning tegishli kasbga va malaka darajasiga muvofiq aniq mazmuni kasbiy mahorat tavsifnomasida aks etadi. Bu xujjat ishchining bajaradigan ish va kasblari bo'yicha umumdavlat yagona ta'rif-mahorat ma'lumotnomasi asosida tuziladi. Unda o'quvchi bilim yurtidagi ta'lim olish davomida egallashi lozim bo'lgan bilim va malakalarga asosiy talablar qayd etilgan. Mahorat tavsifnomasi bilim yurtida mutahassislarni tayyorlash mohiyatini belgilovchi asosdir. Hozirgi kunda bu vazifani davlat ta'lim standartlari boshqaradi. Bu asosda dastur tuziladi.

Ishlab chiqarish ta'limi mazmunini belgilovchi asosiy davlati xujjati bo'lgan ishlab chiqarish ta'limi dasturlarida bayon qilinadi. Ishlab chiqarish ta'limi dasturida o'quv materialining murakkabligiga qarab mehnat jarayonlarini bajarishning o'zaro bog'liq yo'llari, operatsiyalari va usullari muayyan tartibda joylashtirilgan mavzularga (oddiydan murakkabga tomon) birlashtiriladi.

Ishlab chiqarish ta'limi jarayoni ta'limning turli metodlaridan foydalanilgan holda turli ko'rinishda amalga oshiriladi. Ta'lim shakllari deganda o'quvchilarning o'quv ishlab chiqarish faoliyati xususiyatini belgilovchi ta'lim jarayonini tuzish usullari, bu faoliyato'qituvchi (ustoz) rahbarligi va mashg'ulot tuzilishi tushuniladi. O'quv jarayonini tashkil etish shakllari bilan o'qituvchi ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etishda shakllarini farqlay olish kerak.

## § 2.2. Ishlab chiqarish ta'limining tashkiliy shakllari

### **Pedagogikada ishlab chiqarish ta'limining tashkiliy shakllari muammosi**

Tashkiliy shakl deganda o'qituvchining, ishlab chiqarish ta'limini ustasining qo'yilgan maqsadga erishish uchun kasb-hunar ta'limi o'quv muassaslari o'quvchilarining o'quv ishlab chiqarish faoliyati xususiyatini belgilovchi ta'lim jarayonining tuzish usullari, tashkil etish va unga rahbarlik qilish usuli tushuniladi.

Ishlab chiqarish ta'limini rivojlantirish, takomillashtirish va uni amalda qo'llash uchun tashkiliy shakllarning nazariy asoslarini ishlab chiqish va amalga joriy etish imkoniyatlarini aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Ishlab chiqarish ta'limining tashkiliy shakllari muammosi bo'yicha xilma xil fikrlar, muloxazalar, xulosalar mavjud bo'lib A.A. Budarno'y jamoaviy (kollektivnoy), guruhli va yakka shakllarni tashkiliy shakllarini kiritisa; praktikum, seminar, fakultativlar, ekskursiyalar, uy vazifasi va qo'shimcha darslari; (Yu.K.Babanskiy, M.N. Skatskiy, G.I. Potashnik, S.M.Tyunnikov); didaktikada mehnat ta'limini shakllarini 2 guruxga bo'linadi; o'quv ustaxonalarida amaliy mashg'ulotlar va ishlab chiqarishdagi ta'lim. Shu sababli ham akademik S.Y.Batishev birinchilardan bo'lib ta'limning tashkiliy shakllarini turkumlashtirish (klassifikatsiya) guruxlarni tavsiya etadi. Yani;

- ta'lim jarayonining boshqarish bo'yicha o'qituvchining faoliyati turlari va mazmuni;
- ta'lim jarayonida o'quvchilarning faoliyat turlari va mazmuni;
- ta'lim o'tkazish joyi.

Ko'pchilik mualliflar ta'limining tashkiliy shakllari deganda o'quvchilarning faoliyatini tashkil qilish bilan bog'lashadi.

Ko'pchilik mualliflarning ta'limining tashkiliy shakllari xaqidagi muloxazalarini e'tiborga olgan xolda tashkiliy shakllarning quyidagi turkumini tavsiya etish mumkin:

- o'quv jarayonni xarakterlovchi dars, ekskursiya, maslahat berish (konsultatsiya) ishlab chiqarish ta'limining tashkiliy jarayonlari;
- o'quvchilarning o'zaro xaraktdagi xarakterlari bilan bog'liq ta'limning tashkiliy shakllari, frontal zvenoli, brigadali va yakka tartibda (individualniy)
- o'quv jarayonini o'tkazish joyi bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish ta'limining tashkiliy shakllari;
- ishlab chiqarish ta'lim ustasining guruhga bog'langanlik yo'li (sposob) bilan bog'liqlik tashkiliy shakl.

Yuqorida qarab chiqilgan ta'limning tashkiliy shakllari shartli ravishda belgilangan bo'lib, ko'rsatilgan birinchi shakl keng yoritilgan bo'lganligi sababli biz keyingilarga ko'proq to'xtalib o'tamiz. Ammo, shuni ta'kidlash zarurki, bu ta'limning hamma shakllari bitta maqsadga qaratilgan, ya'ni o'quv jarayonini maqbullash holatini tashkil etish va maqsadga erishish.

## **2. Ishlab chiqarish ta'limining ba'zi tushunchalari.**

Antonina Pavlovna Belyayevaning fikri bo'yicha ishlab chiqarish ta'limi jarayoni bu o'rgatuvchi, shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi jarayondir. Shuning uchun ham bu jarayonni boshqarish moslanuvchan (gibkoy) ijodiy va tezkor bo'lishi kerak.

Ishlab chiqarish ta'limi bu aqliy, fizik faoliyat natijasida kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv jarayonidir.

Ta'limning tashkiliy shakllarida quyidagi atamalar ko'a ishlatiladi (shakl, mazmuni, tashkiliy shakl).

Shakl bu mazmunining xar xil ko'rinishdagi (modifikatsiya) ko'rinishi – ko'rsatish, ifodalanish va turlardir.

**Mazmun** deganda tashkil etuvchi jarayon yoki elementlarning ma'lum tartibda umumlashtirilib tashkil etuvchi xodisa yoki predmet tushuniladi.

**Forma** bu o'quv jarayoni elementlarining o'zaro uzviy bog'langan, tuzilish jihatidan umumlashgan shakldir.

Shunday qilib ishlab chiqarish ta'limi **tashkiliy shakl**ining asosiy vazifasi butun o'quv jarayoni tizimi tuzilishini tashkil qilishdan iboratdir.

### **Ishlab chiqarish ta'limini tashkiliy shakllari tipologiyasi**

ICHT takomillashtirish ICHT mazmunidagi xilma xil elementlarni ajratib olish, ularni tartibga solish va ICHT tashkiliy shakllarini tipologiyasini targ'ib toptirish bilan bog'liq.

Tipologiya deganda odatda ilmiy tushunish–(poznaniya) usulini tushuniladi, uning asosida ma'lum xususiyatiga ega bo'lgan ob'ektlar tizimi va ularning turkumini umumlashtirilgan modeli yoki turi tushuniladi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidagi o'quv muassaslaridagi o'quv ishlab chiqarish jarayonining etakchi xarakteristikasidan biri bo'lajak mutaxassislarning unumli mehnatda ishtirok etishidir.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki ishlab chiqarish ta'limini amalga oshirish mumkin bo'lgan ob'ektlarni uch guruhga bo'lish mumkin: **o'quv, o'quv ishlab chiqarish ob'ektlari va ishlab chiqarish, muassasi.**

- **O'quv ob'ektlariga** o'quvchilarning unumli mehnatda ishtirok etmasliklari, yoki ular mahsulot chiqarishda qatnashmasliklari; o'quv ustaxonalari, laboratoriyalar, trenajerlar va boshqalar. Bu ob'ektlarda o'quvchilar asosan mashqli ularni amalga oshirib umummehnat va kasbiy malaka va ko'nikmalarni shakllantiradi;
- **O'quv ishlab chiqarish ob'ektlariga;** o'quv muassasidagi o'quv sexlari, o'quv ishlab chiqarish korxonalarida o'quv ishlab chiqarish ustaxonalari hada korxonalarda tashkil qilingan o'quv sexlari. Bu ob'ektlarning asosiy vazifasi o'quv ob'ektlarida ishlab chiqarish ta'limi jarayonida shakllangan umummehnat kasbiy malaka va ko'nikmalarni takomil-lashtirishdir. SHu bilan birga bu ob'ektlarda tayanch korxonaning buyurtmasi bo'yicha real mahsulotlarni ham chiqarishadi. Hamma o'quv ishlab chiqarilish korxonalarida ishlab chiqarish axamiyatiga ega bo'lgan o'quv ishlab

chiqarish ishlari bajariladi. Bu sexlarda har doim korxonalarining (zavodning) injineri, ustasi yoki tajribali ishchisi qatnashadi. Ular texnologik intizomni saqlash, maxsulotlarni komplektatsiya siklini kuzatishadi. Bu sexlarda o'quvchilarga pedagogik rahbarlik qilishini ICHT ustasi bajaradi.

- Ishlab chiqarish muassasi ishlab chiqarish ta'limi jarayoni amalga oshiriladigan orxonalar sexlari kiradi. Bu sexlarda o'quvchilar ishlab chiqarish ta'limini va amaliyotini amalga oshirishlari mumkin bo'lib, o'quvchilarga malakali ishchilar biritirilgan bo'ladi va ishlab chiqarish ta'limi ustasining o'rnini biroz bo'shlaydi. Bu erda o'quvchilar rejadagi maxsulotlarni tayyorlashadi va ish xaqini olishadi

### **Ishlab chiqarish ta'limining shakllari.**

Ishlab chiqarish ta'limi jarayoni ta'limning turli metodlarida foydalanilgan xolda turli ko'rinishda amalga oshiriladi.

**Ta'lim shakllari** deganda o'quvchilarning o'quv ishlab chiqarish faoliyati xususiyatining belgilovchi ta'lim jarayonini tuzish usullari, bu faoliyatga ustozning rahbarligi va mashg'ulot tuzilishi tushuniladi. O'quv jarayonini tashkil etish shakllari bilan o'quvchilar o'quv ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etish shakllarini bir biridan farqlay olishi kerak.

ICHT asosiy vazifasi o'quvchilarda o'qish faoliyatini uning har xil bosqichlarida shakllantirishdan iboratdir.

ICHT quyidagicha klasifikatsiyalanadi:

1. O'quv jarayonini o'tkazish joyiga qarab;
2. O'quvchilarning o'quv faoliyati turli ko'rinishiga qarab;
3. Ishlab chiqarish ustasining o'quvchilarga biriktirib qo'yilganligiga qarab.

ICHT jarayonida ish ob'ektlari bo'lib: laboratoriya, trinajoylar, o'quv ustaxonasi, o'quv ishlab chiqarish ustaxonasi, o'quv sexi, korxonasi.

### **O'quv jarayonini o'tkazish joyi bilan bog'liqlikdagi ishlab chiqarish ta'limini tashkiliy shakllari.**

Ko'p xollarda ishlab chiqarish ta'limi (ICHT) xilma xil joylarda tashkil qilinadi. Ya'ni:

- Ishlab chiqarish ta'limini o'quv muassasining o'quv ustaxonalarida tashkil qilish;
- ICHT laboratoriyalarida tashkil qilishi;
- ICHT poligon sharoitlarida tashkil qilishi;
- ICHT trenajerlarda tashkil qilishi;
- ICHT o'quv sexlarida tashkil qilish;
- ICHT bazaviy korxonalar sexlarida tashkil qilish;
- ICHT ajratilgan (shtatli) ishchi joylarda tashkil etish.
- ICHT ishlab chiqarish sharoitida tashkil qilish.

1. ICHT o'quv ustaxonalarida tashkil etish. Bunda har bir o'quv muassasida har bitta kasb bo'yicha o'quv ustaxonalari tashkil etilgan bo'ladi. Bu o'quv ustaxonalari jixozlangan bo'lib, uning asosiy vazifasi o'quvchilarning texnika va texnologiya asoslarining o'rganishga, unumli mehnatni tashkil qilish va



umumehnat, kasbiy ko'nikma va malakalar asoslarini o'zlashtirishga asos yaratadi. O'quv ustaxonalari o'z navbatida o'quv ustaxonalari va o'quv ishlab chiqarish ustaxonalariga bo'linadi. O'quv ustaxonalari asosan mashqlar orqali umumehnat va kasbiy malaka va ko'nikmalar shakllantiriladi. Bunda unumli mehnat amalga oshirilmaydi ya'ni qatnashishmaydi.

O'quv ishlab chiqarish ustaxonalari esa ishlab chiqarish sharoitiga moslashtirilgan bo'lib, bu erda o'quvchilar ishlab chiqarish ta'limi dasturi asosida malaka va ko'nikmalarga ega bo'lish bilan birga unumli mehnat bilan shug'ullanadilar.

O'quvchilarga o'quv ustaxonalari va ishlab chiqarishning o'quv uchastkalarida ishlab chiqarish ta'limi berish jarayonini tashkil etishning asosiy shakli darsdir.

Ishlab chiqarish ta'limi darsi o'quvchilar yoshiga qarab odatda 6 yoki 7 soat davom etadi.

Ishlab chiqarish ta'limi darsining tuzilish uchta asosiy elementni; kirish instruktaji, o'quvchilarning mashqi (mustaqil ishi) hamda ularga ustozning joriy instruktaj berishi, yakunlovchi instruktajni o'z ichiga oladi.

**Kirish instruktaj**ining asosiy vazifasi—bo'lajak o'quv ishlab chiqarish jarayonining maqsadlari, uning shart-sharoitlari, bajarish vositalari, usullari va xususiyatlari shuningdek nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish usullari xaqida to'la va keng tasavvur berishdan iborat. Ustozning o'quvchilarga **joriy instruktaj** berishining asosiy vazifasi — o'quv ishlab chiqarish ishlari bajarilayotganida ularning faoliyatiga rahbarlik qilish, o'quvchilarning erishgan muvafaqiyatlarini nazorat hamda tahlil qilish, ularning bilimlari, ko'nikmalari, malakalarini tekshirish va baholashdan iborat.

**Yakunlovchi instruktaj**dan maqsad—darsga yakun yasashdir.

2. ICHT laboratoriyalarida tashkil etish. Ba'zi kasblar bo'yicha ICHT dasturlarida laboratoriya ishlarini bajarish ko'zda tutiladi. Masalan radiomexanizmlarni maishiy xizmat va radio televidion apparaturalarini sozlash, ta'mirlash bo'yicha mavzularni o'tishda laboratoriya ishi ko'zda tutilgan.

Laboratoriya ishlarini o'tishda o'quvchilarda nazariy bilimlar mustaxkamlanib, o'rganish jarayonida hisoblash ishlari bo'yicha malaka va ko'nikmalar shakllanadi.

O'quv laboratoriyalarida o'quv tadqiqot ishlari xaqida ham ishlar amalga oshirilishi mumkin bo'lib, ular maxsus uskunalar, priborlar, xarakatlanuvchan modellar, moketlar, mashina va mexanizmlar bilan jixozlangan bo'lib laboratoriyalarda o'quv faoliyat brigada, zveno shaklida tashkil qilinadi.

3. ICHT poligon sharoitida tashkil qilish ko'p xollarda o'quv sharoitida o'quvchilarda malaka va ko'nikmalarni shakllantirish uchun ishlab chiqarish aniq sharoit vositasini tashkil etib bo'lmaydi. Shuning uchun ham kasbiy malaka va ko'nikmalarni shakllantirishni amalga oshirish bo'yicha konstruksiyalar, katta gabaritli qurilmalar mashinalar, mexanizmlar bilan jixozlangan maydonlar tashkil qilinadi. Bu maydonchalarni poligonlar deb ataladi. Poligonlarga: avtotransport vositalari joylashgan, o'quv qurilma maydoni xilma-xil qurilma, mashina va mexanizmlar, kranlar xarakat maydoniga ochiq maydonlar, geologik va geodezik ishlarni amalga oshirish uchun o'quv dalalar va boshqalar kiradi.

O'quv poligonlarida quyidagi ishlar amalga oshiriladi. Q/x yo'nalishidagi o'quv muassasasi poligonda mashina va mexanizmlarni ishga tayyorlash va boshqarish, texnikaviy tizmat ko'rsatish; qurilish yo'nalishi bo'yicha yuklash, tushirish, tashish, ko'tarish o'rnatish va xakozolar.

Shunday qilib poligonlar o'quvchilarda ishlab chiqarish sharoitiga mos kelgan xolda ularda malaka va ko'nikmalari. SHakllantirish muammolari xal qilinadi.

4. ICHT trenajyorlarida tashkil qilish. Trenajyorlar bu ishlab chiqarish vositasini aniq tasvirlovchi va nazorat axborot qurilmasidir. Trenajyorlar yordamida o'quvchilarni ishlab chiqarish sharoitiga tayyorlash va kasbi bo'yicha malakaga ega bo'lishini ta'minlaydi. Ya'ni, trenajyorlarda ko'p martalab mashqlar qilinib ko'nikma va malakalar shakllantirilib so'ngra ishlab chiqarish sharoitiga o'tiladi ya'ni real moslama va qurilmalarga.

5. O'quv sexlarida ICHT tashkil etish. Bu yangi tashkiliy shakl bo'lib, bunda ishlab chiqarish ob'ekti ishlab chiqarish sharoitiga aniq moslashtirilgan. Ya'ni keyinchalik ishlashi mumkin bo'lgan muxit. Bu erda real maxsulotlarni chiqarish texnologiyasi asosida jixozlar joylashtirilgan bo'ladi va real sex sharoitini tashkil qiladi va o'quvchilar maxsulot ishlab chiqaradi.

Hozirgi vaqtda ko'p o'quv sexlari mavjud. Bular ayniqsa sanoat yo'nalishidagi, maishiy xizmat ko'rsatish, savdo sotiq va xakozo yo'nalishlarida.

6. ICHT tayanch korxonalarda tashkil etish. Bunda asosan o'z bilimlarini chuqurlashtirish, kasbiy malaka va ko'nikmalarni talab darajasiga ko'tarish, ilg'or ishlab chiqarish tajribalarini o'rganish, mustaqil ishlashga va ishlab chiqarish amaliyotini o'tkazishga tayyorlashni amalga oshiriladi.

7. SHtat ish joylarida ICHT amalga oshirish. Bunda asosan ishlab chiqarish bitiruv amaliyotlari amalga oshiriladi. Chunki korxonalar amaliyotga kelgan talabalardan o'zlariga rahbarlar tayinlashadi, bu esa juda muhim.

8. ICHT ishlab chiqarish sharoitida amlga oshirish. O'quvchilar ishlab chiqarish sharoitida ta'lim olayotganlarida o'quv jarayonlarini tashkil etishning shakllari quyidagilarnda iborat bo'ladi.

- O'quvchilarning o'quvchilar brigadalari tarkibida ta'lim olishi;
- Malakali ishchilar brigadalari tarkibida ta'lim olishi;
- O'quvchilarning malakali ishchilarga yakka tartibda biriktirib qo'yilishi.

Yuqorida aytib o'tilganidek ishlab chiqarish ta'limini tashkil etish shakllari bilan o'quvchilar o'quv ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etish shakllarini farqlay olish kerak. Frontal-gruppaviy, brigada va yakka tartibdagi faoliyat ana shunday shakllar jumlasiga kiradi. Ulardan har biri o'z afzalliklariga va kamchiliklariga ega bo'lib, o'quvchilarning ishlab chiqarish ta'limidagi muayyan sharoitlariga qarab tadbiq etiladi. O'quv jarayonini tashkil etish shakllari bilan o'quvchilar faoliyati shakllarini birgalikda ko'rib chiqish kerak.

Ishlab chiqarish jarayonining barcha asosiy tarkibiy qismlari, ya'ni maqsadi, mazmuni, o'quvchilarning o'quv faoliyati hamda ustozning o'qitish faoliyati (ta'lim berish shakllari va metodlari), ta'lim vositalari o'zaro chambarchas bog'langandir. O'quv jarayonining turli bosqichlarida ta'limning maqsadlari uning mazmunini belgilaydi; ta'lim metodlari va vositalari ko'p jihatdan ta'lim

mazmuniga bog'liq. O'quvchilarning o'quv faoliyati hamda ustozning o'qitish faoliyati o'zaro chambarchas bog'langan bo'lib, birgalikda kechadi va bir-biriga tuzatishlar kiritib turadi.

Ishlab chiqarish ta'limi o'quv jarayonini o'tkazish joyi bilan bog'langandir.

## **II. O'quvchilarning o'quv faoliyatiga qarab ishlab chiqarish ta'limining tashkiliy shakllari**

O'quvchilarning o'quv faoliyati bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish ta'limining tashkiliy shakllarini turkumlashda (klassifiatsiyalashda) asosan o'quv materialining mazmunida kelib chiqiladi va ko'pchilik mualliflar klassifikatsiyasida

Ishlab chiqarish ta'limini tashkil qilishning-ya'ni o'quvchilar faoliyatining quyidagi shakllari mavjud frontal, gruppali (brigada, zveno) va individual (yakka-yakka).

O'quvchilarning biror ishni bajarishda frontal va individual ishlab chiqarish ta'limi shakllari shartlidir, chunki, o'quvchilar frontal ish bajarгани bilan har bitta o'quvchi o'zi individual ish bajaradi. Shuning uchun bu erda ish bajarish oxirgi natijaga yo'naltirilgan bo'lishi bilan uni har bitta o'quvchi engil bajaradi. Olingan natija brigadasi (frontal) bo'ladi bajarilishi individual. Shuning uchun kompleks xarakterga ega bo'lgani uchun uni kollektivli ya'ni jamoaviy deyinish mumkin.

Shu sababli ishlab chiqarish ta'limini tashkil qilishning ikkita shakli bor desa ham bo'ladi, ya'ni: jamoaviy va individual.

O'quv jamoaviy shakl o'z ichiga: gruppali, brigadali va zvenoli ishlab chiqarish ta'limini tashkil qilish shakllarini oladi.

### **Shunday qilib:**

- **Ta'limning frontal** shaklida hamma o'quvchilar bir xil asbobda bir xil, ish bajaradi va bir xil materialni bir vaqtda o'rganishadi.
- **Ta'limning gruppali** shaklida o'qitish gruppaning hamma a'zolarini ishlab chiqarish ta'limi mavzusini o'rganishadi va ularda bir xil malaka va ko'nikmalar o'qitish vositalari yordamida amalga oshiriladi. Ta'limning bu shakli o'quvchilarda boshlang'ich rejani va ko'nikmalarni shakllantirish bilan xarakterlanadi.
- **Ta'limning brigada shaklida** o'qitish usulida brigada a'zolarining (gruppasining) ishlab chiqaradigan mahsulotining o'zaro bog'liqligi bilan xarakterlanadi, (nooperatsiya shakli) va jamoaviy javobgar hissi shakllanadi. Agarda ohirgi natija brigada a'zolari orqali olinmasa u holda zvenoli o'qitish shaklidan foydalaniladi. Bu murakkab mahsulotlarni ishlab chiqarishda qo'llaniladi. Zvenoli o'qtishi shaklini o'quv ishlab chiqarish ustaxonalarida, o'quv sexlarida va qisman ishlab chiqarishda qo'llash mumkin.
- Yakka tartibda o'qitishni tashkil qilish shakli asosan laboratoriya sharoitida ishchilar jamoasidagi ICHTda va bo'lajak shaxsiy ish joylaridagi amaliyot davrida qo'llash mumkin.

## **III. O'quv jarayonini boshqarish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish ta'limining tashkiliy shakllari**

a) Ishlab chiqarish ta'limi ustasining faoliyatini tashkil qilish.

Yangi ta'lim mazmunini o'quv jarayoniga qo'llash ishlab chiqarish ustalar faoliyatini qayta qarab chiqishni taqozo etmoqda. Ya'ni ilgari har bir usta bitta gruppaga biriktirib qo'yilib faqat shu gruppaga bilan ish olib borgan bo'lsa, endi bu ta'lim mazmuni ularni ixtisoslashtirishni taqozo etmoqda. Chunki, ishlab chiqarish ta'limi bo'limlari murakkablashib bormoqda. Shuning uchun usta uning hammasini mukammal bilishi qiyin.

Xozirgi paytda ba'zi o'quv muassasalarida ishlab chiqarish ustalarini o'quv ustaxonalariga, laboratoriyalarga hamda guruxlarga biriktirib qo'yilmoqda. Ustaxona yoki laboratoriyalarga biriktirilgan ustalar o'quv reja va dastur mazmuniga oid hamma guruhlarda dars olib boradi. Shu bilan birga guruhga biriktirilgan ishlab chiqarish ustasi laboratoriya yoki ustaxonaga biriktirilgan usta bilan birga o'zining pedagogik faoliyatini olib boradi. (Bu VNII protexobrazovaniyaning ba'zi o'quv muassasalarining ximiya profilida yaxshi natija beradi).

**O'quv ustaxonasiga** biriktirilgan ishlab chiqarish ustasi ishlab chiqarish ta'limi jarayonida bir vaqtning o'zida tarbiyaviy ishlarni ham olib boradi.

**Guruhga biriktirilgan** usta o'z guruhidagi o'quvchilarda bilim olishga bo'lgan intilishlarni oshirish, qiziqtirish. Ularda intizomni mustahkamlash, o'qishdan tashqari faoliyatni boshqarish kabi hususiyatlari uchun javobgarlar bo'ladi.

Ishlab chiqarish ustalari o'rtasida rejalashtirish ishlarini olib borishning quyidagi turlari tavsiya etiladi.

Rejalashtirish hujjatlari:

laboratoriya-ustaxonalar ustasi.

- hamma guruxlar uchun laboratoriya.
- Amaliy mashqlar va ishlab chiqarish ishlari ro'yxatini hamma guruxlar uchun tuzish;
- bir oylik ish rejasi hamma guruxlar uchun tuzish;
- istiqbolli-tematik ish reja (ishlab chiqarish uchun);
- ishlab chiqarish ta'limining majmuaviy-uslubiy ta'limning tematik ro'yxati;
- ishlab chiqarish ta'limining dars rejasi;
- ishlab chiqarish ta'limini nazorat qilish ishlar ro'yxati;
- o'quv ustaxona, laboratoriyalarni jihozlash rejasi;
- texnik ijadkorlik ish rejasi;
- mustaqil uslubiy ishlar ro'yxati.
- O'quv guruhi ustasi tuzadi:
- guruhning butun o'quv davri uchun tarbiyaviy ishlar istiqboli rejasi;
- bir oylik tarbiyaviy ishlar rejasi;
- mustaqil bajaradigan uslubiy ishlar.
- o'quv ustaxonasi-laboratoriya ustasi bilan uning ish rejalarini tuzishda qatnashish.

**b) Hisobga olish hujjatlari.** O'quv ustaxonasiga biriktirilgan usta:

- dastur bo'yicha ishlab chiqarish ta'limi hisobga olish jurnali;

- o‘quv ustaxonasida guruhlari tomonidan ishlab chiqarish faoliyatining bajarilishini hisobga olish.

**Guruh ustasi:**

- Bazaviy korxonalar, sexlarda ishlab chiqarish ishlarining bajarilishi hisobi;
  - Malakaviy imtihonlar topshirish bayonnomalari.
- v) **Hisobot hujjatlari.** Ustaxonaga biriktirilgan usta:
- Hamma guruhlarning o‘quv ustaxonada bajarilgan ishlab chiqarish ta’limi natijalari;
  - ustaxona (laboratoriya) larning o‘quv uslubiy ta’minotirejasining bajarilganligi.

**Guruh ustasi:**

- guruhlarning ishlab chiqarish ta’lim faoliyati bo‘yicha bajarilgan ishlar yig‘ma (umumlashgan) hisoboti.
- ishlab chiqarish amaliyoti o‘tkazilganligi haqida hisobot.
- tarbiyaviy ishlarning bajarilganligi haqida hisobot.

Ishlab chiqarish amaliyoti jarayonida bajariladigan ishlarga: ijtimoiy, psixologik, fiziologik jixatdan ishlab chiqarish sharoitiga ko‘nikish bilim va malaka va ko‘nikmalarini aniqlashtirish va mastaxkamlash, mustaqil ish bajarish, ilg‘or texnologiyalarni, yangi jixoz va uskunalarda, mexanizatsiyalashtirish vositalarini, yuqori unumli asboblardan va moslamalarni, isg‘or, navator ishlab chiqarish xodimlarining ishlari bilan tanilishi, zavod-korxonalarining texnika-texnologik xujjatlari bilan tanishish, ish joyini ilmiy asosda tashkil etish, bilimlarini amalda qo‘llashni o‘rgatishlari kiradi.

Amaliyot jarayonida o‘quvchilarning amaliyotini tashkil etish: o‘quv guruhlari, o‘quv brigadalari, malakali ishchilar brigadasida, mustaqil ish joyida tashkil qilinishi mumkin.

### **§ 2.3. Ishlab chiqarish ta’limini rejalashtirish**

O‘quvchilarning bilim darajasi, kasbiy ko‘nikma va malakalari hamda uning sifati ko‘p jihatdan o‘quv tarbiyaviy jarayoni to‘g‘ri tashkil etish, mashg‘ulotlarni **rejalashtirish** va ularga **tayyorgarlik** ko‘rishga bog‘liqdir.

Rejalashtirish-tayyorgarlikning bir qismi bo‘lib, rejalashtirish xujjatlarida ustozning mashg‘ulotlarga tayyorgarlik natijalari aks ettiriladi.

Ishlab chiqarish ta’limini rejalashtirishga oid asosiy hujjatlar quyidagilardan iborat.

- A) Kasb bo‘yicha o‘quv-ishlab chiqarish ishlarining ruyhati;
- B) Guruhning 1 oylik o‘quv-ishlab chiqarish ta’limi rejasi;
- V) Ishlab chiqarish ta’limining dars rejasi.

### **REJALASHTIRISH HUJJATLARI:**

#### **Kasb bo‘yicha o‘quv ishlab chiqarish ishlarining ruyxati**

Bu ro‘yxatni katta ustoz ishlab chiqarish ta’limi ustozini bilan birgalikda tutadi. Har qanday ishlab chiqarish ta’limi dasturida o‘quvchilar o‘quv tarbiyaviy jarayonida qanday mehnat usullari va ish turlarini bilim, unga ega bo‘lishlari

ko'rsatilgan bo'ladi. SHuning uchun ham kasb bo'yicha o'quv ishlab chiqarish ishlari ruyhati uquv muassasining katta ustozlari bilan birgalikda ishlab chiqarish ta'limi ustozlari bilan birgalikda tuziladi. (2-jadval).

O'quv-ishlab chiqarish ishlari ruyhatini tuzishning asosi-o'quvchilar kasb bo'yicha zarur ko'nikma va malakalarini o'zlashtiradigan ish ob'ektlarini tanlashdir.

O'quv-ishlab chiqarish ishlarini tanlashda quyidagi talablarga amal qilish zarur:

- ishlar kasbga xos bo'lishi lozim;
- o'quv ishlab chiqarish ishlarini bajarilayotganida o'quvchilar egallaydigan ko'nikma va malakalar o'quv dasturiga mos bo'lishi lozim;
- ishlar murakkablik, aniqlik va ularning sifatiga nisbatan talablar darajasi bo'yicha o'quvchilarning ta'limning mazkur bosqichidagi kasb mahorati va ularning texnika bilimlari darajasiga muvofiq bo'lmog'i lozim;
- tanlanadigan o'quv-ishlab chiqarish ishlari bir mavzu doirasida ham mavzudan-mavzuga o'tib borgan sari ham asta-sekin murakkablashib bormog'i lozim;
- tanlanadigan o'quv-ishlab chiqarish ishlari shakli, konfiguratsiyasi, materiallari xajmi, texnika talablari, bajarishda qo'llaniladigan usullar, sarflanadigan vaqt va xokazolar bo'yicha xilma-xil bo'lishi kerak. Bu esa ishlarning turli usullari, operatsiyalari va xarakatlarini bajarishda kasb ko'nikmalari va malakalarining keng doirasi shakllantirish imkonini beradi.

O'quv ishlab chiqarish ishlari tayanch korxonalarining buyurtmalaridan, hunar ta'limi organlarining ishlab chiqarish buyurtmalaridan, shuningdek uskunalarning remont qilish, o'quv ustaxonalaridagi asbob-uskunalar va moslamalarni, bilim yurtining xonalari va laboratoriyalari uchun ko'rgazmali qurollar va priborlar tayyorlash sohasidagi ishlardan tanlab olinadi.

O'quv ishlab chiqarish ishlari ro'yxatiga nisbatan muhim talablardan biri uning barqaror bo'lishidir. Bu narsa o'quv ustaxonalarining o'quv material bazasini vujudga keltirish va mustahkamlashda, ishlab chiqarish ta'limini zarur yo'riqnomali va texnologik hujjatlar bilan ta'minlashda yordam beradi.

Ta'limning boshlang'ich davrida o'quv-ishlab chiqarish ishlarini operatsiyalar bo'yicha bajarishni qo'llash maqsadga muvofiqdir. O'quv ishlab chiqarish ishlari ro'yxatiga kiritilgan har bitta ishga o'quv texnikaviy hujjatlar: chizma, texnologik karta ishlab chiqiladi. Chizma texnik talablar asosida chizilgan, aniq, o'lchamlari to'g'ri, dopusklari qo'yilgan (ruxsat etilgan chetlanishlar) bo'lishi kerak. Texnologik kartada zagolovka o'lchamlari, ishlatiladigan asbob-uskunalar, moslamalar, o'lchash asboblari, ishlov berish rejalari, ishlov berish vaqtihamda ishni bajarishga oid ko'rsatmalar berilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

2-jadval

## O'quv-ishlab chiqarish ishlar ro'yxati

Tasdiqlayman  
O'quv ishlab chiqarish ishlari  
bo'yicha direktor muovini  
«\_\_» \_\_\_\_\_ 200\_\_ y.

o'quv yili, yarim yillik o'quv yili

Guruh № \_\_\_\_\_ Kasbi \_\_\_\_\_ Kursi \_\_\_\_\_

Mavzuni o'rganish oyi, kuni	Dasturdagi mavzu, mavzucha	Mavzu va mavzuchalarni o'rganishga ajratilgan vaqt				O'quv ishlab chiqarish ishlari		Ishning murakkabligi	Ish vaqti normasi	O'quvchilik ish vaqti normasi	Bitta o'quvchi bajaradigan ishlar soni	Bajarganlik haqida belgi
		hammasi	bundan			Nomi	CHizma, detallar nomeri					
			Instruktaj uchun	Mashqlar uchun	Ishlab chiqarish faoliyati uchun							
1.	2.	3.	4.	5.	6.	7.	8.	9.	10.	11.	12.	13.

## 2. Guruhning 1-oylik o'quv ishlab chiqarish ta'limi ish rejasi

Guruhning ishlab chiqarish faoliyatining rejasidir. Bu reja bir guruh o'quvchilarning o'quv ishlab chiqarish topshiriqlarining aniq mazmunini, ularni bajarish izchilligini va tashkil etilishini belgilab qo'yadi.

U o'quv ishlab chiqarish ishlari ro'yxati, o'quv rejasi va ishlab chiqarish ta'limi dasturi asosida bir oyga mo'ljallab tuziladi (jadval - 3).

3-jadval

### Guruhning o'quv ustaxonasidagi bir oylik o'quv ishlab chiqarish faoliyati rejasi

Guruh № \_\_\_\_\_ 200\_\_ yilning dekabr oyi

Kasbi \_\_\_\_\_ 200\_\_ yil. Kursi (bosqchi) \_\_\_\_\_

Ishlab chiqarish ta'limi ustasi \_\_\_\_\_  
(ismi, sharifi, familiyasi)

Guruhdagi o'quvchilar soni \_\_\_\_\_

Guruhning ishlab chiqarish faoliyati uchun o'quv vaqtining umumiy hajmi \_\_\_\_\_ soat.

Dasturning mavzusi va mavzuchasi	Mavzu va mavzuchaga ajratilgan soat	O'quv ishlab chiqarish ishlari nomi	Guruh bajaradigan ishlar soni	Bitta ishni bajarish uchun o'quvchiga ajratilgan vaqt me'yori (normasi)	Guruhga ajratilgan umumiy soat	Eslatma

Grappa ishlab chiqarish ta'limi (ishlab chiqarish faoliyati) rejasi tuzilayotganda grappa ishlab chiqarish faoliyatiga ajratilgan o'quv vaqtining umumiy fondi asosiy omil bo'lib, bu quyidagi formula asosida hisoblab chiqiladi.

$$T_{i.ch.f} = (T_{i.ch.t} - T_i - T_m) \times T_n$$

Bu erda

$T_{i.ch.t}$  – o'quv dasturiga muvofiq muayyan davr uchun ishlab chiqarish ta'limiga ajratilgan vaqtning umumiy miqdori;

$T_i$  – kirish va yakunlovchi instruktajlarda o'tkazish uchun zarur vaqt (kuniga 1 soat qabul qilingan);

$T_m$  – amaliy mashqlarini bajarishga ajratilgan vaqt;

$T_n$  – guruhdagi o'quvchilar soni;

$T_{i.ch.f}$  - hisoblab chiqilayotganda ayrim o'quvchilarning soni.



Betoblighi va boshqa sabablarga ko'ra o'quv vaqtining yo'qotishlari e'tiborga olinmaydi ya'ni sof vaqt bo'yicha olib boriladi.

Bir oylik ishlab chiqarish ta'limi rejasini tuzishda rejaga kiritilgan ish birligiga o'quvchilar uchun vaqt normasini belgilash zarur. O'quvchilarning vaqt normasi quyidagi formula bo'yicha belgilanadi:

$$T_{o'q} = T_d + T_{t.ya.} / Z \times K$$

Bu erda:

$T_d$  – danoboy vaqt normasi (ish birligini bajarishning hisobdagi normasiyoki tayanch korxonada qabul qilinganvaqt normasi olinadi);

$T_{t.ya.}$  – tayyorgarlik, yakunlovchi vaqt (ma'lumotnoma bo'yicha hisoblab chiqiladi yoki bilim yurti tajribasiga asosan hisobga olinadi);

Z-turkumdagi detallar (buyumlar, ishlar) soni;

K-o'tkazish koeffitsienti (ishning murakkabligiga va ta'lim davriga qarab jadvallar bo'yicha belgilanadi).

O'tkazish koeffitsientini belgilash uchun koeffitsientlar jadvalidan foydalanish ham mumkin.

Ishlab chiqarish ta'limini rejalashtirish hujjatlari jumlasiga o'quv-ishlab chiqarish ishlari yoppasiga bajarilmaganda o'quvchilarning bir ish o'rnida ikkinchisiga o'tkazish grafigi, o'quv xo'jaligida (kolxoz, sovxozda) yil mavsumiga qarab qishloq xo'jalik ishlarini bajarish rejasi, mashina, traktor agregatlarda ishlashga tayyorgarlik bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish rejasi, mashina xaydashga o'quvchilarni yakka tartibda o'rgatishning-reja grafigi kiradi. Bu hujjatlarning shakllari va mazmuni ham instruksiyada keltirilgan.

### **3. Ishlab chiqarish ta'limida istiqbolli tematik reja**

Dars rejasi-mavzu bo'yicha aniq dars o'tkazish uchun asosiy rejalashtiruvchi hujjatdir. U ustoz tayyorgarlik ishining ntijasi bo'ladi. Dars rejalarini bir andazadagi majburiy shakllari belgilab qo'yilmagan, chunki reja shakli uning mazmuni, o'tkazish metodlari, mavzu materialini yoritish darajasi kabi dars mazmuniga, uning ta'lim va tarbiya maqsadlariga, kelgusida ishlar xususiyatiga, mashqlarni tashkil etishga, ustozning mahoratiga qarab o'zgarib turadi. quyida remontchi, slesarchi slesarlar uchun «Kesish» mavzusini o'rgatish paytida ishlab chiqarish ta'limi darsi rejasining namunasi keltiriladi. Unda darslarning ana shunday rejalarini namuna sifatida foydalanish mumkin.

Ishlab chiqarish ta'limi ustozlari uchun ishlab chiqarish ta'limi istiqbolli rejasini tuzish majburiydir. Bunda har bitta mavzu (dasturdagi) darslarga bo'linadi. Masalan: metallarga ishlov berish yo'nalishidagi tokar ixtisosligi bo'yicha dasturdagi «Tashqi yuzalarga ishlov berish, chekkalarini kesish va qirra (chiziqlari) oxirini kesish» mavzusini darslarga quyidagicha bo'lish mumkin: tekis silindrni yuzalarga ishlov berish, kichik diametrlil o'simtalar va hokazo. Quyida ishlab chiqarish ta'limi darsi rejasini namuna sifatida qarab chiqamiz.

## **Ishlab chiqarish ta'limi darsi rejasi**

*1. Mavzu:* Qavariq qiyshiq chiziqli yuzalarni egovlash, yuzalarni egovlashda uzil-kesil ishlov berish.

Maqsad: O'quv maqsadi- o'quvchilarda qavariq qiyshiq chiziqli yuzalarni egovlash malakalarini shakllantirish va egovlab bo'lingandan keyin yuzalarga ishlov berish.

Tarbiya berish - asbob-uskunalar va materiallarga ehtiyotlik bilan munosabatda bo'lish, ishda tartiblilik odatini tarbiyalash.

Rivojlantirish - ko'z bilan chamalash va g'adir-budir yuzalarni farqlay bilish qobiliyatini o'stirish.

*2. O'quv ishlab chiqarish ishlari:* yumaloq muhrali bolg'aning qiyshiq chiziqli yuzasiga ishlov berish. Bolg'a yuzasiga uzil-kesil ishlov berish.

*3. Darsning o'quv moddiy jihozlanishi:* egovlar to'plami, o'lchov asboblari, instrukcion kartalari, chizmalar to'plami, (o'quvchilar soga qarab) Plakat va «Qiyshiq chiziqli yuzalarni egovlash» diafilmi. O'quvchilar soniga qarab yumaloq muhrali bolg'alar tayyorlash.

### **Darsning borishi:**

1. Tashkiliy qism-5 minut (o'quvchilarni safga turg'azish, navbatchining raporti, o'quvchilarning darsga tayyogarliligini tekshirish).

2. Kirish instruktaji- 35 minut.

Mavzu va darsning maqsadini (o'quv va rivojlantiruvchi) ma'lum qilish.

O'quvchilar bilimini tekshirish. O'quvchilarga quyidagi savollarni berish:

Qavariq qiyshiq chiziqli yuzalarni egovlashda egovlarning qanday turlari qo'llaniladi.

Ishlar qanday ketma-ketlikda bajariladi?

Bolg'aga uzil-kesil ishlov berishda qanday asboblar ishlatiladi?

Qiyshiq chiziqli yuzalarni egovlash sifatini kontrol qilishning qanday usullari mavjud?

*3. O'quvchilarga dars materialini bo'yicha kirish yo'rig'ini o'tkazish.* Qavariq qiyshiq chiziqli yuzhalarga ishlov berish tartibini bayon qilish (diafilm ko'rsatish).

Qavariq qiyshiq chiziqli yuzalarni egovlashning ketma-ketligi va asosiy usullarini ko'rsatish (instruksion karta muvofiq). Ehtimol tutilgan hatolarni ko'rsatish (shablonning profilga to'g'ri kelmasligi, harakatning ngto'g'ri kordinatsiyasi, egovlangan yuzaning dag'al uzil-kesil ishlanishi).

Hatolarga yo'l qo'yimaslikning asosiy usullarini ko'rsatish.

Egovlash sifatini kontrol qilishning asosiy metodlari; usullarini ko'rsatish. O'quvchilarni operatsiyalarni bajarishga ketadigan vaqt normasi bilan tanishtirish.

Mahsulot sifatiga qo'yiladigan talablar bilan tanishtirish. Xavfsizlik texnikasi qoidalarini eslatish.

*4. Kirish instruktaj materialini mustahkamlash.* O'quvchilarga quyidagi savollarni berish:

Berilgan muhraning qiyshiq chiziqli yuzasining egovlag'ish sifati aniqlansin.

O'lchamlarning chizmaga to'g'ri kelishini aniqlash.

Ishlov berilgan yuzaning tozaligini qanday-yaxshilash mumkin?

Berilgan zagotovkada tomonlarning paraleligini ko'z bilan chamalab aniqlash.

Berilgan muhralarning qaysi biri eng toza ishlov berilganligini ko'z bilan chamalab aniqlash. Qaysi biriga sifatsizroq ishlov berilgan?

Ba'zi o'quvchilarga ko'rsatilgan usullarni takrorlashni tavsiya qilish.

5. *O'quvchilarning mustaqil ishlari va joriy instruktaj* - 5 minut.

1. Ishning tartibi va mazmuni. O'quvchilar bolg'a muhrasi qavariq qiyshiq chiziqli yuzasini egovlash va unga uzil-kesil ishlov berish bo'yicha mustaqil ishni bajaradilar.

2. O'quvchilarning ish o'rinlarini aylanib chiqishdan asosiy maqsad:

2.1. Xavfsizlik texnikasi, ish o'rnini tashkil qilish qoidalariga rioya qilinishini tekshirish.

2.2. Ish usullarining to'g'riligini tekshirish.

2.3. O'quvchilarning ishlaridagi asosiy xotalarni, ularni bartaraf qilish usullarini ko'rsatish, kollektiv instruktaj o'tkazish.

6. *Yakuniy instruktaj* – 15 minut.

Instruktaj asosiy masalalari: o'quvchilar ishini tekshirish va qabul qilish.

O'quvchilar yo'l qo'yigan tipik xatolarni tahlil qilish. Eng yaxshi ishlarni qayd etish.

Darsda har bir o'quvchining ish yakunini e'lon qilish.

7. *Uyga vazifa berish*: yumaloq muhrali bolg'a tayyorlashning instruksion-texnologik kartasini tuzish.

Ishlab chiqarish ta'limi ustasi \_\_\_\_\_ / imzo /

### **Nazariy ta'lim darsining rejasi**

**1. Dars mavzusi** - Tikuvchilikda qo'lda bajariladigan ishlar uchun foydalaniladigan asbob va moslamalar.

#### **2. Maqsad:**

a) ta'lim berish-o'quvchilarda qo'lda bajariladigan ishlar uchun zarur bo'lgan asbob va moslamalar ularning turlari, ishlatilishi to'g'risidagi tushunchalar va bilimlarni shakllantirish;

b) tarbiya berish- asbob uskunalarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish va ulardan xavfsizlik choralariga rioya qilgan holda foydalanish odatini tarbiyalash;

v) rivojlantirish- har bir asbob va moslamaning turini bilgan holda, ularni bajariladigan shunga qarab mos ravishda nomlay olish qobiliyatini o'stirish.

#### **3. Darsning o'quv moddiy ta'minoti.**

##### **Darsning borishi:**

1. Tashkiliy qism (navbatchi tayinlash, davomatni aniqlash va o'quvchilarni darsga tayyorgarligini tekshirish).

2. O'tilgan materialni savollar bo'yicha takrorlash: a) qo'lda bajariladigan ishlar uchun ish o'rnini qanday tashkil etiladi? b) ish vaqtida zarur bo'ladigan asboblarning ishchining qaysi tomonida bo'lishi kerak? v) ish davomida detal va

- chala fabrikatlarni joylashtirish uchun qanday moslama zarur bo'ladi? g) qo'l turlarini yuajarishda qanday xavfsizlik choralariga rioya qilish kerak?
3. Darsning mavzusi va ta'lim berish maqsadini e'lon qilish.
  4. Yangi materilani savollar bo'yicha o'rganish: a) qo'lda bajariladigan turlarda ishlatiladigan asboblari; b) qo'l ishlari, ularning turlari va vazifalari; v) iplar ularning turlari va ishlatilishi; g) angishvona, uning vazifasi va turlari; d) tikuvchilikda foydalaniladigan qaychilar, ularning vazifalari va turlari; e) santimetr lenta va uning vazifasi; j) pichoqli halqa, uning vazifasi; z) qoziqcha va ularning vazifasi.
  5. O'quv kinofilmini fragmentlarini namoyish qilish; «Tikuvchilikda asbob va moslamalardan foydalanish».
  6. Darslik bilan mustaqil ishlash: darslikdan foydalanib asboblarning o'lchamlari bo'yicha taqsimlangan talitsani chizish.
  7. Materialni savollar bo'yicha mustahkamlash: a) qo'lda bajariladigan ishlarda qanday asbob va moslamalar ishlatiladi? b) qo'l ishlarida ishlatiladigan igna, qaychi, angishvona va iplarning qanday turlari mavjud? v) santimetr lenta qanday vazifani bajaradi? g) monekli qanday vazifani bajaradi?
  8. Uyga vazifa: o'tilgan mavzuni o'qib, o'rganib, tikuvchilikda ishlatiladigan va lekollar, rasmlarini daftarga chizish, o'qib, o'rganib kelish. (Darslik) Adabiyoti: T.T. Truxanova «Tikuvchilik texnologiyasi asoslari» T. «O'qituvchi» nashr. 1996 y. 66. 74 betlar.  
Darsni yakunlash: (darsga faol qatnashgan o'quvchilarni baholash).

### **Kasbiy ta'lim o'qituvchilarning mashg'ulotlariga tayyorlash**

Mashg'ulotlarga tayyorgarlik uch bosqichdan iborat, ya'ni:

1. Perspektiv (istiqbolli) tayyorgarlik-o'quv yiliga va navbatdagi mavzusini o'tishga tayyorgarlik;
2. Mavzuni o'rganish-tayyorgarlik. Tayyorgarlikning har bir bosqichi ustozning shaxsan tayyorgarligini, o'quv material qurollarini tayyorlashni va o'quv jarayonini rejalashtirishni o'z ichiga oladi. Ustoz tayyorgarligi mazmunining asosiy masalalari.
3. Joriy tayyorgarlik- navbatdagi darsga tayyorgarlik.

### **Kasbiy ta'lim o'qituvchisining o'quv yiliga tayyorgarligi**

*Shaxsiy tayyorgarligi:*

- kasb buyicha kasbiy tavsiflarni, amaliy kasbiy ta'lim rejasi va dasturlarini, texnik va pedagogik adabiyotlarni o'rganish;
- pedagogik konferensiyalar va ilgor tajriba maktablari ishlarida ishtirok etish; ilgor korxonalarda malaka oshirish;
- o'quvchilarni kasbga yo'llash ishlarida kollejga va guruhga o'quvchilar qabulida ishtirok etish;
- o'quv - ishlab chiqarish ishlaridan namunalarni tayyorlash.

*O'quv - moddiy jihozlashga tayyorgarligi:*

- o'quv darslarida, mehnat muhofazasi me'yorlari va qoidalari talablariga mos

holda o'quv ustuxonalari, laboratoriyalari, o'quv ishlab chiqarish maydonchalari hamda kasbiy ta'lim o'qituvchisi ish o'rinlarini o'quv yiliga tayyorlash;

- moslamalar, jihozlar, ko'rsatmali qo'llanmalar hamda ta'limning texnik vositalarini tayyorlash va ta'mirlash.

*O'quv jarayonini rejalashtirish:*

- o'quv - ishlab chiqarish ishlari ruyxati va guruhning o'quv tarbiyaviy ishlari istiqbolli rejalarini tayyorlashda, o'quv ishlab chiqarish faoliyati rejalarini, vaqt (ishlab chiqish) me'yorlari va o'quv ishlab chiqarish ishlariga texnik talablarni hamda amaliy kasbiy ta'limning majmuaviy o'quv – metodik ta'minoti rejalarini ishlab chiqishda ishtirok etish;
- o'quv - texnik hujjatlar, yozma yo'riqnoma hujjatlari va baholash mezonlarini ishlab chiqish.

### *Kasbiy ta'lim o'qituvchisining mavzuni o'rganishga tayyorgarligi*

Shaxsiy tayyorgarlik. Mavzu bo'yicha metodik va texnik adabiyotlar hamda axborot materiallarini o'rganish.

Mavzu materiallari bo'yicha yozma yo'riqnoma hujjatlari, majmuaviy fanlararo vazifalar va uyga vazifalarni tayyorlash yoki ishlab chiqish.

O'quv - moddiy jihozlashga tayyorgarligi. Mavzuning o'quv materialiga taallukli o'quv - ishlab chiqish ishlarini aniqlash, materiallar tanlash va maxsus asbob – uskunalarni tayyorlash.

Mavzuni o'rganishda qo'llaniladigan o'quv - moddiy jihozlar, o'quv va texnik hujjatlarning mavjudligini tekshirish va ularni foydalanishga tayyorlash.

O'quv jarayonini rejalashtirish. O'quvchilar tomonida o'rganilgan va mavzu materiali bilan bog'lik maxsus va umumkasbiy fanlarning o'quv materiallari tahlili.

Mavzu materiallarini kichik mavzular va darslarga taqsimlash, darslar, darslar mazmuni va maqsadini belgilash.

Mavzuni o'rganishning istiqbolli - mavzuiy rejasini tuzish.

O'quvchilarning ish o'rinlari, ish turlari va h.k. lar bo'yicha almashinish jadvalini ishlab chiqish.

### *Amaliy kasbiy ta'lim o'qituvchisining darsga tayyorgarligi*

Shaxsiy tayyorgarligi. O'tilgan dars mavzui bo'yicha ilg'or tajriba materiallari, metodik va texnik adabiyotlar hamda axborotlar materiallarini o'rganish.

Ish bajarish bo'yicha mehnat usullarini ko'rsatishga tayyorgarlik ko'rish.

O'quv - moddiy jihozlashga tayyorgarligi. Darsda o'quv ishlab chiqarish ishlarini bajarish uchun materiallari, maxsus asbob - uskunalar va boshqa jihozlarni tayyorlash va tekshirib ko'rish.

Darsda foydalanish uchun o'quv va texnik hujjatlar, ko'rsatmali qo'llanmalar va ta'limning texnikaviy vositalarini tayyorlash.

O'quv jarayonini rejalashtirish. Oldingi mashg'ulotlarning yakunlarini tahlil qilish, keyingi darsning mavzusi, maqsadi va mazmunini aniqlash.

Darsning tuzilishi va uning har bir tarkibiy qismi bo'yicha vaqtini belgilash.

Kirish yurig'ini o'tkazish mazmuni, metodlari va metodik usullarini aniqlash.

Dars rejasi va kirish yo'rig'ining matnini tuzish, o'quvchilarga beriladigan uyga vazifalarni belgilash.

### **III-BOB. KASBIY TA'LIMDA O'QITISHNI TASHKIL QILISH ASOSLARI**

#### **§ 3.1. Pedagogikada o'qitish metodlarining asosiy masalalari**

O'qitish metodlari ta'lim jarayonida o'qituvchi va talabalar faoliyatining yo'nalishini, o'qitish jarayoning qanday tashkil etilishi va olib borilishi hamda o'qituvchining ish xarakterlarini belgilaydi. Bu metodlar o'quvchi tomonidan o'quvchilar bilim, malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirish uchun qo'llaniladigan usullar yig'indisini o'z ichiga oladi.

Ta'lim tizimida o'qitish metodlari bilan birga «usul» va «vosita» degan atamalar ishlatiladi.

Usul-ma'lum o'quv materialini o'qitishda qo'llanayotgan asosiy o'qitish metodi bilan birga ikkinchi bir o'qitish metodining ayrim elementlaridan foydalanib ish ko'rishdir.

Vosita o'qitish metodlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan yordamchi o'quv materiallari-asbob, qurol, apparat va shu kabilardan foydalanishdir.

Ta'lim metodlari o'qitish jarayonida va pedagogik tafakkurning ko'p asrlik rivojlanishi tarixida muhim o'zgarishlarga duch keladi. Pedagogikada ta'lim metodlarini tasniflash va belgilashga bir xil yondashish mavjud emas. Ayrim mualliflar metodlarni belgilashda bilish manbalarining xususiyatlarini asosiy deb xiisoblaydilar.

Metod nima? Metod grekchada-izlanish yo'li, o'rganish, tushunish demakdir.

O'qitish metodlari-bu o'qituvchining ishlash uslubi bo'lib, u bu uslub orqali o'quvchilarda bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga qaratadi (M.A.Dalilov, B.B.Esenov).

Babaskiy Y.K.-ta'lim metodi ta'lim-tarbiya maqsadiga erishishga qaratilgan o'qituvchi bilan talabalar faoliyatidir.

Metod-o'qitish uslubi, o'z xarakteridir.

Kasbiy ta'limda ta'lim metodlari didaktikaning eng asosiy kategoriyasidan xisoblanadi. Agar ta'lim mazmuni nimaga o'qitish kerak degan savolga javob bersa, metodi esa qanday o'qitish kerak degan savolga javob beradi.

Fan, texnika va ishlab chiqarish taraqqiy etib borishi munosabati bilan mehnat va kasb ta'limi metodlari doimiy ravishda rivojlanib va takomillashib bormoqda. Bu metodlarning rivojlanishi va takomillashuvi ilg'or pedagogik tajribaning to'planishi, ilmiy-metodik tadqiqotlarning kengayib va chuqurlashib borishi asosida didaktik prinsiplarning, mehnat va kasb ta'limi sistemalarining takomillashib borishi bilan o'zaro bog'langan holda ro'y bermoqda.

Ishlab chiqarish ta'limi jarayonining eng muhim jihatlaridan biri ta'lim metodlaridir. Ishlab chiqarish ta'limi metodlari deganda ustoz bilan o'quvchilarning birgalikda tashkil qilingan faoliyatining shunday usullari tushuniladiki, ularning yordamida o'quvchilar amaliy bilimlarni, ko'nikma va

malakalarini egallaydilar, ularning kasbiy mahorati, mehnatga munosabati asoslari shakllantiriladi, aqliy va jismoniy kuchlar, ijodiy qobiliyatlari rivojlantiriladi.

Ishlab chiqarish ta'limi jarayonida quyidagi metodlardan foydalaniladi. Ular bilim va ko'nikma manbalari jihatidan:

nutqiy(tushuntirish, suxbat, yozma yo'riqnoma va hokazolar);

ko'rgazmali (mehnat usullari va harakatlarini ko'rsatish, ko'rgazmali qurollarni namoyish qilish, ekran vositalaridan foydalanish o'quvchilarning kuzatishlari va hokazo); amaliy (mashqlar, laboratoriya-amaliy ishlar); ishlab chiqarish-texnika vazifalarini hal etish;

bilimlar, mehnat ko'nikmalarini;

malakalarini tekshirish va tadqiqot metodlarini faol izlash va (xokazo) usullarga bo'linadi.

**Nutq metodlaridan** odatda kirish instruktaji o'tkazilayotganida, shuningdek talabalar ish jarayonida joriy instruktaj bilan tanishishlari davomida foydalaniladi. Ko'rgazmali metodlar ham kirish instruktaji uchun xosdir. Bu metod ish usullari va operatsiyalarini o'rganish davrida alohida ahamiyatga ega. Ishlab chiqarish ta'limi uchun **amaliy metodlar**-avvalo mashqlar g'oyat muhimdir.

Keyingi paytlarda ishlab chiqarish ta'limida ta'lim berishning «faol» metodlari deb ataladigan ishlab chiqarishga oid amaliy o'yinlar, real ishlab chiqarish vaziyatini, ishlab chiqarish hujjatlarini tahlil qilish, ratsionalizatsiya takliflarini jamoa muhokamasida o'tkazish, o'quvchilar ishlab chiqqan original texnologiya jarayonlarini jamoada muhokama qilish tobora keng qo'llanilmoqda.

Ta'limning boshqa har qanday jarayoni singari ishlab chiqarish ta'limi jarayoni ham muayyan ta'lim vositalaridan foydalanilgan holda amalga oshiriladi.

O'quv-ishlab chiqarish uskunalari, asboblar va moslamalar, priborlar, hujjatlar (o'quv va ishlab chiqarish xujjatlari), ishlov beriladigan va foydalaniladigan materiallar, ko'rgazmali qurollar, ta'limning boshqa vositalari va hokozolar ya'ni ishlab chiqarish jarayoni normal kechish uchun bo'ladigan va uni ta'minlaydigan barcha narsalar ishlab chiqarish ta'limi vositalari jumlasiga kiradi. Ishlab chiqarish ta'limi jarayoning samaradorligi ko'p jixatdan, ba'zan esa xal qiluvchi darajada ta'lim vositalarining mavjudligi sifati va holatiga bog'liq bo'ladi.

Endi yuqorida sanab o'tgan har bir metodni alohida ko'rib chiqamiz.

### **Kasb ta'limining og'zaki nutq metodlari**

Materialni og'zaki bayon qilish. Bu metod o'quv materialini shunday bayon qilishni nazarda tutadiki, buning natijasida yangi texnika, mehnat tushunchalari ochib beriladi. Umuman mehnat usullari va topshiriqlarini bajarish yuzasidan tushuntirishlar beriladi. Bu metod asosida o'quvchilarning, ustaning jonli so'zi yotadi, bu so'z esa talabalarga kuchli hissiy ta'sir ko'rsatadi, ularning tasavvurini boyitadi, ijodiy fikr yuritishga undaydi, ko'pgina shaxsiy ijobiy sifatlarni tarkib toptirishga yordam beradi.

O'qituvchi (usta) og'zaki bayon qilish jarayonida o'z yozuvlari, hisoblar, hisob-kitoblar, eskizlardan keng foydalanadi. O'quv materialini bayon qilish muntazam, mantiqan izchil va tugallangan bo'lishi kerak. Bunda talabalar materialni oson anglab olishlari uchun o'qituvchi (usta) bilan o'z tushuntirishini



o'quvchilarga savollar berish bilan bo'lib turishi, ularning o'zlashtirishini va diqqatini tekshirish kerak.

Og'zaki bayon qilish metodi ayrim kamchiliklarga egadir (ba'zi o'quvchilarning passivligi va ularning darslardan yaxshi o'zlashtirmasligi kuzatiladi), natijada o'qituvchi (usta) ko'pincha darsning o'zlashtirilishi jarayonini tez boshqarish imkonidan mahrum bo'lib qoladi. Bu kamchiliklarga barham berish uchun darsda retorik savollar berish (ya'ni bular shunday savollarki, ularga o'qituvchining o'zi javob qaytaradi), shuningdek ko'rgazmali qo'llanmalarni namoyish qilish, texnologiya hujjatlarini, kinematik sxemalarni tahlil qilish, hisob-kitoblar o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

O'qituvchi (usta) mavzuni bayon qilishni tamomlar ekan, o'quv materialining asosiy qoidalariga qisqacha yakun yasashi lozim.

**Suhbat.** Bu mehnat va hunar ta'limining shunday usulidirki, unda o'qituvchi to'g'ri qo'yilgan savollar yordamida o'quvchilarda ilgari o'zlashtirilgan bilimlarni esga tushiradi va shu asosda mustaqil ravishda yangi bilimlar xosil qilishga undaydi.

Mehnat va kasb ta'limi metodi bo'lgan suhbatdan yangi materiallarni o'rganish vaqtida ko'proq foydalaniladi va ilgari o'zlashtirilgan bilimlar va amaliy tajriba uning bazasi bo'lib xizmat qiladi.

O'quvchilarning yangi o'quv materialini suhbat usuli bilan o'rganishi o'quvchilardan mashg'ulotga puxta tayyorgarlik ko'rishni talab qiladi. Bu tayyorgarlik shundan iborat bo'ladiki, o'qituvchi (usta) dars rejasi tuzish vaqtida suhbatning asosiy mazmunini belgilab oladi, asosiy savollarni tuzib chiqadi, butun suhbatning borishini, o'quvchilar berishi mumkin bo'lgan javoblarning mazmunini o'ylab oladi, qisqacha kirish va yakunlovchi suhbatlarni tayyorlaydi.

Talabalar suhbatining borishi jarayonida o'qituvchining savollariga javob berar ekanlar, o'zlariga ilgarigi materiallardan ma'lum bo'lgan faktlar, qoidalarni tahlil qiladilar, yangi yakunlarni ifodalaydilar va umumiy xulosalar chiqaradilar.

Kasb ta'limi bo'yicha o'tkaziladigan mashg'ulotlar, o'quv materialining mazmuni suhbat metodidan foydalanish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Masalan, ishlab chiqarishning turli tarmoqlarida ishlatiladigan mashinalar, mexanizmlar va asboblarni, texnologiya, mehnat jarayonlari va operatsiyalarni, mehnat planlashtirish va tashkil etishni o'rganish, qiyosiy tahlil qilish asosida talabalarning fikrlash faolligini rivojlantiradi. Ularning olgan bilimlarini etiqodga aylantiradi.

Kasb ta'limi darslarida foydalaniladigan suhbat metodining afzalligi shundaki, u talabalarning bilishga oid qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi, ularning fikrini faollashtiradi, ta'lim jarayonini jadal boshqarish uchun shart-sharoitlar yaratib beradi. Biroq bu metodni universal metod deb hisoblab bo'lmaydi, chunki u talabalarda mehnat ko'nikmalari va malakalarini tarkib toptirishni ta'minlamaydi.

### **Instruktaj metodi**

**Instruktaj**-ishlab chiqarish ta'limining amaliy o'qitish jarayonida talabalarda kasbiy malaka va ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan mxandis-pedagog (ustaning) asosiy ish uslubi-ko'rsatmasi.

Instruktaj-bu tushuntirish va ko'rsatish metodlarining birgalikdagi qo'llanishidir.

Metodik nuqtai nazardan instruktaj bu tushuntirish va amaliy xarakat va uslublarga birgalikda bajarishdir.

Tushuntirish va ko'rsatishni birgalikda har xil ishlatish natijasida bo'lajak mutaxassislarda texnik, texnologik tushunchalarni, texnikaviy fikrlashni, mehnatni sevish, qiziqish va kasblarga mehrni tarbiyalaydi.

Instruktaj tashkiliy ahamiyatga ham ega bo'lib, ko'p holda amaliy ishlarni bajarishdan oldin, ish jarayonida va ish oxirida o'tkaziladi.

Instruktaj o'z navbatida: kirish instruktaji, joriy instruktaj va yakuniy instruktajlardan iborat.

Kirish instruktajini mashg'ulotning tashkiliy shakliga ko'ra **butun gruppaga, brigada** va ayrim talabalarga amaliy ish bajarishdan oldin o'tkaziladi.

Bu instruktajda-talabalarga mashg'ulot mavzusi, maqsadi aytiladi.

Mashg'ulotning ta'minoti (uskunalar, priborlar, asboblari, moslamalar, materiallar) bilan tanishtiradi va ish joylarining tashkiliy tamoyillarini aytib o'tadi;

- ichki bajarish ketma-ketligini tushuntiradi va bajarish usullarini ko'rsatadi;
- texnik va texnologik hujjatlar bilan tanishtiradi;
- ish jarayonida uchraydigan o'ziga xos kamchiliklarning paydo bo'lishi haqida ogohlantiradi;
- o'z-o'zini nazorat qilish va nazorat usullari bilan tanishtiradi;
- ish bajarish vaqtida havfsizlik choralari etibor berishni tushuntiradi.

Kirish instruksiyasida talabalarga zaruriy xajmdagi texnik texnologik bilimlarni beradi. Shuning uchun ham kirish instruksiyasida oddiy dars shakllari elementlari mavjuddir, ya'ni tushuntirish, suhbat, hikoya, kitob bilan ishlash, ko'rsatish, kuzatish va boshqalar.

Chetda ishlab chiqarish ta'limida kirish instruksiyaning katta ahamiyatga ega bo'lgani sababli bunga chuqur tayyorgarlik ko'rish va rejalashtirish kerak.

**Joriy instruktajda** ustoz talabalarining amaliy ishlarni bajarish jarayonida ularning mehnat faolliyatiga tuzatishlar kiritadi va to'g'ri bajarishga ularni yo'naltiradi.

Joriy instruktaj jarayonida o'quvchilar ish faoliyatini faqat nazorat qilmasdan uni boshqarish va rejalashtirib borish kerak. Joriy instruktajda o'quvchilarning ish joylarini tashkil qilganliklarini (asboblari joylashishini, texnologik xaritalar, zagotovkalar), mehnat jarayonini amalga oshirayotgan qirralarni, kesuvchi asboblarning stanoklarda joylashishi, asboblari va detallarning mahkamlanganligini va xokazolarni kuzatadi.

**Yakuniy instruktaj** har bir mashg'ulot mantiqiy yakunlangan bo'lishi kerak. Yakuniy instruktruktaj ham gruppali, brigadali, yakka tarzda bo'lishi mumkin. Yakuniy instruktruktajda tushuntirish, suhbat, ko'rsatish va namoyish etish usublari birgalikda qo'llaniladi.

## Kasb ta'limining ko'rgazmali metodlari

**Ko'rgazmali qo'llanmalarni namoyish qilish** mehnat va hunar ta'limining o'rganilayotgan ob'ektlarni ko'rgazmali-hissiy idrok qilishga asoslangan metodidir. Bu metod o'quv materialini bayon qilish jarayonida quyidagilarni ko'rsatishni nazarda tutadi:

1. tabiiy namunalar: mashinalar, stanoklar, mexanizmlar, moslamalar, asboblari, zagotovkalar, materiallar va xokazolar;
2. yassi va xajmdor qo'llanmalar (plakatlar, sxemalar, jadvallar, diagrammalar, maketlar, modellar va hokazolar);
3. ekranli qo'llanmalar (diapozitivlar, diafilmlar, o'quv kinofillari va hokazolar).

Ko'rgazmali qo'llanmalarni namoyish qilish vaqtida muayyan izchillikka amal qilish, talabalar kuzatayotgan ob'ektni bayon qilayotgan material mazmuni bilan bog'lash kerak.

Kasb-hunar ta'limi darslarida ko'rgazmali qo'llanmalardan foydalanish metodining samarali bo'lishi quyidagi talablarga rioya qilishga bog'liqdir:

1. Ko'rgazmali qo'llanmalarni namoyish qilish vaqtida ularning barcha talabalarga yaxshi ko'rinadigan bo'lishini ta'minlash zarur.

2. Ko'rgazmali qo'llanmalar o'quv materialini mazmunining eng muhim belgilarini aks ettirish lozim.

3. Ortiqcha kuzatish ob'ektlari bo'lmasligi lozim, chunki ular talabalar diqqatini chalg'itishi mumkin.

4. O'qituvchi ko'rsatilayotgan narsaning talabalar tomonidan idrok etilishi jarayoniga aniq rahbarlik qilishi lozim.

Mehnat usullarini ko'rsatish mehnat va hunar ta'limining mehnat usullari, jarayonlari va ularning qismlarini o'rganish vaqtida foydalaniladigan alohida metodi bo'lib yangi mehnat ishlarini o'rganish vaqtida foydalaniladigan alohida metoddir. Yangi mehnat ishlarini o'rganish vaqtida o'qituvchi undan talabalar o'zlashtirib olishi zarur bo'lgan eng muhim mehnat usullarini alohida ajratib ko'rsatish zarur.

Mehnat usulini ko'rsatishni shartli ravishda to'rt bosqichga bo'lish mumkin:

1. O'qituvchining mehnat usulini ish jarayonida ko'rsatish.
2. Mehnat usulini alohida qismlarga (ish va ish bajarishdagi xarakatlarga) ajratish va ulardan har birini sekin sur'at bilan ko'rsatish.
3. Mehnat usulini ish jarayonida takroriy ko'rsatish.
4. Talabalarining ko'rsatilgan mehnat usulini (uning qismlarini) sinov tariqasida bajarish bilan o'zlashtirishlarini tekshirish.

Mehnat usulini ko'rsatish vaqtida uning talabalarga yaxshi ko'rinadigan bo'lishini ta'minlash zarur.

Mustaqil kuzatishlar mehnat va kasb ta'limining shunday metodidirki, u o'quvchilarning tabiiy sharoitlarda xodisalar va ishlab chiqarish jarayonlarini bevosita idrok qilishni ta'minlaydi. Bu metoddan texnologiya va mehnat jarayonlarining borishini, mashinalar va ularning ish rejimini o'rganish uchun,

stanoklar, mashinalarning ishidagi nuqsonlarni aniqlash, mehnat usullarini va ularning ayrim qismlarini o'rganish vaqtida foydalanish mumkin.

Mustaqil kuzatishlar jarayon talabalarida texnologiya yoki mehnat jarayonining borishini to'g'ri va tez aniqlab olishga oid ayrim ko'nikmalar va malakalarnigina emas, balki bir-biriga o'xshash xususiyatlar, hodisalar, faktlarni guruhlarga ajratishda, ulardagi o'xshash va farq qiluvchi belgilarni topishda, xulosalar chiqarishda namoyon bo'ladigan aqliy faoliyatni rivojlantirish ham ro'y beradi.

Talabalarining mustaqil kuzatishlarini quyidai sxema asosida tashkil etish va o'tkazish maqsada muvofiqdir.

1. O'qituvchining kuzatish ob'ektlarini tanlashi.
2. Kuzatishga oid yakka tartibdagi va jamoa topshiriqlarini tayyorlash va berish (Bu topshiriqlarda kuzatish vaqtida aniqlanishi lozim bo'lgan masalar aniq ifodalangan bo'lishi lozim).
3. Bevosita kuzatishlarning bajarilishi (kuzatishni qanday olib borish, qanday sistemada va ishchilikda o'tkazish kerakligi haqida yo'l-yo'riq beriladi).
4. Kuzatish natijalarini yozma, grafik hisoblar tarzida rasmiylashtirish.
5. Kuzatish natijalarini jamoa tarzida muhokama qilish va ularga baho berish.

Mehnat va kasb ta'limi darslarida mustaqil kuzatishga oid topshiriqlar o'z murakkabligini, xususiyati va mazmuniga qarab o'qituvchi (usta) tomonidan turli muddatlarga berilishi mumkin.

### **Kasb ta'limining amaliy o'qitish metodlari**

**Amaliy metod** deganda o'quv materialini mashqlar, mustaqil topshiriqlar, amaliy va laboratoriya ishlari asosida o'zlashtirishning shakllari tushuniladi. Ishlab chiqarish ta'limida bu metodga ish usullari, mehnat operatsiyalari, kompleks ishlar va vazifalari bajarishda mustaqillikni rivojlantirishga qaratilgan ishlar, trenajerga oid mashqlar, laboratoriya-amaliy ishlariga esa texnologik jarayonni boshqarish **mashqlari** kiradi.

**Mashqlar metodi-** ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda mustahkamlash maqsadida muayyan harakatlarni ko'p marta takrorlashdir. Ishlab chiqarish ta'limidagi mashqlarga asosan quyidagi talablar qo'yiladi, mashqlarni o'quvchilar ongli va maqsadga muvofiq yo'sinda bajarishlari; mashqlar metodikaga asoslanishi, tizimli, izchil, uzluksiz bo'lishi va takrorlanishi; o'quvchilarning ishdagi mustaqilligi muntazam rivojlanib borishi kerak.

Mashqlarni o'rganilayotgan barcha mehnat jarayonlari yuzasidan emas, balki o'quvchilarning o'zlashtirishi uchun ancha qiyin bo'lgan jarayonlarga nisbatangina tadbiq qilish maqsadga muvofiqdir. Bunday jarayonlarga arralash va qirqish, randalash va egovlash, parchinlash va kesish, dastaki asboblardan bilan parmalash va rezba qirqish hamda metallga ishlov berish vaqtidagi ishlar, avtomobil, traktor va boshqa qishloq xo'jalik texnikasini boshqarish va hokazolarni kiritish mumkin.

Mashqlar jarayonida mehnat va hunar usullarini bajarishning sifatli bo'lishiga, o'quvchilar faoliyatini sinchiklab nazorat qilishga etibor berish kerak. Mehnat va kasb usullari va jarayonlari o'zlashtirish maqsadida mashqlarni bajarish

sohasida o'z-o'zini nazorat qilish uchun qaytish aloqasi prinsipiga ta'sir qiladigan uncha murakkab bo'lmagan xilma-xil moslamalardan: to'g'rilagich, andazalar, asboblari, ularga montaj qilingan datchiklardan, asboblari va xarakatlarni muvofiqlashtirishga doir moslamalardan, avtomobil, traktorni boshqarish va xaydash qoidalarini o'rganishda trenajerlardan foydalanish katta rol o'ynaydi.

Mashqlar jarayonida yuqorida sanab o'tilgan texnik vositalarni qo'llash talabalarga mehnat xarakatlarini bajarishdagi ko'pgina xatolardan xalos bo'lishga imkon beradi. Kasb usullarini bajarish uchun sarflanadigan vaqtni qisqartirish va ish sifatini oshirishga yordam beradi. Lekin bu vositalardan uzoq vaqt foydalanish foyda o'rniga zarar etkazishi mumkin. Ular mehnat va kasb usullarini egallash vaqtida o'ziga xos mo'ljal rolini o'ynaydi, shuning uchun ham ulardan mehnat va kasb ta'limining dastlabki bosqichlaridagina foydalanish maqsadga muvofiqdir. Mehnat va kasb usullariga oid mashqlarni bajarish vaqtida quyidagi talablarga rioya qilish lozim:

1. O'quv-moddiy sharoitlar yaratilgan bo'lishi (yaxshi ishlaydigan asbob-uskunalar, moslamalar va trenajyorlarning mavjud bo'lishi).
2. Mehnat va kasb usullarining yorqin va qulay ko'rsatilishini hamda talabalarning bu usullarni to'g'ri va to'liq o'zlashtirishini ta'minlash.
3. Bevosita kuzatish va nazorat qiladigan qurilmalardan foydalanish yo'li bilan mehnat xarakatlarini mustaqil nazorat qilish vazifasini amalga oshirish uchun yo'l-yo'riqlar berish.
4. O'quvchilarning mehnat va kasb usullarida yo'l qo'yadigan kamchiliklarga tezda barham berish yo'llari o'ylangan bo'lishi kerak.

ICHT jarayonida trenirovkali, ishlab chiqarish, ishchi va maxsus mashqlarni tashkil qilish mumkin. YA'ni,

**-trenirovka (o'rganish) mashqlarini** odatda talabalarda murakkab bo'lmagan oddiy ishchi xarakatlarni bajarish bosqichida qo'llaniladi. Bu mashqlardan so'ng birorta mahsulotni tayyorlash ko'zda tutiladi. Bular payraxani namunaviy olish, stanokni berilgan rejimga rostlash, kesuvchi asbobni qo'l yoki mexanik uzatish orqali etkazish. O'rganish mashqlar tez qaytarilishi va ko'p martaligi bilan xarakterlanadi.

**-o'quv ishlab chiqarish mashqlari** ko'nikma va malakalarni shakllantirishning ikkinchi va uchinchi bosqichlari asosini tashkil qiladi. Bu mashqlar davomida o'quvchilar metallarga ishlov berishni usul va operatsiyalarni o'rganiladi va amaliy natijalar tayyorlashga tayyor bo'lishadi;

**-ishchi mashqlarni** ishlab chiqarish amaliyoti jarayonida bazaviy korxonalarda o'tkazishadi. Bunda o'quvchilarda yuqori darajali mustaqillik namoyon bo'ladi. Bu mashqlar ishlab chiqarishga qo'yiladigan texnikaviy talablarni bajarishga yo'naltirilgan.

**-mahsus mashqlar** mehnat xarakatlarini xususiyatlarini belgilovchi malaka va ko'nikmalarni o'stirishga qaratilgan bo'ladi. Masalan, murakkab shaklga ega bo'lgan yuzalarni tokar stanokda ishlov berishda qo'l xarakatlarining aniq bo'lishi kerak. Bu maqsadda avval trenajyorlardan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

## **Mustaqil o'quv-ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarish**

**Kasb ta'limi metodi bo'lgan mustaqil ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarishdan** o'quvchilarning mashqlar jarayonida xosil qilgan mehnat va kasb ko'nikmalari, malakalarni to'la-to'kis shakllantirish, yanada takomillashtirish va mustahkamlash maqsadida foydalaniladi.

Mustaqil o'quv-ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarish vaqtida o'quvchilardan mustaqillik namunasini ko'rsatishni, ishda zarur aniqlikka, mehnatni tashkil etishda puxtalikka, oz jismoniy va aqliy mehnat sarflagan holda ishning unumli bo'lishi va unga ijodiy yondashishga rioya qilishni talab etish lozim.

Mehnat bo'yicha amaliy mashg'ulotlar doirasida mustaqil o'quv-ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarish darsning boshqa qismlarga nisbatan ko'p vaqt oladi. Binobarin, mashqulotning bu qismi talabalarning mehnat va kasb ta'limi hamda tarbiyasiga oid ko'pgina masalalarni hal qilishda etakchi rol o'ynaydi.

Quyidagi shartlar mavjud bo'lgandagina talabalarning mustaqil ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarishda ta'lim-tarbiya muvaffaqiyatlariga erishish mumkin:

1. Talabalar bajaradigan ishning mazmunini yaxshi tushunishlari va uni bajarish tartibini aniq tasavvur qilishsa;
2. Talabalar topshiriqni qanday asbob-uskunalar bilan bajarish kerakligini, ularning tuzilishi va ishlariga oid xususiyatlarini, ularni ish rejimiga moslash usullarini va ishdagi nuqsonlarining oldini olish choralarini bilishsa;
3. Ish o'rnini to'g'ri tashkil etish, buning uchun ish va o'lchov asboblarini, zagotovkalarni, texnologiya hujjatlarini to'g'ri joylashtirish usullarini bilishsa;
4. Brakning tipi xollarini, unga barham berish hamda tuzatish usullarini bilsalar;
5. Ishni bajarishning hamma bosqichlarida uning sifatini nazorat qilishning eng oqilona usullaridan foydalana bilsalar;
6. Xavfsizlik texnikasi, sanoat sanitariya va mehnat gigienasi qoidalariga rioya qilish zarurligini bilsalar.
7. Topshiriqlarni bajarish izchilligini va uning natijalarini tahlil qila bilish va hulosalar chiqarishga erishsalar.

Talabalarning o'quv-ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarish vaqtidagi mustaqilligi tipik ishlarni bajarish vaqtida, ya'ni tashqi ko'rinishi jihatdan ham, tayyorlash texnologiyasi jihatdan ham ko'pgina umumiylikka ega bo'lgan ishlarni tayyorlashda ko'proq namoyon bo'lishi lozim. Bunday holda, masalan, metallni tiskilarda qirqish vaqtida (o'quvchilar plitada qirqishni o'rganib olganlar) o'qituvchi instruktaj o'tkazishni quyidagi reja asosida suhbat o'tkazish bilan almashtirish mumkin.

## **Ishlab chiqarish ta'limi metodlarini tanlash ketma-ketligi**

1. Ishlab chiqarish ta'limi dasturlari mazmuni didaktik tahlili. Bunda standart talablari asosida:

- o'quvchilarning o'zlashtirishi zarur bo'lgan bilimlar tizimini ajratish;
- o'zlashtirish darajasini aniqlash (tanishish, o'zlashtirish, ijodkorlik);

-bilimlar tizimini turkumlashtirish ( ilmiy fakt, hodisa, jarayon, texnik-texnologik tushunchalar, ilmiy nazorat, qonun va qoidalar );

-kasbiy bilimlarni shakllantirish uchun zarur bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalar tizimini ajratish;

-mehnat funksiyalari natijasida shakllantirilgan malaka va ko'nikmalarni tahlil etish;

-o'quvchilardan ma'naviy-ma'rifiy xususiyatlarni shakllantirishga oid o'quv materiallarini tanlash va baholash;

2. Kasbning istiqboli va bu bilan bog'liq bo'lgan talablar tahlilida kasb egasiga qo'yiladigan talablar, uning boshqa kasb bilan o'rnini almashtira olish imkoniyati, kasbiy faoliyatining istiqboli va shunga o'xshash kelajak bilan bog'liq masalalar.

3. Kelajakdagi kasbiy faolliyat sharoiti tahlili. Bunda ishlab chiqarish turi (shaxsiy, kichik seriyadagi yoki yirik seriyadagi ishlab chiqarish), mehnatning tashkil qilinganlik sharoiti, ishlab chiqarishning mexanizatsiyalashgan yoki avtomatlashtirilgan darajasi.

4. Didaktik tahlil natijasini hisobga olish, ya'ni ishlab chiqarish dasturi mazmunidan kelib chiqadigan didaktik maqsad: o'quvchilarning o'quv-o'rganish, o'quv-ishlab chiqarish faoliyati jarayonida qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun zarur bo'lgan talablarni bajarish va o'quvchilarning mustaqil ishlay olishiga erishish.

5. Asosiy didaktik maqsadlarga erishishni belgilash (ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi).

6. Tayyorlanayotgan bo'lajak kasb egalarining kasbiy faoliyati sharoitida va bu kasbning istiqbolda rivojlanishini tashkil etib hisobga olish (kasbiy zarur bo'lgan ijobiy sifat belgilari, bilim, malaka va ko'nikmalar ro'yxati).

7. Ishlab chiqarish ta'limi darajalarining aniq maqsadlarini shakllantirish, ifodalash.

8. Uyga berilgan topshiriqni tekshirish. O'quvchilar bilimi va ko'nikmalar darajasini tekshirishning bu metodi butun tekshirish sistemasida asosiy metodlaridan biri hisoblanadi.

Psixologlarning tasdiqlashlaricha, o'quv materialini kitob bo'yicha yoki o'qituvchining so'zlaridan eslab qolish yo'li bilan bir marta ishlab chiqilganda, hatto kuchli o'quvchilar ham uning taxminan 70-75 % ini yaxshi o'zlashtirishga muvaffaq bo'ladilar. Demak, uyga berilgan topshiriqlarni tekshirish, nazorat ning boshqa metodlari bilan bir qatorda, o'quv materialini o'zlashtirish sifatini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

Uyga berilgan vazifalarni tekshirish vaqtida faqat bir metodga ko'proq e'tibor berish va boshqa samaraliroq metodlarni inkor etish yaxshi natijalarga olib kelmaydi.

9. Amaliy-laboratoriya ishlarini tekshirish. Amaliy –laboratoriya ishlari ta'lim metodi sifatida o'quvchilarda mustaqillik darajasi, topshiriqlarning to'g'ri bajarilganligini, bajarilgan o'lchovlar, tuzilgan eskizlar, chiqarilgan xulosalarning to'g'riligini tekshiradi va qayd qiladi.

Shunday qilib amaliy-laboratoriya ishlari jarayonida o'qituvchining tekshirishi natijasida aniqlangan ma'lumotlar va tayyorlangan yozma hisobotlarning natijalarini butun guruh ishtirokida muhokama qilish, yo'l qo'yilgan kamchiliklarni ko'rsatib o'tish va umumlashtirish zarur.

Texnik vazifalarni hal qilishni tekshirish.

### **Kasb ta'limida muammoli ta'lim metodlari**

Kasb ta'limi darslaridagi muammoli ta'limning muhim xususiyati shundan iboratki, o'quvchilarga bilimlar tushuntirish-tasvirlashga asoslangan ta'limdagi kabi tayyor xolda bayon qilinmaydi, balki ular oldiga mustaqil xal etish uchun bitta yoki bir qancha muammolar qo'yiladi. Mustaqil izlanish jarayonida o'quvchilar xosil qilgan ilmiy-texnik bilimlar etarli darajada mustahkam, anglangan bo'ladi.

Muammoli ta'lim o'z navbatida didaktikaga yangi atamalarni, ya'ni «Muammoli vaziyat», «muammo», «bilishga oid vazifa» va xakozo atamalarni kiritishni talab qiladi.

Muammoli vaziyat anglangan qiyinchilik bo'lib, uni engish yo'llari noma'lum bo'ladi, ularni izlash talab qilinadi. Muammo shunday vaziyatki, uni o'quvchilarda mavjud bo'lgan vositalar (bilimlar, ko'nikmalar, izlash faoliyati tajribasi) asosida xal qilish mumkin. Shuning uchun har qanday muammo vaziyatni o'z ichiga oladi, lekin har qanday masala muammo bo'lavermaydi. Bilishga oid vazifa shunday muammoki, uni muayyan sharoitda yoki parametrlarda hal qilish mumkin. Bunday vazifaning mazmunida shunday muammo yotadiki, ma'lum narsa o'rtasidagi ziddiyat uning paydo bo'lishiga olib keladi.

Muammoli ta'lim uchta metodlarning mustaqil ijodiy faolligiga nisbatan qo'yiladigan talablar asosida quyidagi tartibda joylashtiriladi.

- a) o'quv materialini muammoli bayon qilish.
- b) izlanishga oid suhbat o'tkazish.
- v) tadqiqotchilik metodi.

**O'quv materialini muammoli bayon qilish.** Bu metoddan foydalanishda haqiqitni izlashni (bilishga oid vazifani hal qilishni) o'qituvchining o'zi amalga oshiradi. Bunda u muammoning mohiyatini va uning asosida chiqarilgan yakuniy hulosalarni ma'lum qilish bilan cheklanmay, bu muammoning paydo bo'lish manbalarini, uning uchun nima sabab bo'lganligini, uni hal qilish jarayoni qanday bo'lishini, bunda qanday qiyinchiliklarga duch kelgani va xakozolarni batafsil bayon qiladi.

Bu metodning pedagogik qimmatini shundan iboratki, o'quvchilar o'qituvchi (usta)ning qiziqarli gaplariga berilib, diqqat bilan quloq soladilar. Ular go'yo mazkur tadqiqotning ishtirokchilariga aylanib qoladilar va tadqiqotchi bilan birgalikda muvaffaqiyat quvonchlarini hamda mag'lubiyat alamlarini birga boshdan kechiradilar.

Demak, o'quv materialini muammoli bayon qilishda o'quvchilarning yangi bilimlarni egallashga mutlaqo boshqacha kayfiyat bilan qarashlari seziladi, bu esa ularda ijodiy faollikni shakllantirish uchun bilimlarni axborot tarzida bayon qilgan vaqtidagina bir qadar kuchli rag'batlantiruvchi vosita hisoblanadi.



O'tmishga ana shunday ekskursiya qilish o'quvchilarga ixtirochilarning engishiga to'g'ri kelgan qiyinchiliklarni tasavvur qilish imkonini beradi, go'yo ular ixtirochilar bilan birgalikda yangi konstruktiv echimlarni izlashda qatnashgandek bo'ladilar.

Yangi bilimlarni muammoli tarzda bayon qilishning o'qituvchi tomonidan tanlangan metodi o'quvchilarning yuksak faolligini ta'minlaydi.

Yangi ilmiy-texnik bilimlarni muammoli bayon qilish-ta'lim metodi bo'lgan tushuntirish-tasvirlash metodidan izlanishga oid suhbatga va tadqiqotchilik metodiga o'tish usuli hisoblanadi.

**Izlanishga oid suhbat o'tkazish.** Bu metoddan foydalanganda o'quvchilarning ishlab chiqarish ta'limi va mehnat darslarida o'quv materialini o'zlashtirishdagi mustaqilligi ortadi. Mehnat va kasb ta'limiga oid bu metodning mohiyati shundaki, o'qituvchi o'quv materialini bayon qilganda vaqti-vaqti bilan so'zini bo'lib, o'quvchilarga: «Siz tadqiqotchining o'rnida bo'lganingizda, bu muammoni qanday hal qilgan bo'lar edingiz?»-degan savol bilan murojaat qiladi.

O'quvchilar muammoni hal qilishga oid o'z variantlarini, ba'zan juda sodda va unchalik mukammal bo'lmagan variantlarni taklif etadilar. Lekin bu metodik usulning butun ahamiyati shundaki, o'quvchilar o'qituvchini (ustani) zo'r qiziqish bilan kuzatib boradilar, voqealarning bundan keyingi jarayonini o'zlaricha oldindan ko'radilar va o'qituvchi ularga savol berib murojaat qilishi bilanoq, izlanishga kirishib ketish uchun tayyor turadilar.

Masalan, o'quv ustaxonasidagi slesarlik stanoklarida bajariladigan ishlarni (metallni qirqish, egovlash va xokazolar) o'rganishga kirishilar ekan, o'qituvchi mavzuni o'quvchilarga tayyor holda bayon qilib bermay, balki ularning fizika kursida qattiq jismlar, pona va xokazolarning xossalari haqidagi bilimlarga tayanadi, o'quvchilar oldiga yangi muammo qo'yib, uni quyidagicha ifodalaydi: «Nima uchun metalldan tayyorlangan slesarlik zubilos, egov, qaychi va boshqa qirqish asboblari metallni qirqa oladi?» Agar o'qituvchi bu mavzularni oddiygina qilib: «Metallni qirqish», «Metallarni egovlash» va xokazo tarzda bayon qilganda, bu o'quvchilarda darsga bo'lgan qiziqishni, hissiy ko'tarinkilikni vujudga keltirmaydi, chunki ijodiy fikrlash va qo'yilgan savollarga mustaqil javob izlashga zarurat bo'lmaydi.

Bu mavzularni muammoli shaklda ifodalash o'quvchilarda alohida qiziqish o'yg'otadi, chunki unda o'quvchilar hal qilishi lozim bo'lgan ziddiyat elementi mavjuddir, bir qarashda bir metall bilan boshqa bir metallni qirqish mumkin, degan gapni tasdiqlash g'alati tuyulishi mumkin. Lekin xuddi ana shu ziddiyat o'rganilayotgan metallning asliy mohiyatini, o'quvchilar diqqatini jalb qilishi lozim bo'lgan mohiyatini (asbobsozlikda ishlatiladigan va ko'p tarqalgan po'latlarning markalari va fizik-mexanik xossalari, ularni termik ishlash, qirquvchi asboblarning burchaklari (geometriyasi) va ularning ishlov berilayotgan metallning qattiqligiga va boshqa xossalari bog'liqligi va hokazolarni) bilib olishga yordamlashadi.

Shunday qilib, izlanishga oid suhbatdan mehnat va kasb ta'limi metodi sifatida foydalanish o'quvchilar faoliyatini jadallashtirishga olib keladi. Shuning uchun ham bu metod ko'pincha qisman izlanish metodi deb ataladi. O'quvchilar

uchun bu metod qulay bo‘lib, tadqiqotchilik metodidan foydalanishda aniq zamin bo‘lib xizmat qiladi.

**Tadqiqotchilik metodi.** Bu metoddan foydalanganda o‘quvchilarning biror muammoni hal qilish vaqtida eng yuqori darajaga ko‘tarilgan mustaqilligiga erishiladi. Lekin o‘quvchi o‘z oldiga qo‘yilgan muammoni hal qilish uchun uni to‘la-to‘kis tushunib olishi lozim. Bu esa o‘quvchi ana shu muammoni mustaqil hal qilishga tayyorlanishi lozimligini bildiradi. O‘quvchilarning ana shunday tayyorlanish darajasiga o‘qituvchi ta‘lim jarayonida xilma-xil metodlar sistemasidan va tushuntirish-ko‘rsatish tarzidagi usullardangina emas, balki bilimlarni muammoli bayon qilish va tadqiqotchilik metodini joriy qilishdagi o‘tish bosqichi bo‘lgan izlanishga oid suhbat metodidan ham foydalanganda erishish mumkin.

O‘quvchi muammoni tushunib olgandan keyin uni hal qilishga: ko‘zda tutilgan natijani ifodalashga, uni amalga oshirishning eng qulay yo‘llarini belgilab chiqishga, qarorni tekshirishning samarali usullarini taklif qilishga, so‘ngra muammoni hal qilishga va tekshirish usulini, xulosalarini o‘ylab va bayon qilishga hamda ularning to‘g‘riligini isbotlashga kirishadi.

### **§ 3.2. Kasbiy ta‘limda faol o‘qitish usullari mazmunini tanlash, amalga oshirish**

O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy sohasidagi o‘zgarishlar ta‘lim islohatlari bilan chambarchas bog‘liqdir. «Ta‘lim to‘g‘risida» gi va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qonunlariga asosan, o‘xshashi yo‘q, yangi turdagita‘lim turi o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi (O‘MKHT) shakllandi. O‘MKHT o‘quv muassasalarida yuqori malakali o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limiga ega bo‘lgan kichik mutahasislarni tayyorlash davlat miqiyosida dasturlashtirilmoqda. SHuning uchun ta‘limning modellari ham sifat jihatdan o‘zgarishi kerak: zamonaviy usullar, vositalar, ta‘limning shakllari va usullari ta‘lim oluvchilarda quyidagi hususiyatlarni shakllantirishni ta‘minlashga qaratilgan: jarayoniy mahoratlarni; axborotlardan mustaqil foydalanish qobiliyatini; muammoni hal etishda ijodiy yondoshishni; tashkilotchilik ko‘nikmalarini va hokazolar.

Bo‘lg‘usi kichik mutahasislarni Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda tayyorlash davrida ijtimoiy jihatdan ahamiyatga ega bo‘lgan ushbu bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, hamda ta‘lim oluvchilarning fikrlash jarayoni va faoliyatini faollashtirish usullarini tanlash eng asosiy muammo bo‘lgan va shunday bo‘lib qoladi. Buning uchun pedagogik jarayon nimani anglatishini ko‘rib chiqamiz.

Jarayon – (lotincha prozessys so‘zidan olingan bo‘lib), oldinga harakat, o‘zgarish degan ma‘noni anglatadi.

Pedagogik jarayon – ta‘lim beruvchi bilan ta‘lim oluvchi o‘rtasidagi belgilangan maqsadga erishishga yo‘naltirilgan va belgilangan natijaga olib keluvchi o‘zaro ta‘sir jarayonidir.

Ta‘lim jarayoni bevosita quyidagilar bilan bog‘liq:

ta‘lim beruvchi bilan ta‘lim oluvchining o‘zaro munosabatiga;

ta‘lim texnologiyalariga.

Usul – (grekcha Metodos so‘zidan olingan bo‘lib, izlanish yoki bilish yo‘li, nazariya, ta‘limot ma‘nosini anlatadi) konkret vazifani yechishga bo‘ysundirilgan, borliqni amaliy yoki nazariy o‘zlashtirish operatsiyalarining yoki yo‘llarining yig‘indisi.

U ta‘lim texnologiyalarida zamonaviy usullar, shakllar, vositalarda muhim o‘ringa ega.

Ta‘lim jarayonida usullarsiz, qo‘yilgan maqsadga, belgilangan mazmuni amalga oshirishga, bilish faoliyatini faollashtirishga, sezilarli natijalarga erishish mumkin emas.

Usullar natijaga erishishni ta‘minlaydi. Usullar ta‘lim mazmunini amalda qo‘llashni ta‘minlaydi, bunda ta‘lim beruvchi faoliyatini tashkil etish yo‘li – dars berish usullaridir, ta‘lim oluvchining faoliyati esa – o‘rganish usullaridir.

Maqsadlar ta‘lim oluvchilar bilan birgalikdagi faoliyatida vositalar yordamida amalga oshiriladi, usullar esa, ularni amaliy bajarilishini ta‘minlaydi.

O‘qitish usuli – o‘qitishda belgilangan maqsadda erishish uchun ta‘lim oluvchi va ta‘lim beruvchining o‘zaro bog‘liq faoliyatini tashkil etishning tartibga solingan usulidir.

Dars berish usullari – ta‘lim beruvchining faoliyatini tashkillashtirish vositasidir, o‘qitish usullari esa, ta‘lim oluvchining faoliyatini tashkil qilish vositasidir.

Ta‘lim maqsadlariga erishish bo‘yicha o‘quvchi va o‘qituvchining birgalikdagi ish faoliyatini tashkil qilish ta‘lim usullari tizimini quyidagi belgilari bo‘yicha guruhlarga bo‘lish mumkin.

**Birinchi guruh** – o‘quvchilarning o‘zlashtirish, tushunib yetish, bilimni mustahkamlash bo‘yicha perseptiv (Perseptiv-o‘zlashtirish) ish faoliyatini ta‘minlaydigan, tayyor holatda o‘quvchilarga bayon qilingan o‘qitish va bilim olish usullari:

- ma‘ruza, hikoya, tushuntirish;
- namoyish, illyustratsiya, videousul.

**Ikkinchi guruh** – o‘quvchilarning bilimni o‘zlashtirish, singdirish, mustahkamlash bo‘yicha reproduktiv faoliyatni ta‘minlovchi, mahorat va malakani algoritm (namuna) bo‘yicha o‘qituvchilarning bevosita boshchiligida tashkil etishga asoslangan o‘qitish va bilim olish usullari:

- kitob bilan ishlash;
- laboratoriya usuli;
- og‘zaki yoki yozma, amaliy mashqlar.

**Uchinchi guruh** – ta‘limga muhokama va rivojlantiruvchi xarakter beruvchi, ta‘lim oluvchilarni mahsuldor faoliyatini ta‘minlovchi dars berish va o‘qitish usullari:

- o‘quv suhbat;
- davra suhbat;
- bahs;
- miyaga hujum (breynstorming);
- ishbilarmon yoki rolli o‘yin;

- «pinbord»;
- baholash.

**Turtinchi guruh** – o‘quvchilar tomonidan muammoni tushuntirish va yechish, mustaqil bilim olishni kuchaytiradigan va shunga undaydigan usullar:

- muammoli topshiriqlar usuli;
- individual (amaliy) usul;
- o‘z-o‘zini attestatsiya qilish;
- loyihalash usuli;
- vaziyatlarni o‘rganish.

### **Ta’lim usullari guruhi mohiyati va mazmuni**

1. Ma’ruza, hikoya, tushuntirish – o‘quv materialini bayon qilish usuli verbal (lot.t. Verbalis – og‘zaki) hisoblanadi. Odatda bu usullar namoyish, videousul, ko‘rgazma usullari bilan qo‘shilgan holda olib boriladi. Ular o‘quvchilarning bilimini o‘zlashtirish, eslab qolish va tushunishga qaratilgan retseptiv faoliyatni ta’minlab beradi va o‘quvchi tomonidan tayyor holda bayon etiladi.

1.1. Ma’ruza – katta hajmdagi o‘quv materialni nisbatan uzoq vaqt davomida monologik bayon etish. Bu usulning asosiy vazifasi - ta’lim berish, o‘rgatishdir.

#### **Bu usulining samaradorlik shartlari quyidagilardan iborat:**

- ma’ruzaning batafsil rejasini tuzish;
- ma’ruza rejasini eshittirish;
- rejaning har bir punktini yoritishdan so‘ng qisqacha umumiy xulosa qilish;
- ma’ruzaning bir qismidan boshqa qismiga (bo‘limiga) o‘tishida mantiqiy bog‘liqlikni ta’minlash;
- muammoli (problemali) bayon qilish;
- yozib olish zarur bo‘lgan joylarni ajratish (yozdirish);
- ma’ruzalarni uning alohida holatlarini batavsil tahlil qilish imkonini beruvchi seminar mashg‘ulotlari va amaliy mashg‘ulotlar bilan qo‘shib olib borish.

Ma’ruza o‘tkazishning faol uslublariga: muammoli ma’ruzalar; ma’ruza – konferensiyalar; konspektsiz ma’ruzalar – fikrni so‘z bilan ifodalash; mualliflik ma’ruzalari; ma’ruza – munozaralar; qaytar aloqa texnikasi qo‘llangan ma’ruzalar; aniq vaziyatni tahlil qilish ma’ruzalari kiradi.

1.2. Hikoya – uncha katta bo‘lmagan, tariflovchi xarakterga ega bo‘lmagan, o‘quv materialini monologik, hikoya qiluvchi, xabar beruvchi bayonidir.

1.3. Tushuntirish – bayon qilinayotgan materialni turli holatlarini tahlil qilish, tushuntirish, izoh berish va isbotlash yordamida o‘quv materialini bayon qilish. Bu usullar birgalikda bilimni mantiqiy, tartibli, tushunarli, his-hayajonli qilib etkazish uchun qo‘llaniladi.

1.4. Namoyish – o‘quvchilarni tabiiy holatda hodisalar, jarayonlar, ob’ektlar bilan ko‘rgazmali – hissiy tanishtirish. Bu usulning etakchi vazifasi – o‘qitish. Namoyishdan o‘rganilayotgan hodisalar dinamikasini ochib berish uchungina foydalanish mumkin. Bu usul biror narsaning tashqi ko‘rinishi bilan tanishtirish, uning ichki tuzilishi yoki shunga o‘xshash narsalar qatoridagi o‘rni bilan tanishtirishga xizmat qilishi mumkin.

Namoyish usulining ta’limiy funksiyasi samaradorligini ta’minlash quyidagilarga bog‘liq: ob’ektlarni to‘g‘ri tanlash; o‘quvchilar diqqatini namoyish qilinayotgan hodisalarning muhim taraflariga yo‘naltirish; namoyish jarayonini shunday tashkil qilish kerakki, o‘quvchilar namoyish qilinayotgan ob’ektlarni nafaqat ko‘z bilan ko‘ra bilishlari, iloji bo‘lsa, ularni barcha sezish a’zolari bilan qabul qilishlari lozim; o‘quvchilar e’tiborini imkoni boricha ob’ektning muhim taraflariga jalb etish; o‘quvchilarga ob’ektning o‘rganilayotgan sifatlarini mustaqil o‘lchash imkonini yaratish.

1.5. Ilyustratsiya – hodisa, narsa, jarayonlarni tasviriy shaklda sxema, reproduksiya, yassi modellar yordamida ko‘rsatishdir.

Bu usulning asosiy vazifasi – o‘rgatish. Ilyustratsiya usulining vositasi bo‘lib suratlar, jadvallar, rangli xaritalar, albomlar va atlaslar xizmat qiladi.

Ko‘rgazma qurollarini va ilyustratsiya shakllarini tanlayotganda uning bilim olish jarayonidagi ta’lim tarbiyaviy vazifasini, joyini va rolini puxta o‘ylab ko‘rmoq lozim. Tajriba shuni ko‘rsatdiki, katta xajmdagi ilyustratsiya materiallari o‘quvchini o‘rganilayotgan hodisalarning tub mohiyatini aniqlashdan chalg‘itadi.

Ilyustratsiyalarni oldindan tayyorlab qo‘yiladi va ulardagi o‘qitish jarayonida kerak bo‘lgandagina ko‘rsatiladi.

1.6. Videousul – axborotni ko‘proq ko‘rgazmali o‘zlashtirishga asoslangan bo‘lib, unda kineskop, kodoskop, proektor, kinoapparat, o‘quv televideniesi, videomagnitofon, axborotni displeyda aks ettiruvchi kompyuterlardan foydalaniladi. O‘quv jarayonida videousuldan foydalanish, ta’lim - tarbiyaviy vazifalarni unumli yechishini ta’minlaydi, ya’ni:

- Yangi bilimlarni bayon etish, ya’ni juda sekin kechadigan jarayonlar bilan tanishish, bevosita kuzatish mumkin bo‘lmagan (o‘simliklar o‘sishi, suyuqlikda diffuziya hodisasi va h.k.), shuningdek, tez sodir bo‘ladigan jarayonlar, bevosita kuzatishlar hodisalarning mohiyatini ochib bera olmagan holda (qayishqoq tanalarning urilishi, moddalarning kristallanishi va h.k.) qo‘llaniladi;
- Murakkab mexanizmlar va mashinalarning ishlash tamoyillarini dinamikada tushuntirish;
- Turli xil ish faoliyatini bajarish algoritmini tushuntirish;
- Chet tili darslarida o‘ziga xos til muhitini yaratish;
- Videohujjatlarni taqdim etish;
- Mashq qilish ishlarini bajarish, jarayonlarni modellashtirish, kerakli o‘lchamlarni olib borish;
- O‘quv-mashq va tadqiqot ishlarini olibborish uchun ma’lumotlar bazasini (bankini) yaratish;
- Ta’limni tashkil qilishga differensiyalashgan yondoshuvni tashkil qilish va b.

**2. Kitob bilan ishlash, laboratoriya usuli, mashqlar.** Ushbu guruh usullar, o'quvchilarning nafaqat tayyor bilimlarini o'zlashtirishi va xotirada saqlab qolishi, balki, bevosita ta'lim beruvchining rahbarligi ostida algoritm (na'muna) bo'yicha harakatlarni bajarish mahorati va ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan reproduktiv faoliyatni ta'minlashga xizmat qiladi.

Kitob bilan ishlash usuli barcha funksiyadlarni bajaradi: ta'lim berish, tarbiyalash, rivojlantirish, asoslash.

Kitob bilan ishlash usullariga quyidagilar kiradi: uning tuzilishi bilan tanishish; ko'z yugurtirib chiqish; alohida boblarni o'qish; savollarga javob qidirish; materialni o'rganish; referat yozish; qisqacha bayon tuzish; vazifa va mashqlarni yechish; test sinovlarini bajarish; materialni xotirada saqlab qolish.

2.2. Laboratoriya usuli – bu shunday ta'lim usuliki, unda o'quvchi o'qituvchi rahbarligida oldindan belgilangan reja asosida tajribalar o'tkazadi yoki amaliy vazifalarni bajaradi. Laboratoriya usulining asosiy funksiyasi – o'rgatish va rivojlantirish. Bu usulni qo'llash bilan, biz o'quvchilarda quyidagi imkoniyatlarni ta'minlaydi:

- asbob-uskunalaridan foydalanish ko'nikma va malakalarini egallash;
- mustaqil tadqiqotning yangi yo'llarini tanlash va ma'lum bo'lganlarini tekshirish;
- amaliy malakalarni egallash: o'lchash va hisoblash, natijalarni qayta ishlash va ilgari olinganlari bilan taqqoslash.

Ayniqsa, muammoli (tadqiqiy) laboratoriya usuli samaralidir, bunda o'quvchilar o'zlari gipotezani ilgari suradilar, uni amalga oshirish yo'lini aniqlaydilar, kerakli asbob-uskunalar va materiallarni tanlaydilar.

Laboratoriya usuli murakkabdir. U, maxsus va ko'pincha qimmat uskunalar bo'lishini, o'qituvchi va o'quvchilarning puxta tayyorgarlik ko'rishini talab qiladi. Undan foydalanish juda ko'p energiya va vaqtni sarflash bilan bog'liq. Laboratoriya ishi vaqtida o'quvchilardan namoyish usuliga qaraganda ancha katta faollik va mustaqillik talab qilinadi, ular bu erda sust kuzatuvchi bo'lib emas, tadqiqotlarning qatnashchisi va bajaruvchisi sifatida harakat qiladilar.

2.3. Mashq - ta'lim usuli bo'lib, o'tilgan materialni amaliyotda qo'llash maqsadida, reja bilan tashkil etilgan amallarni ko'p marotaba bajarishdir.

Bu usulning asosiy funksiyalari: o'rgatuvchi va rivojlantiruvchi. Ushbu usulning afzalligi shundan iboratki, u, ko'nikma va malakalarni samarali shakllantirishni ta'minlaydi, kamchiligi-motivatsion funksiyani sust bajarishdadir.

Mashqlarni quyidagi turlari mavjud: maxsus; sharhlangan; yozma; og'zaki; ishlab chiqarish – mehnat; laboratoriya – amaliy.

Sharhlangan mashqlar o'quv jarayonini faollashtirishga, o'quv vazifalarni ongli ravishda bajarilishiga xizmat qiladi. Ularning mohiyati shundan iboratki, o'qituvchi va o'quvchilar bajarilayotgan ishlarni sharhlaydilar, natijada ular o'zlashtiriladi va tushunib etiladi. Avval bunga eng yaxshi o'quvchilar jalb etiladi, keyin esa materialni tushuntirishda butun guruh ishtrok etadi. Sharhlangan mashqlar usuli o'quv mashg'ulotining yuqori sur'atini ta'minlaydi, materialni barcha o'quvchilar tomonidan ongli ravishda, mustahkam o'zlashtirilishiga yordam beradi.

**Og‘zaki mashqlar** ta’lim oluvchilarning nutq madaniyati va mantiqiy tafakkurni taraqqiy ettirish, ularning bilim imkoniyatlari bilan bog‘liq.

**Yozma mashqlar**. Ularning asosiy vazifasi – kerakli ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, chuqurlashtirish va mustahkamlashdan iborat. Shuning uchun, ular etarli miqdorda va har xil bo‘lishi kerak.

**Grafik mashqlar** matematika, fizika, chizmachilik, geografiya, rasm darslarida, ishlab chiqarishni o‘rganish jarayonida ishlatiladi.

**Laboratoriya-amaliy mashqlari** mehnat qurollaridan, laboratoriya asbob-uskunalaridan (jihazlar, o‘lchov apparatlari) foydalanish malakalarini egallashga imkon beradi, konstruktorlik-texnik mahoratni rivojlantiradi.

**Ishlab chiqarish-mehnat mashqlari** o‘quv va ishlab chiqarish xarakteridagi alohida ishlab chiqilgan tarmoqni tashkil etadi. Ular oddiy va murakkab bo‘ladi: birinchisi – alohida mehnat usullarini bajarish mashqlari, ikkinchisi – ishlab chiqarish – mehnat ishlarini butunligicha yoki ularning talay qismini (stanoklarni sozlash, detal qismlarini tayyorlash va h.k.) ko‘zda tutilgan.

**3. Suhbat, bahs, miyaga hujum, ishbilarmonlik o‘yini.** Bular ta’lim oluvchilarning sermahsul faoliyat ko‘rsatishlarini ta’minlovchi, ta’limga muhokama qiluvchi va rivojlantiruvchi tus beruvchi dars berish va o‘qitish usullaridir.

3.1. Suhbat – o‘qitish va o‘qishning dialogik, savol-javob usuli.

Bu usulning etakchi funksiyasi – motivatsiya qilish: aniq maqsadni ko‘zda tutadigan va mohirona qo‘yilgan savollar yordamida o‘qituvchi o‘quvchilarni o‘z bilimlarini berilgan mavzu bo‘yicha esga olish va bayon etishga, boshqa o‘quvchilar bilan muhokama qilishga undaydi.

Suhbatning afzalligi yana shundan iboratki, u, fikr yuritishni maksimal faollashtiradi, o‘quvchining bilim olish kuchini taraqqiy ettirishga imkon beradi. Belgilangan maqsadi bo‘yicha suhbatlar quyidagilarga bo‘linadi:

- kirish yoki tashkil qiluvchi (didaktik vazifasi: o‘quvchilarni mashg‘ulotda ishlashga tayyorlash);
- yangi bilimlardan xabardor qilish (didaktik vazifasi: o‘quvchilarni yangi material bilan tanishtirish);
- sintezlovchi yoki mustahkamlovchi (didaktik vazifasi: ta’lim oluvchilar tomonidan bilimlarni tizimlashtirish, mustahkamlash, eslab qolish va anglash).

3.2. Munozara faol ta’lim usuli bo‘lib, muhokama, ma’lum muammo bo‘yicha fikr almashinuv ko‘rinishida o‘tadi. Munozara usuli barcha funksiyalarni bajaradi. Ushbu usuldan quyidagi maqsadlar uchun foydalanadi: yangi bilimlarni shakllantirish; o‘quvchilarda u yoki bu savollarni chuqur o‘ylab ko‘rish, tub ma’nosiga etishga motivatsiyani ta’minlash; o‘quvchilarga dadil va dadilga asoslangan xulosa orasidagi farqni tushunib etishni o‘rgatish; kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish, o‘quvchilarga o‘z fikrida mustahkam turish va uni himoya qilishga yordam berish.

Munozara rivojlanishi mumkin, qachonki: erkin munozara bo‘lsa; yoki biror yo‘nalishda – boshqariladigan munozara bo‘lsa.

3.3. Miyaga hujum - g'oyalarni generatsiya qilish usuli. qatnashchilar birlashgan holda qiyin muammoni yechishga harakat qiladilar: uni yechish uchun shaxsiy g'oyalarni ilgari suradilar (generatsiya qiladi).

Bu usul barcha funksiyalarni bajaradi: lekin uning asosiy vazifasi – muammoni mustaqil tushunish va yechishga ta'lim oluvchilarni motivatsiyasini uyg'otish.

3.4. Pinbord (inglizchadan: pin-mustahkamlash; board-doska). Bu o'qitish uslubining mohiyati shundan iboratki, unda munozara yoki o'quv suhbatini amaliy usul bilan bog'lanib ketadi. Uning afzallik funksiyalari – rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi vazifadir: o'quvchilarda muloqot yuritish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi, o'z fikrini faqat og'zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko'nikmasi rivojlanadi.

3.5. Ishbilarmonlik yoki rolli (vaziyatli) o'yinlar – muammoli vazifaning bir turidir. Faqat bu o'rinda, matnli material o'rniga o'quvchilar tomonidan rollar o'ynaladigan hayotiy vaziyat sahnalashtiriladi.

Ishbilarmonlik va rolli vaziyatli o'yinlar o'quv usuli sifatida quyidagi vazifalarni bajaradi: o'rgatuvchi: umumta'lim mahoratni shakllantirish; ijodiy qobiliyatni o'stirish; shu jumladan: yangi vaziyatlarni tushuntirish, aniqlash va tahlil qilish; rivojlantiruvchi: mantiqiy tafakkurni, nutqni, atrof-muhit sharoitiga o'rganish qobiliyatini o'stirish; motivatsion: o'quvchilarni o'quv faoliyatiga undamoq, mustaqil xulosaga kelishiga rag'batlantirmoq; tarbiyaviy: mas'uliyatni, kommunikativlikni shakllantirish.

**Rolli o'yin**, ishbilarmonlik o'yini kabi, vaziyatda ko'rsatilgan muammoni yechish bo'yicha qatnashchilarning birgalikda faol ish olib borishlariga asoslangan. Mavzu qatnashchilarning bittamajburiy maqsadlari bor – muammoni yechish. Rolli o'yin qatnashchilarining har birini maqsadi - g'alaba qozonish, o'zini ko'rsatish.

O'qituvchi tomonidan ishlab chiqilgan o'yin mumkin qadar hayotiy bo'lishi kerak, lekin qatnashchilar uchun juda murakkab va qiyin bo'lmasligi lozim.

3.6. Bunda ta'lim oluvchilar maqsadga qay darajada erishganliklarini aniqlaydilar. Ta'lim oluvchilar ta'lim beruvchi orqali yoki o'zaro bir-birini baholashadi.

4. Muammoli vazifalar usuli, individual (amaliy) usul, loyihalar usuli.

4.1. Muammoli vazifalar usuli – o'quvchilarga muammoli vaziyatlarni va ularning faol bilish faoliyatini tashkil etishga asoslangan usuldir. U aniq vaziyatlarni tahlil qilish, baholash va keyinchalik qaror qabul qilishdan iborat. Bu usulning etakchi funksiyalari: o'rgatuvchi: bilimlarni aktuallashtirish; rivojlantiruvchi: tahliliy tafakkurni, alohida faktlar orqasidagi hodisa va qonuniylikni ko'ra bilishga shakllantirish; tarbiyalovchi: kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish.

Muammoli vazifalar usuli o'quvchilarning mustaqil ishlarini murakkablashtirishga, ilmiy tushunchalarni, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish asosida yotgan u yoki boshqa materialni chuqur mantiqiy tahlil qilishga asoslangan.

Muammoli vaziyatlarni yaratish usullariga quyidagilarni kiritish mumkin:



- o'quvchilarni qarama-qarshilik tomon olib borasiz va uning echimini mustaqil ravishda o'zlari topishlarini taklif etish;
- amaliy faoliyatda duch keladigan qarama-qarshilikni ma'lum qilish;
- bir savolga turli nuqtai nazardan qarashni bayon qilish;
- o'quvchilarga hodisani turli vaziyat orqali ko'rib chiqishni taklif etish (masalan, huquqshunos, moliyachi, o'qituvchi va h.k.);
- o'quvchilarni o'qituvchi taklif qilgan vaziyatni taqqoslashga, umumlashtirishga, xulosalar chiqarishga, faktlarni solishtirishga da'vat etish;
- aniq savollar qo'yish (umumlashtiruvchi, asoslovchi, aniqlashga, mantiqiy fikr yuritishga);
- muammoli nazariy va amaliy vazifalarni belgilash (masalan, ilmiy-tekshirish);
- muammoli vazifalarni qo'yish (masalan, ortiqcha yoki etarli bo'lmagan dastlabki ma'lumotlar bilan, savolni qo'yishda noaniqlik bilan, qarama-qarshi ma'lumotlar bilan, bilib qilingan xatolar bilan, belgilangan vaqt ichida, ruhiy sustlikni engish va h.k.).

4.2. Individual (amaliy) usul. Individual (amaliy) usul laboratoriya usulidan shunisi bilan farqlanadiki, unda ko'pincha, o'quvchilar faoliyatida olingan bilimlar vazifasini yechishga qaratadilar. Nazariyotni amalda tadbiq qila bilish birinchi o'ringa chiqadi. Ushbu usul bilimni, mahoratni chuqurlashtirish vazifasini bajaradi, shuningdek, o'rganish faoliyatini kuchaytirishni ta'minlaydi. Amaliy usul o'quvchilarni vazifalarni vijdonlik bilan bajarishga, mehnat jarayonini puxta tashkil etishga boshqa usullardan ko'ra ko'proq ko'maklashadi. (ish sifatini sinchiklab tekshirish, hulosalarni tahlil qilish).

4.3. Loyihalar usuli bilim va malakalarni, tahlil qilish va baholashni amaliy qo'llashni nazarda tutuvchi ta'limning majmuaviy usulini amalga oshiradi. Boshqa usullarga qaraganda, bu usulda o'quvchilar rejalashtirishda, tashkil qilishda, tekshirishda, tahlil qilishda va bajarilgan ishning natijalarini baholashda ko'proq ishtirok etadilar.

Loyihalar usulida ta'lim berishda faqat natijalar emas, balki jarayonning o'zi ko'proq qimmatliroqdir. Loyiha individual bo'lishi mumkin, lekin, odatda har bir loyiha o'quv guruhining birgalikdagi faoliyatining muvofiqlashtirilgan natijasidir.

Loyiha bir fanga oid, fanlar orasida yoki fandan tashqari bo'lishi mumkin.

Loyiha ustida ishlash jarayonida, o'qituvchining faoliyati quyidagilardan iborat bo'ladi: o'quvchilarga axborot qidirishga yordam berish; o'zingiz axborot manbai bo'lishingiz; butun jarayonni muvofiqlashtirishingiz; o'quvchilarni quvvatlashingiz va taqdirlashingiz; uzluksiz qaytar aloqani qo'llab-quvvatlashingiz.

### **Ta'lim usullarini tanlash**

O'qitish usullarini tanlashda asosiy e'tiborni ta'lim maqsadi va vazifalariga qaratilmog'i lozim. Chunki, o'qitish usullari bilan ta'lim maqsadi o'zaro bog'liqlik mavjuddir va ta'lim maqsadi o'rtasida yaqin o'zaro bog'liqlik mavjud.


Har qanday ta'limning maqsadi – bilimni hamda uni amalda qo'llay bilish ko'nikmalari va malakalarini shakllantirish, shunga zarur shaxs sifatleri va ko'rsatmalarini ishlab chiqish. o'quv faoliyati harakatida maqsadning barcha

komponentlari amalga oshar ekan, turli usullarni birgalikda qo'llash zarur. SHuning uchun, usul tanlashda eng asosiy omil bo'lib aniq o'quv mashg'ulotining didaktik vazifasi xizmat qiladi.

SHuni e'tiborga olish kerakki, Usul tanlash nafaqat maqsaddan, balki o'quv material mazmuniga va bu fanni qanchalik qiyin deb hisoblashga bog'liq.

O'quv usulini tanlashda uning samaradorligini e'tiborga olish ham ahamiyatga ega.

3-rasmda o'qitish «piramidasi» ko'rsatilgan, o'quvchilarning axborotni eslab qolish ko'rsatgichlariga o'qitish usullarining ta'siri quyidagi o'qitish piramidasi aks ettirilgan.



Axborotni eslab qolish

O'qitish piramidasi

1	Ma'ruza, doklad	- 5%
2	O'qish	- 10%
3	Video, rasm, ko'rgazmalarni ko'rish	- 20%
4	Tajribani namoyish qilish	- 30%
5	Munozara	- 40%
6	Mashq	- 50%
7	Ishbilarmon o'yin, loyiha usuli	- 75 %
8	Boshqalarni o'qitish	- 90%

Psixologlar, verbal (og'zaki) o'quv usullaridan foydalanganimizda (ma'ruza, hikoya, tushuntirish) o'quvchilar ma'lumotning 5% ni eslab qolishlarini isbotlaganlar.

Kitob o'qish ma'lumotning 10% ni saqlab qolishga imkon beradi, videofil, rasm, ko'rgazmali qurollarni ko'rish, ko'rgan ma'lumotlarni 20% ni o'zlashtirishni ta'minlaydi.

Loyihalash usuli va ishbilarmonlik o'yini eng samarali hisoblanadi, buning natijasida o'quvchilar ongida ma'lumotning 75% i saqlanib qoladi. Lekin o'quv-amaliy mashg'ulotlarning o'quvchilar tomonidan olib borilishi undan ham samaraliroq hisoblanadi, bunda 90% ma'lumot o'zlashtiriladi.

«Piramida»da, pog'ona ko'rinishida, o'quv natijalariga erishishda har bir usulning hissi ko'rsatilgan.

«Piramida» asosida ta'lim usullarining eng unumlilari o'rin olgan.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan ta’lim usullarining tanlash mezonlari quyidagi jadvalda keltirilgan.

<b>Tanlash mezonlari</b>		
<b>Usullar</b>	<b>Didaktik vazifalar</b>	<b>Ta’lim beruvchining vazifalari</b>
Ma’ruza	Yangi material bilan tizimli tanishish, murakkab tizimlar, xodisalar va hokazolarni bayon qilish	Materialni mantiqan tizimli, muammoli bayon etish, aytib turish, nutq texnikasini bilish, ta’lim oluvchilarni pedagogik usullar bilan faollashtirish.
Hikoya tushuntirish	Yangi msaterialni bayon etish, tushuntirish, tahlil qilish, har xil holatlarni dadillari Bilan isbotlash.	O‘z fikrlarini, mantiqan ishonarli, hissiyot bilan va to‘g‘ri bayon etish, asosiysini ajratish va unga e’tiborni qaratish.
Namoyish etish.	Yangi material Bilan ko‘rgazmali tanishish, tushunchalarni shakllantirish o‘rganish va anglash, kuzatish, tahlil qilish, amallarni bajarish.	Ob’ektni to‘g‘ri tanlay bilish, unga ta’lim oluvchilarning diqqatini qaratish, namoyish etish texnikasini bilish.
Ilyustratsiya	Tushunchalarni shakllantirish, o‘rganilayotgan predmet va hodisalarni muhim belgilarini ochib berish.	Eng qulay hajmdagi illyustratsiya materialini tanlay bilish, ko‘rsatish texnikaschini bilish.
Videosul	Yangi material bilan tanishish va o‘rganish, mustahkamlash, umumlashtirish, tizimlashtirish, modellashtirish ko‘nikmalari	Muammoga olib kirishni bilish ta’lim oluvchilar faoliyatini yo‘naltirish, ularga individual yordam ko‘rsatish.
Kitob bilan ishlash	Tanishuv, anglamoq, Yangi materialni o‘zlashtirish, bilimlarni kengaytirish va mustahkamlash, referat yozish, o‘z-o‘zini nazorat, mustaqil ta’lim olish, kitob o‘qishga bo‘lgan odatlari, «erkin o‘qishni» bilish, konspekt qilish, strukturaviy-mantiqiy sxemalar tuzish, tayanch konspektlari, adabiyotni tanlash ko‘nikmalarini shakllantirish.	Zarur adabiyotlarni tanlab olish, konspekt qilish, strukturaviy-mantiqiy sxemalar tuzish, Ushbu metodni amalga oshirish yo‘llarini bilish, kitob bilan ishlashda didaktik talablarni bili shva amalga oshirish.
Laboratoriya usuli.	Yangi meterialni qabul qilish, anglash, o‘zlashtirish, mustahkamlash va bilimlarni chuqurlashtirish, mustaqil tadqiqot qilishni bilish muammolarini ratsional hal etish, unumli ijodiy tafakkurni rivojlantirish, asbob-uskunalar bilan munosabatda bo‘lish, o‘lchov ishlari olib borish.	Tajriba, eksperement, izlanish o‘tkazish texnikasini egallash, laboratoriya uskunalari bilan ishlash ko‘nikmalari.
Mashq	Bilimlarni chuqurlashtirish, o‘rganilayotgan materialni amaliyotda foydalanish uchun	Har xil turdagi Mashqlarni bajarishni tashkil etishni bilish.

	mahorat va ko'nikmalarni ishlab chiqish, takrorlash, mustahkamlash.	
Suhbat.	Ta'lim oluvchilarni ishga tayyorlash, axborot berish, tanishuv, tizimlashtirish, mustahkamlash, esda qolish, bilimlarni yanada chuqurroq anglash, o'zlashtirish.	Asosiy va yordamchi savollarni ifodalash, ularni berish, umumlashtirish va xulosalar qilish, savol-javob usulining texnikasini egallash.
Davra suhbat.	Tartiblashtirish, mustahkamlash, eslab qolish, chuqurroq anglash, bilimlarni o'zlashtirish, bilishga qiziqishni rag'batlantirish va shakllantirish, kommunikatsiya ko'nikmalarini, o'z fikrlarini mantiqan bayon etish, savollarni shakllantirish, xulosalarni argumentlashtirish.	Asosiy va yordamchi savollarni shakllantirish, umumlashtirish va xulosalar chiqarish, savol-javob texnikasini egallash.
Munozara.	Bilimlarni o'zlashtirish, tartibga solish mustahkamlash, bilishga qiziqishni, kommunikatsiya ko'nikmalarini, o'z fikrlarini mantiqan bayon etish, savollarni shakllantirish, xulosalarni argumentlashtirishni rag'batlantirish va shakllantirish.	Ta'lim oluvchilarini munozaraga tayyorlash, munozarani ishlab chiqish va uni boshqarish.
Miyaga hujum.	Bilimlarni o'zlashtirish, tartibga solish, mustahkamlash, bilishga qiziqishni rag'batlantirish va shakllantirish.	Muammoli masalalarni tug'ri ifodalashni bilish. Takliflarni tayyorlash va argumentli shakllantirish.
Ishbilarmonlik o'yini	Savollarni shakllantirish, xulosalarni argumentlashtirish, xulq-atvorni korreksiya qilish, vaziyatdan chiqib ketish, to'g'ri qaror qabul qilish.	Ishbilarmonlik o'yinini rejasini tuzish, vaziyatni mazmunini va qatnashuvchi shaxslarni tavsiyanomasini ishlab chiqish, ishtirokchilarning harakatlarini yo'naltirish, yakunlar yasash, natijalarni baholash.
Pinbord.	Bilimlarni tartibga solish mustahkamlash, o'z fikrlarini og'zaki va yozma ravishda ifodalashni bayon etishni bilish, mantiqiy va tizimli tafakkurni rivojlantirish, muomala madaniyatini shakllantirish, munozara yuritish.	Vazifani ifodalab berish, taklif etilgan javoblar o'rtasida o'zaro mantiqiy aloqa o'rnatish, xulosalar chiqarish.
Muammoli vazifalar usuli.	O'qitishning dolzarbligi, predmetga nisbatan qazaqashni shakllantirish, vaziyatdan chiqib ketishni bilish va to'g'ri qaror qabul qilish.	Muammoli vazifani ishlab chiqish, muammo chegaralarini ifodalab berish, ta'lim oluvchilarning faoliyatini ularni hal etishga yo'naltirish, yakun yasash, xulosalar chiqarish.
Individual (amaliy) usul	Bilimlarni va malakalarni chuqurlashtirish, nazariy bilimlarni amalda qo'llash, bilish faoliyatini	Maxsus tayyorgarlik.

	Rag'batlantirish, tashkiliy kompetentligini, mustaqilligini, shakllantirish.	
Loyihalar usuli.	Ta'limni aktuallashtirish, bilimlarni chuqUr va har tomonlama o'zlashtirish, o'larni amalda qo'llash, taxlil qilishni, baholashni, tashkiliy kompetentlikni, mustaqillikni shakllantirish.	Mavzuni aniqlash va loyiha chegaralarini shakllantirish, ta'lim oluvchilarning faoliyatini yo'naltirish (boshqarish).

Yuqorida sanab o'tilgan an'anaviy va noan'anaviy ta'lim usullari shubhasiz ta'lim muassasalarida ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

### **§ 3.3. Kasb-hunar ta'limi o'quv muassasalarida zamonaviy darsga qo'yiladigan talablar**

#### **Dars va uning turlari.**

Dars deganda o'qituvchining o'quv guruhiga (brigadaga) uyushgan tayyorgarlik darajasi bir xil, tarkibi o'zgarmas o'quvchilar bilim mashg'ulot o'tkazishi tushuniladi.

Dars kasb-hunar ta'limi o'quv muassasalarida ham ta'limni tashkil etishning asosiy shakli hisoblanadi.

Har bir dars jarayonining bir qismi hamda bilim, ko'nikma va malakalarini egallashning bir butun mantiqiy yakunlangan bosqichidir.

Didaktik maqsadlar bo'yicha darsning quyidagi turlari mavjud:

1. **Yangi bilimlarni o'rganish darsi.** Bunday darslarda mavzu va ko'zlangan maqsad aytilib, yangi o'quv material bayon etiladi va o'quvchilarning mustaqil ishlashi uyushtiriladi, uyga topshiriqlar beriladi, darsning bu xili o'quv materialini o'zlashtirish oson hollarda o'tkaziladi.
2. **Umumiy yoki aralash dars.** Bunday darslarda har xil didaktik masalalar hal etiladi-uy topshiriqlarini va o'quvchilarning bilimlarini tekshirish, yangi materialni bayon qilish va boshqalar amalga oshiriladi. Ular maxsus fanlarni o'rganishda bir-biriga eng yaqin zvenolarini o'z ichiga oladi, bu esa o'quvchilar bilimlarini puxta va ongli o'zlashtirishini ta'minlash uchun muhimdir.
3. **Bilimlarni mustahkamlash darsi.** Bunday darslarda oldin o'rganilgan materiallar yuzasidan o'quvchilar bilan suhbatlar o'tkaziladi, kinofilmlar ko'riladi, bilimlar esga solinadi, faktlar va natijalar o'quvchilarning xotirasida mustahkamlanadi. Natijada bilimlar ancha puxtalashadi.
4. **Sinash-tekshirish darsi.** Bunday darslarda mavzu, bo'lim yuzasidan og'zaki savol-jaoblar, test yordamida yozma ki grafik usulda tekshirish ishlari o'tkaziladi. Ulardan ko'zlanadigan maqsad-har bir o'quvchining tayyorgarlik darajasini asosli baholash uchun kerakli ma'lumotlar olish, ya'ni bilimlarni qanchalik ongli va puxtaligini aniqlashdan iborat.
5. **Muammoli dars.** Bu darslardan maqsad o'quvchilar qo'yilgan muammolarni echa olish yoki echa olmasligini aniqlashdir. Bunday darslar

o'quvchilar maxsus fanlardan ma'lum bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lganlaridan keyin o'tkaziladi.

### **Darsning ana shu asosiy turlari strukturasi quyida keltiriladi**

**I. Yangi bilimlarni o'rganish darsi:** 1. Tashkiliy qism. 2. Yangi o'quv materialini bayon qilish va mustakamlash. 3. Uyga topshiriq berish. 4. Darsni yakunlash.

**II. Umumiy yoki aralash dars:** 1. Tashkiliy qism. 2. Uyga topshiriqni tekshirish. 3. O'quvchilar bilimini og'zaki (yakka tartibda) tekshirish. 4. Yangi o'quv materialini bayon qilish. 5. Yangi o'quv materialini mustahkamlash. 6. Uyga topshiriq berish. 7. Darsni yakunlash.

**III. Bilimlarni mustahkamlash darsi:** 1. Tashkiliy qism. 2. Uyga topshiriq'ini tekshirish. 3. O'quvchilardan so'rash, o'quv materialini mustahkamlash. 4. Uyga topshiriq berish. 5. Darsni yakunlash.

**IV. Sinash-tekshirish darsi:** 1. Tashkiliy qism. 2. O'qituvchining topshiriq'ini tekshirish. 3. O'quvchilarning savollariga javob berish. 4. O'quvchilarning topshiriqlarini bajarishni tekshirish. 5. Bajarilgan ishlari o'qituvchiga topshirish. 6. Uyga topshiriq berish. 7. Darsni yakunlash.

**V. Muammoli dars:** 1. Tashkiliy qism. 2. Muammoni bayon qilish. 3. Muammoni hal qilish yo'llarini ko'rsatish va al etish. 4. Natijalarni muhokama qilish. 5. O'qituvchining izohlashi va umumlashtirishi. 6. Uyga topshiriq berish. 7. Darsni yakunlash.

### **Kasb-hunar ta'limida darslarga qo'yiladigan talablar.**

Zamonaviy dars, masalan, maxsus va umutexnika fanlari bo'yicha dars qanday bo'lmog'i lozim? Eng avvalo, u hozirgi vaqtda pedagogika, psixologiya, ta'lim metodikasi erishgan yutuqlarga asoslanishi, shuningdek o'rganilayotgan kasb sohasidagi fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish tendensiyasini hisobga olish kerak. Uning mazmuni va metodikasi hozirgi kunda o'rta maxsus, kasb-hunar muassasalari oldida turgan dolzarb vazifalarini hal qilishga qaratilmog'i lozim.

Zamonaviy darsga qo'yiladigan talablarni shartli ravishda quyidagi gruppalariga ajratish mumkin: g'oyaviy-siyosiy talablar, didaktik, psixologik, ma'naviy-ahloqiy, gigienik, texnik talablar.

G'oyaviy-siyosiy talablar deganda darslarning g'oyaviyligi va hayotga yo'nalganligi, ta'lim protsessida hukumat qarorlarini amalga oshirish tushuniladi.

Didaktik talablar - bu dars yaxshi rejalashtirilgan, tayyorlangan, tashkil etilgan, yaxshi jihozlangan bo'lishi va yaxshi sur'atlarda o'tkazilish kerak.

Darsni tuzishga aniq maqsadni ko'zlab, ilmiy asoslangan holda yondoshish - bunda pedagog va o'quvchilar birga ishlaydigan aniq sharoitning eng yaxshi varianti tanlanadi va quyidagilari o'z ichiga oladi:

- dars vaqtidan to'g'ri va ratsional foydalanish;
- darsning maqsad va vazifalarini belgilash, asosiy va ikkinchi darajali vazifalarni ajratib olish;

- umuman va har bir struktura elementi uchun o'quv materialini belgilab olish, o'qituvchi o'quv materialini tanlashda darsning maqsadi, kasb xususiyati, fan texnika taraqqiyotining yutuqlarini hisobga oladi;
- asosiy didaktik tamoyillari va hozirgi zamon ishlab chiqarishi talablarini hisobga olish;
- ta'limning maqbul metod va priyomlarini tanlash, metodlar o'rganiladigan predmetning maqsadi, spetsifikasi, ta'limning optimal sharoitlarini hisobga olib tanlanadi.
- zarur ko'rgazmali qurollar va ta'limning o'qitish vositalarini tanlash.

Darsda o'quvchilarning jamoaviy va individual ish formalarini birga to'g'ri qo'shib olib borish zarur. O'qituvchi o'quvchilarga tayyor bilimlarnigina berib qolmay balki ularni mustaqil ravishda bilimlarini to'ldirish va chuqurlashtirishga o'rgatish, darsning barcha bosqichlarida bilish faoliyati va faollikni shaxsiy va yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda rivojlantirish kerak.

Dars paytida o'quvchilarning o'rganilayotgan materialni o'zlashtirish darajasini doimiy nazorat qilish, ya'ni qaytish aloqasini o'rnatish zarur.

**Psixologik talablar** quyidagilardan iborat: pedagoglar o'quvchilarning individual, yosh va psixologik xususiyatlarini xisobga olishlari kerak. Masalan, o'qituvchi pastki kurslarda odatda ta'limning asosiy shakli sifatida suhbat, hikoya qilish va yuqori kurslarda esa leksiya, seminar mashg'ulotlari, problemali xarakterga ega bo'lgan topshiriqlarni tanlaydi.

**Ta'limda - alohida yondashish tamoyili** o'qituvchilardan o'quvchilarning xotira, fikrlash, tayyorgarlik darajasi, o'qishga munosabat, bilim yurtiga kirish sabablari qiziqish va mayillari kabi psixologik va fiziologik xususiyatlarni hisobga olishni talab etadi.

**Ma'naviy-ahloqiy talablar** eng avvalo pedagogning shaxsiyatiga taalluqlidir. Kasb ta'limi o'qituvchisi ahloqiy jihatdan qat'iyatli, siyosiy jihatdan savodli, g'oyaviy etiqodli, xush muomalali bo'lishi, o'z kasbini, fanini, o'quvchilarni sevishi lozim; o'z nutqi, ko'rinishiga e'tibor berishi darkor, bunday sifatlarga ega bo'lgan o'qituvchi o'quvchilarni o'z shaxsiy ibrati, namunali yurish-turishi bilan tarbiyalaydi.

**Gigienik talablarga** harorat rejimiga, yoritish normalariga rioya qilish, o'quv auditoriyalari, kabinet, laboratoriya, ko'rgazmali qurollar (plakat, diopozitiv va kinofilmlar) ning estetik jihatdan yaxshi jihozlanishi kiradi.

Darsga bo'lgan **texnik talablar** – bu xavfsizlik texnikasi, yong'inga qarshi texnika, o'smirlar mehnatini muhofaza qilish bo'yicha talablar. Har bir laboratoriya, o'quv-ustaxonalarda poligonda xavfsizlik texnikasi va yong'inga qarshi texnika bo'yicha instruksiyaga ega bo'lishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchi darslarni shunday rejalashtirishi, tayyorlanishi, tashkil qilishi va o'tishi lozimki, bunda o'quvchilarning har bir darsda ta'lim olishi, tarbiyalanishi va bilish xususiyatlarini rivojlantirishi uchun yaxshi sharoit ta'minlasin.

### **Zamonaviy darsning maqsadlari**

Aristotel ezgulik hamma joyda ikkita shartga: har qanday faoliyatning pirovard maqsadini to'g'ri belgilashga va unga erishishning tegishli vosita va

usullarini tanlashga bog'liqligi haqida gapirgan edi. Darsni muvaffaqiyatli o'tkazish uchun avvalo darsni tashkil qilish bo'yicha pedagog ifaoliyatining maqsadini, u nimaga erishmoqchi ekanligini aniqlab olish, keyin maqsadga erishishga yordam berish vositani belgilash, so'ngra esa maqsadga erishish uchun qanday xarakter qilish usulini aniqlab olishi zarur.

*Maqsad nima?* amaliy jihatdan ta'riflanganda, maqsad-bu taxmin qilinadigan, oldindan biror ob'ektni / bu o'rinda o'quvchilarni / o'zgartirish bo'yicha rejalashtirilayotgan faoliyat natijasidir.

Pedagog qachon va qanday maqsadlarni o'z oldiga qo'yadi? Gap dars haqida ketayotgan ekan, darsga tayyorlanish vaqtida uning maqsadi uchta konkret maqsadga «taqsimlanadi»: ta'lim berish /o'qitish/, tarbiyalash va rivojlantirish.

Ta'lim berish, tarbiyalash va rivojlantirish birligi prinsipini M.I. Maxmutov **triada** prinsipi, ya'ni ta'limning barcha bosqichlarida yaqqol sezilib turadigan va bir-biri bilan bog'langan uchta prinsip deb ataydi. CHunonchi darsga tayyorgarlik ko'rish bosqichida bu prinsip talablari shunday ifodalanadiki, pedagog o'quv materialini taxlil qilar ekan, o'qitish jarayonida ta'lim berish, tarbiyalash va rivojlantirishning o'zaro bog'liqligi va birligini ta'minlashga intiladi.

**I. Ta'limning maqsadi** o'quvchilarda yangi tushunchalar va xarakter usullarini, ilmiy bilimlar tizimi va boshqalarni shakllantirishni ko'zda tutadi. Maqsadni aniqlashtirish zarur. Umumiy ravishda ta'lim maqsadining quyidagi turlarini tavsiya qilish mumkin.

*Ta'lim maqsadini turlari quyidagilardir:* yangi tushunchani shakllantirish, o'quvchilarning qonunlarni, xususiyatlar, belgilar va xossalarni bilib olishlarini ta'minlash; xarakter qilishning yangi usulini o'rgatish; malakalar (qanday) hosil qilish, xarakter qilishning ma'lum usullarini mustahkamlash; o'quvchilarni namuna bo'yicha topshiriqlarni bajarishga yoki yangi vaziyatda bilimlarni qo'llay bilishga o'rgatish; dunyoqarash g'oyalari va muammolarini ajratib ko'rsatish hamda turli darajada ularni o'zlashtirishda yordam berish; o'quvchilarni voqealarga sinfiy (estetik) nuqtai nazardan baho berishga o'rgatish; ularni muayyan xulosaga olib kelish; fanlarni o'zlashtirishga erishish va boshqalar.

Ta'limning aytib o'tilgan maqsadlarini aniqlashtirish zarur. Buning uchun, eng avvalo, o'quv dasturi talablarini, o'quvchilar bilimi va ko'nikmalarining mazmuni va hajmini, ularning o'qishga bo'lgan munosabatlarini xisobga olish zarur. Boshqacha qilib aytganda, ta'limning maqsadlari mazkur predmetning ob'ektiv imkoniyatlariga, pedagogik protsessni metodik jihatdan ta'minlashga /didaktik vositalar, ta'limning texnik vositalari va boshqalar/ o'quvchilarning olgan dastlabki ta'lim darajasiga muvofiq qilishi zarur.

*Eng asosiysi* – hozirgi zamon ishlab chiqarishning ilmiy asoslarini, uni intensivlashtirishning etakchi yo'nalishlarini chuqur o'rganib chiqish, bunda ba'zi korxonalarining spetsifikasini hisobga olish zarur, shuni ham ta'kidlab o'tamizki, ta'lim maqsadini har bir darsda har xil qo'yish shart emas, bu maqsadga bir necha dars davomida erishish mumkin.

**II. Tarbiyaning maqsadi** o'quvchilarda shaxsning muayyan xususiyatlari va xarakter sifatlarini shakllantirishni ko'zda tutadi. Psixologiyada shu narsa



aniqlanganki, shaxsning biror sifati va xarakterini bir dars mobaynida tarbiyalab bo'lmaydi. Tarbiya – uzoq davom etadigan jarayon.

Umumiy tarzda darsda tarbiyaning quyidagi maqsadlarini tavsiya qilish mumkin.

**Vatanparvarlikni tarbiyalash:** Vatanimiz tarixiga oid bilimlarni hozirgi vaqtda sodir bo'layotgan muhim voqealarni ma'lum qilish; Respublika, mamlakat kelajagiga qiziqishni shakllantirish; o'z Vatani, uning mehnatkash kishilari, ishlab chiqarish novatorlari bilan g'ururlanish hissini tarbiyalash, tabiat, xalq boyligiga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni tarbiyalash; Vatan oldidagi burchni, uning himoyasi uchun tayyor turishni shakllantrish.

**Baynalmillikni tarbiyalash:** boshqa xalqlar ilm-fani, madaniyati va san'atiga qiziqishni; mehnat kishilariga chuqur hurmatni, har bir millat, elatning qadr-qimmatini, xususiyatlari, manfaatlariga e'tibor bilan qarashni shakllantirish.

**Jamoaviylikni tarbiyalash:** ijtimoiy ahamiyatli xulq-atvor motivlarini tarbiyalash: o'qish va mehnatda o'rtoqlariga yordam ko'rsatish odatlarini shakllantirish; jamoa oldidagi mas'uliyatni tarkib toptirish, o'ziga va o'rtoqlariga bo'lgan talablikni rivojlantirish, gruppada jamoatchilik fikrini shakllantirish; o'z jamoasi sharafini himoya qilish ehtiyojlarini tarbiyalash.

**Insonparvarlikni tarbiyalash** kishilarga mehribonlik, g'amho'rlik bilan munosabatda bo'lishni; g'ayriy insoniy hatti-xarakatlarga murosasizlikni tarbiyalashni o'z ichiga oladi.

**Mehnat motivlarini,** mehnatga vijdonan munosabatda bo'lishni tarbiyalash, jamiyat farovonligi yo'lida ishlashga o'z imkoniyatlariga qarab foyda keltirishni shakllantirish, mehnat kishilarning huquq va manfaatlariga hurmat bilan qarashni tarbiyalash; mehnatga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish; xalq xo'jaligiga va shaxsning o'ziga kerak bo'ladigan kasbni o'quv yurtida egallashga o'quvchilarni yo'naltirish; har qanday ishni o'z vaqtida bajarish odatini tarbiyalash; ish natijalarini yuqori sifatli bo'lishiga intilishni shakllantirish; kasbga bo'lgan qiziqishni tarbiyalashni nazarda tutadi.

**Bilimlar, ta'limga bo'lgan ijodiy munosabatni tarbiyalash:** bilishga bo'lgan ehtiyojni shakllantirishda; shaxs va jamiyat uchun muhim va zarur bo'lgan bilimlarga yaxlit munosabatni; ta'limning butun mazmunini, dunyoqarashga doir g'oyalarini chuqur o'zlashtirishga bo'lgan intilishni; hodisalarga davr talablaridan kelib chiqqan holda mustaqil baho berish ehtiyojini shakllantirish; ta'limning bilishga qiziqish, burch va boshqa motivlarini rivoj toptirishda; shaxsning ma'naviy ehtiyojlarini shakllantirishda; o'quv faoliyat maqsadlarni qo'ya bilish va ularga erishishga intilishni shakllantirishlarni tarbiyalashda ifodalanadi.

**Intizomni tarbiyalash:** o'z hulqi, o'qishi, mehnati uchun ma'suliyatni tarbiyalashni; qoidalar va ahloqiy normalarni tez va aniq bajarish odatlarini shakllantirishni; Sovet davlatining normalari va qonunlari haqidagi bilimlarni ma'lum qilishni; davlat normalari va qonunlariga ma'suliyat bilan munosabatda bo'lishni shakllantirishi o'z ichiga oladi.

**Estetik qarashlarni tarbiyalash** yuksak hulq-atvor va nutq madaniyatini o'stirish, hal qilingan masala, bajarilgan ishdan estetik zavq olishni shakllantirish; ijodkorlik, novatorlikka intilishni tarbiyalash bilan bog'liqdir. Dars rejasida

tarbiya maqsadini amalga oshirish uchun darsda qanday materialdan foydalanish zarurligini ko'rsatish.

### **Rivojlantirish**

Hozirgi kunning talabi faqat ma'lum bilimlarni ma'lum qilib qolmay, balki predmetni o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan o'quv va malakani shakllantirish va rivoj toptirishdan ham iboratdir.

O'quv malakalar predmetning mazmuni kabi ta'limning zaruriy tarkibiy qismlari hisoblanadi. Shuning uchun o'qituvchi predmetning spetsifikasiga qarab o'quvchilarda qanday aniq malaka va o'quvchilarni rivoj toptirish kerakligini bilishi muhimdir.

O'quv muassasalarining pedagoglari har bir tarbiyalanuvchida barcha aql-idrok, fikrlash sifatlarini rivojlantirishlari shart.

Shunday qilib, biz rivojlantirish maqsadlari haqida so'z yuritish ekanmiz, darsda asosan o'quvchilar shaxsning psixik sifatlarini rivojlantirishni nazarda tutamiz. Bu sifatlar intellekt /diqqat, hotira, fikrlash/ va bilish qobiliyatlaridir. Psixologik adabiyotni analiz qilish quyidagi rivojlantirish maqsadlarini taklif qilish maqsadlarini beradi.

**Fikrlashni rivojlantirish:** muhim belgilar va xususiyatlarni ajrata bilishni, voqelikdagi hodisalar o'rtasida aloqa va munosabatlar o'rnatish va hokazolarni shakllantirish yagona, umumiy belgilarni aniqlash mahoratini rivojlantirish, o'rganiladigan material planini tuzish, biror qurilma va shu kabilarning ishlash prinsipini bilib olish; faktlarni klassifikatsiya qilish malakalarini rivojlantirish, umumlashma xulosalar chiqarish, umumiy va muhim belgilarni, bog'lanish va munosabatlarni belgilash, bilimlarni amalda qo'llash mahoratini o'stirish; fikrlashning ijodiy komponentlarini rivojlantirish-nostandart echimlarni topa bilish.

**Umummehnat politexnik malakalarni rivojlantirish** konstruktiv-texnik malakalarni rivojlantirishni eng turli-tuman vazifalarni hal qilishga shablon tarzda emas ijodiy yondoshishni, shart-sharoitlarni analiz qilish, umumlashmalar qilish, asosiy fikrlar tuzish, ularni eksperiment qilish, modellashtirish eskizlashtirish va hakoza; tashkiliy-texnologik malakalarni o'stirish-faoliyat vazifasini aniqlab olish, biror murakkab vaziyatda yo'l topa olish, zarur vositalar tanlash, ish rejasini ishlab chiqish, ishlab chiqilgan rejani baholash, pribor va asboblardan foydalana bilish malakalarini baholash, o'z xatti-harakatini tartibga solish va nazorat qila bilish mahoratini rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

**O'quv mehnatini rivojlantirish** lozim darajadagi sur'at bilan ishlash, o'qish, yozish, hisoblash chizish. Konspekt olish, malakani rivojlantirish o'quv mehnati odatini mashg'ulotga tayyorlik, uyushqoqlikni rivojlantirish ta'limining zarur metodlaridan foydalanish; esda saqlab qolish priyomlarini o'rgatish, materialni ma'no, gruppalariga ajratib, tayanch nuqtalarini ajratib ko'rsatish, reja tuzish; kuzatish priyomlarini kuzatish maqsadi va uning izchilligini, kuzatadigan ob'ektlar tarkibini shakllantirishni nazarda tutadi.

**Iroda va mustaqillikni** rivojlantirish tashabbusini, o'z kuchiga ishonchni rivojlantirishga; qat'iyatlikni o'stirish, ko'zlangan maqsadga erishish uchun

qiyinchiliklarni eng a bilish malakasini rivojlantirish; mustaqil harakat qilish malakasini o'stirish; bilimlarni egallash, qanday harakat qilish faoliyatini shakllantirish, uni qanday amalga oshirish va birovning yordamisiz o'z-o'zini nazorat qila bilish va hokazolarni rivojlantirishga qaratilgan.

**Bilish malakalarini o'stirish** malakalarini shakllantirishni, bilimlarni tayyor holda qabul qilish va fikrlashni eng asosiysini ajratib ko'rsatishni, rejada, tezislar tuzishni, konspekt olishni, kuzatishni, o'lchashni, tajribalar o'tkazishni; qisman izlanuvchanlikdan iborat bilish faoliyati, malakasini o'stirish-qisman muamolar qo'yish, gipotezani ilgari surish, uni hal qilishni; izlanuvchanlikdan iborat (ijodiy) bilish faoliyatini o'stirish-muammoni mustaqil ravishda ko'rish, uni shakllantirish gipotezalarini ilgari surish, dalillarni asoslashni aks ettiradi.

Agar ta'lim, o'quvchilarning bilimlarini shakllantirib va ularni aniq maqsadni ko'zlagan holda tarbiyalab, bilish qobiliyatlarini takomillashtirilsa, u holda **rivojlantiruvchi ta'lim** deb e'tirof qilinadi.

### **Darslarda o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish metodlari.**

Hozirgi vaqtda pedagogikada o'quvchilarning o'quv-bilim faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirishning quyidagi metodlari ma'lum:

1. O'quvchilarga o'quv axborotni berish va o'quvchilarning uni eshitish vositasida idrok qilishni ta'minlaydigan metodlar;
2. Amaliy faoliyat (tushuntirish-ko'rsatish) metodlari:
  - og'zaki (verbel) metodlar hikoya qilish, tushuntirish, leksiya, suhbat, seminar, munozara va hokozalar;
  - ko'rgazmali metodlar-kuzatish, ko'rsatish, namoyish qilish; amaliy metodlar:
  - mashq laboratoriya va amaliy ishlar, demontaj va remont ishlari va hokazo;
3. Ta'limning mantiqiy va o'quvchilar bilish faoliyatining xarakterini belgilovchi metodlar:
  - Individual, deduktiv, analitik, sintez, analiz qilish, taqqoslash, umumlashtirish, sistemalashtirish va boshqa metodlar;
  - O'quvchilarning mustaqilligi darajasini xarakterlovchi metodlar:
  - O'qituvchining rahbarligidagi o'quv ishlari - kitob bilan ishlash, laboratoriya ishlari, joriy instruktaj bilan olib boriladigan mustaqil ish va boshqalar; o'quvchilarning mustaqil o'quv faoliyat metodlari-kurs va diplom ishini loyihalashtirish; tajriba uchastkasi, poligon, ustaxonalardagi ishlar, montaj, demontaj va remont qilish ishlari va boshqalar.
4. O'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini rag'batlantirish va asoslash. O'qishga bo'lgan qiziqishni shakllantirish; ishga doir o'yinlar, bilishga doir tortishuv, o'quv bahslari vaziyatini analiz qilish va boshqalar.

5. Ta'limda burch hissi va mas'uliyatini shakllantirish. Tarbiya metodlariga kiradi va ular quyidagilardan iborat: e'tiqod, dalil, asosli tushuntirish, pedagogik

talab, jamoatchilik fikri, talablar, ragʻbatlantirishlar va boshqalarni bajarish malakalarini ishlab chiqish boʻyicha mashqlar.

6. Oʻquv-bilish faoliyatining samaradorligini nazorat va oʻz-oʻzini nazorat qilish metodlari: ogʻzaki yozma, dasturlashtirilgan (mashinada, mashinasiz), kombinatsiyalashgan (aralash), amaliy metodlar, grafik metod va boshqilar;

Oʻz-oʻzini nazorat qilish metodlari: ogʻzaki va yozma ravishda esga tushirish, oʻrgatuvchi mashinalardan, «oʻzingni tekshirib koʻr» stendlaridan foydalanish va boshqalar.

**Darslarni tashkil qilish va oʻtkazishdagi tipik kamchiliklar:** har bir dars muvaffaqiyatli oʻtishi uchun oʻqituvchi taʼlim amaliyotda yoʻl qoʻyiladigan eng tipik kamchiliklarni bilishi kerak. Ularga quyidagilar kiradi:

1. Darsni, shablon tarzda qurish. Dars darhol uy vazifani tekshirishdan boshlanadi (odatda ikki-uch oʻquvchi doskaga chiqariladi), keyin yangi material tushuntiriladi. Pedagog oʻz materialini mustahkamlash deb ataladigan materialni shoshilinch ravishda tashkil qiladi, nihoyat, shundan keyin uyga vazifa beriladi. Bu hol darsdan-darsga takrorlanaveradi. Darsni bunday tashkil qilishda oʻquvchilar oʻqituvchining xatti-harakatlariga tez moslashadilar. Koʻpincha faqat shunday darslarda ziddiyatli vaziyatlar vujudga keladi. Pedagog doʻq-poʻpisa bilan oʻquvchilarning oʻquv-bilish faoliyatini aniqlashtirishga harakat qiladi.

2. Oʻquvchilarda darsga diqqat qilishning yoʻqligi: bu narsa shu bilan izohlanadiki, baʼzi oʻqituvchilar oʻquvchilar eʼtiborini «Diqqat qilib tinglang», «Eʼtibor bering» va boshqa ogohlantirishlar bilan quvvatlashga harakat qiladi. His-hayajon bilan hikoya qilish, axborotni muammoli tarzda, vazifalarni asta-sekin murakkablashtira borish elementlari bilan ilgari surish, oʻquvchilarda muammoli qarashlarni shakllantirish bularning hammasi pedagog va ustalarga aniqlangan kamchiliklarning oldini olishga yordam beradi.

3. Javob beruvchi oʻquvchi-pedagog prinsipi boʻyicha ishlash. Frontal ishni individual ish bilan qoʻshib olib bora bilmaslik. Alohida-alohida beriladigan topshiriqqa individual yondashmaslik shu narsaga olib keladiki, oʻqituvchi butun dars davomida hamma oʻquvchilarni foydali ish bilan band qila olmaydi. Natijada oʻquvchilarda oʻrgatilayotgan materialga passiv munosabatda boʻlish namoyon boʻla boshlaydi. Darsda oʻquvchilarni uyushtirish usullarini qayta koʻrib chiqish zarur.

4. Oʻquvchilarning javobini diqqat bilan eshitmaslik baʼzi pedagoglar ishida yagona hol emas. Diqqatsizlik oʻqituvchining oʻquvchilarga nisbatan yuzaki munosabatda boʻlishi, oʻrtoqlari javobini analiz qilishga butun gruppani jalb qila olmaslik bilan xarakterlanadi. Oʻqituvchini oʻquvchining berayotgan javobiga shoshilib, oʻylamasdan aralashuvi ancha xavflidir. Bularning hammasi oʻquvchini oʻqishga qiziqtirishdan koʻproq sovitadi.

5. Oʻquvchilarning oʻquv-bilish imkoniyatlariga etarli baho bermaslik yoki, ortiqcha baho berish. Bunday hollarda oʻquv materiali bu narsa kamroq talab qilinadigan joyda engillashadi yoki murakkablashadi: darsni bunday tashkil qilishda ham boʻsh, ham kuchli oʻquvchilarda oʻqishga boʻlgan qiziqish soʻna boshlaydi. Shunda oʻqituvchi oʻquvchini faqat majbur qilish usullari bilan tarbiyalashga harakat qiladi: aqliy mehnatga boʻlgan qiziqish yoʻqoladi.

K.D. Ushinskiy pedagog ishidagi bu kamchilikni ko'rsatib, majburlash bilan olingan ta'lim faol va rivojlangan aql egalarini vujudga keltirishga yordam berishi gumon, deb ta'kidlagan edi.

Har bir o'quvchining imkoniyatlarini o'z vaqtida aniqlay olish va shuni hisobga olgan holda ularga beriladigan topshiriqlarni sekin-asta murakkablashtirib borish, ularga o'zlarining o'sib borayotganliklarini sezishlariga imkon bera olish-aniqlangan kamchilikning oldini olishning eng samarali shartlaridan biridir.

6. Eng bo'sh o'quvchiga kuchliroq o'quvchilarning bilim va javoblari misolida «unga o'xshashga harakat qil» prinsipi bo'yicha ta'lim bera olmaslik, pedagogning hamma o'quvchilarni ham shunday ishga torta olmasligi bilan emas, balki «qimmatli» vaqtini «yangi» axborot uchun saqlab qolishga intilishi bilan ham izohlanadi.

Kuchli o'quvchi o'z na'munasi va harakatlari bilan bo'sh o'quvchilarga zarur yordam ko'rsatishi uchun ularning o'zaro harakatlarini sinchiklab o'ylab ko'rishi kerak.

7. Ta'limda individuallikning bo'lmasligi. Individuallikni ta'limini alohidalash o'quvchilarni qiziqish va qobiliyatlariga qarab gruppalariga ajratish bilan chalkashtirib yuborish mumkin emas. Topshiriqni bevaqt murakkablashtirish o'quvchining o'z kuchiga ishonmasligini keltirib chiqadi. Unda sekin-asta o'qishga doimiy barqaror ishonchsizlik paydo bo'la boshlaydi. Bunday hollarda ba'zi pedagogning eng tirishqoqlik bilan izlanishlari ham o'qishga qiziqish uyg'ota olmaydi, muvaffaqiyat keltirmaydi. O'quvchi o'z moyilliklari, qiziqishlari va imkoniyatlariga topshiriq olgandagina individual ta'lim amalga oshadi.

8. O'quvchilarning o'quv bilish qobiliyatlarining o'sishiga etarlicha imkoniyat bermaslik ko'pincha sohta aktivlik bilan almashtiriladi: bunda pedagogning savollari-o'quvchilarni o'ylashga majbur qilmaydi. Odatda tashqari aktivlik deb ataladigan aktivlik bo'lajak ishchilarning aqliy rivojlanishida iz qoldirmaydi, olingan bilimlar sistemalashtirilmaydi, xulosa va umumlashmalarda mustahkamlanmaydi balki hotirani juda ko'p ma'lumotlar bilan band qilib qo'yadi. Bilimlarni faqat tayyor holda taqdim qilish yaramaydi, balki ularni tirishib olishga o'rgatish kerak, o'quvchi xotirasini boy faktlar va axborot oqimlari bilan band qilmasdan (o'quvchi unda g'arq bo'lib ketishi mumkin) balki uni rivojlantirish lozim-bu aniqlangan kamchilikni engishga yordam beradigan shart hisoblanadi.

9. Darsda vaqtni ratsional taqsimlamaslik (o'quvchida so'rashni cho'zib yuborish, yangi materialni bayon qilish va mustaxkamlashga vaqtni qisqartirish). Masalan, yangi materialni tushuntirish o'rniga o'quvchidan so'rash hisobiga vaqtni boy beradigan o'qituvchilar. O'quv materiali mazmunini oddiydan asta-sekin murakkabga o'tib borishini hisobga olgan holda planlashtirish bilan mazkur kamchilikning oldini olishga yordam beradi.

10. Ishning foydali turiga hamma o'quvchilarni jalb qila olmaslik yoki ularni uyushtira olmaslik. Bunday paytda pedagog «Siz mening ishlashimga halaqit beryapsiz», «Bitta narsani necha marta takrorlash mumkin» va hokazo bahonalardan foydalanmaydi.

Bunday e'tirozlar o'quvchilarning pedagog talablariga mas'uliyat bilan munosabatda bo'lishlarini tarbiyalashga yordam bermaydi, natijada o'quvchilar bu fikrlarini pisand qilmay qo'yadi.

11. O'quvchilarning faol mantiqiy fikrlashlarini rivojlantirish bo'yicha sistemali ish olib borish o'rniga yangi materialni tushuntirishga haddan tashqari berilib ketish. Pedagogning xis-hayajoniga to'la va ishonchli bayoni o'quvchilarning bo'lgan qiziqishini jiddiy ravishda oshiradi. Me'yor tuyg'usiga amal qilish muhimdir.

12. Darsda va uyda vazifalarni bajarishda mustaqil ishlash malakalariga etarlicha o'rgatmaslik. SHunday pedagoglar ham borki, ular darslarni qiziqarli, maroqli o'tkazadilar, hatto har bir o'quvchiga e'tibor beradilar, ammo mustaqil fikrlashni, qiziquvchanlikni, diqqatini, kasbga havasini tarbiyalashni nazardan qochiradilar.

13. Ko'rgazmali qo'llanmalardan faqat bayon qilish va tushuntirish uchun tayanch sifatida foydalanish, ularni bilimlarning mustaqil manbaiga aylantira olmaslik. O'quvchilar ko'rgazmali qo'llanmalarda nima tasvirlangan bo'lsa, shularni bayon qilib qo'ya qoladilar, lekin xulosa va umumlashma fikrlarni chiqara olmaydilar. O'quvchilarni u yoki bu ko'rgazmali qo'llanma asosida o'zlarining shaxsiy xulosa va umumlashma fikrlarini bayon qilishga, doim yo'naltirib turish muhimdir.

14. Ta'limning noratsional metodlarni tanlash, yangi sharoitlarni hisobga olmay o'zgalarning tajribasini eski asosda o'z ishiga ko'chirish dars samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. g'oyalar va tajriba o'quv jarayoniga avtomatik tarzda joriy qilinavermaydi, barcha yangilik ilg'or organizatsiya tajribalaridan ijodiy ravishda foydalanish zarur.

15. Har bir darsni o'quvchilar engishi zarur bo'lgan qiyinchiliklarni hisobga olishga e'tiborsiz munosabat. Bu hol o'quvchini sekin-asta eza boshlaydi; o'ziga ishonmaslik va o'qishga salbiy munosabatda bo'lishni keltirib chiqaradi.

16. O'qituvchining o'quvchilar bilan mas'uliyatsiz munosabatda bo'lishi **birinchidan**, pedagog ularni yaxshi bilmasligi, **ikkinchidan**, o'quvchilarning ichki dunyosiga befarq qarashi, **uchinchidan**, o'z faoliyati sistemasini to'g'ri tuzmaslik va o'zlariga bo'lishida namoyon bo'ladi. Bunday pedagoglar har bir o'quvchi shaxsiga samarali ta'sir ko'rsatish usullarini qidirmaydilar, balki boshqalar qiladigan ishni mexanik ravishda o'z ishlariga ko'chirib qo'ya qoladilar. Bu pedagoglar har bir o'quvchining muvaffaqiyatiga optimizm va ishonch ila qarash bilan ajralib turmaydi. Ular boshqalardagi qobiliyatni ko'rmay, o'zlarida bor qobiliyatni ham asta-sekin yo'qotib boradilar.

17. O'qituvchining faqat bo'sh o'quvchilarga diqqat e'tiborini qarataverishi kuchli o'quvchilar uchun darsni zerikarli qilib qo'yadi. Faqat hamma o'quvchilarni samarali ishlashga jalb qila bilish bilan bu kamchilikni engish mumkin. Bo'sh o'quvchilar ham, kuchli o'quvchilar ham o'zlarining kamolga etib borayotganliklarini doimo his qilib turishlari kerak.

## **IV-BOB. KASBIY TA'LIMDA O'QUV MASHG'ULOTLARINI TASHKIL QILISH VA O'TKAZISH METODIKASI**

### **§ 4.1. Laboratoriya-amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish metodikasi**

Kasb-hunar kollejida ta'lim jarayoni bir-biri bilan uzluksiz bog'langan nazariy va ishlab chiqarish talimidan iboratdir. O'quv jarayonida o'quv reja va dasturlari asosiy hujjat hisoblanadi.

O'quv rejasida ko'rsatilgan o'quv predmetlari, ularni o'rganish tartibi, har bir o'quv predmetni o'rganish uchun ajratilgan vaqt maslahat va nazoratlar barcha o'quv guruhlar uchun majburiydir.

O'quv rejasi kasb hunar kollejining turi, maqsadi va vazifalarini, o'quvchilarining soni va o'qish muddatini belgilovchi davlat hujjatidir.

O'quv rejasiga kirgan hujjatlarni malaka tavsiyanomasi, mavzular rejasi va o'quv dasturlari tashkil etadi.

Malaka tavsifnomasi - bo'lajak mutaxassisning bilimi hamda kasbiy saviyasiga qo'yiladigan asosiy talablar mujassamlangan normativ hujjatdir. Unda mutaxassis u yoki bu kasbiy faoliyat doirasidagi ishlarni ongli va to'g'ri bajarilishi uchun egallashi zarur bo'lgan bilimlar ifodalanadi.

Tarmoq ta'lim standartining tarkibiy qismlari bo'lgan malaka tavsifnomasida kasb va ixtisoslarning aniq nomlari, texnik va maxsus bilimlar, mehnat ko'nikma va malakalari, malaka oshirish bo'yicha yo'l-yo'riqlar ifodalanadi.

Bu hujjat o'quv rejasi va dasturlarini tuzishda asos bo'ladi, shuningdek bitirish ishlarida o'quvchilarning bilimlarini sifatli aniqlash uchun xizmat qiladi.

Mavzular rejasi o'quv dasturining bir qismini tashkil etib, unda mavzularning tartibi va nomi, ularni o'tish uchun, shu jumladan, nazariy, laboratoriya, amaliy mashg'ulotlari va ishlab chiqarish ta'limi uchun ajratilgan vaqtlar ko'rsatiladi.

O'quv dasturlari ushbu predmetning hajmini, uni o'qitishning mazmuni va tartibini belgilaydi.

Yangi o'quv reja va dasturlarda materiallar o'quv yillari bo'yicha taqsimlangan, o'quvchilarni yangi texnika bo'yicha bilim va malakalar bilan qurollantirish, o'quv ustaxonalarida, laboratoriya va mashq maydonlarda o'qitish, yangi texnologik jarayonlar bilan tanishtirish ko'zda tutilgan. Asosiy e'tibor ularda mustaqil fikrlashni rivojlantirish, mehnatga ongli va ijodiy munosabatni tarbiyalashga qaratilgan.

Kasb-hunar kollejlarning o'quv rejalarida nazariy va ishlab chiqarish ta'limi ko'zda tutilgan. Nazariy ta'limning vazifasi, mazmuni, usullari, tashkiliy shakllari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular yagona, ya'ni yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashga qaratiladi. SHuning uchun

nazariy va ishlab chiqarish ta'limi kasb-hunar kollejlardagi o'quv jarayonining mustaqil ammo o'zaro aloqador qismlari hisoblanadi.

Kasbiy ta'limda nazariy va amaliy mashg'ulotlar malum nisbatda bo'lishi lozim. Bunda o'quvchilar o'rganilayotgan fan bilan tanish emasligini, o'zlashtiriladigan bilimlar ular uchun yangiligini nazarda tutish zarur.

Qishloq ho'jaligi yo'nalishidagi kasb-hunar kollejlarda texnik fanlar - «Traktor va avtomobillar», «Mexanizatsiyalashgan ishlarning texnologiyasi», «Qishloq ho'jalik mashinalari va chorvachilik uchun jihozlar», «Mashina va jihozlarga texnik xizmat ko'rsatish» bo'yicha nazariy va amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari, ishlab chiqarish ta'limi darslari o'tkaziladi.

Maxsus texnik fanlarni o'rganishdan maqsad-o'quvchilarda hozirgi zamon texnikasi va ishlab chiqarish texnologiyasiga oid tanlangan mutaxassisliklar bo'yicha kasbiy malakani shakllantirishdir.

«Mexanizatsiyalashgan ishlar texnologiyasi» predmetini o'qitishda asosiy e'tibor qishloq ho'jalik texnikalaridan samarali foydalanish, ekinlarni jadal etishtirish texnologiyasini o'rganishga qaratilishi kerak.

«Traktorlar va avtomobillar» fani bo'yicha traktor va avtomobillarning tuzilishi, ishlashi va sozlanishi o'rganiladi.

«Qishloq ho'jaligi mashinalari va chorvachilik uchun jihozlar» fanini o'rganishda kasb-hunar kolleji joylashgan zonada ishlatiladigan qishloq xo'jalik mashinalarga alohida ahamiyat berish kerak. Ularning tuzilishini quyidagi tartibda o'rganish tavsiya etiladi:

- a) muayyan texnologik jarayonning mohiyati va vazifasi;
- b) texnologik jarayonni amalga oshirishga mo'ljallangan mashinaning elementlari (ish qismi);
- v) ish qismlarining joylashishi va mahkamlanishi;
- g) mashinadagi ayrim ish qismlarining tuzilishi hamda ishlashi bo'yicha sxemalar;
- d) texnologik sozlashlar;
- e) ro'y berishi mumkin bo'lgan texnologik va texnik nuqsonlar, ularning kelib chiqish sababalari, nuqsonlarini bartaraf etish yo'llari;
- j) mashinalarning hamda texnologik jarayonning ekologik va iqtisodiy jihatlari
- z) mashinalarga uzoq muddat to'xtovsiz ishlashda texnik xizmat ko'rsatish qoidalari;
- i) xavfsizlik qoidalari.

Maxsus texnik fanlar bo'yicha darslarga tayyorgarlik ko'rishda didaktik prinsiplarni hisobga olish zarur.

O'qituvchilarning o'qitish qonuniyatlarini bilishigina emas, balki ularni amalga oshirish uchun qulay sharoitlar yaratish ham muhimdir. Bunga esa o'quv jarayonini tashkil etishda o'qitishning asosiy qoidalariga tayanish kerakligini chuqur anglagan taqdirdagina erishishi mumkin. Bu qoidalar didaktikada o'qitish prinsiplari yoki didaktik prinsiplar deb ataladi.

**Didaktik prinsiplar:** ta'limni ilmiy asosda tashkil etish; uning tarbiyaviy xarakteri, muntazamligi va izchilligi; ko'rgazmaliligi,



mazmunining o'quvchilarga mos bo'lishi; o'qitishning faolligi va ongliligi; bilim, ko'nikma va malakalarni puxta o'zlashtirish va har bir o'quvchiga yakka tartibda yondashishdan iboratdir.

O'qituvchi o'quvchilarga mashina va qurollarning tuzilishi, ishlash prinsipi va mehnatni tashkil etishni chuqur o'rgatishi, ularni qishloq xo'jaligini yanada rivojlantirish rejalari, fan va texnikaning yutuqlari, olimlar, muhandis va ishchilarning xizmatlari haqidagi ma'lumotlar bilan ham tanishtirish lozim.

Ta'limni ilmiy asosda tashkil etish prinsipi o'quvchilarning ta'limiy ishlarini faollashtiruvchi, aqliy qobiliyatlarini o'stiruvchi, ularni mustaqil bilim olishga o'rgatuvchi usullarni tanlash va texnik atamalardan foydalanishga odatlantirishdir.

Ta'limning tarbiyaviy xarakteri o'quvchilarga kasbiy bilim berish, ularning aqliy o'sishi hamda dunyoqarashining shakllanishi uchun sharoit yaratadi.

Ta'limni amalga oshirishda o'qituvchi o'quvchilarda o'z kasblariga muxabbat, ongli intizom, o'z mehnatini rejalashtira bilish, jamoa bilan ishlay olish ko'nikmalarini tarbiyalashi lozim. Har bir darsni o'quvchilar bilmi va malakalarni egallashlari bilan birga ularda dunyoqarashi ham shakllanadigan yo'sinda tashkil qilish lozim.

Ko'rgazmalilik prinsipi o'rganilayotgan hodisa va narsalarni jonli idrok etish asosida o'zlashtirishni ko'zda tutadi.

Ta'limning ko'rgazmalilik prinsipi o'quv materialini aniq obrazlar orqali bevosita idrok qilishni taminlaydi.

Ta'lim jarayonida ko'rgazmali vositalardan to'g'ri foydalanish; o'quvchilar texnikaga oid bilimlarni puxta o'zlashtirib olishiga, ularning malakalarini oshishiga yordam beradi.

Agar ko'rgazmali qurol biror o'quv materialini ifodalashi ko'rsatish vositasi bo'lsa, nutq asosiy, ko'rgazmali qurol esa yordamchi vosita bo'ladi. Agar ko'rgazmali vosita kuzatishni rivojlantirish uchun qo'llansa, nutq qisqa bo'lishi, faqat asosiy vositaga, ya'ni kuzatishning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilishi kerak.

Bilimlarni egallash jarayonida narsa va hodisalarni kuzatish, sezish va idrok etishning muhimligini ifodalagan Ya.A.Komenskiy shunday yozgan edi: «O'quvchilar sezib idrok etishi mumkin bo'lgan narsalarni albatta, sezgilar vositasi bilan, ya'ni ko'rish mumkin bo'lgan narsalarni ko'z bilan ko'rib, eshitish mumkin bo'lgan narsalarni quloq bilan eshitib, hidi bor narsalarni hidlab ko'rib, ushlab sezish mumkin bo'lgan narsalarni ushlab bilib olishlari kerak. Birdaniga ko'p sezgilar yordamida idrok etish mumkin bo'lgan narsalarni, iloji boricha, bir necha sezgilar ishtirokida idrok etish lozim. Bolalarga bilim berish uchun, umuman hamma narsaga bevosita kuzatish va sezgilar asosida o'qitish kerak»[47;24b]

Mana shu talablarni bajarish uchun nazariy darslarda plakat, videofilm, diafilm, yonilg'i va moylash materiallari, moylash va yonilg'i bilan taminlash uskunalari va boshqalar bo'lishi kerak. Ta'limning o'quvchilarga mos bo'lishi

prinsipi ularning aqliy jismoniy va yosh xususiyatlarini hisobga olishni talab qiladi.

Onglilik va faollik prinsipi ta'limi o'quvchilar ilmiy bilimlarni ongli, ijodiy o'zlashtiradigan yo'sinda tashkil etishni ko'zda tutadi. Bunga esa o'quvchilarning dars vaqtidagi faolligi bilan erishish mumkin. Bu prinsip ishlab chiqarish ta'limi jarayonida kasbiy malakalarni ongli o'zlashtirishda undagi ish xarakterlarini farqlay bilishda ko'rinsa, amaliy topshiriqlarni bajarishda mazkur prinsipning natijasi mehnat usullari to'g'ri va belgilangan vaqtda bajarilishida, mashinani boshqarishda pedal va richaglardan to'g'ri va tez foydalanishda, bilim va malakalarni yangi ob'ektlarga tez va aniq ko'chirishda namoyon bo'ladi.

**Malakalarni puxta o'zlashtirish prinsipi.** Bu prinsipga ko'ra o'qituvchi amaliy-laboratoriya mashg'ulotlarining samaradorligini nazorat qilib turadi. Malakalar puxta o'zlashtirilishini ta'minlash maqsadida o'rganilgan materiallar muntazam ravishda takrorlab boriladi, yangi materialni mustahkamlash tartiblari qo'llaniladi.

Bu prinsip ishlab chiqarish ta'lim jarayonida quyidagicha amalga oshiriladi:

- mutaxassislikni mustahkam egallash maqsadida mehnat usullarini ko'p marta takrorlash;
- mashinalar xaydashni o'rgatish vaqtida o'quvchilarning turli malakalarni mustaqil egallashlariga ahamiyat berish;
- o'quvchilarda texnik adabiyot va ma'lumotnomalardan foydalanish ko'nikmalarini xosil qilish;
- malakalarni shakllantirishda oddiy mashqlardan murakkab mashqlarga o'tish va darslarni ishlab chiqarishga yaqin sharoitda olib borish.

Har bir o'quvchiga yakka tartibda munosabatda bo'lish prinsipi o'quvchilarni har tomonlama o'rganishini, ularga o'z vaqtida yordam berishni, ularning tashabbuskorligi va ijodiy qobiliyati namoyon bo'ladigan shart-sharoit yaratishni talab qiladi.

Har bir o'quvchining o'ziga xos tomonlarini hisobga olish uchun o'qituvchi va usta dars o'tilgunicha ularning tavsifnomasi bilan tanishishi va har biri bilan suxbat o'tkazishi kerak.

Nazariy ta'lim darslarining tashkiliy shakllarini to'g'ri tanlash katta ahamiyatga ega. Bunda darsni o'tish joyi va tartibi, o'quvchilarning faoliyati hamda darsda ularni guruhlariga ajratish, dars davomida o'qituvchi bilan o'quvchilar orasidagi aloqaning mohiyati ko'zda tutiladi. Darslarning tashkiliy shakllari kasb hunar kollejining ta'lim-tarbiyaviy vazifalari bilan belgilanadi va o'qitish usulariga bog'liq bo'ladi.

Darslarni yuqori metodik saviyada tashkil etish va o'tkazish uchun o'qitish metodlaridan oqilona va samarali foydalanish zarur.

O'QITISH metodlari ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatining yo'nalishini, o'qitish jarayonining qanday tashkil etilishi va olib borilishini hamda o'qituvchining hatti-harakatlarini belgilaydi. Bu metodlar

o'qituvchi tomonidan o'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishi uchun qo'llanadigan usullar yig'indisini o'z ichiga oladi.

Ta'lim tizimida o'qitish metodlari bilan birga «usul» va «vosita» atamaları ham ishlatiladi.

**Usul** - malum o'quv materialini o'tishda qo'llanayotgan asosiy o'qitish metodi bilan birga ikkinchi bir o'qitish metodining ayrim elementlaridan foydalanib ish ko'rishdir.

**Vosita** – o'qitish metodlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan yordamchi o'quv materiallari, asbob-uskunalar, qurol, apparat va shu kabilardan foydalanishdir. Ta'lim metodlari o'qitish jarayonida va pedagogik tafakkurning ko'p asrlik rivojlanishi tarixida muxim o'zgarishlarga duch keladi. Pedagogikada ta'lim metodlarini tasniflash va belgilashga bir xil yondoshish mavjud emas. Ayrim mualliflar o'qitish metodlarni belgilashda bilish manbalarining xususiyatlarini asosiy deb hisoblaydilar; chunonchi, og'zaki (suhbat, tushuntirish, bayon qilish, o'quvchilarning texnik adabiyotlar bilan mustaqil ishlashi va boshqalar); ko'rgazmali (ko'rgazmali qurol, kinofilm va diafilmlarni namoyish etish; mehnat usullarini ko'rsatish, o'quvchilarni mustaqil kuzatishlari va boshqalar); amaliy (mashqlar operatsiyalar, ish usullari, amaliy laboratoriya mashg'ulotlari) va boshqalar.

Keyingi paytlarda pedagogika nazariyasi va amaliyotida o'quvchilar bilish faoliyatining xarakteri bo'yicha tasniflanadigan metodlar qo'llanmoqda.

Ta'lim jarayonida qo'llanadigan metodlar o'quvchilarning faolligini oshirish, o'rganilayotgan o'quv materialini o'quvchilar chuqur o'zlashtirishini ta'minlashi lozim. Bu talablarga I.Y.Lerner va M.N.Skatkin tomonidan taklif etilgan metodlar tizimi to'liq javob beradi. Ularning asosini o'quvchilarning bilish faoliyati tashkil etadi.

Tushuntirish - ko'rgazmali metod. O'qituvchi har xil vositalar yordamida o'quvchilarga tayyor ma'lumot beradi va ular malumotni qabul qiladilar, angelaydilar va o'z xotiralarida saqlaydilar.

Eslash metodi. O'qituvchi topshiriqlar tizimi bilan o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etadi. O'quvchi esa tasvirlar bo'yicha malakalarni egalaydilar. O'quvchilar bilimining hajmi ortib borgan sari birinchi metoddan ikkinchisi bilan birga foydalanish ko'payib boradi.

Muammoli bayon. O'qituvchi muammoli vaziyatni vujudga keltiradi, dars davomida uni hal qilish yo'llarini tushuntirib boradi va hal qiladi. O'quvchilar o'qituvchi bilan birgalikda muammoni hal qilishda faol ishtirok etadilar.

Qisman izlanish yoki evristik metod. O'qituvchi o'quv muammosini aytib, uni yordamchi qismlarga bo'ladi va izlanish yo'lini belgilaydi, o'quvchilar esa o'z-o'zlarini tekshirib muammoni hal qiladilar. Bunda o'qituvchi o'quvchilarga ayrim yo'nalishlarni, masalan, oldindan tuzilgan savollarni aytadi.

Tadqiqot metodi. O'quvchilarning yangi muammoni hal qilishidagi mustaqil izlanishi va ijodiy faoliyatini tashkil etish usulidir. Bunda o'qituvchi ularga tayyor muammoni bayon qilmaydi. Uni o'quvchilarning o'zlari o'quv

materialini o'zlashtirish jarayonida topadilar, shundan so'ng o'qituvchi muammoli vaziyatni vujudga keltiradi.

An'anaviy o'qitish metodlari – og'zaki bayon qilish, tushuntirish, suhbat, leksiya, o'quv adabiyotini o'qish; tajribalar, o'tkazish, natural obe'ktlarni, ko'rgazmali vositalarni namoyish etish; mashq, yozma ish, grafik ish laboratoriya ishlari-bayon etilgan metodlar tizimida vosita va usul sifatida namoyon bo'ladi, o'qituvchi esa ular yordamida u yoki bu metodlardan foydalanib darsni yuqori saviyada o'tkazadi.

Amaliy metod deganda o'quv materialini mashqlar, mustaqil topshiriqlar, amaliy va laboratoriya ishlari asosida o'zlashtirishning shakllari tushuniladi. Ishlab chiqarish ta'limida bu metodga ish usulari, mehnat operatsiyalari, majmuaviy ishlari vazifalarni bajarishda mustaqillikni rivojlantirishga qaratilgan ishlari mashq qurilmalarga oid mashqlar laboratoriya-amaliy ishlariga esa texnologik jarayonni boshqarish mashqlari kiradi.

Mashqlar - ko'nikma va malakalarni shakllantirish hamda mustahkamlash maqsadida muayyan hatti-harakatlarni ko'p marta takrorlashdir. Ishlab chiqarish ta'limidagi mashqlarga asosan quyidagi talablar qo'yiladi: mashqlarni o'quvchilar ongli va maqsadga muvofiq yo'sinda bajarishlari; ishlab chiqarish metodikasiga asoslanishi, tizimli izchil uzluksiz bo'lishi va takrorlanishi; o'quvchilarning ishdagi mustaqilligi muntazam rivojlanib borishi kerak.

Onglilik va maqsadga muvofiqlik mashqlarni bajarishdagi eng muhim talabdir, o'quvchilar mashqning nima uchun kerakligini aniq tasavvur qilishlari va maqsadga erishishga faol intilishlari lozim. O'rganiladigan mehnat jarayonlarining ilmiy-texnik asoslarini bajarish yo'llari, ishda uchraydigan xatolarni bilish o'quvchilarga o'rganilayotgan harakatlarni o'zlashtirish imkonini beradi.

Onglilik, maqsadga muvofiqlik ko'nikmalar shakllanishining dastlabki paytlarda ayniqsa katta ahamiyatga ega. O'quvchilar mashq natijalaridan dovdorab qolmasliklari uchun o'qituvchi usta ularni qiyinchiliklardan, qiyinchiliklarni engish yo'llaridan ogohlantiradi. Mashqlar muvaffaqiyatli o'tishi uchun o'qituvchi o'quvchilarning tegishli natijalarga erishishdagi intilishlarni qo'llab-quvvatlashi kerak, mashqlarni tobora murakkablashtirib borish zarur.

Ko'nikmalarni shakllantirish jarayoni o'quv faoliyatida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ko'nikma hosil qilishning muvaffaqiyati qator shartlarga bog'lik.

Birinchi shart - ko'nikma nima? Ko'nikma-avtomatlashgan darajaga etkazilgan harakatlar tizimidir. Agar o'quvchi materialni o'zlashtirishda uning ahamiyatini tushunmasa, unda bunday harakatlar shakllanishi qiyin bo'ladi.

Ikkinchi shart – mashqlarning tizimi bo'lishi. Odatda ko'nikmalar hosil qilishdagi qiyinchiliklarga o'quv mashqlar tizimini tashkil etish va ularni o'tkazishdagi kamchiliklar sabab bo'ladi.

Uchinchi shart - amaliy harakatlarni ongli ravishda bajarish. O'quvchi o'z Harakatlarini, ish operatsiyalarining izchiligini yaxshi tushunishi zarur, ularni mexanik tarzda va yodlab olishga yo'l qo'ymaslik kerak.

To'rtinchi shart - dastlabki amaliy hatti-harakatlar va operatsiyalarga puxta tayyorlanish. Operatsiyalar ongli ravishda, reja asosida bajarilsa, ko'nikma tezroq va muvaffaqiyatliroq shakllanadi. O'quvchi o'zining dastlabki hatti-harakatlarida xatoga yo'l qo'ymasligi lozim, chunki ularni qayta o'rganishga to'g'ri kelmaydi. Dastlabki harakatlardagi xato keyin takrorlanib, mustahkamlanib olish mumkin va uni tuzatish qiyin bo'ladi, shu sababli harakatlarni bajaryotganda operatsiyalar tartibini ovoz chiqarib yoki chiqarmay gapirib turish g'oyat foydalidir. O'qituvchi shu harakatlar va operatsiyalarni e'tibor bilan nazorat qilib boradi.

Beshinchi shart – mashqlarni mustaqil bajarish va o'zini-o'zi nazorat qilish. O'qituvchi o'quvchiga bunday nazoratning usullarini o'rgatish zarur.


Oltinchi shart - bajarilgan mashqlar, amaliy ishlarni taxlil qilish va baholash. O'quv ko'nikma va malakalarining ijobiy hamda salbiy jihatlari bo'ladi. O'quvchilar tipik xatolarga yo'l qo'yadilar. Darslarda yaxshi ishlarni namoyish qilish, ijobiy namuna asosida o'qitish maqsadga muvofiqdir.

Ko'nikmalarni shakllantirishning mana shu shartlariga rioya qilinsa, o'qitishning amaliy metodlari o'quv materialini muvaffaqiyatli o'zlashtirishga olib keladi.

Shakllangan ko'nikma va malakalarni mustahkamlash va takomillashishini ta'minlovchi asosiy omillari:

- ko'nikma va malakalarning ongli tushunib va mustahkam shakllanishi.
- ularni shakllantirishda o'zlashtirilgan bilimlarga tayanilishi.
- xatolarning oldini olish, ularni o'z vaqtida tuzatish, yani noto'g'ri ish usullariga yo'l qo'ymaslik.
- barcha o'quvchilarga yagona pedagogik talablar qo'yish.
- topshiriqlarni sekin-asta murakkablashtirib (eng oddiy ish harakat usullaridan murakkab ish harakatlariga o'tib) borish.
- mashqlar uchun ajratilgan vaqtdan to'g'ri foydalanish.
- malakalar to'liq shakllanganicha mashqlar davom ettirish.
- o'quvchilarning e'tiborlilik.
- mashqlarning muntazam ravishda o'tkazilishi.

Quyida o'qitish metodlarining tasnifi va namuna sifatida dars rejasi keltirilgan.



4-rasm. O'qitish metodlarining tasnifi.

Shu bilan birga o'qitish metodlarining quyidagi tasnifi ham mavjud (4-rasm). Unda o'qitish metodlari ikki guruhga: bilimlarni dastlabki egallash metodlari va bilimlarni mustahkamlash, takomillashtirish, ko'nikma va malakalarni shakllantirish metodlariga bo'lingan. O'qish jarayonida o'quvchilarning faollik darajasiga qarab birinchi guruhdagi metodlar yana ikkiga bo'linadi, bular ma'lumotli-rivojlantiruvchi, muammoli-izlanishli metodlardir.

An'anaviy ta'limda ma'lumotli-rivojlantiruvchi metodlarning salmog'i ancha katta. Bunday darsda o'quvchiga nisbatan o'qituvchi faolroq qatnashadi (leksiya, tushuntirish, hikoya va suhbat).

Bilimlarni mustahkamlash va ko'nikmalarni shakllantirish uchun ko'pincha mahsulsiz metoddan foydalaniladi (o'quvchilarning materialni qayta aytib berish, namuna bo'yicha mashqlar bajarish, ko'rsatma bo'yicha laboratoriya ishlarini amalga oshirishi). Bu metod o'quv materialini aytib berish va esda saqlashga, ijodiy tafakkurning rivojlanishiga mustaqil bilish faoliyatini kuchaytirishga qaratilgan bo'ladi.


Lekin o'qitish metodlari turg'un, doimiy emas, ular keyingi paytlarda rivojlanib faol o'qitish metodlari shaklida namoyon bo'lmoqda.

Faol o'qitish metodlari o'quv materialini egallash jarayonida o'quvchilarni fikrlash va bilish faoliyatiga undaydi (5-rasm).

Faol o'qitish metodidan quyidagicha foydalaniladi:

a) o'qituvchi o'quv materialini qayta gapirib berish va esda saqlash uchun bilimlarni namoyish etmaydi;

b) o'quv materialini shunday bayon qiladiki, o'quvchilar faol bilish va amaliy ishlar jarayonida mustaqil bilim hamda ko'nikmalarni egallaydi.



## 5-rasm. Faol o'qitish metodlarining tasnifi.

### Dars rejasi

Fan-«Qishloq xo'jalik mashinalari va chorvachilik uchun jihozlari».

Mavzu - Erga asosiy ishlov berish mashinalari.

Darsning maqsadi – o'quvchilar pluglarning umumiy tuzilishi, ishlashi va sozlanishi bilan tanishtirish, ularda kasbiy bilimlarni shakllantirish.

Tarbiyaviy maqsadi - texnik tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish.

Rivojlantirish maqsadi – o'quvchilarni qishloq xo'jaligi mashinalari o'quv predmeti bo'yicha laboratoriya amaliy mashg'ulotlarini ongli ravishda bajarishga tayyorlash.

Darsning turi - yangi bilimlarni o'rganish.

O'QITISH metodlari – og'zaki, ko'rgazmali.

Ajratilgan vaqt - 2 soat.

Darsni jihozlash - 1. Plakatlar - a) pluglar.

2. Diafilmlar - a) pluglar; b) toshli erlar uchun pluglar; v) erni mexanik usulda haydash.

Modellar – a) osma plug; b) aylanma.

Plugning qismlari - a) plugning ishchi korpusi yig'ilgan holda; b) plugning boshqa qismlari;

Tashkiliy qism. (3-5 daqiqa).

Ishchanlik holatini vujudga keltirish (dolzarblashtirish).

Yangi o'quv materialini bayon qilish (70-75 daqiqa).

1. Er haydashga qo'yiladigan agrotexnik talablar.
2. Umumiy ishlarda ishlatiladigan pluglarning vazifasi, texnik tasnifi, umumiy tuzilishi va ishlashi.
3. Pluglarning asosiy qismlari.
4. Pluglarda bajariladigan sozlash ishlari.
5. Plugni ishga tayyorlash

O'tilgan materialni mustahkamlash (10 daqiqa).

1. Pluglarning vertikal va gorizantal holatlari qanday sozlanadi?
2. Paxta etishtirish zonasida qanday pluglar ishlatiladi?
3. Plugni haydash chuqurligiga qanday qilib rostlanadi?

### Uyga topshirik.

1. Guruhga biriktirilgan pluglarning markalarini aniqlash.
2. Pluglarni sozlash ishlarini ko'rib chiqish va natijalarini daftarga yozish.
3. Pluglardagi nosozliklarni aniqlash.

### **Darsni o'tish bo'yicha metodik ko'rsatmalar**

Bu dars o'quvchilar uchun ancha murakkab bo'lib, ularning ko'pchiligi maxsus va umumiy ishlarga mo'ljallangan pluglarning tuzilishi bilan ilk bor tanishadilar. Lekin darsda foydalaniladigan ko'rgazmali qurollar ularga dars materiallarini ongli ravishda o'zlashtirishda yordam beradi.



Dars boshida o'qituvchi o'quvchilarga bir necha savollar berib, ularning shu darsga doir boshlang'ich bilimlarini aniqlaydi.

O'qituvchi pluglarga qo'yiladigan agrotexnik talablarni tushuntirishi ularni bajarmaslik nimaga olib borishini ham uqtiradi. Har bir masala tushuntirilgandan keyin uni diafilm, bilan birga uning asosiy qismlarini ham ko'rsatish kerak. Ana shunda o'quvchilarni ko'rish xotirasi yanada rivojlanadi, texnik tafakkur shakllanib boradi.

O'qituvchi pluglarning sozlanishini tushuntirishdan avval o'quvchilar diadatini osma plugga keyin tirkama va yarim tirkama pluglarga qaratish kerak. Dars davomida «Erga asosiy ishlov berish agregatlarini ishga tayyorlash» kinofilmidan ham foydalanishi mumkin, chunki unda plugni ishga tayyorlashdagi asosiy sozlash ishlari yaxshi ko'rsatilgan.

Uyga topshiriq berishda o'quvchilar o'zlariga birlashtirilgan pluglar bilan tanishuvining tarbiyaviy ahamiyatini hisobga olish lozim.

Yakka tartibdagi laboratoriya amaliy mashg'ulotlaridan traktor, avtomobil, paxta terish mashinalarini haydashni o'rgatishda va mashina taraktor agregatlarini ishga tayyorlash darslarida, maxsus fanlarni o'qitishda foydalanish mumkin. Uyda topshiriqlarni bajarishda qiynalib qolgan yoki ulgurmagan o'quvchilarga maslahat va yordam beriladi. Frontal guruhli laboratoriya amaliy mashg'ulotida hamma o'quvchilar kirish yo'l-yo'rig'idan keyin bir xil ishni bajaradilar. Bunday mashg'ulotning afzalliklari quyidagilardir:

1. O'quvchilarning amaliy ishi bilan yo'l-yo'riqda aytilganlar orasidagi farqlar sezilmaydi.

2. Kirish yo'l-yo'rig'i reja asosida to'liq ko'rsatiladi.

3. O'quvchi bir turdagi mashinalar (taraktor dvigatellarini yoki paxta terish mashinasi) bo'yicha darsga tayyorgarlik ko'radi, bu esa uning darsga yana ham samarali rahbarlik qilishiga sharoit yaratadi.

4. O'quvchining yutuq va kamchiliklarni, o'zlariga xos xususiyatlarini hisobga olish mumkin.

5. Har bir o'quvchi alohida ish o'rnida ishlash imkoniyatiga ega bo'ladi, hamda uning mustaqil ishlash salmog'i ortadi.

Kamchiligi shuki, bu mashg'ulotni o'tkazish uchun bir xil mashina va ularning qismlari juda ko'p miqdorda kerak bo'ladi.

Zvenoli laboratoriya amaliy mashg'ulotida o'quvchilar (3-4 kishilik) zvenolarga bo'linadi va hamma zvenolar uchun bir xil ish o'rni tashkil etiladi.

Afzalliklari - oldingi mashg'ulotlarning hamma afzalliklariga qo'shimcha ravishda zvenolar soniga qarab shuncha marta kam texnika kerak bo'lishidir.

Kamchiligi - zvenodagi har bir o'quvchi rejada ko'rsatilgan hamma ishlarni to'liq mustaqil bajara olmaydi, chunki har bir ish o'rnida 3-4 yoki 5-6 o'quvchi ishlaydi. Bunda ularning mustaqil ishlash vaqti o'quvchilar soniga qarab shuncha marta kamayadi.

Davra (turkum) tashkiliy shakl bilim yurtida bir xil mashina va jixozlar etarli bo'lmagan holda qo'llanadi.

Bunday mashg'ulotlarning afzalliklari bir xil mashina va uning qismlari kam kerak bo'lishidan, ish o'rinlarini tashkil etish engillashuvidan, yani har bir ish o'rniga har xil mashina va mexanizmlar o'rnatilishidan iborat.

Kamchiliklari - birinchi kirish yo'l-yo'rig'i bilan oxirgi topshiriqni bajarish oralig'ining kattaligi; kirish yo'l-yo'rig'ida umumiy axborotlar berilishi; o'qituvchi hamda topshiriqlar bo'yicha yaxshi tayyorlanishi kerakligi; har bir o'quvchining mustaqil ishlash vaqti zvenodagi o'quvchilar soniga qarab kamayishidir.

### **AMALIY MASH/ULOT REJASI**

Fan - Mexanizatsiyalashgan ishlarning texnologiyasi.

Amaliy mashg'ulot.

Mavzu - Don va dukkakli ekinlarni etishtirish va hosilni urib-yig'ib olish texnologiyasi.

Maqsad - ta'limiy – o'quvchilarni don ekish va yig'ishtirib olish texnologiyasi bo'yicha nazariy bilimlarni mustaxkamlash, ekish agregatini ishga tayyorlash bo'yicha malakalarni shakllantirish.

Tarbiyaviy - ish joyini tashkil etish va o'z faoliyatini tekshirish va tahlil qilish malakalarini shakllantirish.

Rivojlantirish – o'quvchilarni texnikaviy tafakkurlarini rivojlantirish va ularni o'quv hamda ishlab chiqarish amaliyoti topshiriqlarini bajarishga tayyorlash.

Ajratilgan vaqt - 4 soat.

O'tkazish joyi - laboratoriya xonasi.

O'qitish usullari – og'zaki, ko'rgazmali amaliy bilan birgalikda.

Ish joyini jihozlash - don ekish seyalkasi; don ekishga doir plakat va sxemalar; 10 kg bug'doy; asboblarni komplekti; turli xil kalitlar; chizgich; domkrat; mehnat xavfsizligi bo'yicha plakat; aptechka; ko'rsatmali texnologik xarita; hisobot nusxasi; topshiriq mazmuni.

Ishning mazmuni va uni bajarish tartibi - don ekish agregatini ishga tayyorlash, yig'ish, jamlash, rostlash va ishlatish. Don ekishga qo'yiladigan agrotexnikaviy talablar. Dalani tayyorlash. Agregatni dalada harakatlanishi. Ish sifatini nazorat qilish. Texnika xavfsizligi choralari.

Amaliy mashg'ulot bo'yicha hisobot.

1. O'lchash natijalarini jadvallarga yozish.
2. Don ekish agregatini texnikaviy holati to'g'risida xulosa qilish, mavjud bo'lgan nuqsonlar sabablarini ko'rsatish va uni yo'qotish usullarini qayd etish.

#### Bilimlarni tekshirish.

1. Don ekish seyalkasini ishga tayyorlashda qanday ishlar bajariladi?
2. Seyalka don ekish normasiga qanday rostlanadi?
3. Don ekishga qanday agrotexnikaviy talablar qo'yiladi?

4. Don ekishga dala qanday tayyorlanadi?
5. Agregat dalada qanday harakatlanadi?
6. Don ekish sifati qanday nazorat qilinadi?

#### Adabiyotlar.

1. «Selskoxozyastvennyye i meliorativnyye mashiny», M., Agropromizdat, 1986 y.
2. A.Xamidov «Qishloq xo'jalik mashinalarini loyihalash» Toshkent, «O'qituvchi», 1991 yil.

### **§ 4.2. O'quv ustaxonasida darsni tashkil qilish va o'tkazish metodikasi**

#### *O'quv ustaxonasi haqida umumiy ma'lumotlar*

Bilim yurtida o'quv ustaxonalari o'quvchilariga kasb asoslarini mehnat harakatlari, operatsiyalarini ishchi bajaradigan vazifalarini, tegishli kasb uchun asos bo'lgan ishlarni bajarish usullarini sifatli o'rganish uchun maxsus sharoit yaratish maqsadida tashkil etiladi. Turli kasblar bo'yicha mehnatning mazmuniga, ishlab chiqarish ishlarining o'qiga xosligiga qarab, turli kasblar uchun o'quv ustaxonalarida ishlab chiqarish ta'limining muddati turlichadir. Tokar, frezerchi, remontchi-slesar, payvandchi va shunga o'xshashkasblarga, ya'ni o'quv va ishlab chiqarish vazifalarini muvaffaqiyatli qo'shib olib borish mumkin bo'lgan joylarda o'quvchilar o'quv ustaxonalarida uch yil emas, ikki yil davomida ta'lim oladilar, bu esa ta'lim davrining 50-60 foizini tashkil qiladi. Ishchilar mehnati murakkab, qimmatbaho, yirik o'lchamli ishlab chiqarish uskunalariga xizmat ko'rsatish, ularni tuzatish, sozlash bilan murakkab texnologik jarayonlarni, qurilish-montash ishlari va shunga o'xshash ishlarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan boshqa kasblar bo'yicha o'quv ustaxonalarida faqat asosiy harakatlar va operatsiyalarni: slesarlik, elektrmontaj ishlari, qurilishda pardozlash, dastlabki montaj ishlari va shu kabilarni o'rganish uchun (3-6 oy va o'quv vaqtining 15-20 foizi) tashkil qilinadi. Chunki to'la texnologiya jarayonini bajarishga o'rgatish uchun maxsus o'quv sharoitini vujudga keltirish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq emas.

Kasb bo'yicha mehnat mazmunining xususiyatiga qarab o'quv ustaxonalarida o'quvchilarni ishlab chiqarish ta'limi ularning unumli mehnati jarayonida o'tkaziladi. Shu sababli o'quv ustaxonalari ta'lim talablariga ham, ishlab chiqarish talablariga ham muvofiq bo'lishi zarur.

O'quvchilarning ish o'rinlarini rejalashtirish, tashkil etish va jihozlash, o'quv ustaxonalarini tashkil etish hamda o'quv ishlab chiqarish faoliyati xususiyatlari, tabiiyki turli kasblar uchun turlichadir. Ammo umuman o'quv ustaxonalari uchun xos bo'lgan umumiy talablarni ajratib ko'rsatish mumkin.

O'quv ustaxonalari quyidagi talablarga javob berishi kerak:

uskunalarning normal o'rnatilishi, joylashtirilishi va ishlashi uchun sharoitlarga (maydon, binoning qavati, balandligi, texnologik potokni hisobga olgan holda rejalashtirish va hokazo);

mehnat xavfsizligi, sanitariya va gigiena talablariga muvofiq bo'lishi (yong'in va portlash xavfibo'lgan bo'limlarni, shuningdek chang va gaz chiqadigan bo'linmalarni asosiy binodan ajratish; ko'tarma-transport qurilmalarining, yong'in paytida chiqish yo'llari va o't o'chirish vositalarining mavjudligi, normal va sun'iy yoritkichlar, shamollatish qurilmalarining mavjudligi; binoda normal ish xaroratining ta'minlanishi va hokazolar).

O'quvchilar ish o'rnini jihozlashning asosi-yakka tartibda foydalaniladigan uskuna, ya'ni o'quvchilar o'z kasblari uchun xos bo'lgan o'quv-ishlab chiqarish ishlarini bajaradigan uskunadir. Bu texnikaga nisbatan asosiy o'quv-texnika talablari: ularning kasbga mosligi, konstruksiyasining zamonaviyligi, universalligi, boshqarishning nisbatan osonligi, ixchamligi, foydalanish va xizmat ko'rsatishda qulayligi, ishda xavfsizligi.

Bu talablarning normativlari tegishli normativ hujjatlarida ko'zda tutilgan bo'lib, turli tarmoqlar uchun turlichadir;

ishlab chiqarish estetikasi talablariga – binoning rangi va bo'yoq turlari (shifti oq, devorlari och sariq bo'lishi); bezaklar va mebel g'ilofihamda devorlardagi bezaklar uslubining uyg'unligi, pol va derazalarni yaxshilab tozalash imkoniyatini mavjudligi va xokazo.

O'quv ustaxonasining jihozlanishi shartli ravishda uch qismga bo'lish mumkin: o'quvchilarning ish o'rnini, hamda foydalanigan uskunalar va ustozning ish o'rnini.

**O'quvchining ish o'rnini** o'quv dasturi talablariga muvofiq ishlab chiqarish ta'limi uchun zarur uskunalar, asboblari, priborlar, moslamalar bilan ta'minlanadi. Ish xususiyatiga, ta'lim davriga, o'quv ishlab chiqarish mehnatining tashkil etilish usuliga qarab o'quvchilarning ish o'rinlari yakka tartibda va brigadalarga mo'ljallangan bo'lishi mumkin. Remontchi slesarlar, yig'uvchi slesarlar, elektromantajchi kabi kasblar uchun brigadaga mo'ljallangan ish o'rinlari xosdir.

O'quvchining ish o'rnining asosiy tarkibiy qismlari:

1. O'quv ustaxonalarida mehnat qurollaridan foydalanish va joylashtirish uchun zarur bo'lgan muayyan maydon.
2. O'quv – ishlab chiqarish jihozlari.
3. Materiallar, yarim tayyor mahsulotlar, tayyor mahsulotlar va chiqindilarni saqlash va joylashtirish uchun moslamalar.
4. Moslamalar, asbob-uskunalar, o'quv va texnik hujjatlarni saqlash va joylashtirish uchun moslamalar.
5. Ish o'rinlariga birlashtirilgan ko'tarma transport vositalari (aravachalar, tallar, ko'targichlar va h.k.).

O'quvchilarni ish o'rinlariga nisbatan umumiy talablardan quyidagilarni ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiqdir:

- uskunalarining texnik jihatdan soz bo'lishi, to'siqlar, erga ulash o'z-o'zidan to'xtatib qo'yuvchi moslama, himoya qurilmalari, saqlagichlar, ko'tarma uskunalar va o'quvchilar ishini havfsizligini ta'minlovchi boshqa vositalarning mavjudligi;

- ish vaqtida asboblari, moslamalar asosiy va yordamchi materiallar; tayyor mahsulotni, o'quv-texnika hujjatlarini qulay va ishonchli tarzda saqlash va joylashtirish uchun qurilmalar bilan ta'minlash;
- ish o'rnining yaxshi yoritilgan bo'lishi, o'quvchilarning ish paytida o'zlarini erkin xis qilishlari va eng unumli harakat qilishlari uchun sharoitning yaratilishi; zarur hollarda o'tirib ishlash uchun qulaylik yaratilishi va ergonomika talablariga javob berishi;
- zarur hollarda avariya signalini berish uchun moslama yoki ustoz bilan masofadan aloqa o'rnatish vositalari bilan jihozlanishi;
- uskunalarga joriy xizmat ko'rsatish, ularni tozalash va yig'ishtirish uchun qulaylik bo'lishi lozim.

O'quvchilar ish o'rnini jihozlashning asosi-yakka tartibda foydalaniladigan uskuna, ya'ni o'quvchilarga o'z kasblari uchun xos bo'lgan o'quv-ishlab chiqarish ishlarini bajaradigan uskunadir. Ular kasbga mos bo'lishi, zamonaviy bo'lishi, universal va boshqarish oson, ixcham foydalanishda qulay, ishda xavfsiz bo'lishi shart.

O'quvchilarning ish o'rinlari yakka tartibda foydalanadigan asbob-uskunalar bilan ham jihozlanadi. Asboblari turkumini belgilashda uning universalligi, foydalanish muddati, qiymati hisobga olinadi. Odatda, o'quvchilarning ish o'rinlari eng ko'p ishlatiladigan asboblari bilan jihozlanadi. O'quvchilarga ishda kerak bo'ladigan asboblari ustozdan yoki asboblari omboridan olinadi.

Eng ommaviy o'quv ustaxonasi-umumiy slesarlik ustaxonasi bo'lganligi uchun slesar ish o'rnini yakka tartibda foydalaniladigan doimiy asboblari bilan jihozlashning taxminiy ro'yxatini keltirib o'tamiz: iskanjani o'quvchi bo'yiga moslash uchun kalit dasta - 1; metallardan yasalgan o'lchov lineykasi-1; chizg'ich-1; belgi qo'yadigan sirkul-1; kerner-1; tekshirishda foydalaniladigan shakldor lineyka-1; slesarlar tekshirishda foydalanadigan yassi uchburchak lineyka-1; shtangensirkul-ShS 1-1; slesarlik iskanasi-1; slesarlik kreysmeyseli-1; vazni 400-500 gramm bo'lgan slesarlik po'lat bolg'asi-1; № va №2-4-5 tishli xilma-xil egovlar; shchetka-supurgi-1.

Bunda eng muhimi-hamma narsa o'zining aniq o'rniga ega bo'lishi, doimo qo'l etadigan joyda turishi, ta'limning turli tegishli vositalarining yaxshi saqlanishidir.

O'quv ustaxonasida o'quvchilar ish o'rnini rejalashtirish va joylashtirish ularning uskunalar bilan jihozlanishiga, o'quv ustaxonasining tipik mahsulotiga, derazalar qanday o'rnatilganligiga, binoning hajmi va shakliga bog'liq. Ish o'rinlari uskunalarini joylashtirish normativlari turli kasblari uchun turlicha bo'lib, ular vazirliklar va idoralar tomonidan tasdiqlangan ishlab chiqarish sexlari va uchastkalari normativlariga muvofiqlashtirilgan. SHu bilan birga mo'ljal uchun dastgoh va boshqa yirik uskunalarini o'quv ustaxonasida joylashtirishning o'rtacha normativlaridan foydalanish mumkin:

devor va ustundan dastgoh, qurilma, agregatning yon yoki orqa tomoni o'rtasidagi masofa kamida 0.5 m; uskunalarining qatorlari orasidagi yo'lning kengligi kamida 1,5 m; bir qatordagi dastgohlar, qurilmalar, agregatlarning yon tomonlari o'rtasidagi masofa kamida 0,5 m; markaziy yo'lak kengligi-kamida 2m;

Uskunalarining derazaga nisbatan joylashuvi - deraza ishlayotgan o'quvchining chap yoki old tomonida bo'ladi.

O'quvchilarning ish o'rinlariga o'rnatiladigan uskunalaridan, ya'ni yakka tartibda foydalanadigan uskunalaridan tashqari **hamma foydalanadigan uskunalar** bilan ham jihozlanadi. Bunday uskunalarining turlari va miqdori kasb xususiyatiga, o'quv ustaxonasining mahsulotiga, o'quv yurtida o'rganilayotgan kasblarga, o'quv yurtida yordamchi xizmat xonalarining mavjudligiga va boshqa bir qator omillarga bog'liq. Bunday uskunalarining asosiy vazifasi – ishlab chiqarish ta'limi dasturining to'la va sifatli bajarilishini ta'minlashdir.

Misol tariqasida umumiy slesarlik o'quv ustaxonasi uchun hamma foydalanadigan uskunalar ro'yxatini keltiramiz:

- iskanja dastgohli parmalash dastgohi-3;
- dastaki burma press (yoki gidravlik)-1;
- iskanja dastgohini ko'ndalang randalovchi dastgoh-1;
- ikki yoqlama charx dastgohi-1-2;
- pishangli qaychi-1;
- belgi qo'yadigan plitali stol-1;
- metallni tekislash uchun plita-1;
- truba qisqichli stol-1;
- qirindi uchun quti-1.

### **Amaliy kasbiy ta'lim o'qituvchisining ish o'rni**

**Ustoz amaliy kasbiy ta'lim o'qituvchisining ish o'rnining** oqilona jihozlanishi va tashkil etilishi o'quv ustaxonasida o'quvchilarga muvoffaqiyatli ishlab chiqarish ta'limi berishda katta ahamiyatga ega. O'quv ustaxonasining nimaga ixtisolanganligidan qat'iy nazar, ustozning ish o'rni quyidagi umumiy talablarga javob berishi kerak:

Namunali o'quv-texnika jihozlari, estetik bezagi va doimo saranjom bo'lishining o'quvchilarga tarbiyaviy ta'siri katta bo'lib, ular uchun o'rnakdir.

O'quv-ishlab chiqarish ishlarini bajarishning mehnat harakatlari va usullarini yaqqol ko'rsatish uchun zaruriy sharoit yaratilishi-maxsus qurilmalar bilan ta'minlanishi, ular qulay joylashtirilishi, yorug'lik, fon yaxshi bo'lishi kerak; barcha o'quvchilar aniq ko'rishi uchun qulay bo'lishi;

Uskunalar, jihozlar, o'quv-texnika hujjatlari, ta'limiy-didaktik va texnik vositalar joylashtirilishi, saqlanishi va foydalanishining qulayligi-hamma narsa qo'l etadigan joyda bo'lishi, qidirish va foydalanish uchun ko'p vaqt va kuch sarflash talab qilinmasligi;

O'quvchilarga kirish, joriy va yakuniy yo'riqlar berish paytida ular tanlaydigan maxsus maydonchalarning mavjudligi;

Ta'lim mazmunining takomillashtirilishiga, ilmiy tavsiyalarga hamda pedagogik tajribaning yutuqlariga muvofiq o'quv-texnika va didaktik materiallarining sistematik to'ldirib va yangilanib turishi.

Ustoz ish o'rnining tashkil etilishi va jihozlanishi tegishli kasb xususiyatlariga, o'quv yurtining imkoniyatlariga, ustozning tajribasiga, bilim yurtidagi o'quv-material ta'minotining umumiy uslubiga bog'liq. Shartli ravishda

ustoz ish o'rnini asosiy qo'shimcha (takomillashtirish maqsadida vujudga keltiriladigan) jihozlashga ajratish mumkin. Asosiy jihozlarga quyidagilar:

ustoz ish o'rnining uskunalari o'rnatiladigan podium (supacha)

ish stoli va stuli, sinf doskasi, videoproektor;

o'rganiladigan barcha operatsiyalar va tipik ishlab chiqarish ishlari bo'yicha didaktik vositalar va o'quv-texnika hujjatlari;

o'quv-ishlab chiqarish ishlarini bajarishning mehnat harakatlari va usullarini namoyish qilish uchun moslama (namoyish qilinadigan dastgoh panel, dastgoh, elektr yig'uv shchiti, o'quv xonasi, payvandlash posti va hokazo);

asboblari, moslamalar, materiallar, hujjatlar, ta'limning didaktik va texnika vositalarini saqlash uchun moslama (shkaflar, qutilar, kassetalar, peshtahtalar va hokazo);

ta'limning didaktik va texnik vositalaridan foydalanish va saqlash uchun moslama (namoyish taxtalari, plakatlar osiladigan joy, ekran va hokazo);

Ta'limning texnik vositalari (TTV), signalizatsiya va o'quvchilar bilan tezkor aloqa bog'lashni masofadan boshqarish pulti;

o'quvchilarning ish o'rniga energiya – elektr toki, siqiy havo, issiq gaz va hokazolarni etkazib berish va to'xtatib qo'yish uchun maxsus shchit.

Ustozning ish o'rnini didaktik vositalar bilan ta'minlash alohida ahamiyatga ega. Bu masalaga kompleks yondoshish kerak, ya'ni ustaxonada o'rganiladigan o'quv dasturining har bir mavzusi uni o'quvchilar to'la va sifatli o'rganilishini ta'minlaydigan «eng maqbul miqdordagi» vositalar bilan jihozlanishi lozim.

Ish o'rnida albatta barcha zarur ma'lumotnoma jadvallari, standartlar jadvali, ma'lumotnoma adabiyoti, tegishli kasb bo'yicha barcha darsliklar va qo'llanmalaribo'lishi shart. Bularning hammasi ustoz ishini tartibga soladi, ish vaqtini ancha tejaydi, uning obro'si oshishiga yordam beradi. O'quvchilarning ish jarayonida ularda asosiy ma'lumotnoma materiallari bo'lishi haqida ham g'amxo'rlik qilish kerak. Ustaxona devorlariga osilgan ma'lumotnoma jadvallari o'rnatilgan taxtalar, yoki asosiy ma'lumotnoma jadvallarining to'plamlari shular jumlasiga kiradi.


**O'quv ustaxona tashqi bezagi** nihoyatda xilma-xil bo'lishi mumkin, bunda ko'p narsa ana shunday bezashning imkoniyatlariga, ustoz va guruh faollarining tashabbuskorligiga, bilim yurti bezaklarining umumiy uslubiga bog'liq bo'ladi. O'quv ustaxonasini bezash paytida me'yordan chiqib ketmaslik kerak. Ustaxona devorlarining bo'm-bo'sh bo'lishi yaxshi emas, ammo devorlarga ko'pdan-ko'p plakatlar, taxtalar va jadvallarni qalashdirib tashlash kerak emas. Devorlarda turli-tuman axborotlar ko'p bo'lsa, ular idrok etilmaydi, aksincha ularga ko'nikib qolinadi, xolos. Devorlarda, ustaxonalarda ta'limni samarali o'tkazishda yordam beradigan zarur narsalargina bo'lishi lozim.

Ustaxona devorlari bezagining holati katta ahamiyatga ega. Ustoz shuni hamisha yodda tutmog'i kerakki, shu jumladan, ustaxonaning bezagi ham tarbiyalaydi. Pala-partish bajarilgan sxemalar, jadvallar va xokazolarni ustaxonaga osib qo'yishga sira yo'l qo'yimaslik kerak. Ustaxonadagi ko'rgazmali materiallar bir xil raqamlarga joylashtirilishi va albatta oyna bilan qoplangan bo'lishi kerak.

Ustaxona tashqi bezagi taxminiy eng ixcham ro'yxatini quyidagicha tuzilishi mumkin:

- «Mahorat tavsifi» stend-plakati.
- «O'quv ustaxonalarida mehnat havfsizligi qoidalari» stend-plakat.
- «Yong'indan saqlanish qoidalari» stend-plakati.
- «O'quv ustaxonasida o'quvchilarning xulq-atvori qoidalari» stend-plakat.
- «Mehnatni va ish o'rnini tashkil etish yuzasidan o'quvchilarga esdalik» stend-plakat.
- Tipik o'quv-ishlab chiqarish ishlari namunalari taxtasi.
- Tez-tez ishlatib turiladigan ma'lumotnoma jadvallari.
- Guruh devoriy gazetasi.

**O'quv ustaxonalarida (laboratoriyalarida) «Chilangarlik – mexanik» ustaxonasida jihozlarni joylashtirish chizmasi**



**Shartli raqamlar:**

1. Chilangarlik verstaklari.
2. Parmalash dastgohi.
3. Qayrash dastgohi.
4. Frezalash dastgohi.
5. Tokarlik dastgohi.
6. Chiqindilar uchun quti.
7. Amaliy kasbiy ta'lim o'qituvchisi ish o'rnini.
8. Elektr tarmog'ini ulash qutisi.
9. Diametri 8 mm. Dan 20 mm. gacha bo'lgan parmalar to'plami.
10. Stol usti parmash dastgohi.



## **Amaliy kasbiy ta'limning majmuaviy metodik ta'minoti mazmuni**

*O'quv metodik hujjatlari:* o'quv rejalar; amaliy kasbiy ta'lim dasturi; o'quv ishlab chiqarish ishlari ruyxati; guruhning ishlab chiqarish faoliyati rejasi; o'quvchilarning ko'chish jadvali; ishlab chiqarish amaliyoti dasturi; o'quv-ishlab chiqarish ishlariga o'quv-texnik va o'quv texnologik talablar.

*O'quvchilar uchun ta'lim vositalari:* o'quv dasturi; darslik; o'quv qo'llanmasi; ma'lumotnoma; masalalar to'plami; ish chizmalari to'plami; kasbga o'rgatish bo'yicha qo'llanma (yo'riqlar, xaritalar to'plami); texnologik jarayon xaritalari to'plami va h.k.).

*Darsning didaktik vositalari:* asliy va tasviriy ko'rsatmali qo'llanmalar; axborotlarni etkazuvchi texnik vositalar; mashq moslamalari va qurilmalari; yo'riqli xaritalar; yo'riqli-texnologik va texnologik xaritalar va h.k.

*Amaliy kasbiy ta'lim o'qituvchisi uchun didaktik vositalar:* kasb bo'yicha xususiy metodika; kasb bo'yicha axborot materiallari; o'quv dasturining mavzulari bo'yicha metodik ishlanmalar; o'quv ishlab chiqarish ishlari uchun yo'riqli va texnologik xaritalar to'plami; ish o'rinlarini o'tkazish uchun metodik ishlanmalar va h.k.

### **O'quv ustaxonasida dars. O'quv ustaxonasidagi darslarning maqsadi.**

Ommaviy kasblarning aksariyati bo'yicha o'quvchilarga o'quv ustaxonasida o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqarish ta'limini berish operatsion-kompleks sistemasi bo'yicha o'tkaziladi. Bu sistemaning mohiyati shunlan iboratki, tipik ishlarni bajarishning barcha mehnat operatsiyalari va usullari ularni o'rganish paytida bir qator komplekslarga taqsimlangan. Har bir kompleks uchta-to'rtta mehnat operatsiyasi va kompleks ishlarini o'z ichiga oladi. Bu ishlar ana shu operatsiyalardan foydalanilgan holda bajariladi. Har bir navbatagi kompleks ishlar mazkur kompleks operatsiyalarnigina emas, balki ilgari o'rganilgan operatsiyalarni ham o'z ichiga oladi. SHu tarzda ta'lim jarayoni harakatlar, operatsiyalarni o'rganishni o'z ichiga oladi.

### **Ishlab chiqarish ta'limi darsining tarkibi**

Ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishning yuqoridagidek bo'lishni afzalligi shundaki bunda kasb asoslarini - harakatlar va operatsiyalarni maxsus o'rganish va takomillashtirishga alohida e'tibor beriladi. Bu esa o'quvchilar kasb mahoratini kelgusida shakllantirish uchun mustahkam negiz yaratadi.

Bunda ishlab chiqarish ta'limi harakatini shartli ravishda «operatsiya davri» va «kompleks ishlarini bajarish davri» ga ajratish mumkin. Ishlab chiqarish ta'limi metodikasi va uni tashkil etish tegishli davrda ana shu ta'lim maqsadlariga hal qiluvchi darajada bog'liqdir.

Ishlab chiqarish ta'limining operatsiya davrida asosiy maqsadi o'quvchilarga asosiy mehnat harakatlarini to'g'ri va sifatli bajarishga hamda operatsiya tarkibidagi barcha xilma-xil elementlarni qo'shib olib borishga o'rgatishdan iborat. O'rganilgan operatsiyalar bazasida o'quvchilar turli texnologiya izchilligida ana shu operatsiyalarni qo'llash yo'li bilan tobora murakkablashib boruvchi kompleks ishlarni bajaradilar. Bunda o'quv-ishlab chiqarish maqsadlari operatsiyalarni bajarish paytidagidan boshqacha bo'ladi. Umuman mehnat harakatlari va operatsiyalarini to'g'ri bajarish bilan bir qatorda eng muhim narsa: o'quvchilarga o'rganilgan operatsiyalarni o'quv-ishlab chiqarish ishlarini bajarishning muayyan texnologiya jarayonida qo'shib olib borishga o'rgatishdan; o'quvchilarni tez va aniq ishlashga o'rgatishdan iborat, ya'ni ta'limning bu bosqichida o'quvchilarda tez va aniq ishlash ko'nikmalari shuningdek, mehnatni rejalashtirish ko'nikmalari shakllanadi.

### **Kirish instruktaji.**

Kirish instruktaji odatda dars boshida o'tkaziladi.

Kirish instruktajini o'tkazish paytida uning quyidagi tuzilishiga amal qilish zarur:

- dars mavzusi va maqsadlarini aytish;
- nazariy darslarda, shuningdek mazkur dars materialini bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish ta'limining avvalgi darslarida o'rganilgan materiallari yuzasidan o'quvchilarning bilimlarini tekshirish;
- darsda bajariladigan ishlarning xususiyati va maqsadini o'quvchilar mashqlarining yoki mustaqil ishlarining bajarilish tarkibini tushuntirish;
- bajariladigan o'quv-ishlab chiqarish ishlarining chizmalari, sxemalari, texnika talablarini o'rganish namunalari namoyish qilish;
- o'quvchilarni larsda qo'llaniladigan va ishni bajarishda foydalaniladigan moslamalar va boshqa vositalar bilan tanishtirish;
- topshiriqni bajarishning eng oqilona yo'llari, usullari va izchilligini, shuningdek ish sifati nazoratining usullarini tushuntirish va ko'rsatish;
- tipik xatolarni, ularni oldini olish va bartaraf etish usullarini ko'rib chiqish;
- topshiriqlarni bajarish paytida ish o'rinlarini oqilona tashkil etish usullarini tushuntirish va ko'rsatish;
- o'quvchilarni mehnat havfsizligi qoidalarini ko'rib chiqish;
- kirish instruksiyasi materialini mustahkamlash va o'quvchilar qanday o'zlashtirganini tekshirish, ish yo'llarini va usullarini qo'shimcha takroriy tushuntirish hamda ko'rsatish;
- topshiriqlar berish va o'quvchilarni ish o'rinlariga taqsimlash va shu kabilarni o'z ichiga olgan holda amalga oshiriladi.

### **O'quvchilarni mashqlari.**

Bo'lg'usi dars materialini o'quvchilarning bilimlari va ishlab chiqarish tajribasi bilan bog'lash, ularning mashqlarini va mustaqil ishni ongli ravishda bajarishlari uchun asosdir. Ana shunday bog'lanish yo'li bilan o'quvchilar ongida

ular biladigan va qila oladigan narsalar bilan ular darsda o'zlashtirishlari, o'rganishlari kerak bo'lgan narsalar o'rtasida «ko'prik» o'rnatiladi. Bunday bog'lanishga o'quvchilarga kirish instruktaji boshida maxsus predmetlar materiali hamda ishlab chiqarish ta'liminingilgarigi darslari bo'yicha savol berish orqali erishiladi. Bunda muvaffaqiyat ko'p jihatdan masalalarni to'g'ri tanlash va ta'riflashga hamda savol berish tartibiga bog'liq.

Savollarni ta'riflashda shuni nazarda tutish kerakki javob berish paytida o'quvchilardan eslashnigina emas, fikr yuritishni ham talab qilinadigan savollar berish maqsadga muvofiqdir.

### **Joriy instruktaj**

Darsda o'quvchilarning o'quv-ishlab chiqarish faoliyatiga rahbarlikni, ularda kasb mahorati va malakasini shakllantirishni ustoz ularga mashqlar va mustaqil ishlarni bajarish jarayonida joriy instruktaj yo'li bilan amalga oshiradi. Bu ustozning ta'lim berish faoliyatining asosiy shaklidir. Joriy instruktaj berishning asosini didaktik maqsadi – o'quvchilar eng kam xato va kamchiliklar bilan o'quv-ishlab chiqarish topshirig'ini bajarishga erishishdan iborat. SHunga asosan tajribani ustoz o'z ta'lim berish faoliyatini shunday tashkil qiladiki, bunda u o'quvchilarning xatolari, kamchiliklari va qiyinchiliklarini tugatishga qaraganda, ularni oldini olishga ko'proq e'tibor beradi.

### **Yakunlovchi instruktaj**

Ishlab chiqarish ta'limi darsining majburiy tuzilish elementi yakunlovchi instruktajdir. U faqat dars oxirida o'tkaziladi. Yakunlovchi instruktajning didaktik maqsadi – dars muvaffaqiyatlari va kamchiliklarini taxlil qilish asosida o'quvchilarga ular nimani o'rganganliklari, kamchiliklarga yo'l qo'ymaslik va muvaffaqiyatni mustahkamlash uchun nimalar qilish kerakligini ularga ko'rsatishdan iborat. Yakunlovchi instruktaj paytida odatda quyidagi asosiy masalalar o'rta qo'yiladi:

- dars maqsadiga erishganligi to'g'risida axborot;
- guruh va o'quvchilar brigadalarining o'quv-ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarishlarigayakun yasash va taxlil qilish;
- tipik xatolar va xarakterli kamchiliklarni muxokama qilib ularning oldini olish v abartaraf qilish yo'llarini ko'rib chiqish;
- o'quvchilar xavfsizlik qoidalari hamda mehnat va ish o'rnini tashkil etish, ish vaqtidan foydalanish qoidalari qanday bajarilganliklarini tahlil qilish va hokazolar.

### **Yakka tartibda joriy instruktaj berish**

O'quvchilarning ish jarayonida vujudga keladigan muayyan vaziyatlar xilma-xil bo'lishi mumkin, shu bois ustozning kundalik faoliyatini tashkil etish va uning metodikasi yuzasidan maslahatlar berish imkoniyati yo'q. Shu bilan yosh ustoz o'z ishida o'quvchilarga yakka tartibda joriy instruktaj berishningquyidagi qoidalarini bilishi va tadbiiq etishi foydalidir.

- o'quvchilar faoliyatining maqsadini aniq belgilash, bu maqsadni tushunib olishlariga erishish;
- har bir o'quvchining ishini e'tibor bilan o'rganish, butun guruh ishini nazardan chetda qoldirmaslik;
- o'quvchilarda o'z mehnatini mustaqil taxlil qilish, xatolarni, ularning sabablarini bartaraf etish va oldini olish usullarini qobiliyatini doimo rivojlantirish;
- o'quvchilarni o'z-o'zini nazorat qilishga rag'batlantirish, ular ishining yuqori bo'lishini ta'minlash va boshqalarni bilish zarurdir.

### **Jamoaga joriy instruktaj berish**

O'quvchilarning mashqlari va mustaqil ishi jarayonida ustozning o'quvchilar bilan ishlashining jamoa shakllaridan ham foydalaniladi. Bu jamoaga joriy instruktaj berish deb ataladi. Bu narsa ustoz ish o'rinlarini aylanib yurganida o'quvchilarning ko'plari yoki aksariyati bir xil xatolarga yo'l qo'yganligini, kamchiliklar bir xil ekanligini aniqlangan hollarda o'tkaziladi. Bu holda ustoz barcha o'quvchilarning ishini to'xtatishi, ularni o'z ish o'rniga to'plashi va tegishli tuzatishlar kiritishi kerak. Operatsiyalarni o'rganish paytida jamoaga joriy instruktaj berish ayniqsa muhimdir. Lekin bu tadbirni, kompleks ishlarni bajarayotganda ham o'tkazish mumkin va maqsadga muvofiqdir. Jamoaga joriy instruktaj berishda yo'l qo'yilgan xatolar, ularning sabablari, bartaraf etish usullari o'quvchilar bilan birgalikda taxlil qilayotganida suhbat yo'li bilan o'tkazish yanada samarali bo'ladi.

### **§ 4.3. O'quvchilarning ishlab chiqarish amaliyotini tashkil qilish va o'tkazish**

Malakali mutaxassislarni o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv muassasalarida tayyorlash jarayoni, ya'ni ishlab chiqarish ta'limi uch bosqichdan iborat.

O'quvchilarga o'quv ustaxonalarida, ishlab chiqarish sharoitida (korxonalar, qurilishlarda, jamoa ko'nikmalarida va boshqalarda) va bitiruv ishlab chiqarish amaliyoti. Har bitta ishlab chiqarish amaliyoti uchun dasturlar mavjud bo'lib bu dasturlarda ishlab chiqarish muddatlari, xajmi ko'rsatilgan bo'ladi.

1. Agar o'quv ustaxonalarida ishlab chiqarish ta'limining asosiy vazifasi o'quvchilarni bo'lajak kasbi bo'yicha tanishtirish, ish joyilari bilan tanishtirish, jixozlar bilan tanishtirish bilan birga o'quvchilar bu bosqichda murakkab bo'lmagan boshlang'ich mehnat usullarini, ishlab chiqarish operatsiyalarini bajarishni, ularni mustaxkamlashni hamda mustaqil ish bajarish yo'llarini ishlab chiqarishni ta'limi ustasi-ustoz rahbarligida amalga oshiradi.

2. Ishlab chiqarish sharoitida ishlab chiqarish ta'limini amalga oshirish ancha murakkab bosqich bo'lib, bu davrda o'quvchilar o'quv ustaxonalarida olgan bilim bilan malaka va ko'nikmalarini takomillashtirishadi. Yangi jixozlar bilan tanishadi. Ilg'or ish tajribalar bilan tanishadi va o'quvchilarga mo'ljallangan ish normallari asosida mustaqil ish bajarishadi. Natijada, ular mehnat jamoasi an'annalariga hurmat, o'z qo'ligi ishonch, jamiyat oldidagi burch hamda o'z

kasbiga bo'lgan muhabbat fikrlash kabi xislatlar shakllanib boradi. Bu bosqichda o'quvchilar faoliyatiga ishlab chiqarish korxonasi ilg'or ishchilari, ishchilarga rahbarlik qiladi. Ustoz esa ular bilan xamkorlikda o'quvchilarning ishlab chiqarish ta'limi dasturi materiallarining bajarilishini kuzatib boradi hamda birgalikda rahbarlik qiladi.

3. Uning yakunlovchi bosqich-bu bitiruv oldi ishlab chiqarish amaliyoti bo'lib, bu bosqichda o'quvchilar o'z kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarini mustaxkamlashadi, yuqori ish umumdorligi eslatgan jihozlar, qurilmalar, uskunalari, moslamalar bilan tanishadi va ularda ishlash yo'llariga ega bo'lishadi.

Ishlab chiqarish amaliyoti jarayonida bo'lajak mutaxassislarining mutaxassis sifatida ishlab chiqarishda ma'lum darajadagi aniq ishlarni bajarishlari, uskunalar xizmat ko'rsatish, talab darajasida (me'yorida) ish bajarishadi va amalga oshiriladi. Bu davrda ishlab chiqarish ustasining asosiy vazifasi o'quvchilarni ish joyi bilan ta'minlash, zarur bo'lgan ishlab chiqarish vositalari, materiallar, asboblari, texnikaviy jihozlar, ko'rsatmali materiallar va boshqalar bilan tanishtiradi, ta'minlash va ularning hamma ishlab chiqarish talablariga rioya qilish, bosqichlarini kuzatish bo'ladi.

Ishlab chiqarish amaliyoti har bir soha uchun har xil davrda, hajmda amalga oshiriladi. Masalan hozirgi davrda sanoat sohasi uchun ishlab chiqarish, amaliyoti uchun 648 soat ajratilgan. Bu ishlab chiqarish ta'limining \_\_\_\_ foizini tashkil qiladi. Ya'ni 18 hafta yoki 108 kun demakdir.

### **Ustozning ishlab chiqarish amaliyotiga tayyorgarligi**

Ishlab chiqarish amaliyotini amalga oshirish uchun ishlab, chiqarish ustasi-ustoz amaliyot boshlanishdan eng kamida bir oy oldin unga tayyorgarlik ishlarini amalga oshiradi. Buning uchun u quyidagi ishlarni bajarish kerak:

1. Ishlab chiqarish amaliyoti ob'ekti (korxonasi, zavod, fabrika, jamoa xo'jaligi, brigada va boshqalar) bilan tanishadi. Bu ob'ektlar bajariladigan ishlab chiqarish ish jarayonining amaliyot dasturida ko'zda tutilgan maqsadlarga mos kelishgan ya'ni, dastur mazmunini amalga oshirishi imkoniyatlari aniqlandi. Ish joylari tanlanadi va amaliyotni bajarish mumkinligini uning samaradorligi belgilanadi.

2. Korxonasi bilan ishlab chiqarish amaliyotini o'tkazish bo'yicha **shartnoma** tuziladi va bu shartnomada «**korxonasi**» va «**o'quv muassasi**» ning o'zaro shartlari belgilanadi.

**3. Shartnoma tuzilgandan keyin o'quvchilarni ish joylariga taqsimlash va ularni bir joydan ikkinchi joyga grafik asosida ishlashga o'tish grafigi tuziladi.**

4. Ishlab chiqarish amaliyotini boshlashdan oldin «korxonasi» xodimlari tomonidan maxsus, instruktaj o'tkaziladi. Bunda «korxonasi» da qanday yurib turish kerakligi, uskunalar bilan ishlaganda qanday texnik xavfsizligi choralariga rioya qilishni, korxonaning ish tartibi va qoidalari, ish o'rinlarida o'zlashtirish qanday tutishni va boshqa talablar haqida yo'riqnoma beradi.

5. Ishlab chiqarish amaliyoti odatda ishlab chiqarish korxonasi ekskursiyadan boshlanadi va o'quvchilarni korxonasi sevlari, uchastkalari bilan

hamda chiqariladigan maxsulotlar va ularga ishlatiladigan materiallar bilan tanishtiradi. Bu vaqtda ishlab chiqarish korxonalaridan ilg'or ishchilar yoki muxandislar ham qatnashadi. Shu bilan birga ekskursiya oxirida korxonaning rahbari, o'rinbosarlari, jamoatchilar, ilg'or tajriba egalari korxonaga haqida, uning an'analari tarixi haqida so'zlab beriladi.

6. Ustoz korxonadagi ish o'rinlariga o'quvchilarni biriktirib, ularning ishlarini kuzatib boradi, kerakli instruktajlar beradi, zarur vaqtda o'quvchilar ish joylarini grafik asosida almashtiradi. Ishlab chiqarish amaliyotiga korxonadagi javobgar shaxslar, tomonidan asosiy rahbarlik amalga oshiriladi. Agar ishlab chiqarish amaliyoti jarayonida ba'zi kamchiliklar uchrasa bunday kamchiliklarni ustoz va rahbarlar orqali barham beriladi.

7. Ishlab chiqarish amaliyoti natijasi bo'yicha hisobot uchun materiallar to'plash uchun ustoz tomonidan ko'rsatmalar berilib boriladi.

### **Kasb-hunar ta'limi o'quv muassasalarining o'quvchilar ishlab chiqarish amaliyoti haqida namunaviy shartnoma**

\_\_\_\_\_ 2001 y.  
Toshkent milliy xunarmandchilik kasb-hunar kolleji  
direktori \_\_\_\_\_ bundan keyin «o'quv muassasi», bir tomondan  
va Qurilish tresti boshlig'i \_\_\_\_\_

Ikkinchi tomondan, bundan keyin «Korxonaga» quyidagi shartnomani tuzishdi:

1. «O'quv muassasi» yuqori malakali mutaxassislarini tayyorlash uchun dasturlar va o'quv rejasiga asoslanib, «qurilish ishlari» kasbi bo'yicha 20 o'quvchidan iborat A-21 guruhini 10 dekabr 2001 yildan 15 yanvar 2002 yilgacha ishlab chiqarish amaliyotini o'tashga yo'llaydi. O'quvchilar ro'yxati ilova qilinadi.

2. «O'quv muassasi», «Ishlab chiqarish amaliyoti Nizomi» ga binoan o'quvchilarning dastlabki kasbiy tayyorgarligini, texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilishni, ish sharoiti qoida tartiblarini saqlashni, uskunalarni ehtiyotgarlik bilan boshqarishlariga bo'lgan munosabatlarini ta'minlaydi. O'quvchilar ishlab chiqarish amaliyoti davrida «Korxonaga» ning ichki tartib qoidalariga to'liq bo'ysinadi.

«O'quv muassasi» ustoz orqali o'quvchilarning o'quv ishlarini tashkil qiladi va ularga uslubiy rahbarlikni amalga oshiradi.

3. «Korxonaga» bajaradi:

a) o'quvchilarga-amaliyotchilarga zarur bo'lgan jihozlar bilan jihozlangan ish joylarni, ishlab chiqarish topshiriqlari, hujjatlar va boshqalar bilan ta'minlaydi. O'quvchilarni kasbga oid bo'lmagan boshqa ishlarga jalb qilmaydi va ularning bo'sh, bekorchi bo'lishlariga yo'l qo'yiladi;

b) «Korxonaga» da qabul qilingan me'yorlar, talablar bo'yicha o'quvchilarni maxsus kiyimlar, shaxsiy xavfsizlik vositalari bilan ta'minlaydi. Ish sharoitini sanitariya gigiena talablari asosida ta'minlaydi.

v) o'quvchilarning bajarigan ish natijalarini qat'iy hisobga olib boradi. O'quvchilarning ishlab topgan xaqdari qaydnomasi asosida har oyda «O'quv muassasa» hisob raqamiga pullarni o'tkazib turadi;

g) o'quvchilarning va ustozning yo'l xarajatlarini to'laydi.

4. Agarda shartnomada ko'rsatilgan talablar «Korxonada» tomonidan bajarilmasa u holda «O'quv muassasa» o'qtuvchilarni ishlab chiqarish amaliyotidan chaqirib olishlari mumkin.

5. Agarda ishlab chiqarish amaliyoti davrida o'quvchilar «Korxonada» ichki qoidalarini buzishsa u holda «Korxonada» rahbariyati ularni ishlab chiqarish amaliyotidan chetlatib, «O'quv muassasa» ga qaytarib yuborishlari mumkin.

6. Tomonlarning qo'shimcha shartlari \_\_\_\_\_

7. Tomonlar tomonidan paydo bo'lgan kelishmovchiliklar qabul qilingan me'yorlar asosida hal qilinadi.

8. Shartnoma muddati \_\_\_\_\_ dan \_\_\_\_\_ gacha

Korxonada rahbari

O'quv muassasi rahbari

### **Ishlab chiqarish amaliyoti dasturlarining namunaviy tuzilmasi**

Ishlab chiqarish ta'limi amaliyotini o'tkazishning eng muhim qismi bo'lib, uning dasturini ishlab chiqarish hisoblanadi. Ishlab chiqarish dasturi quyidagi tuzilishga ega:

1. Umumiy qoidalar. Amaliyotga ajratilgan umumiy vaqti, o'tash muddati, ish rejasi, amaliyotga rahbarlikning tashkiliy masalalari, amaliyot o'tishini nazorat qilish.

2. Ishlab chiqarish amaliyotining o'quv tarbiyaviy masalalari.

3. Ish mazmuniga qo'yiladigan talablar, o'quvchilar bajarishi lozim bo'lgan vazifalar va boshqalar.

4. Amaliyot o'tishi uchun kerak bo'lgan ish o'rinlari ro'yxati va bajariladigan ishlar tafsiloti.

5. Amaliyot jarayonida o'rganadigan yuqori unumdorlikli asboblar va moslamalar.

6. Ilg'or ishchilar mehnati usullari va ularni o'rganish rejalari.

7. Ishlab chiqarish ta'limi ustoziga uslubiy tavsiyalar.

8. Yakuniy malakaviy ishga qo'yiladigan talablar.

### **§ 4.4. O'quvchilarni bilim, malaka ko'nikmalarini nazorat qilish va baholash usullari**

O'rta maxsus, kasb-hunar muassasalarida o'quv tarbiyaviy jarayonda unumli mehnatni amalga oshirish uchun o'quvchilarni tayyorlashga yo'naltirilgan bo'lib, jamiyat va shaxsiy talablarni qondirish ham kerak.

Malakali, unumli mehnat o'quvchilarning ta'lim-tarbiya olish jarayonida shakllangan bilim, malaka va ko'nikmalariga asoslangandir.

O'quv-tarbiyaviy jarayon – bu boshqariladigan va rostlanadigan jarayon bo'lib, o'qituvchi, ustoz o'quvchilardagi bilim, malaka va ko'nikmalarini son va sifat jihatdan haqqoniy baholash va o'quv-tarbiyaviy jarayonga olishgan natijalarga qarab o'zgartishlar kiritib borish bilan birgan o'zining faoliyatiga ham tavsif beradi.

O'quvchilarning bilim, malaka, ko'nikma va qobiliyatlariga baho berish qarab chiqishdan oldin yana bir bor bilim, malaka, ko'nikma va qobiliyatlar ta'sirini qarab chiqaylik.

**Bilim** – nazariy va amaliy faoliyat natijasida o'rgangan, esda saqlab qolingan, qabul qilingan va fikrlashtirilgan hodisa va predmetlar haqidagi tushunchalar tizimidir.

Bilimmlar o'z navbatida tizimli va tizimsiz, nazariy va amaliy, keng va tor, chuqur va yuzaki, moslanuvchan va shablonli, mustahkam va mustahkam bo'lmagan turlariga bo'linadi. Bularning ichida kasbiy ta'lim natijasida hosil bo'ladigan nazariy va amaliy bilimlarni oshirish mumkin. Chunki, nazariy bilimlar narsalarning (predmetlar) etaoli darajadagi xususiyatlarni texnika va texnologiyalardan hodisasini (yavleniy) va ularning ob'ektiv munosabatini bildiradi. **Amaliy bilim** esa texnika va texnologiya sohasidagi jarayonlarning aloqasini, hodisasini va boshqalarning to'g'ridan to'g'ri amaliy faoliyatga kiritilganligini bildiradi.

**Malaka** – bu o'quvchining avtomatik ravishda yo'naltirilgan holda birorta ishni baholash qobiliyatidir.

Ko'nikmalar: aqliy (xotira va fikrlash), sensorli (qabul qilish ko'nikmasi), dvigatelli harakati (psixomotorli) va **volevoyli**.

**Ko'nikma** - yangi sharoitda insonning (mutaxassisning) ishni sifatli, kerakli hajmda va ajratilgan – belgilangan vaqtda bajarish qobiliyatidir.

Ko'nikmani shakllantirish bu kasbiy ta'limning majburiy oxirgi maqsadi bo'lib, bu ko'nikma o'qish, amaliyot jarayonida bosqichma-bosqich shakllanib boradi.

Kasbiy qobiliyat – kasbiy faoliyat sharoitida ishni muvaffaqiyatli bajarish uchun zarur bo'lgan shaxsning shaxsiy –psixologik sifati belgisidir.

Qobiliyat tug'ma bo'lmasdan uning ko'zga tashlanishi yoki ajralib turishi muhitga, o'rganishga, tarbiyaga bog'liqdir. qobiliyatning tug'ma ko'rinishi uning qabul qila olishi, fikrlashi, xotirasi, faraz qilishi va boshqalar bo'lgani uchun bular rivojlantirilsa, to'g'ri yo'lga solishsa qobiliyat yuqori cho'qqiga chiqadi.

Bilim, malaka va ko'nikma, qobiliyat o'zaro bog'liq bo'lib, ularni alohida-alohida baholash juda murakkab.

O'quvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalarini baholash ustozning, o'qituvchining muxandis pedagogning uslubiy faoliyatini tarkibiy qismidir. SHuning uchun ham o'qituvchi o'quv sharoitida har bir o'quvchini diqqat bilan kuzatib, o'rganib borish va faoliyatini baholab borishi zarur.

Umumta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va oliy o'quv yurtlardagi texnikaviy, texnologik fanlar bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalarini baholash usulalri va shakli asosan birxildir. Ularda faqat mazmun jihatdan ya'ni amaliyotni,



kasbiy yo‘naltirilganlik, malaka va ko‘nikmalarga bo‘lgan talabning ko‘prog‘i va boshqalar bilan bog‘liqdir.

Mashinasozlik fanlarini o‘rganishda bilim, malaka va ko‘nikmalarni baholashning quyidagi turlari mavjud:

Joriy – og‘zaki so‘rash, yozma nazorat ishlari, amaliy ish, o‘qituvchining kuzatib borishi, dasturli nazorat.

Davriy – har bitta mavzuning o‘tgandan keyin tekshirib borish.

Yakuniy – nazorat ishlari, zaxetlar, imtihon va bitiruv ishlari.

O‘quvchilarning bilim, malaka va ko‘nikmalarini nazorat qilishda uchta asosiy funktsiya (vazifa) amaliga oshiriladi: tekshiruvchi, o‘rgatuvchi va tarbiyalovchi.

**Tekshiruvchi** – nazorat qiluvchi – o‘quvchilarning guruh o‘quvchilarining o‘zlashtirganlik darajasini belgilab borish (ya‘ni bilimi, malakasi va ko‘nikmasi).

**O‘rgatuvchi** – har bir o‘quvchining bilimi, malakasi va ko‘nikmasining tekshirish natijasida boshqa o‘quvchilar o‘zlarining bilim, malaka va ko‘nikmalarini taqqoslaydi va o‘ziga xulosalar chiqaradi. SHu bilan birga o‘qituvchi umumiy kamchiliklarga ham to‘xtalib o‘tishi natijasida boshqa o‘quvchilarga saboq bo‘ladi.

**Tarbiyalovchi funktsiyasi** – tizimli nazorat o‘quvchilarda o‘ziga o‘zi baho berishni, imkoniyatlarini tarbiyalaydi va o‘z vaqtlarini to‘g‘ri taqsimlashga undaydi.

O‘quvchilarning bilimi, malakasi va ko‘nikmalarini nazorat qilishning eng ko‘p tarqalgan shakli og‘zaki so‘rash (shaxsiy, gruppali) dir. Buning keng tarqalganligining sababi uni tashkil qilishning osonligi. Lekin buning ham o‘ziga xos qiyinchilik tomonlari bor, ya‘ni kamni qachon chaqirish kerak? Qanday savol berish kerak? Savolning xajmi qanday bo‘lishi kerak? Qancha vaqt kerak? Nimani so‘rash kerak? Qachon o‘quvchilar bilan nima qilish kerak? va x.k.

Nazorat qilish qanday bo‘lmasin, ularga qo‘yiladigan umumiy talab: o‘quvchilarga aniq savollar bilan murojat qilish va bu nazoratga ko‘proq o‘quvchilarni jalb etishdir.

O‘quvchilarning kasbiy mahorat yurituvchi ob‘ektlari bo‘lib quyidagi ishlab chiqarish bilim, malaka va ko‘nikmalari hisoblanadi.

- o‘quv ishlab chiqarish ishlarini bajarish sifati;
- ishlab chiqarish mohiti unumdorligi – vaqt va mahorat;
- ishni bajarishda ishlab chiqarish negizlarining usullarini qo‘llay olish;
- hozirgi zamon texnika va texnologiyasini qo‘llay olish, ish bajarish;
- mustaqil ish bajara olish;
- amaliy ishlarni bajarish nazariy bilimlarni qo‘llay olish;
- mehnat madaniyati, ish joyi tartibi;
- ish bajarish vaqtida texnika xavfsizlik qoidalariga rioya qilish.

### **Mehnat va kasb ta‘limi bo‘yicha o‘zlashtirishni baholash mezonlari mezonlari.**

O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalariga o‘qituvchi, usta besh balli sistema bo‘yicha baho qo‘yadi. Baho qo‘yishning besh balli sistemasini amalida

tadbiq etishda soʻzlar bilan ifodalanadigan «aʻlo», «yaxshi», «qoniqarli», «yomon», «juda yomon» degan baholarni «5», «4», «3», «2», «1» raqamlari bilan almashtirish maqsadga muvofiq deb topilgan. Raqamli baholash koʻproq aniqligi, puxtaligi va foydalanish uchun qulayligi bilan farq qiladi.

Koʻpinsa usta va oʻqituvchilar oʻquvchilarning intizomiga oid birorta kamchiligi (kechikib kelishi, mashgʻulotlarga kelmay qolishi, dars vaqtida gaplashib oʻtirishi va hokazolar) uchun bahoni kamaytirish kabi xatoga yoʻl qoʻyadilar. Bu oʻrinda usta va oʻqituvchi tarbiyaviy taʻsir koʻrsatishning boshqa vositalaridan foydalanilishi lozim.

Quyidagi baho mezonlari belgilab chiqilgan.

Oʻquv materialini butun tavsilotlari bilan bilish va tushunish, materialni izchil, mantiqan bogʻlangan holda xatosiz bayon etish, hisob-kitob va grafika ishlarini namunali bajarish, mehnat topshiriqlarini bajarish vaqtida olingan ilmiy-texnikaviy bilimlarni mustaqil, dadil va toʻgʻri tadbiq etish, mehnat usullarini toʻgʻri bajarish (mehnat va hunar taʻlimi dasturining talablari doirasida), texnikaviy talablar doirasida sifat koʻrsatkichlariga rioya qilish, ishni vaqt normasi doirasida bajarish «5» baho bilan baholanadi.

«4» baho butun oʻquv materiallarini bilishi va tushunishi, uni ogʻzaki va yozma ravishda toʻgʻri bayon etishi, hisob-kitob va grafika ishlarini toʻgʻri va puxta bajarishi, olingan bilimlardan oʻquv-mehnat topshiriqlarini, berilgan ishni belgilangan vaqt normasiga muvofiq oʻz vaqtida bajarilganligi uchun qoʻyiladi.

«3» baho programmada asosiy materialni bundan keyingi oʻquv-mehnat vazifalarini bajarishga imkon beradigan xajmda bilishi va tushunishi, oʻquv materialini birmuncha xato va kamchiliklar bilan, oʻqituvchining ozgina yordami orqali sodda qilib bayon etishi, mehnatni tashkil etishda bir oz kamchiliklar boʻlgan holda belgilangan vaqt normasini 75% bajargani uchun qoʻyiladi.

«2» balli baho programma materialining koʻp qismini yaxshi tushunmaslik, uni qoʻpol xatolar bilan bayon qilish, hisob-kitob va grafika ishlarini etarli darajada bajarmaslik, olingan bilimlarni xatolarga yoʻl qoʻyib tadbiq etish, mehnat operatsiyalarini koʻp xatolar bilan bajarish, mehnatda belgilangan sifat koʻrsatkichlarini taʻminlay olmaslik uchun qoʻyiladi.

Butun programma materialini bilmaslik va tushunmaslik, oʻtilgan materialni bayon qilib bera olmaslik, olingan bilimlardan amalda foydalana bilmaslik, mehnat usullarini qoʻllana olmaslik, brakka yoʻl qoʻyish uchun «1» baho qoʻyiladi.

Baholashni tarbiyaviy rolini oshirish masalasi diqqatga sazovordir. SHu munosabat bilan usta, oʻqituvchilar qoʻygan baholarini izohlab berishi muhimdir. Bu hol oʻquvchilarga oʻz bilimlaridagi kamchiliklarini, amaliy ishlaridagi nuqsonlarini bilib olishlariga yordam beradi. Baholashni muntazam izohlab borish ularning taʻlimiy rolini oshiradi.

### **Mehnat va kasb taʻlimida reyting usuli baholashning eng zamonaviy usuli.**

Uzluksiz taʻlim tizimini barcha bosqichlarida mosligi bilan aniqlanadi. Fanlar va ixtisosliklar boʻyicha taʻlim standartlarida oʻquvchilar oʻzlashtirish,

bilimi, ko'nikma va malakalariga ega bo'lishi uchun zarur bo'lgan eng minimal talablari belgilangan.

O'zbekiston va boshqa xorijiy davlatlar o'quv muassasalarining tajribasi o'qitish sifatini va o'quv jarayonining xilma-xil boshqa ko'rsatkichlarini baholashda va unga ob'ektiv yondashishda baholashning reyting tizimi eng zamonaviy usul ekanligini ko'rsatmoqda. Chunki, xozirgi kunda ko'p o'qituvichlar o'quvchilarning o'quv fanlari bo'yicha o'zlashtirish darajasini belgilash ya'ni aniqlashda ma'lum darajada xatliklarga yo'l qo'yib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi qonunlarning qabul qilinishi ta'lim borasida olib borilayotgan tub islohatlarni amalga oshirishda huquqiy asos yaratdi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasini 1998 yil 13 maydagi «O'zbekiston Respublikasida O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini tashkil etish chora tadbirlar to'g'risida»gi 204 sonli qarorining 7-bandiga asosan akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari o'quvchilarni bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarining nazorat qilishning reyting tizimi to'g'risidagi nizomini ishlab chiqish, hamda joylarda joriy qilish, kasb-hunar kolleji va akademik litseylarda ta'lim-tarbiya oluvchi o'quvchilarning bilimni haqqoniy baholash, bilim va kasbiy ko'nikmalar olishga jonkuyarlik xissini o'yg'otish o'quvchilarda o'qishga intilishga, o'zaro bellashish muhitini shakllantirish zarurligi ko'rsatilgan va bu Nizom ishlab chiqilib, hayotga tadbiriq etildi. Xuddi shu Nizom Umumiy o'rta maktab o'quvchilarining bilimni baholash uchun ham joriy etildi.

Bugun sizlarning e'tiboringizga havola etilayotgan mavzu o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv muassasalarida bilimlar sifatini nazorat qilish reyting tizimi haqidagi nizom asosida amalga oshirilayotgan tajribalarga asoslangan.

### **Reyting tizimining maqsad va vazifalari**

Reyting tizimi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi davlat ta'lim standartlari hamda, mehnat ta'limi davlat ta'lim standartlarining tarkibiy qismi bo'lib, Kadrlar tayyorlash milliy dastur talablaridan kelib chiqqan holda o'quvchilarning bilimni haqqoniy baholash, ulardan fanlarni o'zlashtirish bo'yicha qiziqishlarni oshirish va ularning bilim, ko'nikma va malakalarini egallashga bo'lgan ehtiyojlarni rivojlantirish o'qitish jarayonida reyting tizimini qo'llashning asosiy maqsadini tashkil qiladi.

Reyting tizimi quyidagi vazifalarni hal qilish uchun kiritiladi:

- davlat ta'lim standartlari talablariga mos holda barcha o'quv fanlari o'quv dasturlari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni o'quvchilar tolmonidan o'zlashtirish darajasini ob'ektiv baholash;
- o'quvchilarda bilim olishga bo'lgan ijobiy intilish ehtiyojini shakllantirish, ularda o'zaro bellashuvga qiziqish uyg'otish;
- o'quvchilarni mustaqil ishlashga o'rgatish;
- o'quvchilarni doimiy baholash va baholarni taqqoslab borish;

- o‘quv muassasalari o‘qituvchilari ishlab chiqarish ta’lim ustalari pedagoik faoliyatini to‘g‘ribaholash;
- o‘quvchi va o‘qituvchi faoliyatini oldindan rejalashtirish, o‘quv jarayoniga zaruriy o‘zgarishlar kiritish;
- Respublikaning turli xududlaridagi o‘quv muassasalari natijalarini tahlil qilish, taqqoslash va chora tadbirlar ishlab chiqish;
- O‘quvchilarning mehnat va tarbiyaviy intizomini yaxshilash, ularning fanlar bo‘yicha uzluksiz tayyorgarligini amalga oshirish.

### **Reyting tizimini nazorat turlari**

Reyting tizimida o‘quv rejasiga kiritilgan har bir o‘quv fani bo‘yicha o‘quvchilarning bilim sifatini baholash uchun quyidagi nazorat turlaridan foydalaniladi:

- Joriy nazorat (JN);
- Oraliq nazorat (ON);
- Yakuniy nazorat (YaN).

Joriy nazorat (JN) – og‘zaki so‘rov, kollokviumlar, seminarlar, yozma ishlar, laboratoriya ishlari, texnikaviy diktant, kurs loyihalari, uy vazifasi va hokazo, ya’ni siz o‘z amaliyotingizda qo‘llaydigan barcha so‘rov turlarini o‘z ichiga oladi.

Joriy nazorat (JN) da o‘tkaziladigan so‘rov turlarini quyidagi qisqartirilgan kodlar bilan belgilashni tavsiya etiladi:

Test so‘rovlari(T), og‘zaki so‘rov(O), laboratoriya ishi(L), masala yechish(M), uy vazifasi(U), kurs loyihasi (KL), yozma ish (Yo), kartochka so‘rovi (KS), texnikaviy diktant (TD), amaliy ish (A), va xokazo.

Joriy nazorat o‘quv dasturini bir yoki bir nechta mavzularini o‘rgangandan so‘ng o‘tkaziladi.

**Oraliq nazorat (ON)-** o‘quv fanining alohida maqsadga qaratilgan katta va tugallangan hajmidan keyin o‘tkaziladi. Bu o‘quv dasturini bir yoki bir nechta bo‘limi bo‘lishi mumkin. ON semestr davomida 2-4 marta o‘tkazilishi maqsadga muvofiqdir.

**Yakuniy nazoratga (YaN)** – yakuniy nazorat (YaN) semestr davomida o‘tilgan barcha bob va mavzularga taalluqli asosiy savollarni qamrab olishi kerak. Bu nazorat semestr yakunida test asosida o‘tkaziladi.

ON va YaN o‘tkazishning ob’ektivligini ta’minlovchi nazoratni asosiy shakli-test sinovlari o‘tkazishdir. Test sinovlarini o‘tkazishda quyidagilarga e’tibor berish zarur, ya’ni o‘quv materialini o‘zlashtirish natijalarini ob’ektiv baholash uchun sharoitlar yaratish; ko‘p variantli test savollarini ishlab chiqish; bir-biridan ko‘chira olmasligini ta’minlash; har bir o‘quvchini individual test savollari bilan ta’minlash.

ON sonini, mazmunini va o‘tkazish vaqtini o‘qituvchi taqvim mvzular rejaga mos holda belgilaydi. ON o‘tkazilish haqida o‘quvchilar bir hafta oldin ogohlantiriladi.

ON va YaN doirasida bittasi yoki bir nechtasi bo'yicha tanlab olinib tashkqi nazorat o'tkazilishi mumkin. Nazorat qilish ta'limiy muassasa rahbarlari tomonidan o'tkaziladi.

Tashqi nazoratning maqsadi ta'lim standartida ko'rsatilganga mos darajada o'quvchilar o'zlashtirishining ko'rsatkichlarini aniqlash hamda bir xildagi fanlar bo'yicha (kasblar) bu ko'rsatkichlarni taqqoslash.

O'quvchilarning qiziqishini uyg'otish uchun o'tkazilgan nazorat natijasini dars mobaynida bevosita o'quvchilar ishtirokida ko'rib chiqish va tahlil qilish yaxshi natija beradi.

Har bir o'qituvchi o'z fani bo'yicha reyting tizimini loyihalashtirishda quyidagilarga asoslanishi kerak:

**1. Har bir fan bo'yicha semestr davomida o'quvchi to'plashi mumkin bo'lgan maksimal ball 100 ballni tashkil etadi;**

2. Har bir fan uchun ajratilgan maksimal ball nazorat turlari bo'yicha taqsimlanadi:

- Joriy nazorat (JN) bo'yicha 60%, ya'ni 60 ball;
- Oraliq nazorat (ON) bo'yicha 20%, ya'ni 20 ball;
- Yakuniy nazorat (YaN) bo'yicha 20%, ya'ni 20 ball.

**Bu ballar baho va foiz jihatdan quyidagicha taqsimlanadi:**

Mak. ball	Baholar, foizlar, ballar			
	«qoniqarsiz» 54,9%	«o'rta» 55%-69,9%	«yaxshi» 70%-84,9%	«a'lo» 85%-100%
100	0-54,9	55,9-69,9	70-84,9	85-100

Yakuniy nazoratga (YaN) joriy va oraliq nazoratlarda yig'ilgan umumiy balli maksimal ballning 60% dan kam bo'lgan va reyting ballini yaxshi lash hohishini istagan o'quvchilar kiritiladi. Agar o'quvchining joriy va oraliq nazoratlarida yig'ilgan umumiy reyting balli 60% dan ko'p bo'lsa va bu o'quvchilar yakuniy nazorat topshirish istagini bildirmasa, u holda jurnalga ular jamlagan umumiy ball qo'yiladi. Yakuniy nazoratga ajratilgan ballni o'quvchi toki shu nazoratni topshirmaguncha avtomotik ravishda qo'shib qo'yishga ruxsat berilmaydi.

Kurs loyihalariga maksimal ballning 20-40% ni ajratish maqsadga muvofiqdir. Har bir o'qituvchi o'z fanidan kurs loyahasini foyzlash jarayonida har bir qism uchun shu maksimal 20-40 balldan kelib chiqqan holda ballarni taqsimlaydi.

Ishlab chiqarish ta'limi va amaliyoti uchun ham maksimal ball 100 ball bo'lib, reyting tizimi ularning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olgan holda yuqoridagi namunadagidek loyihalashtiriladi.

Diplom ishlari va loyihalari, davlat imtihonlari uchun ham maksimal ball 100 ball deb belgilanadi.

- diplom ishi yoki loyihasi rahbariga - 30%, ya'ni 30 ball;

- retsenzentga – 20%, ya'ni 20 ball;

Davlat himoyasida malaka komissiyasiga ajratilgan maksimal 50 ballning 60% ni olgan o'quvchigina himoya qilgan hisoblanadi.

### Reyting tizimini amalga oshirish.

O'quv rejasi va fan dasturiga asosan tuzilgan taqvim-mavzuiy rejasi bo'yicha, hamda ajratilgan soatlarni e'tiborga olgan holda, har bir o'quvchini semestr davomida necha marta nazorat qilish imkoniyatidan kelib chiqib, nazorat va so'rov turlari aniqlab chiqiladi va ma'lum bir fan bo'yicha reyting ballarini taqsimlanish jadvali tuziladi. (jadval 1). Bu jadval 7 ustundan iborat bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi: (quyidagi jadvalga qarang).

Birinchi ustunga nazorat va so'rov turlarining nomlari kiritiladi.

Ikkinchi ustunga nazorat va so'rovlar uchun belgilangan qisqartirilgan kodlar kiritiladi.

Uchinchi ustunga so'rovlarning qay darajada muhimligiga qarab muhimlik darajasi aniqlanib kiritiladi.

To'rtinchi ustunga semestr davomida har bir o'quvchini belgilangan so'rov turi bo'yicha necha marta nazorat qilish imkoniyatidan kelib chiqqan holda so'rovlarning soni kiritiladi.

Beshinchi ustunga semestr davomida jami o'tkazilgan so'rovlar sonidan nazorat turi uchun ajratilgan maksimal balldan va so'rovlarning muhimlik darajasidan kelib chiqqan holda har bir so'rov turi uchun ajratilgan maksimal ballar aniqlanib kiritiladi.

Oltinchi ustunga taqvim-mavzuiy rejasi bo'yicha har bir so'rovlar o'tkazilishi kerak mashg'ulotlar nomeri aniqlanib kiritiladi.

Ettinchi ustunga o'quvchi semestr davomida har bir nazorat va so'rov turlari bo'yicha to'plash mumkin bo'lgan maksimal ballar aniqlanib (4 va 5 ustundagi sonlar o'zaro ko'paytirilib) kiritiladi.

« \_\_\_\_\_ » fani bo'yicha reyting ballarini taqsimlanishi.

Jadval 1

Nazorat va so'rov turlari	So'rov kodlari	So'rovlarning muhimlik darajasi	Semestr davomida o'tkaziladigan so'rovlar soni	Har bir so'rovga ajratilgan max ball	So'rovlar o'tkaziladigan mashg'ulotlar №	Hammasi
1	2	3	4	5	6	7
Joriy nazorat	JN	5	1	3	2-40	3
1. Og'zaki so'rov	O					
2. Test	T	2	2	5	18;34	10
3. Masala yechish	M	1	2	6	5-20;22-40	12
4 Laboratoriya ishi	L	3	6	4	3;8;12;23;27; 36	24
5. Yozma ish	YO	4	2	3,5	15;30	7
6. Uy vazifasi	U	6	2	2	10;32	4

Jami			15			60
Oraliq nazorat Test	ON T		2	10	21;40	20
Yakuniy nazorat Test	YAN T		1	20		20
Jami			18			100

Tuzuvchi: «\_\_\_\_\_» fani o'qituvchisi Sattorov Z.M

1 jadval tuzilib, taqvim-mavzuiy reja bilan birgalikda o'quv ishlari bo'yicha direktor muoviniiga tasdiqlash uchun topshiriladi va guruh jurnaliga ko'chiriladi.

1 jadvalga asoslangan holda har bir fan bo'yicha jurnalda keltirilgan reyting asosida baholash jadvalining yuqori qismi to'ldiriladi. Jadval 2.

Bu jadvalda quyidagilar ko'rsatiladi:

- o'quvchining familiyasi va ismi sharifi;
- nazorat va so'rov kodlari;
- nazorat va so'rov uchun ajratilgan maksimal ball;
- joriy va oraliq nazoratlarda o'quvchining jami jamg'argan balli;
- yakuniy nazoratga ajratilgan ball;
- qayta topshirish;
- jami jamg'arilgan ballar (hammasi).

Jadval 2 da nazorat va so'rov turlari hamda o'tkazilgan mashg'ulotlar nomeri, ularga ajratilgan maksimal ballar aniq ko'rsatilishi kerak. har bir o'qituvchi o'z fani bo'yicha reyting ballarini taqsimlanishini o'quvchilarning kundalik reyting daftariga ko'chirishi va o'z vaqtida olgan ballarini qo'yib borishi zarur. Bu esa o'quvchilarni o'zaro bellashishga, hamda har bir nazoratga o'z vaqtida tayyorlanib kelishga chorlaydi.

Agar o'quvchi ba'zi bir sabablarga ko'ra nazoratni topshirmasa, u holda uning sabablari aniqlanib qayta topshirishga ruxsat beriladi. qayta topshirganda nazoratni sababli qoldirgan bo'lsa, maksimal ball 0,9 ga sababsiz qoldirgan bo'lsa 0,7 ga ko'paytiriladi.

Semestr yakunida o'quvchi maksimal ballning 55% dan kam jamg'argan bo'lsa, u holda ilmiy pedagogik kengashning qaroriga asosan o'quvchiga ikki xafta muddat ichida qayta topshirishga ruxsat beriladi.

qayta topshirish faqat oraliq va yakuniy nazoratlar bo'yicha o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari ruxsatnomasiga asosan faqat bir marta ruxsat etiladi. Keyingi qayta topshirish direktor buyrug'iga asosan komissiyaga topshiriladi. SHundan keyin ham o'quvchi 55% dan kam ball to'plagan bo'lsa, u holda kursdan kursga qoldiriladi. O'quvchi har bir fandan maksimal ballning 55% ni jamg'armaguncha kursdan kursga o'tkazilmaydi.

So'rov darajalariga ajratilgan maksimal ballar baholash tizimi bo'yicha 3 jadvalda ko'rsatilgandek taqsimlanadi.

So'rov darajalarining maksimal ballini belgilashda hisoblash jrayonlarini engillashtirish maqsadida iloji boricha butun sonlar qo'yish maqsadga muvofiqdir.

Reyting tizimi birinchi marta joriy qilinayotgan o'quv muassasalarida toki o'quvchilar ko'nikma xosil qilgunlariga qadar baholash tizimining ballar intervali o'rniga 3 jadvalda ko'rsatilgan taqribiy ballardan foydalanish tavsiya etiladi.

O'quv muassasasida reyting tizimi bo'yicha ma'lum bir tajriba orttirilgandan keyin hamda texnik vositalardan foydalanish imkoniyati yaratilgandan so'ng baholash tizimining ballar intervaliga o'tish maqsadga muvofiq.

Ballar intervalini taklif qilishdan maqsad o'quvchilarning bilimlarini aniq va real baholash, hamda o'quvchilar o'rtasida har bir ulush ball uchun kurashish muxitini yaratishdir. Ballar intervalidan foydalanish guruhda, kursda, kollejda, hamda Respublikadagi litsey va kollejararo eng yaxshi o'quvchilarni hech qanday qo'shimcha koeffitsientlarsiz aniqlab beradi.

### **Reyting tizimida o'quvchilarning umumiy to'plagan ballini hisoblash va ularni o'zaro taqqoslash**

Reyting tizimini loyihalashtirish va baholash mezonini engillashtirish maqsadida barcha fanlar uchun 100 ballik tizim belgilangan edi. Lekin eng yaxshi o'quvchini aniqlash va o'quvchilar bilimini o'zaro taqqoslash uchun albatta har bir fanga o'quv jarayoni rejasida ajratilgan soatlarni ham hisobga olish kerak. O'quvchilarning har bir fan bo'yicha to'plagan boshlang'ich maksimal reyting balli quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$R_b = R_{jn} + R_{on} + R_{yan} = 60 + 20 + 20 = 100 \quad (1)$$

Bu erda:

$R_{jn}$  - o'quvchilarning joriy nazoratda to'plashi mumkin bo'lgan maksimal balli, ya'ni 60 ball;

$R_{on}$  - o'quvchilarning oraliq nazoratda to'plashi mumkin bo'lgan maksimal balli, ya'ni 20 ball;

$R_{yan}$  - o'quvchilarning yakuniy nazoratda to'plashi mumkin bo'lgan maksimal balli, ya'ni 20 ball.

O'quvchilarning har bir fan bo'yicha balli quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$R_{o'b} = R_{o'jn} + R_{o'on} + R_{o'yan} \quad (2)$$

Bu erda:

$R_{o'jn}$  - o'quvchilarning joriy nazoratda to'plagan real balli;

$R_{o'on}$  - o'quvchilarning oraliq nazoratda to'plagan real balli;

$R_{o'yan}$  - o'quvchilarning yakuniy nazoratda to'plagan real balli.

2 formula har bir fan bo'yicha o'quvchining to'plagan real ballini aniqlashga imkon yaratdi. Lekin o'quv jarayoni rejasida har bir fan uchun ajratilgan soatlarni



hisobga olgan holda o'quvchining haqiqiy reyting ballini aniqlash imkoniyati bermaydi. Buning uchun quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$R_h = R_{o'b} \times K_f$$

Bu erda:

$K_f$  - S|100-fan koeffitsienti bo'lib, o'quv jarayoni rejasida ma'lum bir fan uchun ajratilgan soatlarga bog'liq;

$S$  – o'quv jarayoni rejasida ma'lum bir fan uchun semestrda ajratilgan soatlar soni.

O'quvchining ma'lum fanlar bo'yicha to'plagan reyting ballarini aniqlaganimizdan so'ng barcha fanlar bo'yicha umumiy reyting ballini quyidagi formula bilan aniqlaymiz:

$$R_u = R_{h1} + R_{h2} + R_{h3} + \dots + R_{hn} \quad (4)$$

Bu erda:  $n$  – fanlar sonini bildiradi.

Masalan: 1 kurs bo'yicha  $n = 18$  ga teng, chunki o'quv jarayoni rejasi bo'yicha ushbu kursda 18 ta fan o'qitilishi mo'ljallangan. Xuddi shunday kurslarda yoki butun 3 kurs mobaynida to'plagan umumiy reyting ballini aniqlash mumkin. Bu aniqlangan reyting balli o'quv jarayoni rejasida ajratilgan umumiy soatlar soni (4560) bilan mos keladi. Agar diplom himoyasi va davlat imtihonlariga ajratilgan ballarni qo'shsak bu ball yana ozgina ko'payishi mumkin. O'quvchining 3 kurs mobaynida to'plagan umumiy ballini hisoblashda 4 formulaga albatta diplom himoyasi va davlat imtihonlariga ajratilgan ballarni ham qo'shib hisoblash kerak. 4 formula guruhda eng yaxshi o'quvchini aniqlashga imkon beradi, lekin kursda, kollejda va kollejlarda eng yaxshi o'quvchini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$R_n = R_{ur} | R_{o'm} \times 100 \quad (5)$$

Bu erda:

$R_n$  – o'quvchining nisbiy reyting balli;

$R_{ur}$  – o'quvchining fanlar bo'yicha to'plagan umumiy real balli

$R_{o'm}$  – o'quvchining fanlar bo'yicha to'plashi mumkin bo'lgan maksimal balli.

5 formula o'quvchilarning o'zaro taqqoslash uchun to'rt, besh va undan ortiq xonali sonlardan Yana 100 ballik mezonga o'tishga imkon yaratadi. Bu ballar foiz jihatdan quyidagicha taqsimlanadi:

- 0-54,9%, ya'ni o'qish jarayonida reyting ko'rsatkichi 0-54,99 ballgacha bo'lgan o'quvchilar qoniqarsiz;

- 55-69,9%, ya'ni o'qish jarayonida reyting ko'rsatkichi 55-69,99 ballgacha bo'lgan o'quvchilar o'rta;

- 70-84,9%, ya'ni o'qish jarayonida reyting ko'rsatkichi 70-84,99 ballgacha bo'lgan o'quvchilar yaxshi;

- 85-100%, ya'ni o'qish jarayonida o'qish ko'rsatkichi 85-100 ballgacha bo'lgan o'quvchilar a'lo.

Bu reyting ko'rsatkichlari o'quvchilarning bilim sifatini 100 ballik tizim bo'yicha taqqosla shva ularning o'zaro bellashishga chorlash imkoniyatini yaratadi. Chunki o'quvchilar bilimni baholashda ballar intervalidan foydalanganda ikki o'quvchining reyting ko'rsatkichi bir xil bo'lish ehtimoli nolga yaqin. (jadval 4).

Yuqorida keltirilgan formulalar bo'yicha hisob-kitob ishlari o'quv muassasalarining metodik xonalarida o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari boshchiligida amalga oshiriladi. Bu ishlarni kompyuterga ma'lum bir dastur kiritib amalga oshirish hisob-kitob ishlari ancha engillashtiradi.

### **Reyting tizimida o'quvchilarni rag'batlantirish.**

Har bir semestr kurs yakunida o'quvchilarning reyting ko'rsatkichlari Aniqlanib, o'quv muassasasining e'lonlar taxtasida yoritilib boriladi (4 jadval).

№	O'quvchilar ism sharifi	Semestrlar bo'yicha reyting					
		I	II	III	IV	V	VI
1	Abdullaeva A.X.	88,15	89,36	91,31	85,96	78,02	98,97
2	Normatov T.D.	77,56	89,89	86,9	88,9	79,09	90,07
3	Sattorov Z.M.	68,45	65,89	77,09	89,76	90,0	98,98
4	Ibragimov T.R.	56,06	65,98	67,98	77,45	88,09	89,07
5	Muzaffarov A.	76,98	77,08	89,04	87,98	90,78	92,67
6	Maxmudov X.A.	88,0	87,98	89,78	77,46	79,09	89,89
7	Bobojonov S	61,76	67,56	68,09	78,05	85,09	86,34

O'quvchilarning reyting tizimidagi o'quv natijalari har semestr yakunlanganidan so'ng ro'yxat shaklida eng yuqori reyting ko'rsatkichidan eng past reyting ko'rsatkichiga qarab tartiblashtirilgan holda rasmiylashtiriladi.

Pedagogik kengash, guruh rahbarlari, o'quvchilar va ota-onalar yig'ilishlarida semestr yakunlari taxlil qilinadi, o'quvchilarning reyting ko'rsatkichlarini ko'tarish maqsadida, o'qituvchilarning bu borada qiladigan ishlariga tavsiyalar beriladi.

Semestr kurs yakuniga ko'ra akademik litsey va kasb-hunar kollejlari direktorlari ikki hafta ichida o'quv jarayonida yuqori reyting ko'rsatkichlariga erishgan o'quvchilarni rag'batlantirish to'g'risida buyruq chiqaradi. Rag'batlantirish to'g'risidagi buyruq o'quv muassasasining e'lonlar taxtasiga ilib qo'yiladi:

- semestr yakunida reyting ko'rsatkichi 75 dan 85 gacha bo'lgan o'quvchilarga tashakkurnoma e'lon qilinadi.
- semestr yakunida reyting ko'rsatkichi 85 dan 90 gacha bo'lgan o'quvchilar faxriy yorliq bilan mukofotlanadilar.
- semestr yakunida reyting ko'rsatkichi 90 dan yuqori bo'lgan o'quvchilar faxriy yorliq mukofotlanish bilan birgalikda o'quv muassasasining imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda moddiy rag'batlantiriladi.

- kurs yakunida reyting ko'rsatkichi 95 dan oshgan o'quvilar maxalliy hokimiyatlar, xamiy va vasiy tashkilotlar tomonidan rag'batlantirishga tavsiyaqilinadi, ularning fotosuratlari o'quv muassasasi hurmat taxtasiga ilib qo'yiladi. Bundan o'quvchilarga xomiy va vasiy tashkilotlar tomonidan qo'shimcha stipendiya berilishi maqsadga muvofiqdir.

## XULOSA

Shunday qilib, o'quvchilarning mehnat va kasb ta'limi bo'yicha o'zlashtirishni to'g'ri hisobga olish ularning bilim, mehnat, ko'nikma va malakalarini mustahkamlashga imkon beradi. Intizomni o'qishdagi aktikligi va mustaqilligini oshiradi, ularning o'qishga bo'lgan mas'uliyatini oshiradi.

Fanlar bo'yicha reyting tizimini loyihalashtirishga oid metodik tavsiyanoma.

Quyida sizga o'z faningiz bo'yicha reyting tizimini loyihalashtirishni engillashtirish maqsadida fanlar bo'yicha reyting tizimini loyihalashtirish namunasini qarab chiqamiz.

O'quv rejasi bo'yicha fanga 1-semestrda 85 soat ajratilgan. Bu semestr 17 haftadan iborat bo'lib, har haftaga 5 soatdan to'g'ri keladi.

Fan dasturiga asosan tuzilgan taqvim-mavzuiy rejasi bo'yicha hamda ajratilgan soatlarni e'tiborga olib, har bir o'quvchini semestr davomida necha marta nazorat qilish imkoniyatidan kelib chiqqan holda nazorat, so'rov turlarini aniqlab chiqamiz va fan bo'yicha reyting ballarini taqsimlanish jadvalini quyidagicha tuzamiz (jadval 1).

Bu jadval 7 ustundan iborat bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Nazorat va so'rov turlari.
2. So'rov kodlari.
3. So'rovlarning muhimlik darajasi.
4. Semestr davomida o'tkazilgan so'rovlar soni.
5. Har bir so'rovga ajratilgan maksimal ball.
6. So'rovlar o'tkaziladigan mashg'ulotlar nomeri.
7. Hammasi (jami jamg'arilgan ballar).

Joriy nazoratga maksimal ballning 60%, ya'ni ball ajratilganini e'tiborga olib so'rovlar yig'indisini shunday belgilaymizki, bu son 60 qoldiqsiz bo'lsin. Yuqoridan kelib chiqqan holda joriy nazoratga quyidagi so'rovlarni kiritamiz.

Og'zaki so'rov (O)-1 marta;

Test (T)-2 marta;

Masalani yechish (M)-2 marta;

Laboratoriya ishi (L)-6 marta (o'quv rejasi va dasturi bo'yicha fandan 1-semestrda 6 ta laboratoriya ishi o'tkazilishi rejalashtirilgan);

Yozma ish (YO)-2 marta;

Uy vazifasi (U)-2 marta.

Fanning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda so'rovlarning muhimlik darajasini quyidagicha belgilaymiz:

1 daraja-masala yechish;

2 daraja-test;

3 daraja-laboratoirya ishi;

- 4 daraja-yozma ish;
- 5 daraja-ogʻzaki soʻrov;
- 6 daraja-uy vazifasi.

Soʻrovlarning muhimlik darajasini eʼtiborga olgan holda har bir soʻrovga ajratilgan maksimal ballni aniqlaymiz.

Umumiy soʻrovlar yigʻindisi 15 ga teng. Bu songa 60 qoldiqsiz boʻlinadi ( $60 : 15 = 4$ ). Demak oʻrtacha darajadagi soʻrovning maksimal balli 4 ga teng. Oʻrtacha darajadagi soʻrovni aniqlash uchun darajalar sonini 2 ga boʻlamiz ( $6 : 2 = 3$ ). Bundan koʻrinib turibdiki 3 darajadagi soʻrov, yaʼni laboratoriya ishi uchun ajratilgan maksimal ball 4 ball ekan. SHunga asoslanib qolgan darajadagi soʻrovlarning maksimal ballini aniqlaymiz.

- 1 daraja-masala yechish-6 ball;
- 2 daraja-test-5 ball;
- 3 daraja-laboratoriya ishi-4 ball;
- 4 daraja-yozma ish-3,5 ball;
- 5 daraja-ogʻzaki soʻrov-3 ball;
- 6 daraja-uyga vazifa-2 ball.

Har bir soʻrovga ajratilgan maksimal ballni (5 ustun) semestr davomida oʻtkazilgan soʻrovlar soniga (4 ustun) koʻpaytirib oʻquvchining har bir soʻrovlar boʻyicha semestr yakunida jamgʻarish mumkin boʻlgan maksimal ballni (7 ustun) aniqlaymiz. Oʻquvchining har bir soʻrovlar boʻyicha semestr yakunida jamgʻarish mumkin boʻlgan maksimal ballarning (7 ustun) yigʻindisi 60 ga teng boʻlishi kerak. Agar maksimal ballarni yigʻindisi 60 teng boʻlmasa, u holda soʻrov darajalariga ajratilgan maksimal ballarni qayta koʻrib chiqish zarur.

1 jadvalning 6 ustunida taqvim-mavzuiy rejaga asoslangan holda har bir soʻrovning qaysi mashgʻulotda oʻtkazilishi koʻrsatiladi. Bu esa oʻquvchilarga har bir soʻrovni oʻtkazilish vaqtini oldindan bilgan holda mashgʻulotga tayyorlanib kelishga imkoniyat yaratadi.

1 jadval tuzilib, taqvim-mavzuiy reja bilan birgalikda oʻquv ishlari boʻyicha direktor muvoiniga tasdiqlash uchun topshiriladi va guruh jurnaliga koʻchiriladi.

1 jadvalga asoslangan holda har bir fan boʻyicha jurnalda kelitirgan reyting asosida baholash jadvalining yuqori qismi toʻldiriladi (2 jadval).

Biz qarab chiqqan va tavsiya etgan reyting tizimi namunaviy xarakterga ega boʻlib, oʻquv muassasasi 100 ballik tizimni saqlab qolgan holda, nazorat turlariga ballar taqsimotini oʻzining oʻquv jarayoni xususiyatlaridan kelib chiqqan holda oʻqgartirishi mumkin. Lekin bu oʻzgartirishlar reyting tizimining asosiy maqsadlari boʻlmish oʻquvchilar bilim sifatini oʻzaro taqqoslash, ular oʻrtasida bellashish muhitini yaratish va guruhda, kursda, kolleжда hamda kollejlararo eng yaxshi oʻquvchini aniqlash imoniyatiga taʼsir qilmasligi kerak.

#### **§ 4.5. Oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimida taʼlim sifati monitoringini tashkillashtirish**

Oʻzbekistonda kasb-hunarga tayyorlash jarayonida ijtimoiy faol, maʼnaviy jihatdan boy ijodiy shaxsni shakllantirish uchun barcha sharoitlar yaratilyapti.

Zero, kadrlar tayyorlash Milliy dasturida ham shaxsning ustivorligi e'tirof etilgan. Shaxs – kadrlar tayyorlash Milliy modelining asosiy komponenti, ta'limning ob'ekti va sub'ekti, ta'lim xizmatlarining istemolchisi va ishlab chiqaruvchisi. O'zbekiston Respublikasining ta'lim siyosatida ma'lum darajasi «mutaxassis» tushunchasiga yaqinlashtirilgan ishchini Yangi «generatsiya» ni shakllantirishning mustahkam asoslari qo'yildi. Bu bilan o'rta maxsus, kasb-hunar ma'lumotiga ega, ijtimoiy jarayonlarga faol ta'sir ko'rsatishga qodir, mamlakat va oila taqdiri uchun mas'uliyatni his qiluvchi yuqori malakali mutahasislarni davlat miqyosida qayta tayyorlash dasturlashtirilmoqda.

Ta'lim sifati haqidagi masala har doim dolzarb bo'lgan va bu tushuncha uzoq o'tmishdan beri amaliy hamda ilmiy bilimlarda mavjuddir. An'anaviy kasbiy ta'lim pedagogikasida ta'lim sifatiga qo'yilgan talablar, mutahasisning kasbiy qiyofasi, bilimi, mahorat darajasi va uning muayyan aniq sohadagi mehnat faoliyati sifatida umumiy mulohazalar ko'rinishida e'tirof etilgan. Kasbiy – malaka nuqtai nazaridan u mutahasislar tayyorlash natijasi bilan tenglashtirilgan, ya'ni attestatsiyalash mezoni sifatida razryad, toifa, klass kabilar bilan belgilangan (masalan, 3-razryadli ishchi, 1-toifali mutahassis va shu kabilar).

Ko'pchilik ilmiy-uslubiy izlanishlar shuni ko'rsatdiki, ta'lim sifati ta'minlash muammosi bevosita uning monitoringini ishlab chiqish va amalga oshirish bilan bog'liq. Ko'p sonli ilmiy manbalarning tahlili asosida shu narsa aniqlandiki, ilmiy-pedagogik adabiyotlarda shu paytgacha «monitoring» tushunchasini aniqlash va ta'lim sohasida uni qo'llash chegarasi bo'yicha umumiy to'xtamga kelinmagan.

«Monitoring» tushunchasi lotincha «monitor»dan kelib chiqqan bo'lib, eslab turuvchi, kuzatilib boriluvchi, xatolarni oldini oluvchi ma'nosini anglatadi. «Monitoring» tushunchasi pedagogikada XVII asr XIX asrning boshlaridan boshlab Buyuk Britaniya, AQSh, Fransiya, Belgiya va Rossiyada ko'llanila boshlangan. Texnikaning rivojlanishi bilan ma'lum ko'rsatgichlarni nazorat qilishga mo'ljallangan priborlar «monitor» deb atala boshlandi, ularda berilgan doiradagi ma'lumotlar, teletasvirlar ko'rinishida saqlanish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Monitoring ko'p o'lchamli integral va tizimli tushuncha bo'lib, ta'lim sohasidagi monitoringning mohiyati o'ziga xos xususiyati va vazifasini yorituvchi quyidagi tushunchalar mavdud.

- **«Monitoring** – bu ob'ektlar, hodisalar, jarayonlar holatini baholash, nazorat qilish, oldindan bashorat qilish maqsadida maxsus tashkil etiluvchi muntazam kuzatish».
- **«Monitoring** - bu pedagogik tizim faoliyatidan olingan daliliy natijalarni uning maqsadiga nechog'lik mosligini ko'rsatuvchi, teskari aloqani ta'minlovchi mustaqil boshqaruvli vazifadir».
- **«Ta'lim monitoringi** – pedagogik tizim faoliyati haqida axborot yig'ishni tashkil etish, saqlash, qayta ishlash va taqsimlash tizimi, u kuzatilayotgan ob'ekt holatini va kelgusida uning rivojlanishini oldindan bashorat qilishga imkon beradi».

- **«Professiografik monitoring** – mutaxassis tayyorlash pedagogik jarayonining holati va rivojlanishi uchun maqbulroq ta’limiy vazifalar, shuningdek, metod va vositalarni tanlash maqsadida uzluksiz, ilmiy asoslangan, rejali-faoliyatli kuzatib borish jarayoni».
- **Pedagogik monitoring** – boshqaruvning mustaqil vazifasi, teskari aloqani ta’minlovchi va berilgan ko’rsatgichlarga ko’ra olingan natijalarning mushtarakligi haqida ta’lim muassasalari rahbarlari hamda o’quvchilarga muntazam axborot beruvchi tizimdir.
- **Ta’lim sifatining monitoringi** – bu ta’lim jarayoni va uning rivojlanish yo’nalishlarini uzluksiz ravishda nazorat qilib baholash va diagnostik-prognostik kuzatib borishga imkon beruvchi ilmiy asoslangan metoddir.

Ta’lim sifati monitoringining maqsadi - ma’lum belgilangan vaqt bo’yicha ta’lim oluvchi sifatini qat’iy belgilash va qayd etib borish, amalga oshirilayotgan Davlat ta’lim standartlarining me’yoriy ko’rsatgichlari bilan taqqoslash hisoblanadi.

Ta’lim sifati monitoringi quyidagi vazifalar bilan xarakterlanadi:

- axborot almashish – dastur va grafikka binoan ta’lim jarayoni natijalarini muntazam kuzatib borish. Ular asosida doimiy qayd etish, baholash va berilgan mezonlarga ko’ra jadvallar tuzish;

- tashkiliy - ta’limning maqbul maqsadlari va vositalarini tanlash haqida qaror qabul qilish uchun maqsadga muvofiq holda axborotlar yig’ish, ularni umumlashtirish, tizimlashtirish yoki pedagogik tizim rivojlanishini bashorat qilish;

- nazorat qilib baholash - o’tkazilgan pedagogik xatti-harakatlari samaradorligini tez nazorat qilib baholash hamda O’MKHT tuzilmasida pedagogik tizimning yakuniy maqsadlarini amalga oshirish;

- o’zgartirishlar kiritish – yuzaga kelgan holatning sabablarini tez izlab topish va aniqlashtirish, zarur paytlarda bajarilayotgan vazifaga o’zgartirishlar kiritish;

- tashxisiy – oldindan bashorat qilish (diagnostik) kasb-hunar kollejlarda yoki akademik litseylarda kadrlar tayyorlash jarayonlari va pedagogik tizimlarda kechayotgan o’zgarishlarni o’z vaqtida aniqlash, pedagogik tashxis qo’yish, sabab-oqibatli munosabatlarni o’rnatish va o’larni kelgusida rivojlantirishni tez bashorat etish.

Monitoringni muhim komponentlaridan biri ta’lim sifatini qayd etish hisoblanadi. Uni quyidagicha tasavvur etish mumkin: - qo’yilgan maqsad bilan olingan natijalarning munosabati (ta’lim, tarbiya); ko’zlangan maqsadga erishganlik darajasi.

Ta’lim sifati ta’lim jarayonining turli bosqichlarida qayd etilib borilishi zarur, ya’ni vaqt jihatdan baholanishi kerak: o’quv mavzusini o’rganish jarayonining boshida va oxirida; - o’quv ko’rsatgichini o’rganishdan oldin, oxirida va bevosita o’rganish jarayonida; ta’limning har bir bosqichida, o’quv yilida, yarim yillikda (semestrlarda), o’quv choragi davrining oxirida yoki boshida o’quv jarayonida va hokazo.

O'MKHT tizimida ta'lim sifati monitoringini kelgusida ishlab chiqarish va amalga joriy etish uchun quyidagi masalalarni majmuaviy echimini topish talab etiladi:

1. Mavjud muammolar va erishilgan yutuqlar tahlili asosida:

Buyurtmachilar (davlat, jamiyat, ish beruvchilar)ning ta'lim sifati va bitiruvchilar tayyorgarligiga qo'yilgantalablarni bashorat qilish; kelajakdagi ta'lim sifatiga bo'lgan talablarni loyihalashtirish va modellashtirish.

2. Ta'lim sifatlarining hayotiy ekanligini davlat ta'lim standartlariga mosligini aniqlash maqsadida tez rejali tashxislash.

3. Ta'lim natijalarining maqbulligiga erishishni ta'minlash.

4. Ta'lim sifati monitoringini kuzatish asosida buyurtmachilar talabiga mosligini aniqlash. Bu o'z navbatida davlat ta'lim standartlari va ta'lim texnologiyasiga o'zgartirishlar kiritish haqida qarorlar qabul qilishni ko'zda tutadi.

### **Kasb-hunar ta'limida ta'lim sifati monitoring va modeli**

Monitoringni yo'lga qo'yish uchun zarur bo'lgan shart-sharoit va asos ta'lim standartlari hamda kichik mutahassisning modeli hisoblanadi.

Ilmiy manbalarda «model» va «modellashtirish» tushunchalariga yaxlit va umume'tirof etilgan izoh berilmaganligi tufayli «modellashtirish» va ta'lim sifati monitoringining modelini quyidagicha ifodalash mumkin:

- **Modellashtirish – bu real mavjud pedagogik ob'ekt (hodisa, jarayon, tizimlarni model orqali bevosita bilish metodi);**
- Model faqatgina ob'ektni bilish usuli bo'lmay, balki belgilangan maqsadga erishishni ta'min etuvchi me'yoriy xatti-harakatlar usullari hamdir;
- Model abstrakt bo'lib monitoringning tuzilmaviy va funksional komponentlarini yoritib beruvchi mantiqiy asoslangan sxema shaklida ham loyihalashtirilishi mumkin.

Monitoringning bosh maqsadi ta'lim sifati dinamikasi va pedagogik tizim hoatini kuzatib borishdan iborat bo'lgani uchun uni operatsion algoritmi vositasida amalga oshirish mumkin: ma'lumotlar yig'ish, ma'lumotlarga teskari ishlov berish; umumlashtirish iva tizimlashtirish; ma'lumotlar bazasini tuzish; tahlil va baholash; rivojlantirish dinamikasi va yo'naltirishlarini aniqlash; apparatlarni tasvirlash.

Ta'lim sifati monitoringini to'g'ri va teskari jarayonlar orqali amalga oshirish mumkin.

**To'g'ri amalga oshirish jarayoni** – bosh maqsaddan mustaqil holdagi vazifalarni amalga oshirishga tomon boradi (pedagogik tizim holatini, ta'lim sifati dinamikasini kuzatib borish). Bu vazifalarning har biri o'zining ma'lum mazmuniga ega bo'lib, amaliy jihatdan yagona operatsion algoritm asosida amalga oshiriladi.

**Teskari jarayon** – iste'molchi olgan axborotdan ular tomondan qaror qabul qilishga va keyinchalik bajarilayotgan vazifalar, qo'llanilayotgan metod va vositalarga o'zgartirishlar kiritish yoki pedagogik tizim rivojlanishini bashorat qilish tomon kechadi.

Ta'lim sifati mezonlari

Pedagogik tashxis va oldindan bashorat etishga bag'ishlangan manblarning tahliliy va kasbiy ta'limdagi ish tajribalariga asoslangan holda ta'lim sifati monitoringini baholashda quyidagi ko'rsatgich mezonlarga e'tibor qilish maqsadga muvofiqdir:

**A. Ta'lim oluvchining ta'limiy rivojlanganligi:**

- o'quv predmetlari bo'yicha shakllangan bilim, ko'nikma va malakalar;
- natijalar davlat ta'lim standartlariga mos keladi;
- ta'lim muassasasida tuzilgan umumiy maqsadlarga mos umum o'quv bilim, ko'nikma va malakalarning shakllanganligi.

**B. Ta'lim oluvchilarning shaxsiy rivojlanganligi:**

- ta'lim muassasasi bitiruvchisi modeli bilan shaxsda shakllangan ijtimoiy muhim shaxsiy fazilatlarning o'zaro munosati kasbiy muhim shaxsiy fazilatlarni shakllanganligi;
- ta'lim muassasasi bitiruvchisining modeli mos keladi. Ta'lim oluvchilar sog'lig'ining kasbiy talablarga mos kelishi;
- Davlat ta'lim standartlari talablari va tibbiy ko'rsatgichlari bilan mutanosibligi – kasb tanlash va uning asoslarini egallash motivlarining shakllanganligi ta'lim muassasasi bitiruvchisini modeliga mos keladi;
- o'z-o'zini baholash, rivojlantirish va rejalashtira olish metodlarining egallanganligi.

**V. Ta'lim beruvchilarning kasbiy layoqatlighi** (kompetentligi): ta'limiy, ixtisoslik va yosh tavsiflari; pedagogik ish stoli; malaka oshirishda ishtiroki; mehnati va kasbiy o'sishining natijalari; innovatsion faoliyat va ijodiy yutuqlarning xarakteri; innovatsion faoliyat va ijodiy texnologiyaning xarakteri; amalga oshirilayotgan ta'lim texnologiyasining xarakteri.

**G. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasining infratuzilmasi:**

- tashkiliy tuzilmasi;
- boshqarish tuzilmasi;
- moddiy-texnik bazasi (o'quv kabinetlari laboratoriyalar, o'quv ishlab chiqarish binolari, jihozlari, texnik vositalari va shu kabilar bilan ta'minlanganligi);
- ta'lim muassasasining o'quv-metodik bazasi (darsliklar, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, pedagogik va axborot texnologiyalari bilan ta'minlanganligi);
- ta'lim muassasasining kommunikatsiyasi va kommunikativ vositalari (aloqa, elektron aloqa «internet» tizimi, va shu kabi kommunikativ vositalar).

**D. Ta'lim muassasa nufuzining ortishi.** Bu ko'rsatgich quyidagi mezonlarga binoan o'rnatiladi:

- ta'lim oluvchilar va ta'lim beruvchilarning ta'lim muassasasiga kelishi yoki ketib qolishi; ushbu ta'lim muassasasini o'quvchilar va ota-onalar tomonidan tan olinganligi; ijtimoiy muhitda ta'lim muassasasining statusi (tuman, shahar, viloyat, respublika miqyosida tutgan o'rni).

Demak, monitoring ta'lim jarayonini boshqarishning mustaqil vazifasi hisoblanadi, chunki monitoring o'lchashlar natijalari kelgusidagi boshqaruv



qarorlarini qabul qilinishiga asos bo‘ladi. SHu bilan bir vaqtda monitoring ta’lim jarayonining barcha vazifalari va bosqichlari bilan oraliq aloqadadir.

### **Ta’lim sifati pedagogik monitoring texnologiyasi**

Texnologik yondashuv zamonaviy pedagogikada metodologik tadqiqotlarning muqim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi va u pedagogik jarayonlarni tashkil etishda zaruriy bilish bosqichi va bajariladigan xatti-harakatlar ketma-ketligini aniqlab beradi. Uning vositalari orqali pedagogik tizim elementlari tahlildan jarayonlarni loyihalashtirish, ularni rostdash va boshqarishga o‘tish amalga oshiriladi. Umumiy ma’noda texnologiya qo‘yilgan maqsadga erishish uchun faoliyatni tashkil etish usuli sifatida qaraladi.

### **Pedagogik monitoring texnologiyasi:**

- ta’limiy faoliyat natijalarini tashkiliy va axborot vositalaridan foydalanib kuzatish jarayoni;
- qo‘yilgan maqsadga erishish jarayonlarini, loyihalashtirilgan ta’lim natijalariga erishish bo‘yicha pedagogik tizim va pedagogik harakatlar samaradorligini tezkor kuzatish;
- ta’lim sifatini standartlashtirilgan ko‘rsatgichlarini nazorat qilish va baholash bo‘yicha ish-harakat usullari va vositalarini o‘zida ifoda etuvchi hujjat.

**Pedagogik monitoring** – texnologik jarayonga xshash bo‘lib, u: tayyorlash, bevosita ijro etish va umumlashtiruvchi bosqichlardan iborat.

**I. Tayyorlov bosqichi** quyidagi vazifalarning echimini topishni ko‘zda tutadi: monitoring ob’ekti aniqlanadi. Monitoring ob’ektini kuzatishdan ko‘zlangan yakuniy natijalari va maqsadlari aniq ifodalanadi nazorat, o‘rganish, tadqiqot, chunki kelgusida bajariladigan ishlar mazmuniga bog‘liq. Monitoring obektining ko‘rsatgichlari va mezonlarini aniqlanadi. Axborot yig‘ish, ularga ishlov berish metod va vositalari amalga oshirish mexanizmi tanlanadi, o‘lchashlar chastotasi va xronologik o‘lchash doirasi o‘rnatiladi. Axborot yig‘ib ularga ishlov beruvchi shaxslar, bajaruvchilar tayinlanadi. Olingan axborotni iste’molchilari aniqlanadi.

Imkon boricha monitoringni ta’minlovchi kompyuter dasturi ishlab chiqiladi. Axborot texnologiyalarini keng ko‘lamda qo‘llanilishi quyidagilarni ta’minlaydi:

- monitoring ob’ektini muntazam yoki rejaga binoan kuzatishni;
- eng muhim resurs bo‘lgan vaqtni tejashni;
- katta hajmdagi axborotni tezkor yig‘ish, tahlil etish va oshirish grafigi ishlab chiqiladi.

**II. Ijro etish bosqichi.** Bu quyidagi ketma-ket harakatlarni o‘ziga qamrab oluvchi monitoring jarayonidir:

Dalillarni qayd etish. Tanlangna metod va vositalar yordamida ma’lumotlar yig‘ish. olingan natijalarga tezkor miqdoriy va sifat ko‘rsatgichlari bo‘yicha ishlov berish.

**III. Umumlashtiruvchi bosqich.** Bu monitoringning yakuniy bosqichi bo‘lib, uning operatsiyalarini bajarilish tartibi quyidagicha bo‘ladi: Axborotlarni

umumlashtirish va tizimlashtirish. Barcha o'lchashlar natijasiga binoan ma'lumotlar bankini (bazasini) yaratish. Monitoring ob'ekti holatini o'zgartirish va dinamik rivojlanishini aniqlash. Sabab-oqibatli bog'liqlikni o'rnatish va tahlil etish orqali tizim (jarayon) holatini belgilash. Yaxlit pedagogik tizimni, to'liq jumladan amalga oshirilgan xatti-harakatlarni baholash. Erishilgan haqiqiy yutuqlari (natija)ni aniqlash.

Olingan ma'lumotlarning vazifasi iste'molchi tomonidan qo'yilgan masalalarni strategik yoki taktik jihatdan maqbul echimni topishni ta'minlash yoki u quyidagilar bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin:

- bajarilayotgan vazifaga kerakli hollarda o'zgartirishlar kiritishni aniqlash. Pedagogik tizimga to'liq va pedagogik xatti-harakatlarga hususiy hollarda o'zgartirishlar kiritish;
- pedagogik tizim va pedagogik xatti-harakatlarni kelgusidagi rivojlanishni oldindan bashorat etish;
- ta'limning maqbul maqsadlari va ularni amalga oshirish vositalarini tanlash.

Monitoringni bosqichli loyihalash va amalga oshirish texnologiyasini amalga oshirish uchun kasb-hunar kollejlari uchun ta'lim sifati monitoringining grafisini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

### **Ta'lim sifati monitoringini amalga oshirish shart-sharoitlari**

Ta'lim sifatida monitoringni amalga oshirish shart-sharoitlariga: monitoringning ilmiy axborot ta'minoti: monitoringning tashkiliy-texnik ta'minlanganligi: monitoringning tashkiliy-texnologik jihatdan ta'minoti: monitoringning tashkiliy-metodik ta'minoti va monitoringning tashkiliy-analitik ta'minotlari kiradi.

Monitoringning ilmiy-axborot ta'minoti **qo'yidagilarni o'ziga qamrab oladi:**

- aniq tayyorlov yo'nalishlari bo'yicha kasb-hunar kolleji bitiruvchisi shaxsining pedagogik modelini ishlab chiqish;
- abituriyentlarning umumta'lim predmetlari bo'yicha kasb-hunar sirlarini o'zlashtirish uchun tayanch bilimlarini oldindan tashxislash testlarini ishlab chiqish;
- bitiruvchi shaxsi modeli bilan ta'lim oluvchining shaxsiy rivojlanganlik ko'rsatgichlarini mosligini, ularning kvalimetrik o'lchash metodlari va baholash;
- ta'lim oluvchilarning psixo-fiziologik sifatleri va sog'lig'ini kasbiy talablar ko'rsatgichiga to'g'ri kelishi;
- kollejlarda 3 yil davomida o'qitish davrida o'quvchilarning o'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini tarbiyalash shaxsiy xaritalaridan foydalanishi;
- kasb-hunar kollejlari pedagoglari uchun ta'lim sifati monitoringini amalga oshirish bo'yicha metodologik tavsiyalar;
- ta'lim oluvchilar va bitiruvchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi hamda shaxsiy fazilatlarini DTS va pedagoglarning kasbiy layoqati, o'quv mashg'ulotlarining zamonaviy texnologiyaga mosligi.

**Monitoringning tashkiliy- texnik ta'minlanganligi:**

- blankalar, anketa-so'rovnomalari kuzatish varaqalari, shaxsiy so'rovnomalar, testlar, ekspert varaqalari, umumiy natijalar jadvallari va shunga o'xshash monitoringda qo'llanadigan materialni ko'paytirish;
- monitoring natijalariga ishlov berishning kompyuter dasturlarini ishlab chiqish.

**Monitoringni tashkiliy-texnologik jihatdan ta'minoti** o'ziga quyidagilarni qamrab oladi:

- kollejlarda uchun monitoring dasturi ta'lim maqsadlari va kadrlar tayyorlashga qo'yiladigan DTS talablariga mos holda ishlab chiqish.
- kollejlarda pedagoglarini ularning malakasini oshirish va kasbiy layoqatini rivojlantirish tarzida monitoring texnologiyasini o'rgatish.
- «ta'lim beruvchi-ta'lim oluvchi», «ta'lim oluvchi-ta'lim muassasalari» darajasida kasbiy ta'limning operatsion berilgan maqsadini qo'yish va ularni O'MKHTning me'yoriy hujjatlarida tasdiqlash;
- kasbiy ta'limning operatsion - berilgan maqsadlarini (o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish) o'quv-tarbiyaviy jarayonda amalga oshirish;
- qo'yilgan maqsad bilan ta'lim sifati monitoringi jarayonida mushtarak borishini mushtarak holda kuzatibborish va natijalarni baholash;
- ta'lim jarayoni natijalari va ta'lim sifati haqidagi ma'lumotni iste'molchilarga (rahbariyat, o'qituvchilar, ijtimoiy hamkorlarni ish beruvchilar, ota-onalar va boshqalar) zarur holatda rasmiylashtirish hamda taqdim etish;
- quyidagilar bo'yicha dastur va tadbirlar ishlab chiqish: bajarilayotgan ishga o'zgartirishlar kiritish, pedagogik tizimning rivojlanishini oldindan bashorat qilish, maqbul ta'lim maqsadlari va ularni amalga oshirish vositalarini tanlash;
- monitoringni amalga oshirish masalalari bo'yicha kollejlarda o'quvchilariga maslahatlar berish va ularni tayyorlash;

Monitoringni tashkiliy-metodik ta'minoti quyidagilarni ko'zda tutadi:

- kasb-hunar kollejida ta'lim sifati monitoringini amalga oshirish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish va amalga joriy etish;
- ta'lim jarayoni natijalari haqida axborot yig'ish, tahlil qilish umumlashtirish, tizimlashtirish va ularga ishlov berish va iste'molchilarga axborot tayyorlash bo'yicha doimiy harakatdagi tizimni ishlab chiqish va amalga joriy etish;
- kollejdanda har bir tayyorlov yo'nalishga ta'limning ma'lum davrida (semestr, yarim yillik, yil) ta'lim sifatiga o'kiritishni. Pedagogik tizimni rivojlantirish va bashorat etish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish va amalga joriy etish.

Monitoringni tashkiliy - analitik ta'minotida quyidagilarni bajarish lozim:

- kasb-hunar kollejlarda bo'lajak kichik mutahassislar tayyorlash jarayonida va pedagogik tizimlarda sodir bo'layotgan o'zgarishlar dinamikasini ifodalovchi kompyuter axborotlar bankini tuzish;
- pedagogik tizim amalga oshirish jarayonida o'zining yakuniy maqsadlarini to'la amalga oshirilayotganligini va o'tkazilayotgan pedagogik jarayon samaradorligini tahlil qilish;

- ta'lim jarayoni va rivojlanish yo'nalishlarini ta'minlovchi pedagogik tizimni bashorat qilish;
- ta'lim sifati va kollejlarning bitiruvchilari tayyorgarligiga tashqi buyurtmachilar tomonidan (davlat, jamiyat ish beruvchilar) qo'yilgan istiqboldagi talablarni bashorat qilish;
- ta'lim jarayoni oxirida «chiqish»da kelajakda talab etiladigan ta'lim sifatini shuningdek, bitiruvchi sifat va fazilatlarini loyihalashtirish va modellashtirish.

Yuqorida bayon etilganlarga asoslanib quyidagicha xulosa chiqarish mumkin:

1. Monitoringni pedagogik tajribada sinash natijasida olingan ijobiy natijalari ta'lim sifatini baholash uchun tanlangna ko'rsatkichlari va baholash mezonlarini to'g'ri tanlanganidan, shuningdek ta'lim sifati monitoringi operatsion algoritmi va texnologiyasini haqiqiyliigi va amaliyligidan dalolat beradi.

2. Ta'lim sifati ko'rsatkichlarini va ularni baholashda aniqlangan ba'zi salbiy natijalar va kasb-hunar kollejlariningpedagoglari monitoring maqsad va vazifalarini amalga oshirishning layoqatga etarli darajada ega va tayyor emasligini ko'rsatadi.

3. Ta'lim sifatining maqbul darajasini ta'minlovchi omillar majmuasining nazariy tahlilitajriba-sinov natijalariga asoslanib ta'kidlash mumkin, agarda biz tomondan ifodalangan qator tashkiliy-pedagogik shartlarga amal qilinsa kasb-hunar kollejlarida to'laqonli ta'lim sifati monitoringni amalga oshirish mumkin, chunki, nazariy tahlil va tajriba-sinov natijalariga asoslanib aytish mumkinki, yuqoridagi omillar majmuasi ta'lim sifatining maqbul darajasini shaksiz ta'minlaydi.

#### **Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi qonuni.-T.: 1997.
2. O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida» gi qonuni.-T.:1997.
3. Abduhaliqov T. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida ta'lim sifati monitoringini tashkillashtirish ilmiy-pedagogik asoslari. Nomzodlik dissertatsiyasi.-T.: O'MKHTRI,2003
4. Abduhaliqov T. Kasb-hunar ta'limida ta'lim sifati monitoringi.-T.:MRI,2003.
5. Daujanova T. Kasb-hunar ta'lim muassasalarida tajriba-sinov ishlari monitoringi». Kasb-hunar ta'limi» ilmiy-metodik jurnal. 2000, №9.
6. Mayorov A.N. Monitoring v obrazovatelnom SPb.: obrazovaniya-kultura,1998.
7. Pedagogicheskiy monitoring: proektirovanie i realizatsiya.-T.: IRSSPO, 2001

## V-BOB. MEHNAT VA KASB TA'LIMI O'QITUVCHILARINING PEDAGOGIK MAHORATINI OSHIRISH USULLARI

### § 5.1. Pedagogik mahorat manbalari va uslubiy ishlarni tashkil qilish

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida o'quv tarbiyaviy jarayonni takomillashtirish natijasida barkamol, malakali mutaxassislarni tayyorlash, ularni raqobatbardosh, etuk bo'lib etishishlarida ta'lim muassasalarida olib boriladigan, amalga oshiriladigan uslubiy ishlar muhim o'ringa egadir. Uslubiy ishlar ta'lim tarbiya jarayoni bilan shug'illanadigan har bir o'qituvchi muhandis-pedagog, rahbar hodimlarning o'z malakalarini oshirishda katta ahamiyatga egadir. Chunki, kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta'kidlangandek davr talabiga javob beradigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun avvalambor ta'lim tarbiya bilan shug'ullanuvchilarning o'zlari etuk, yuqori malakali bo'lishlari shart. Bu talabga javob berish uchun har bir o'qituvchi, injener-pedagog, rahbar uslubiy ishlar bilan shug'illanishi va ularda qatnashishi zarur.

O'quv-tarbiya jarayoni ilmiy-uslubiy jihatdan ta'minlash masalalaridan biri bo'lib **ta'lim mazmunini** takomillashtirish masalasi turadi. Chunki, ta'lim mazmuni o'quv reja, dasturlar, davlat hujjatlari bo'lib, ularni takomillashtirib borish va to'la-to'kis amalga oshirish natijasida ko'zlangan maqsadga erishish mumkinligi sababli bu masala uslubiy ishlarda asosiy bo'lib xisoblanadi.

Bizga ma'lumki, kadrlar tayyorlash milliy dastur qabul qilingandan so'ng, ta'lim tizimida yangi bo'g'in o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi paydo bo'ldi va hozirgi kunda 500 dan ortiq kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar tashkil qilindi va faoliyat ko'rsatmoqda.

1998-2004 yillar ichida bu o'quv muassasalarida 280 dan ortiq tayyorlov yo'nalishlari bo'yicha kichik mutaxassislarni tayyorlash amalga oshirilmoqda. Bu tayyorlov yo'nalishlar bo'yicha o'quv rejalar va dasturlar tayyorlangan bo'lib, ular tajriba-sinovdan o'tmoqda. Bu o'quv rejalarida umumta'lim fanlar, maxsus fanlar, umumkasbiy fanlar, ishlab chiqish ta'limi amaliyoti ko'rsatilgan bo'lib, ularni takomillashtirishda uslubiy ishlarni amalga oshirilishi katta ahamiyatga egadir.

Metodik ishlar o'quv muassasalaridagi o'quv tarbiyaviy jarayonning holatini o'rganish, ilg'or pedagoglar tajribasini o'rganish, ularni hayotga tadbiiq etish orqali amalga oshiriladi.

O'quv muassasasining muhandis-pedagoglarning faoliyati faqatgina nazariy va amaliy bilimlar berish ya'ni darslar o'tish bilan cheklanib qolmaslik ular faoliyatida har bir o'quvchi bilan shaxsiy ishlash, o'z ustida mustaqil ishlash, o'quvchilar guruxi bilan ishlash, o'z fani bo'yicha tashkiliy ishlarni olib borish, kabinet, laboratoriya, o'quv ustaxonalarini tashkil qilish va jihozlash, ota-onalar bilan ishlash, fanlar bo'yicha uslubiy komissiyalar ishida qatnashish va hokozolar bilan bog'liq.

Muhandis-pedagoglarning o'quvchilar guruhi bilan ishlash, ularning ishlarini tashkil qilish va ko'zlangan maqsadga erishish uchun o'z ustida har doim tinimsiz ishlashi kerak, buning uchun ular bilimni oshirib va takomillashtirib borish zarur.

Chunki, oliy bilim dargohida olgan bilimlari etarli bo'lmay qoladi. Bu o'z ustida ishlashlar, izlanishlar, yaratishlarning asosida uslubiy ishlar yotadi. Shuning uchun ham muhandis-pedagoglardan o'z mustaqil ishlarini tashkillashtirishda, ularni ilmiy asosida tashkil etish lozim.

Ma'lumki, o'quv muassasalarida o'quv tarbiyaviy jarayoni ta'limiy, tarbiyaviy jarayon bilan chambarchas bog'langan. Shuning uchun ham muhandis-pedagoglar o'z ishlarini ilmiy asosida tashkil etishda ularning quyidagi tarkibiy qismlari (elementlari) tadbirlarini amalga oshirish zarur:

-o'quv jarayonida o'quvchilarni davr ruhida g'oyaviy saviyasini oshirish, ularda milliy istiqlol g'oyalarini shakllantirish;

o'quv jarayoniga fan va texnikaning sifat yutuqlarini joriy etish;

-o'quv jarayonini tashkil qilish shakllarini maqbullashtirish, ya'ni dars turlarini qo'llash (dars, birlashgan darslar) ilg'or ishlab chiqarish ustalari bilan birgalikdagi darslar;

-ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarishni maqbullashtirish (o'quvchilarda bilimga bo'lgan chanqoqlik, qiziqishlarni boshqarish, tashkillashtirish);

-o'quv jarayonini texnikaviy ta'limotini maqbullashtirish; o'qituvchi va o'quvchi mehnat sharoitini maqbullashtirish.

### **Pedagogik mahorat va uning tarkibiy qismlari**

Ta'lim muassasasining pedagog va muhandis-pedagoglarning kasbiy mahoratini takomillashtirishda imkoniyatlari nihoyatda ulkan. Ammo ularni yagona maqsadga yo'naltirish, ular faoliyatini o'zaro muvofiqlashtirish ta'lim muassasasi rahbaridan chuqur bilim va tajribani talab qiladi.

Pedagog kadrlarni malakasini oshirish tizimida ta'sirchanligi va ularga yaqinligi, vaqt, kuchni, moddiy resurslarni iqtisod qilish hamda boshqa jihatlardan qulaylik bilan ajralib turgani o'z ish joylarida, ya'ni ta'lim muassasida malaka oshirishdir. Ta'lim muassasasida pedagoglarning kasbiy mahoratini oshirish o'z ichiga quyidagilarni oladi: metodik ishlar, ishlab chiqarish kengashlari; ilmiy-amaliy seminar, konferensiyalar; pedagogik o'qishlar; umumta'lim fan va maxsus fanlar metodik komissiyalari; ilg'or tajribalarni o'rganish, umumlashtirish va ommalashtirish; darslarga kirish va tahlil qilish; ochiq ko'rgazmali darslar tanlovlar, chet ellar bilan hamkorlik; kompyuter va axborot, informatsion-texnik vositalar orqali bilim, tajriba o'rganish va masofada malaka oshirish, kollej rahbarlarining pedagoglar bilan yakka va jamoaviy metodik ishlari va boshqalar. Bu tizimning buncha ko'p qirraligi pedagog kasbining murakkab va jamiyatda muhim ijtimoiy ahamiyatga molikligidan dalolat beradi.

Pedagog mahorat rus tili lug'atida «biror sohada mohirlik darajasi» deb talqin etiladi.

Pedagog mahorat tushunchasiga yagona ta'rif ham yo'q, chunki ba'zi mualliflar bu fazilat – pedagogning yagona xususiyatlari deb hisoblashsa, boshqalar bu bilim, ko'nikma, malakalar ekanligini aytadi, uchinchilari-bu ikkalasini birlashtiradi, xususiyatlarini aytsa, boshqa hollarda faoliyatni amalga oshirish darajasini aytadi va hokazo.

Pedagog mahoratining asosi ilk davridayoq pedagogning tegishli bilim yurtida tayyorgarligida shakllanadi. Shuning uchun mahorat asosi bo'lib, yuqori kasb mahoratining zarur, ammo etarli bo'lmagan sharti hisoblanadi.

Ta'lim muassasasida ishlashning birinchi yilidanoq pedagog tajribaning intensiv shakllanishi boshlanadi, uning boshi pedagog amaliyot davriga to'g'ri keladi. Aynan pedagog faoliyat tajribasi pedagog oliy o'quv yurti bitiruvchisi ta'lim mobaynida olmagan narsalarini to'ldiradi va mujassamlashtiradi. Unda kasbiy-pedagog faoliyatini amalga oshirish tajribasi, ijodiy faoliyat tajribasi, shaxs fazilatlarini namoyon etish tajribasi birlashtiriladi va uyg'unlashtiriladi. Amaliy pedagog faoliyat jarayonida barcha olingan bilimlar takomillashadi, shaxs fazilatlarini va pedagogik qobiliyatlar rivojlanadi, kasbiy ko'nikma va malakalar shakllanadi. O'z malakasiga ko'ra mohir pedagog darajasiga ko'tarilguncha bir necha yil o'tadi.

Pedagogning bilim, ko'nikma va malakalari pedagogik mahorati asoslarining tarkibiy qismi sifatida 2 darajada bo'lishi mumkin.

Kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorgarlik jarayonida va kasbiy pedagogik faoliyat jarayonida egalangan-pedagogik tajriba jarayonida.

Ya'ni birinchi holda pedagog oliy ta'lim muassasalarida o'qish paytida olingan boshlang'ich pedagogik tajriba bo'lishi mumkin, ikkinchi holda kasb-amaliy kasbiy pedagogik faoliyat jarayonida olingan pedagogik tajriba bo'ladi.

Albatta, birinchi daraja qancha yuqori bo'lsa, ikkinchisiga erishish oson, pedagogik mahoratga erishish qisqa bo'ladi.

Shakllanishi lozim bo'lgan pedagog mahorat poydevori quyidagi asosiy tarkibiy qismlarni qamrab oladi: pedagogning shaxsi, bilimlari va pedagogik tajribasi, bunda har bir tarkibiy qism o'zlashtirilishi mumkin. Demak pedagog mahorat asoslari har bir pedagogda shakllantirilib, pedagog mahorat darajasiga ko'tarilishiga imkon beruvchi negizni yaratib berishi mumkin.

Amaliy faoliyatda amalga oshiriladigan pedagogik mahorat asoslari kasbiy etuklikning belgisidir.

Pedagog mahoratining to'rtta mustaqil elementini ajratib ko'rsatish mumkin:

- O'quvchilar jamoaviy va shaxsiy faoliyatini tashkil qila olish mahorati;
- Ishontirish mahorati;
- Bilimlarni berish va faoliyat tajribasini shakllantirish mahorati;
- Pedagogik texnikani egallash mahorati.

*Demak, pedagogik mahorat faoliyat rivojlanishining, pedagogik texnologiyani egallashning yuqori darajasini ifodalab, shu bilan birga pedagogning umuman shaxsini, uning tajribasini, fuqarolik va kasbiy o'rnini ham ifodalaydi.*

### **Pedagogik mahoratga erishish usullari:**

Pedagogik mahoratga erishish usullariga quyidagilar kiradi:

1. Malaka oshirishning turli shakllarida ta'lim olish;
2. Mustaqil ravishda o'z pedagogik bilimlarini oshirish;
3. Ilg'or pedagogik tajribalarini o'rganish va ulardan foydalanish;
4. Shaxsiy pedagogik tajribani tahlil etish va umumlashtirish;
5. Metodik hay'at, sho'ba va birlashmalar ishida ishtrok etish;

6. Ochiq darslarga kirish va udlarni tahlil etish, o‘zaro darslarga kirish;
7. Pedagogik o‘qishlar, konferensiyalar va seminarlar ishida ishtirok etish;
8. Pedagogik murabbiylik;
9. Metodik ishlanmalar tayyorlash va boshqalar.

#### Pedagogik mahoratni oshirish manbalari

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari pedagog kadrlari amalga oshiradigan uslubiy ishlari juda xilma-xil bo‘lib, ularning quyidagi turlari mavjud:

- Jamoaviy uslubiy ishlar: pedagogik kengash, pedagogik o‘qish, uslubiy komissiyalar, ilg‘or pedagogik tajribalar, muammoli seminarlar, ilmiy amaliy konferensiyalar.
- Yakka tartibdagi (shaxsiy) uslubiy ishlar: rahbar, pedagog va tarbiyachikdrlarining mustaqil uslubiy ishlari; rahbar, pedagog, tarbiyachi kadrlarining o‘z ustida mustaqil ishlashi; rahbarlarning pedagog kadrlar bilan yakka tartibdagi uslubiy ishlari.
- O‘quv-uslubiy (pedagogika) xonasi.

#### **O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi o‘quv muassasalaridagi uslubiy ishlar tizimi**

O‘quv muassasalarida bajariladigan uslubiy ishlarning asosiy vazifalari quyidagilar:

-o‘quv muassasasi muhandis-pedagoglarning g‘oyaviy siyosiy, pedagogik malakasi va kasbiy mahoratini oshirish;

-o‘quvchilarni davr talabida tarbiyalash va ta’lim mazmuni, shakli va uslublarini takomillashtirish;

-ta’lim-tarbiya birligini ta’minlash va umumlashtirish hamda kasbiy tayyorgarlikdagi o‘zaro birligini ta’minlash;

-o‘quv jarayonini takomillashtirish bo‘yicha ilg‘or pedagogik, ishlab chiqarish va fan texnika yutuqlarini o‘rganish, umumlashtirish va tadbiiq etish;

-ilmiy uslubiy ishlarini amalga oshirish yo‘l-yo‘riqlarini o‘rganish va amalga oshirish.

Ilmiy uslubiy ishlar muhandis-pedagoglarning faoliyatining tarkibiy qismi bo‘lib, uni bajarish o‘quv muassasasi pedagog hamkorlarining hammasi bajarishi shartdir.

Shunday qilib, pedagog faoliyati ilmiy asosida tashkil etish deganda o‘quvchilarning, muhandis-pedagoglarning ish sharoitini yaxshilash, o‘qitish tashkil qilishni va usullarini takomillashtirishni, bunga fan va texnika yutuqlarini tadbiiq etish, o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishni ta’minlash, tarbiyani shakllantirishga qaratilgan uslubiy va tashkiliy majmualar tadbirini tushunamiz.

#### **Uslubiy ishlar mazmuni**

O‘quv muassasalarida amalga oshiriladigan uslubiy ishlar ikki turga bo‘linadi: jamoaviy va shaxsiy.

**Jamoaviy uslubiy ishlarni** o‘quv muassasalaridagi: pedagogik kengash (ped. sovet), uslubiy komissiyalar, ilg‘or pedagogik va amaliy tajribalar manbai,



muammoli seminarlar, ilmiy-amaliy konferensiyalar (anjumanlar), pedagogik o'qishlar orqali amalga oshiriladi.

**Shaxsiy uslubiy** ishlarga o'quv muassasalardagi har bir o'qituvchiga injener-pedagog, ustalarning o'z malakalarini oshirish ustida olib borilayotgan tinimsiz mehnati tushuniladi.

Uslubiy ishlar asosan dars berishda o'quv jarayonini takomillashtirish, unga yangi usul va vositalarni qo'llashni amalga oshirishni mo'ljallangandir.

O'quv muassasidagi keng qirrali va xilma-xil uslubiy ishlarni o'quv muassasidagi o'quv ishlari bo'yicha direktor muovini tashkillashtiradi. Ya'ni, o'quv muassasi bo'yicha uslubiy ishlar rejasini tuzadi, ammo umumiy rahbarlikni direktor olib boradi.

### **Uslubiy ishlarning asosiy vazifalari:**

- o'quv muassasidagi o'qituvchilar, ishlab chiqarish ustalari, injener-pedagoglarning pedagogik malakasini g'oyaviy-siyosiy darajasini, kasbiy mahoratini oshirish;
- o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishning yangi zamonaviy usullarini o'quv jarayoniga qo'llash;
- o'quv jarayoniga ilg'or pedagogik va ishlab chiqarish tajribalarini qo'llash, umumlashtirish, tanishish va boshqalar.

### **Jamoaviy uslubiy ishlar mazmuni va tashkil qilish.**

1. Pedagogik kengash (ped. sovet). Pedagogik kengash o'quv muassasining asosiy organi bo'lib, u o'quv muassasidagi asosiy masalalarni muhokama etish, xulosalar qabul qilish uchun tuzilgan bo'lib, «Pedagogik kengash haqidagi Nizom» asosida faoliyat ko'rsatadi, va yillik plan asosida ish yuritadi. Pedagogik kengash ish rejasida asosan quyidagi masalalar yoritiladi va amalga oshiriladi: o'quv muassasasi pedagog jamosining o'tgan davrda bajarilgan ishlar natijasi va oldinda turgan vazifalar; uslubiy ishlar rejasi va xodimlarning malakasini oshirish, ustalarning tarbiyaviy ish rejasi, yarim yillik, yillik imtihon natijalari; ta'til vaqtlarida o'quvchilar bilan sport ishlarini tashkil etish; biblioteka holati; ishlab chiqarish amaliyoti natijalari va boshqa ko'p masalalar pedagogik kengash ishida yil mobaynida tasdiqlanadi va har oyda bir marta o'tkaziladi. Pedagogik kengash ish rejasidagi har bir masala bo'yicha ma'sul xodim tayinlanadi va u bu masalani kengashga tayyorlaydi, kerak bo'lsa, bu masalani tayyorlashga boshqalarni ham jalb qilishi mumkin.

Pedagogik kengash qarorini rais-direktor va kotib qo'l qo'yib tasdiqlaydi. Kengash qarorining bajarilishini direktor va uning o'quv ishlari bo'yicha muovini nazorat qilib boradi.

Pedagogik kengash xujjatlari: ish rejasi, bayonnomalar, ma'ruzalar va qarorlar direktor muovini saqlanadi.

## Uslubiy komissiyalar:

Uslubiy komissiyaning asosiy vazifasi o'quv-tarbiyaviy jarayonni takomillashtirish, o'qituvchilarga, injener-pedagoglarga, ustalarga amaliy-uslubiy yordam berishdir.

O'quv muassasida uslubiy komissiyalar, tayyorlov yo'nalishlari, fanlar bo'yicha va amaliyotlar bo'yicha tashkil qilinishi mumkin. Uslubiy komissiya tarkibi va soni pedagogik kengash tavsiyasiga ko'ra direktor buyrug'i bilan tayinlanadi. Uslubiy komissiya tarkibiga malakali o'qituvchilar, ustalar kiradi.

O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi va o'quv muassasalarida fanlar bo'yicha uslubiy komissiya tuziladi: fizika va elektrotexnika; ximiya va biologiya; o'zbek va rus tili; tarix va boshqalar, umumkasbiy fanlar, maxsus fanlar, ishlab chiqarish ta'limi va boshqalar. Ba'zi hollarda uslubiy komissiyalar tuzishi mumkin fanlarni guruhlantirish bo'yicha, misol uchun, tabiiy fanlar: fizika, ximiya, biologiya; gumanitar fanlar, maxsus fanlar va hokazo.

Uslubiy komissiyalar o'z fanlari, sikl fanlari bo'yicha o'quv jarayonini tashkil qilish, yangiliklarni dars jarayonida tadbqiq etish, o'qitish uslub, vositalarini takomillashtirish, nazariyani amaliyot bilan bog'lash, fanlarning ketma-ketlikda o'tishini belgilash, o'quv uslubiy materialini muhokama qilish va o'quv dasturini o'rganish, takomillashtirish, ishlab chiqarish ishlar ro'yxati va ishlab chiqarish texnologik xujjatlar hamda nazorat ishlari mazmunini tahlil etish, texnik vositalardan samaradorli foydalanish va boshqa muammolar bilan shug'ullanadi.

**Pedagogik kengash** muassasasining o'quv jarayoni va uslubiy ishlarini muhokama etib qaror qabul qiluvchi kengashdir.

Pedagogik kengash a'zolari: muassasasi direktori (rais); uning muovnlari, o'quv bo'lim mudiri, uslubiy komissiya raislari va etakchi muhandis-pedagoglar, katta ustalar, kasaba birlashmasi va yoshlar ittifoqi raislari, ilmiy tadqiqot instituti va ishlab chiqarish korxonasi dan etakchi mutaxassislar. Bu tarkibdagi kengash a'zolari ko'riladigan masalalarni, ya'ni o'quv-tarbiyaviy jarayon masalalarni, o'quv ishlab chiqarish jarayoni hamda uslubiy ishlarga oid muammolarni hal qiladi va tavsiyalar qabul qiladi.

Pedagogik kengashning asosiy uslubiy funksiyasi o'quv muassasida uslubiy ishlarni takomillashtirish bo'yicha asoslangan tavsiyalar qabul qilish, kasbiy malakalarini oshirish ish rejalarini tasdiqlash va xakozolar.

Pedagogik kengash o'z faoliyatini ilm o'quv muassasasining uslubiy ishlar ish rejasi asosida amalga oshiradi.

Pedagogik kengashning hamma a'zolari o'quv-tarbiyaviy jarayonga, uslubiy ishlarga oid masalalarni uning ish rejasiga taklif etishi mumkin.

Pedagogik kengashning qarori o'quv muassasasi direktori tomonidan tasdiqlangandan so'ng kuchga kiradi va qarorni hamma bajarishi shart.

**Metodik kengashlar**-bu jamoaviy uslubiy ish turi bo'libina qolmay balki alohida muammolarni hal etishni o'z ichiga oladi (pedagogik, uslubiy).

**Metodik kengashlarning**-instruksiyali, axborotli va hisobotli turlari mavjud.

**Ilmiy-amaliy konferensiyalar** - o'qituvchilar tomonidan va boshqa mutaxassislarni jalb qilgan holda o'quv tarbiyaviy jarayonni takomillashtirishga mo'ljallangan mavzu bo'yicha qilingan nazariy va amaliy ishlar natijasining muhokamasi, qaror, tavsiyalar qabul qilish.

**Pedagogik o'qishlar** - ilg'or pedagogik tajribalarni aniqlash, umumlashtirish va tadbiq etish maqsadida o'tkaziladi hamda o'quv tarbiya jarayonini takomillashtirishga oid masalalarni muhokama qiladi.

Pedagogik o'qishlar tashkil qilishda o'quv muassasalarida ko'rgazmalar tashkil qilish maqsadga muvofiqdir. Didaktik vositalar o'quv uslubiy qo'llanmalar o'quvchi ish rejalaridan namunalar, darslar rejasi, konspekti, uslubiy qo'llanmalar va boshqalar.

Pedagogik o'qish jarayonida tashkiliy ko'lamda eng yaxshi ma'ruza tanlab olib uni tuman, viloyat pedagogik o'qishlarga tavsiya etiladi va chop etishga tavsiya etiladi.

Ilg'or pedagogik tajriba-asosan o'quv muassasasi muhandis-pedagoglarning pedagogik mahoratini oshirishga qaratilgan bo'ladi. Bu ilg'or pedagogik tajribalar o'quv muassasasida va yana boshqa joyda o'rganilishi va oshirilishi mumkin.

**Muammoli seminarlar** – bu seminarlarning asosiy vazifasi ba'zi muammolarni chuqurroq o'rganish bo'lib, bunda muhandis-pedagoglar, ustalar ma'ruzalar o'qishadi va muhokama qilinadi.

**Uslubiy komissiyalar**-o'quv muassasasida fanlar, ya'ni bir-biriga yaqin fanlar bo'yicha eng kamida beshta muhandis-pedagog va usta bo'lgan taqdirda tuzilishi mumkin, ba'zi hollarda chilangarlik, metallarga ishlov berish mutaxassislari bo'yicha ham tuzilishi mumkin.

Agarda o'quv muassasasida bitta fandan 3 dan ortiq muhandis-pedagoglar bo'lsa fan bo'yicha ham tuzilishi mumkin. Masalan: materialshunoslik, matematika, fizika va boshqalar. Uslubiy komissiya raislari eng tajribali o'qituvchi, ustalardan shakllanadi.

Uslubiy komissiyalar o'z fanlari, maxsus fanlari bo'yicha o'quv jarayonini tashkil qilish, yangiliklarni dars jarayonida tadbiq etish, o'qitish, uslubiy vositalarini takomillashtirish, nazariyani amaliyot bilan bog'lash, fanlarning ketma-ket o'tilishini belgilash, o'quv uslubiy materiallarni muhokama qilish va boshqalar bilan shug'ullanadi.

Fanga oid muammolarni uslubiy komissiyalar hal qiladi. Ya'ni ular: o'quv muassasalarini o'rganish, takomillashtirish, ishlab chiqarish ro'yxati va mahsulotlar ishlab chiqarish texnologik xujjatlari; nazorat ishlari mazmunini tahlil etish, o'quvchilarning o'zlashtirishini tahlil etish, muhokama etish; ilg'or pedagogik, ishlab chiqarish tajribalarini o'quv jarayoniga tadbiq etish, texnik vositalardan samaradorlik bilan foydalanish va boshqalarni amalga oshiradi.

Uslubiy komissiyalar o'z ishlarini istiqbolli tematik va ish rejaları asosida amalga oshiradi va bu rejalarda asosiy masalalar bo'lib quyidagilarni rejalashtirish zarur: yangi o'quv yiliga tayyorgarlik, imtihonlarga tayyorgarlik, o'quvchilar malakasini oshirish, metodik ko'rsatmalar ishlab chiqish, ma'ruzalar mavzularini aniqlash, referatlar tematikasini belgilash, tashkiliy tadbirlar, ochiq darslar, ta'lim, o'zaro darslar kirish va boshqalar.

## **O‘qituvchi va muhandis-pedagoglarning shaxsiy uslubiy ishlari (mustaqil) va uning mazmuni**

Muhandis-pedagogning maxoratini uning tinimsiz ishlash, maqsadga yo‘naltirilgan tizimli ijodiy mehnatining natijasidir. SHuning uchun ham o‘qituvchi agarda o‘z ustida ishlab bormasa, uning o‘qituvchilik xususiyati yo‘qolib boradi. Bu bo‘lmasligi uchun, ya‘ni u har doim o‘z fani mutaxassisligi bo‘yicha maxsus va pedagogik bilimlarini oshirib borishi kerak. Agarda, u o‘zining tajribasi bilan cheklanib qolsa ham bo‘lmaydi.

Pedagogik mahoratini oshirib borishning majburiy xarakteridan biri, o‘z pedagogik faoliyatiga ijodiy yondashishga va yangilikka intilib borishi kerak.

Pedagoglarning o‘quv tarbiyaviy jarayonidagi faoliyat va pedagogik mahoratini oshishi ko‘p jihatdan u ishlaydigan muhitga, jamoasining shakllanganligiga ham bog‘liq.

Kasb-hunar ta‘limi tizimida o‘qituvchilarning malakasini oshirish turlariga: malaka oshirish kurslari va o‘z ustida mustaqil ishlash (shaxsiy) kiradi. Bular o‘z navbatida uzviy bog‘langan.

O‘z ustida ishlashning eng yuqori shakliga o‘qituvchilarning ilmiy ishi kiradi.

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi o‘quv muassasalarida o‘quv tarbiyaviy jarayonni takomillashtirishni ko‘p jihatdan o‘qituvchilarning, injener-pedagoglarning o‘z ustida mustaqil ishlab o‘zlarining malakalarini oshirib borish bilan bog‘liqdir. Shuning uchun ham ta‘lim muassasalarida faoliyat ko‘rsatayotgan har bir xodimdan o‘z ustida mustaqil ishlash ish rejasi bo‘lishini talab qilinadi. Bu ish rejasi quyidagi bo‘limlardan iborat bo‘lishi qabul qilingan:

- I. Siyosiy-g‘oyaviy darajasini oshirib, siyosiy adabiyotlar, muammoli seminarlarda faol qatnashish, kuzatishlarda qatnashish.
- II. Pedagogik malakani oshirish, fanlar bo‘yicha ilmiy-amaliy, uslubiy adabiyotlarni o‘qish, dokladlar yozish, ochiq darslar o‘tkazish.
- III. Pedagogik bilim va uslubiy tayyorgarligini oshirish.
- IV. Ma‘naviyat va nafosat ko‘rsatkichlarini shakllantirish.

Mustaqil o‘z ustida ishlash va uslubiy ishlash asosan quyidagi to‘rt bo‘limdan iborat (tabl. 3)

1. G‘oyaviy-siyosiy ma‘rifiy darajasini oshirish
  2. Ilmiy-texnikaviy bilimlarni takomillashtirish
  3. Pedagogik bilimi va uslubiy tayyorgarligini oshirish
  4. Ma‘naviyat va nazorat ko‘rsatkichlarini shakllantirish
- Mustaqil ishlash orqali o‘z malakasini oshirishni yana boshqa turlaridan biriga seminarlarga, pedagogik o‘qishlarga, konferensiyalarda o‘z ilmiy natijalari, amaliy ish tajribasiga tayyorgarlik ko‘rish xisoblanadi.

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalarining **o‘quv metodik (pedagogika) xonasining** asosiy vazifalari:

- Ilg‘or pedagogik tajribaning targ‘ib qilinishini tashkil etish
- Umumta‘lim, maxsus va amaliy kasbiy ta‘lim o‘qituvchilariga pedagogik mahorat va o‘quv-tarbiyaviy faoliyat sifatini oshirishda yordam ko‘rsatish

- O‘quv-tarbiyaviy va metodik ishlar masalalari bo‘yicha materiallar to‘plash va ularni tartibga solish
- Kasb-hunar kollejida ilmiy-pedagogik axborotlar to‘plash
  - O‘quv metodika xonasining faoliyat mazmunini quyidagilar tashkil qiladi:
- Kasb-hunar kolleji xodimlarining o‘zaro pedagogik tajriba almashishi bo‘yicha seminarlar tashkil etish.
- Pedagogik va boshqa mavzularda ma‘ruzalar tashkil etish.
- Metodik ko‘rgazmalar tashkil etish.
- Pedagogik mashg‘ulotlar tashkil etish.
- Kasb-hunar kollejida pedagogik o‘qishlar tashkil etish.
- Umumta‘lim, maxsus fanlar va amaliy kasbiy ta‘lim o‘qituvchilari uchun pedagogik maslaatlarni tashkil etish.
- Pedagogik yangiliklar bo‘yicha konferensiyalar tashkil etish.
- Kasb-hunar kollejida muayyan mavzular bo‘yicha metodik ishlar yakuniga bag‘ishlangan konferensiyalar tashkil etish.
- Kasb-hunar kolleji xodimlarining pedagogik mehnat fidoiylari bilan uchrashuvlar tashkil etish.
  - O‘quv metodik xonasi quyidagilar bilan jihozlangan maqsadga muvofiq bo‘ladi:
- Namunaviy hamda ishchi o‘quv rejalar va dasturlar
- Rejalashtirish, hisobga olish va hisobot xujjatlarining namunalari
- O‘quv xonasi, laboratoriya va ustaxonalarni jihozlash me‘yorlari, kataloglar, ro‘yxatlar, pasport
- Me‘yoriy va yo‘riqli xujjatlar: nizomlar, ko‘rsatmalar, yo‘riqnomalar va hokazo
- Kasblar bo‘yicha o‘quv-ishlab chiqarish ishlari ro‘yxati
- Ilmiy pedagogik adabiyotlar, pedagogik jurnallar, gazetalar va boshqa davriy nashrlar
- Metodik ishlanmalar, o‘qituvchilarning ma‘ruzalar matnlari
- Yo‘riqlar va texnologik xaritalar to‘plami
- Nazariy va amaliy kasbiy ta‘lim fanlari bo‘yicha test topshiriqlari to‘plami
- O‘MKHT ilmiy va o‘quv metodik tashkilotlarining metodik tavsiyalari
- Ta‘limning «faol» shakllari va metodlaridan foydalanish bo‘yicha materiallar
- Darsliklar, o‘quv va metodik qo‘llanmalar, ma‘lumotnomalar.

### **Pedagogik mahorat ko‘rsatgichlari va mezonlari**

Amaliy faoliyatda amlga oshiriladigan pedagogik mahorat asoslari kasbiy etuklikning belgisidir, lekin uning darajasini pedagogik vazifalar qanday hal etilishi va pirovardida qaysi natijalarga erishilishidan ko‘rish mumkin.

Olimlar pedagogik mahoratni baholashning besh darajali tizimini taklif qiladi:

1-reproduktiv; pedagog boshqalarga o‘zi bilgan narsasini va o‘zi bilganicha gapirib bera oladi.

2-adaptiv; pedagog o‘zining ma‘lumotini faqatgina uzatib qolmay, ishlayotgan ob‘ektning xususiyatlariga muvofiq ravishda o‘zgartira oladi;

3-lokal-modellashtiruvchi; pedagog ma'lumotni faqat uzatib va muvofiq holda o'zgartiribgina qolmay, ayrim masalalar bo'yicha bilimlar tizimini modellashtirishi ham mumkin;

4-bilimlarni tizimli modellashtiruvchi; pedagog o'z fani yuzasidan bilimlar tizimini shakllantiruvchi faoliyat tizimini modellashtira oladi;

5-faoliyat tizimli-modellashtiruvchi; pedagog shunday faoliyat tizimini modellashtira oladiki, u o'z navbatida o'quvchilarda zarur xususiyatlarni shakllantiradi.

Pedagog o'quv ishlaridagi mahoratini quyidagicha (ballarda) baholash taklif etiladi.

6	5	4	3	2	1	0
<b>Juda</b>	<b>Yuqori</b>	<b>O'rtadan</b>	<b>Past</b>	<b>O'rtacha past</b>	<b>Past</b>	<b>Juda past</b>

Pedagog mahorati darajasining umumiy baholanishi biror mezonlarga tayanmaydi. «O'rtadan past» darajasi past bo'lganda «O'rtachadan yuqori» darajasi ham bo'lishi kerak, unda pedagog pedagogik mahorat darajasiga yaqinlashayotgan, lekin hali unga etmagan bo'ladi. Aftidan, bunday atama aniqroq bo'ladi, chunki bu darajalar ichida faqat ikkita yuqori daraja (beshinchi va oltinchi) pedagogik mahorat darajalari bo'ladi.

Kasbiy mahorat bu mahoratni o'quv-tarbiyaning hamma shakllarini tashkil qila olish, uni maqsadga qaratib shaxsni barkamolligi, dunyoqarashi kabilarni rivojlantirishga qarata olishdir.

Pedagogik mahorat murakkab tizimiga ega bo'lgan turidir. U o'z tartibini o'qituvchi shaxsning kompleks xususiyatlarini olib o'z kasbiy faoliyati darajasida o'zi tashkil qila olishdir.

Metodik ishlarni to'g'ri tashkil qilish pedagogik mahoratni oshirishning muhim vositasi.

Yuksak pedagogik mahoratga o'qituvchi o'sha vaqtda erishadiki, qachon umumpedagogik va metodik tayyorgarlikni ta'lim-tarbiyaga ijodiy yondashish, o'ziningkasbiy bilimlarini va ko'nikmalarini o'z faoliyatining doimiy tahlil qilish bilan qo'shib bora olsa.

### **Ma'ruzaga tayyorgarlik**

I. Ma'ruzaga yozish quyidagi strukturada bajariladi:

1. Ma'ruzaga yozishga tayyorgarlik: ma'ruza mavzusini tanlash
2. Pedagogik adabiyotlarni, turlari temaga oid o'qish
3. O'z materiallarini tartibga solish
4. Xulosalarni yozishni o'ylash, shakllantirish
5. Ma'ruzaning plan prospektini tuzish

II. Ma'ruzaning (maqola, broshyura) namunaviy tuzilishi.

1. Kirish qismi
2. O'quv tarbiyaviy jarayonning hozirgi ahvoli va uni takomillashtirish masalalari
3. Muammoning nazariya va amaliyotdagi holati
4. Mavzuning dolzarbligi

III. Asosiy nazariy va amaliy natijalar xususiyati.

1. Ta'lim tarbiya sifatini oshirish vositalarini tahlil etish va asoslash
2. Pedagogik vositalarni nazariy asoslash
3. Pedagogik tajribalar natijasida olingan natijalarni ko'rsatish (tablitsa, grafik, kompyuter)
4. Oldingi holatdan farqi
5. Izlanishdagi qiyinchiliklar
6. O'quv tarbiyaviy jarayonni takomillashtirishga oid yo'l-yo'riqlar

IV. Xulosa va takliflar.

Qilingan, olingan ish tajribalarini umumlashtirish, olingan natijalarini tadbiiq qilish bo'yicha tavsiya etish.

Jadval – 8

**Uslubiy ishlarning asosiy yo'nalishlari:**

1. O'quv jarayonini takomillashtirishning ilmiy asoslari
2. Muhandis-pedagoglarning pedagogik mahoratini rivojlantirish
3. \_\_\_\_\_

Oy, kun	Pedagogik kengashi	Instruktiv-uslubiy kengash	Ilmiy-amaliy konferensiya	Uslubiy komissiyalar							Ilg'or pedagogik tajribalar	Seminar-amaliyot	Pedagogik o'qishlar	Siyosiy o'qishlar	Eslatma
				Umum ta'lim fanlar	Gumanitar fanlar	Umum kasbiy fanlar	Mahsus fanlar	Ishlab chiqarish ta'limi	Ishlab chiqarish amaliyoti	Ochiq darslar					

**2001 / 2002 o‘quv yili uchun «Teriga ishlov berish» tayyorlov  
yo‘nalishidagi ishlab chiqarish ta‘limi bo‘yicha (muhandis-  
pedagoglar, ustalar) uslubiy komissiyasining  
ish rejasi**

**Mavzu: Darsni takomillashtirish**

T/R	Ish mazmuni	Ma’sul	Izoh
<b>Avqust</b>			
1	Me‘yoriy xujjatlar. Yangi o‘quv yildagi uslubiy komissiyaning vazifalari	Uslubiy komissiya raisi	
2	Yangi o‘quv rejalari, dasturlar, o‘quv dasturiy xujjatlarga o‘zgartirishlar kiritish	Pedagoglar, ustozlar	
3	Istiqbolli-tematik rejalarni ishlab chiqish va yo‘ldirish	Uslubiy komissiya	
4	Teriga ishlov berish bo‘yicha ustasi kasbi bo‘yicha ishlab chiqarish ishlari ro‘yxati muhokamasi	Katta ustoz	
<b>Sentyabr</b>			
1	Uslubiy komissiyaning yillik ish rejasini tasdiqlash	Uslubiy komissiya raisi	
2	Ustozlarning istiqbolli-tematik ish rejasini (yarim yillik) muhokamasi	Ustalar	
3	O‘z bilimini oshirish rejasini tasdiqlash	Uslubiy ko-missiya rejasi	
4	Ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganish va tadbiq etish rejasini tasdiqlash	Pedagoglar, ustalar	
<b>Oktyabr</b>			
1	Hozirgi zamon darslariga qo‘yiladigan talablar	<i>O‘quv ishlari bo‘yicha direktor muovini</i>	
2	Ishlab-chiqarish ta‘limi va maxsus fanlar bo‘yicha darslarda faol usullarni qo‘llash	Uslubiy komissiya raisi	
3	Ochiq darslar muhokamasi: 1. Tekis yuzalarga ishlov berish (Abbosov T.)	Pedagog	
<b>Noyabr</b>			
1	Maxsus texnologiya va ishlab chiqarish amaliyoti jarayonida iqtisodiy tarbiya	Uslubiy komissiya raisi	
	O‘quvchilarning kasbiy qiziqishlarini dars jarayonida o‘qitish	Pedagoglar	
	Texnik vositalarni nazariy va amaliy darslarda qo‘llash	Uslubiy komissiya raisi	



**«Ishlab chiqarish ta’limi» bo‘yicha muhandis-pedagog  
Turg‘unov T.ning o‘z bilimini oshirish va mustaqil uslubiy**

**ISHLAR REJASI**

T.r.	Ish mazmuni	Muddati	Izoh
I.	G‘oyaviy-siyosiy darajasini oshirish 1.1. I.A. Karimovning asarlarini o‘rganish 1.2. O‘quvchilarning umumta’lim va kkasbiy fanlar bo‘yicha bo‘limlarga qo‘yiladigan talablar (referat yozish) 1.3. Iqtisodiyot va siyosatga oid seminarlarda qatnashish	Sentyabr,      Iyun  Aprel   Har doim	
II.	Pedagogik malakasini oshirish		
	2.1. Darslarni takomillashtirishga oid adabiyotlar, o‘qish 2.2. . . . . . mavzu bo‘yicha ma’ruza tayyorlash 2.3. Ochiq dars o‘tkazish	Sentyabr, May  Fevral  Aprel	
III.	Fan bo‘yicha ilmiy-nazariy bilim darajasini oshirish		
	Raqobatdosh kadrlarni tayyorlash bo‘yicha uslubiy tavsiyalarni o‘rganish Ko‘rsatmali qo‘llanmalar tayyorlash	Y!il davomida  Mart	
VI.	Ma’naviyat va uslubiy darajasini oshirish		
	4.1. «Aqliy mehnat madaniyati» mavzusida suhbat o‘tkazish va x.k.	Oktyabr	

## Umumkasbiy fanlar bo'yicha uslubiy komissiya ish rejasi

Mavzu: Nazariy ta'lim darslarini takomillashtirish

T/r	Bajariladigan ishlar mazmuni	Bajarish muddati	Mas'ul
1	<b>1. Komissiyaning ish rejasi muhokamasi</b> 2. Kalendar-tematik rejalarini tasdiqlash	Sentyabr	Rais O'qituvchilar
2	1. Elektrotexnik fanlar bo'yicha ochiq darslar muhokamasi 2. Elektrotexnika bo'yicha metodik ishlanma muhokamasi «darsda texnik vositalari majmuasidan foydalanish»	Oktyabr	O'qituvchi Elektronika o'qituvchilari
3	1. Darslarga o'zaro kirish natijalari muhokamasi 2. Yangi o'quv uslubiy adabiyotlar muhokamasi 3. Test savollari muhokamasi va boshqalar	Dekabr	<b><i>O'qituvchilar ustalar</i></b> Kutibxonachi

### § 5.2. O'qituvchilar tayyorlashning yangi pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqish va o'quv-tarbiyaviy jarayonga tadbiiq etish muammolari

Ta'lim-inson faolligini belgilaydigan muhim bir tapmoqqa aylanmoqda. Shuning uchun ta'lim tizimida inson faoliyati bilan bog'liq ko'pgina muammolarni hal etish zarur. O'z-o'zidan ko'rini6 turibdiki, bu vazifalarni ilmiy texnika jarayonining o'zgarishi bilan bog'liq ta'limning yangi nazariyasini yaratish, ya'ni fanni jamiyatning ishlab chiqarish kuchiga aylantirish va amaliy ko'rsatkichlarini rivojlantirish natijasida amalga oshirish mumkin.

Respublikamizda ta'lim-tarbiya jarayoni bilan bog'liq o'zgarishlar ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, uni milliy ruh bilan sug'orish, samarali an'anaviy uslublarni saqlab qolgan holda yangilarni yaratish va amaliyotda qo'llash borasida olib borilayotgan ishlar bilan bog'liq. Bu yo'nalish keng qamrovli bo'lib, uning sohalari kengayib, mazmuni takomillashib bormoqda, ya'ni u ta'limda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash, ta'limning butun jarayonini aniq reja asosida tashkil qilish hamda o'quv jarayoning maqsadra muvofiq tashkil qilish hisobiga uni individuallashtirishni ko'zda tutadi.

“Pedagogik texnologiya” to'g'risida ko'plab tushunchalar mavjud bo'lib, ularning ba'zilarini keltirib o'tamiz.

Texnologiya-bu sa'nat, mahorat, ko'nikma, metodlar yig'indisi.

Texnologiya-bu inson faoliyati va tafakkuri bilan bog'liq bo'lgan madaniy tushuncha.

Texnologiya-bu texnik jixatdan ahamiyatli sifat va qobiliyatning intellektual qayta ishlanishi.

Texnologiya-bu qandaydir jarayonni amalga oshirish metodlari haqidagi bilimlar yig'indisi.

Texnologiya-bu o'quv jarayoniga tashkiliy, maqsadli pedagogik ta'sir o'tkazish natijasi.

Texnologiya-bu o'quv jarayonini amalga oshirish texnikasi.

Texnologiya-bu ta'lim maqsadiga erishishning kafolatlangan vositasi.

Texnologiya-bu rejalashtiriladigan natijalarga erishish jarayonining bayoni.

Texnologiya-bu amaliyotga joriy qilinishi kerak bo'lgan ma'lum bir pedagogik tizimning loyihasi.

YUNESKOning bergan ta'rifiga ko'ra: Pedagogik texnologi-inson va texnika resuslarini hisobga olgan holda butun ta'lim jarayonini va bilimlarini o'zlashtirishning baholashning tizimli metodi va samaraliroq ta'lim shakllariga erishish uchun ular o'rtasidagi o'zaro ta'siridir.

Kasbiy pedagogika "darsligida shunday tavsif beriladi: Pedagogika texnologiya-bu pedagogika fani va maktab amaliyotini rivojlantirishda uzvilikni saqlab qolgan holda pedagogika va metodikaning metodologik va intellektual vositalarini radikal ravishda yangilash.

Bizning fikrimizcha "pedagogik texnologiya" tushunchasi barcha boshqariluvchi tashkiliy qismlar va ularning bog'liqligi tahlil qilish, tanlash, loyihalash va nazorat qilish yo'li bilan pedagogik samaradorlikni yuqori darajaga ko'tarish hamda bu borada tizimli yondashuvni joriy etishni ifodalaydi. "Pedagogik texnologiya"ning ta'limidagi amaliylik hamda tashkiliy-uslubiy imkoniyatlarini amalga oshirishga yo'naltirilganligi, uning aniq vositalar yordamida hayotga tadbiiq etilishi butun jahon pedagoglarining unga e'tiborini kuchaytirmoqda. "Texnologik" yo'nalishga turlicha qarashlar mavjud, ba'zi pedagoglar "pedagogik texnologiya" da ta'limni differensiyalashtirish vositasini ko'rmoqdalar, boshqalarni undagi kim mehnat sarflab yuqori natijalarga erishish imkoniyatlari, "pedagogik texnologiya" ni barcha ta'lim oluvchilarni oldindan belgilangan bilim, ko'nikma va malakalar darajasiga etkazish mumkinligi qiziqirtirmoqda. Ba'zi pedagoglar ta'limini "texnologiya" lashtirish yordamida ommaviy ta'lim amaliyotida tub burilish yasashga umid bog'lagan edilar.

Pedagog texnologiyani amalga oshirishning umumlashgan ketma-ketligini quydagicha amalga oshirilishi maqadra muvofiq bo'ladi (biz tajriba ishlarini amalga oshirishda undan uslubiy asos sifatida foydlanganmiz):

-talabalarining istiqboldagi faoliyatini tahlil qilish, ta'lim jarayonida hal qilinishi lozim bo'lgan maqad va vazifalarni belgilash;

-umummehnat va kasbiy malakarni rivojlantirishda ta'lim vositalarini qo'llashga oid ta'lim uslubi mazmuni ishlab chiqish;

-oliy o'quv yurlari o'quv dasturlarida talabalar tomonidan ta'lim vositalaridan foydalanish texnologiyasini o'zlashtirishlari uchun vaqt mezonini belgilash;

-talabalarda ko'nikma va malakarni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar tizimini ishlab chiqish;

-talabalarda bilim ko'nikma va malakalarning sifatini nazorat qilish bilan bog'liq ob'ektiv nazorat o'tkazish va testlar tizimini ishlab chiqish;

-ishlab chiqilgan "pedagogik texnologiya" ni amalda sinash va uni o'quv jarayoniga tatbiq chiqish;

Keltirilgan bosqichlarning tavsifi amalda o'qituvchi faoliyatining davriy algoritmini ifodalaydi va ularning mos ravishda maqsadlar, aniq nazorat usullari butun ta'lim jarayonini qamrab oladi. Ushbu jarayon standartlashtirilgan ta'lim maqsadi asosida pedagogik tizim vositasida amalga oshiriladi.

Bundan kelib chiqib aytish mumkinki pedagogika fanidan hap qanday pedagogik texnologiya asosini tizim tashkil etadi. Bunday pedagogik texnologiyani rejalashtirilgan samarasi uning qanday tizimlashtirilganligi va tuzilishiga bog'liq:

Pedagogik tizim tushunchasi ko'plab pedagog olimlar tomonidan tahlil qilingan bo'lib, 80-yillar oxirigacha aniq bir to'xtamga kelinmagan.

Pedagogika tizim tushunchasi va uni tashkil etuvchi variant elementlarini birinchi bo'lib akademik V.P.Bespalko asoslab berdi.

V.P.Bespalko ta'rifi bo'yicha "Pedagogik tizim (PT) deganda ma'lum sifatlarga ega bo'lgan shaxsni shakllantirishga aniq maqsadli tashkiliy pedagogik ta'sir ko'rsatish uchun talab etiladigan o'zaro bog'langan uslub, vosita va jarayon majmuasi tushuniladi" [23]. Jamiyatning ustuvor qadriyatlari shaxs shakllanishiga qo'yiladigan talablar va uning maqsadini belgilab beradi.

Pedagogik texnologiya yaratilish bosqichlari akademik V.P.Bespalko tomonidan asoslangan bo'lib [23], U ta'lim turi hamda tadbiiq qilinishdagi shakli, darslik, metodik tavsiyanoma, EHM dasturlaridan qat'iy nazar umumiy hisoblanadi. Shu asosda biz pedagogik texnologiyani loyihalashni quyidagi bosqichlarda amalga oshirdik (4-shakl):

**-birinchi bosqichda** kasb ta'limi fakulteti talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyatini tahlil qilindi.

Ushbu tahlilda talaba faoliyati istiqbolini qamrab olgan kelajak faoliyatida duch keladigan vazifalar aniqlab olindi.

**-ikkinchi bosqichda** umummehnat va kasbiy ko'nikma hamda malakarni rivojlantirishning psixofiziologik asoslari; o'qituvchilar tayyorlashning yangi pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqildi va ta'limning hap bir davri uchun uning mazmuni aniqlab berildi.

**-uchinchi bosqichda** umummehnat va kasbiy ko'nikma hamda malakarning tarkibiy qismlari, shakllantirish jarayoni; malaka kuchishi va moslashuvchanligi xususiyatlari, umummehnat va kasbiy ko'nikma hamda malakalarni rivojlantirish jarayonida ta'lim vositalarini qo'llash texnologiyasi ishlab chiqildi;

**-to'rtinchi bosqichda** umummehnat va kasbiy ko'nikma hamda malakarni rivojlantirish didaktik jarayonining eng muvofiq ta'lim shakllari aniqlandi. Uning natijasi ko'nikma va malakalarni rivojlantirish pedagogik tizimida o'qituvchi va talaba munosabatlari mazmuni ishlab chiqildi;

**-beshinchi bosqichda** umummehnat va kasbiy malakalarni qo'llashga oid ta'lim metodi mazmuni ishlab chiqildi, uning natijasi sifatida umummehnat

ko'nikma va malakarni rivojlantirish jarayonida trenjerlardan foydalanish texnologiyasi yaratildi;

**-oltinchi bosqichda** ta'lim maqsadi asosida ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar tizimi ishlab chiqildi hamda o'qyv qo'llanmalari mazmuni bilan umumlashtirildi, natijalar belgilangan ko'rsatkichlari darajasida ta'lim jarayoniga tadbiiq etildi;

**-yettinchi bosqichda**-o'zlashtirish darajasini baholash mezonlariga va ta'lim maqsadlariga mos keluvchi talabalarning bilim va ko'nikmalarini aniq nazorat qilish bilan bog'liq kuzatishlar o'tkazildi va testlar ishlab chiqildi.

**-sakkizinchi bosqichda** ta'lim maqsadlariga erishish imkonini beruvchi o'quv mashg'ulotlarining tuzilmasi va mazmuni shakllantirildi hamda talabalarning umummehnat va kasbiy ko'nikma hamda malakalarini rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar majmuasi ishlab chiqildi;

**-to'qqizinchi bosqichda** umummehnat va kasbiy ko'nikma hamda malakarni rivojlanganlik darajasini baholashning ko'rsatkich va mezonlari tajribasnov ishalari asosida sinab ko'riladi va ta'lim jarayonining yakunlanganlik darajasi ( $K > 0,7$  ko'rsatkichga erishish maqsadida) tekshirildi. Bosqich natijasida loyihaga tegishli tuzatishlar kiritildi.

Ko'nikma va malakalarni faoliyat tavsifiga ko'ra tasniflash mumkin (5-shakl). Misol uchun, bir guruhni intellektual ko'nikma (eshitish qobiliyati, kitob bilan ishlash, insho yozish, reja tuzish, o'z ishini rejalashtirish, uni qulay tashkil etish) va malakalar (yozuv savotxonligi, ifodasi o'qish) tashkil qiladi. Ikkinchi gypuhga mehnat ko'nikmalari (chizmalar bo'yicha buyum yasay olish) va alohida avtomatlashgan mehnat operatsiyalari (arralash, qirqish, randalash, kesish malakalari) kiradi. Bu gypuhga hapakat va konstruktiv texnik ko'nikma va malakalar kiradi, bunda ikkinchisi hamma vaqt asbob va mashinalar bilan ishlashga bog'liq bo'ladi.

Uchinchi guruhni jismoniy tarbiya va sport ko'nikmalari (jismoniy tarbiya mashqlarini bajara olish) va malakalar (sakrash, suzish, arqonga chiqish) tashkil qiladi. Odatda gigienik ko'nikma va malakalarni ham alohida gypuh sifatida qaraladi.

Bundan tashqari malakalar murakkablik va avtomatlashganlik darajalariga ko'ra ham farqlanadi.

## **KASBIY TA'LIMNING METODOLOGIK ASOSLARI FANIDAN NAZORAT SAVOLLARI**

### **§ 1.1. bo'yicha**

- Kadrlar tayyorlash milliy dasturining maqsadi va vazifalari
- Kadrlar tayyorlash milliy dasturi mohiyati
- Kadrlar tayyorlash miliy modelining tarkibiy qismlari
- Uzluksiz ta'limning mohiyati
- O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi mazmuni
- Kasb-hunar kollejlari va ularning tayyorlov sohalari
- Kasb-hunar kollejlari tashkil etish va rivojlantirish shart-sharoitlari
- Kadrlar tayyorlash milliy dasturida II bosqichida kasb-hunar ta'limi rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari

### **§ 1.2. bo'yicha**

- Davlat ta'lim standartlarining maqsad va vazifalari.
- Davlat ta'lim standartlarining vazifalari:
- Ta'limning standartlashtiriladigan turlari.
- Ta'limning standartlashtirish ob'ektlari.
- Davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqishga qo'yiladigan talablar
- O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi standartlari davlat tizimi
- O'MKHT standartlarining joriy etilishi quyidagi maqsadlar amalga oshirilishini nazarda tutadi:
- O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi davlat ta'lim standartlarining vazifalari:
- O'MKHT ni standartlashtirish tamoyillari:
- O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi sifatini nazorat qilish
- O'MKHT tayyorlov yo'nalishlari kasblar va ixtisosliklar tarmoq standartlarini ishlab chiqish
- Tarmoq ta'lim standartlarini ishlab chiqish bosqichlari
- O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tayyorlov yo'nalishlari bo'yicha o'quv reja va dasturlarni ishlab chiqish asoslari
- O'quv dasturlarni ishlab chiqish

### **§ 1.3. bo'yicha**

- Umumdavlat tasniflagichining qo'llanish sohasi
- Kichik mutaxassis
- Kichik mutaxassislar quyidagi vazifalarni
- Tasniflagichda nechta bilim sohasi nazarda tutilgan?
- Tasniflagichda qanday vazifalarni hal etishda foydalanish mumkin?
- Tasniflagichiga qanday tartibda o'zgartirishlar kiritiladi?

### **§ 2.1. bo'yicha**

- Asosiy tushuncha va qoidalar
- «Ishlab chiqarish ta'limi» tushunchasining mazmuni
- Ishlab chiqarish ta'lim va nazariysining asosiy muammolari
- Ishlab chiqarish va nazariy ta'limning metodik asoslari

- Ishlab chiqarish ta'limi tizimi va shakllari
- Ishlab chiqarish va ishlab chiqarish ta'limi

### **§ 2.2. bo'yicha**

- Pedagogikada ishlab chiqarish ta'limining tashkiliy shakllari muammosi.
- Ishlab chiqarish ta'limining ba'zi tushunchalari.
- Ishlab chiqarish ta'limining tashkiliy shakllari tipologiyasi.
- Ishlab chiqarish ta'limining shakllari.
- Ishlab chiqarish amaliyotida bajariladigan ishlar.

### **§ 2.3. bo'yicha**

- Mashg'ulotlarni rejalashtirish va unga tayyorgarlik ko'rish
- Kasb bo'yicha o'quv ishlab chiqarish ishlarining ruyxati
- O'quv-ishlab chiqarish ishlarini tanlashda quyidagi talablarga amal qilish zarur:
  - 2. Guruhning 1-oylik o'quv ishlab chiqarish ta'limi ish rejasi
  - Ishlab chiqarish ta'limida istiqbolli tematik reja
  - Ishlab chiqarish ta'limi darsi rejasi
  - Nazariy ta'lim darsining rejasi
  - Kasbiy ta'lim o'qituvchilarning mashg'ulotlariga tayyorlash
  - Kasbiy ta'lim o'qituvchisining o'quv yiliga tayyorgarligi
  - Kasbiy ta'lim o'qituvchisining mavzuni o'rganishga tayyorgarligi
  - Amaliy kasbiy ta'lim o'qituvchisining darsga tayyorgarligi

### **§ 3.1. bo'yicha**

- Pedagogikada ishlab chiqarish ta'limining tashkiliy shakllari muammosi.
- Ishlab chiqarish ta'limining ba'zi tushunchalari.
- Ishlab chiqarish ta'limining tashkiliy shakllari tipologiyasi.
- Ishlab chiqarish ta'limining shakllari.
- Ishlab chiqarish amaliyotida bajariladigan ishlar.

### **§ 3.2. bo'yicha**

- Jarayon deb nimaga aytiladi?
- Ta'lim jarayoni bevosita quyidagilar bilan bog'liq:
  - O'qitish usuli
  - Ta'lim usullari tizimini quyidagi belgilari bo'yicha guruhlarga bo'lish mumkin.
  - Ta'lim usullari guruhi mohiyati va mazmuni
  - Suhbat, bahs, miyaga hujum, ishbilarmonlik o'yini.
  - Muammoli vazifalar usuli, individual (amaliy) usul, loyihalar usuli.
  - Ta'lim usullarini tanlash

### **§ 3.3. bo'yicha**

- Dars va uning turlari.
- Darslarga qo'yiladigan talablar.
- Zamonaviy darsning maqsadlari
- O'quvchilarning o'quv, bilim faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish metodlari.

- Nazariy o‘qitish dasturlari.
- Ishlab chiqarish ta’limi dasturi.
- Dasturning strukturali komponenti.
- Fanlararo aloqadorligidan foydalanish.
- Darslarni tashkil qilish va o‘tkazishdagi kamchiliklar.

#### **§ 4.1. bo‘yicha**

- Didaktik prinsiplar
- Ta’limni ilmiy asosda tashkil etish prinsipi
- Ta’limning tarbiyaviy xarakteri
- Ko‘rgazmalilik prinsipi
- Malakalarni puxta o‘zlashtirish prinsipi
- Har bir dars qanday talablarga javob berishi kerak:
- Didaktik maqsadlar bo‘yicha darsning nechta turi mavjud?
- An’anaviy o‘qitish metodlari
- Faol o‘qitish metodidan quyidagicha foydalaniladi:

#### **§ 4.2. bo‘yicha**

- O‘quv ustaxonasi haqida umumiy ma’lumotlar.
- O‘quvchining ish o‘rnining asosiy tarkibiy qismlari:
- Amaliy kasbiy ta’lim o‘qituvchisining ish o‘rni
- Amaliy kasbiy ta’limning majmuaviy metodik ta’minoti mazmuni
- O‘quv ustaxonasida dars. O‘quv ustaxonasidagi darslarning maqsadi.
- Ishlab chiqarish ta’limi darsining tarkibi
- Kirish instruktaji.
- O‘quvchilarni mashqlari.
- Joriy instruktaj
- Yakunlovchi instruktaj
- Yakka tartibda joriy instruktaj berish
- Jamoaga joriy instruktaj berish

#### **§ 4.3. bo‘yicha**

- Ishlab chiqarish amliyoti vazifalari.
- Ishlab chiqarish ustasining amaliyotga tayyorgarlik.
- Ishlab chiqarish amaliyoti dasturini ishlab chiqish.
- Ishlab chiqarish amaliyotini o‘tkazish.
- Ishlab chiqarish amaliyoti hisoboti.

#### **§ 4.4. bo‘yicha**

- Bilim, malaka va ko‘nikma, qobiliyat.
- Bilim, malaka va ko‘nikmalarni nazorat qilish va baholash.
- O‘quvchilar faoliyatini baholash usullari.
- Ishlab chiqarish ishlarini nazorat qilish uslubiyoti va tashkil qilish.
- Ishlab chiqarish amaliyotining reyoting usulida baholash.

#### **§ 4.5. bo‘yicha**



- O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limida ta’lim sifati monitoringining maqsad va vazifalari
- «Monitoring» tushunchasiga ta’rif bering?
- Ta’lim sifati monitoringi qaysi vazifalar bilan xarakterlanadi?
- O‘MKHT tizimida ta’lim sifati monitoringini kelgusida ishlab chiqarish va amalga joriy etish uchun qanday masalalarni majmuaviy echimini topish talab etiladi:
- Kasb-hunar ta’limida ta’lim sifati monitoring va modeli
- Ta’lim sifati mezonlari
- Ta’lim sifati pedagogik monitoring texnologiyasi
- Pedagogik monitoring texnologiyasi:
- Monitoringning tashkiliy- texnik ta’minlanganligi:

### **§ 5.1. bo‘yicha**

- Uslubiy ishlarning ilmiy asoslari
- Pedagogik mahorat va uning tarkibiy qismlari
- Uslubiy ishlar mazmuni
- Jamoaviy uslubiy ishlar
- Shaxsiy uslubiy ishlar
- Pedagogik mahorat ko‘rsatgichlari va mezonlari
- Ma’ruzaga tayyorgarlik

### **§ 5.2. bo‘yicha**

- “Pedagogik texnologiya” tushunchasini ta’riflang?
- Pedagog texnologiyani amalga oshirishning umumlashgan ketma-ketligini qanday?
- Pedagogika tizim tushunchasiga ta’rif bering?

## Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni. T.: 1997. y.
2. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". T.: 1997 y.
3. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. 29-avgust 1997 y.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 5-yanvardagi "Uzluksiz ta'li tizimi uchun davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to'g'risida" gi 5 sonli qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 13 – maydagi "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 204 sonli qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 16 oktyabrdagi «O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'rsida» gi 400-sonli qarori.
7. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tayyorlov yo'nalishlari kasb va ixtisosliklar umumdavlatasniflagichi. -T.: 2002, 2004.
8. Abdullaev A.X. Ametov A.K. Kadrlar tayyorlash miliy dasturi falsafasi, davlat ta'lim standartlarini o'rganish bo'yicha" o'quv qo'llanma. -T.: 2003.
9. Abdullaev A.X., Dexkambaeva Z. «O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tayyorlov yo'nalishlari bo'yicha tarmoq ta'lim standartlarini ishlab chiqish» uslubiy qo'llanma. -T.: 2000.
10. Abdullaev A.X Dexkambaeva Z. «O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tarmoq ta'lim standartlarini ekspert baholash» uslubiy qo'llanma. -T.: 2001
11. Shaperinskiy S.A. Voprosi terii proizvodstvennogo obucheniya M: 1981.
12. Metodicheskiy osnovi prepodovaniya mashinostraitelnix dissiplin M: 1981.
13. Skakun V.A. ishlab chiqarish ta'limi ustalari uchun qo'llanma-T: 1995.
14. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi standartlashtirish tizimini belgilovchi asosiy atama va ta'riflar. Kasb-hunar ta'limi 5 nashr 2001.
15. A.I. Vaynatovskiy. Organzatsionnye formi proizvodstvennogo obucheniya v uchebnyx zavedeniyax proftebrozovaniya. – M: 1990
16. B.A.Sokolov Metodicheskie osnovi prepodovaniya mashinostroitelnix dissiplin. – M: 1981
17. Abduhaliqov T. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida ta'lim sifati monitoringini tashkillashtirish ilmiy-pedagogik asoslari. Nomzodlik dissertatsiyasi.-T.: O'MKHTRI,2003
18. Abduhaliqov T. Kasb-hunar ta'limida ta'lim sifati monitoringi.-T.:MRI,2003.
19. Daujanova T. Kasb-hunar ta'lim muassasalarida tajriba-sinov ishlari monitoringi». Kasb-hunar ta'limi» ilmiy-metodik jurnal. 2000, №9.
20. Mayorov A.N. Monitoring v obrazovatelnom SPb.: obrazovaniya-kultura,1998.
21. Pedagogicheskiy monitoring: proektirovanie i realizatsiya.-T.: IRSSPO, 2001

## Mundarija

Kirish .....	3
<b>I-BOB</b>	<b>KASB TA'LIMINI AMALGA OSHIRISH ASOSLARI</b>
§ 1.1. O'zbekistonda ta'lim islohotlari, kasb-hunar ta'limini rivojlantirish istiqbollari .....	6
§ 1.2. Uzlüksiz ta'limni standartlashtirish asoslari .....	14
§ 1.3. O'MKHT midagi tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklar umumdavlat tasniflagichi .....	31
<b>II-BOB</b>	<b>KASB TA'LIMIDA ISHLAB CHIQRISH TA'LIMI ASOSLARI</b>
§ 2.1. Ishlab chiqarish ta'limining umumiy masalalari .....	38
§ 2.2. Ishlab chiqarish ta'limining tashkiliy shakllari.....	45
§ 2.3. Ishlab chiqarish ta'limini rejalashtirish .....	51
<b>III-BOB</b>	<b>KASBIY TA'LIMDA O'QITISHNI TASHKIL QILISH ASOSLARI</b>
§ 3.1. Pedagogikada o'qitish metodlarining asosiy masalalari.....	62
§ 3.2. Kasbiy ta'limda faol o'qitish usullari mazmunini tanlash, amalga oshirish .....	75
§ 3.3. Kasb-hunar ta'limi o'quv muassasalarida zamonaviy darsga qo'yiladigan talablar .....	88
<b>IV-BOB</b>	<b>KASBIY TA'LIMDA O'QUV MASHG'ULOTLARINI TASHKIL QILISH VA O'TKAZISH METODIKASI</b>
§ 4.1. Laboratoriya-amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish metodikasi .....	100
§ 4.2. O'quv ustaxonasida darsni tashkil qilish va o'tkazish metodikasi .....	113
§ 4.3. O'quvchilarning ishlab chiqarish amaliyotini tashkil qilish va o'tkazish .....	123
§ 4.4. O'quvchilarni bilim, malaka ko'nikmalarini nazorat qilish va baholash usullari .....	127
§ 4.5. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida ta'lim sifati monitoringini tashkillashtirish .....	142
<b>V-BOB</b>	<b>MEHNAT VA KASB TA'LIMI O'QITUVCHILARINING PEDAGOGIK MAHORATINI OSHIRISH USULLARI</b>
§ 5.1. Pedagogik mahorat manbalari va uslubiy ishlarni tashkil qilish .....	152
§ 5.2. O'qituvchilar tayyorlashning yangi pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqish va o'quv-tarbiyaviy jarayonga tadbiq etish muammolari .....	167
Kasb ta'limining metodologik asoslari bo'yicha nazorat savollari .....	173
Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati .....	177